O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI

# SHARQ VA G‘ARB MA’NAVIYATI FANIDAN O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Bilim sohasi:** **1000000 - Ta’lim**

**Ta’lim sohasi :** **100000 - Ta’lim**

**Ta’lim yo‘nalish:** 70112101– **Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari)**

**Shahrisabz – 2024**

**Fanning ishchi o'quv dasturi Shahrisabz davlat pedagogika instituti kengashi qaroriga muvofiq 2024 - yil "30" __08__ dagi 1 – sonli bayoni bilan tasdiqlangan "SHARQ VA G'ARB MA'NAVIYATI" o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi**

**Tuzuvchi:** **B.Omonov**

**Taqrizchi:** **G.Ochilova**

**Fannning o'quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti kengashining 2024_ yil "___" dagi "___" sonli bayoni bilan tasdiqlangan**

**Fakultet dekani:** **E.Tilayev**

**Fannning o'quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi kengashining 2024_ yil "__" dagi "___" sonli bayoni bilan tasdiqlangan**

**Kafedra mudiri:** ______________**B.Omonov**

**MUNDARIJA**

1. O‘quv materiallari:

a) Ma’ruza matnlari………………………………… …4 -124

b) Seminar mashg‘ulotlari…………………………….128-134

2. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari……………………………

3. Glossariy……………………………………………..212-217

4. Ilovalar:……………………………………………………

a) Fan dasturi……………………………(alohida sahifalangan)

b) Ishchi fan dasturi……………………..(alohida sahifalangan)

d) Testlar…………………………………………….141-212

g) Baholash mezonlari………………………………………

e) O‘UMning elektron varianti …………………………......

# “SHARQ VA G‘ARB MA’NAVIYATI”FANIDAN
# MA’RUZALAR MATNI

## 1-mavzu: SHARQ VA G‘ARB MA’NAVIYATI: ULARDA UZVIYLIK VA TAFOVUT FANINING PREDMETI VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

**REJA:**

1 . Ma’naviyat fenomen sifatida.
2. Sharq va G‘arb ma’naviyatidagi umumiylik va alohidalik.
3. Sharq va G‘arb ma’naviyatini tadqiq qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Sharq va G‘arb ma’naviyatidagi uyg‘unlik va xozirgi zamon sivilizatsiyasining taqdiri.

Biz yashayotgan davr tom mazmuni bilan o‘ziga xos tarixiy mazmun bilan qondirilgan davrdir. Tarixda hamisha bo‘lib turgan kuchli ijtimoiy zidsiyatlardan tashqari bugungi kunda fundamental harakterga ega bo‘lgan jarayon - tafakkur hamda dunyoqarash tarkibining ildizlarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Planetaning barcha xalqlari va millatlari turmushiga oid bo‘lgan madaniyat va ma’naviyat bir butunlik tomon intilmokda. Ayni vaqtda ularning har birida o‘z "men"ligi tobora chuqur mazmunga ega bo‘lmokda. Bunday murakkab jarayonda jahon xalqlarining taqdirlari hal bo‘lmokda. Shuning uchun ham ushbu jarayon jiddiy falsafiy tahlilni talab qiladi. Bunday tahlilning debochasi Sharq va G‘arb falsafasi, ular o‘rtasidagi uyg‘unlik hamda ularning har birining o‘ziga xosligi, ularning har birining kichik yoki katta siyosatga ta’siri, kishilik takdirini oldindan ko‘ra bilishga bo‘lgan ko‘magi hisoblanadi.

Umuman, insoniyat sivilizatsiyasi haqida gal ketganda Sharq va G‘arb haqida, ular o‘rtasidagi tub farklar haqida gal ham bo‘lishi mumkin emas. Hatto Qadimgi Grek madaniyati shakllana boshlagan davrlarda ham ular o‘rtasidagi farqni ko‘rish mumkin bo‘lmagan. Faqat Ellin madaniyati, keyinchalik Rim madaniyatining vujudga kelishi ma’lum darajada G‘arbni Sharqdan ajratish va ularning o‘ziga xos farqlarini ko‘rsatish imkonini berdi. Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa qilgan yurishi, Markaziy Osiyoda Grek-Baqtriya davlatining shakllanishi, grek va xind yozuvlari o‘rtasida uyg‘unlikning vujudga kelishi ayni vaqtda G‘arb va Sharq madaniyatining birligini ko‘rsatdi. Bu birlikda biz o‘ziga xos Sharq madaniyatining sintezi hisoblangan grek madaniyatining, san’atining, fanining Sharq mamlakatlariga kirib kelishini ko‘rsak, ikkinchi tomondan Makedonskiy yurishlari orqali qadimgi va boy Sharq madaniyati, sivilizatsiyasining G‘arbga keng miqyosda singib borishini ham ko‘ramiz.

Sharq ma’naviyatidan biri bo‘lgan indiudaizmning xristianlikka ko‘rsatgan ta’siri natijasida Sharq madaniyatining Yevropa xalqlari turmush tarziga kirib borishi va ular hayotida muhim qadriyat rolini o‘ynashi ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan jarayondir.

O‘sha davrlardagi iqtisodiy va madaniy munosabatlarning chuqurlashuvi Ipak yo‘liga o‘xshash savdo yo‘llarini qaror toptirdi. Bu yo‘llar ayni vaqtda Sharq va G‘arb davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning integratoriga aylandi. TTTu yo‘llar orqali bir halqning madaniyati, san’ati va fan yutuqlari boshqa xalqlar hayotiga ham kirib bordi. Iqtisodiy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashishi ayni vaqtda o‘sha davr mezoniga ko‘ra ma’lum bir ma’naviy birlikni vujudga keltirdi.

Sharq va G‘arb o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va ta’sir islom dinining shakllanishi va rivojlanishi bilan o‘ziga xos bir davrni yaratdi. Islom dini haqida so‘z ketganda so‘zsiz bu madaniyat o‘zigacha bo‘lgan ko‘plab madaniyatlarning sintezi ekanligini yodimizdan chiqarmaymiz. Islomning Shimoliy Afrika, Yevropaga (Ispaniya) tarqalishi o‘ziga xos bir tarixiy fenomen edi.

O‘rta asrlar Sharqi va G‘arbi ma’naviy uyg‘unligi o‘ziga xos zaruriyat sifatida shunday shaxslarni ham yaratdiki, ular bir yo‘la bir necha qit’alarni birlashtira oldi. Masalan, buyuk ispan faylasufi Ibn Rushd nafaqat buyuk faylasuf, balki u Afrika va Yevropani, Osiyo va Yevropani, xristianlik va islomni bir-biriga bog‘lagan ko‘priqdir. Bundan tashqari Ibn Rushd tufayli Yevropa o‘zini-o‘zi qayta tanidi. U buyuk grek faylasuflarining asarlarini arab tilidan ispan tiliga tarjima

qilishi bilan Yevropa xalqlarini grek madaniyatining gultoji boʻlgan Platon va Aristotel falsafasi bilan tanishtirdi. Ibn Rushd deganimiz, Avveroesning aynan oʻzidir. Avveroizmda esa ilmi aqliyaning choʻgʻlari ilk bor yalligʻlanib koʻzga tashlanadi. Bu ilmi aqliya keyinchalik Dekart, Spinoza, Leybnits kabi buyuk aql egalarining yetishib chiqishiga sabab boʻldi. Ular tafakkurning yangi qatlamlarini kashf etdilar. Bu qatlamlarda biz yangi zamon deb atalgan davrning iqtisodiy hayotdagi, ijtimoiy turmushdagi, siyosiy soxalardagi yangi hodisalari oʻz intixosini topgan edi.

Arablarning Oʻrta Osiyoni bosib olishi, Oʻrta Osiyoda islom dinining yoyilishi, Sharq xalqlari madaniyatining oʻzaro yaqinlashuvida va bu yaqinlashuv orqali Sharqning Gʻarb bilan alokadorliganing kuchayishida muhim bosqich rolini oʻynadi. Bu davrning jahon ma’naviyati taraqqiyotidagi rolini koʻrsatish uchun bir tarixiy lavhaning oʻzi kifoyadir. Mana Jomiyning Iskandar haqidagi dostoni, unda muallif kelgusida buyuk fotih boʻlib yetishuvchi Iskandarning ustozi Arastu haqida hikoya qiladi. Bayon qilinishicha Iskandar ustozining qoʻlida Yevklid bilan Ptolomey ta’limotini oʻrgangan. Keyin esa oʻsha dostonning oʻzida "Xiradnomai Arastu", "Xiradnomai Aflotun", "Xiradnomai Suqrot", "Xiradnomai Bukrot", "Xiradnomai Pifagor", "Xiradnomai Isklinos", "Xiradnomai Germes" boblarini mutolaa etasiz. Yoki mana Nizomiyning dostoni. Unda ham" Iskandar huzurida boʻlgan munozara haqida hikoya qilinadi. Munozara samo va zaminning yaratilishi haqida boradi. Bu munoazarada Arastu, Fales, Alpalona Tianskiy, Sukrot Porfiriy, Germes Tirismegist, Aflotun ishtirok etadi. Shoir yuqorida keltirilgan nomlarni jiddiy xronologiya asosida bergan. Bu nomlarning asarda keltirilishi yozuvchi dunyoqarashi va davri bilan uzviy bogʻlangan: Chunki Jomiy va Nizomiy ijodida qadimgi yunon falsafasi va fanining buyuk namoyondalari qaytadan tugʻilish. Biroq bu qiyofalar oʻzga zamon, oʻzga odamlar, oʻzgacha fikr tizimi uchungina yangi haqiqatdir.

Biz bunday tarixiy ekskursiyani davom ettirishimiz mumkin. Kishilik tarixi shu darajada boyki, undan biz uni yanada boyitadigan mohiyat birligiga ega boʻlgan umumiyliklarni koʻplab topishimiz mumkin. Mazkur umumiyliklar ma’lum darajada falsafiy ta’limotlarda oʻz ifodasini topgan. Bu falsafa tarixining predmeti hisoblanadi. Chunki, falsafiy tafakkurni tiklash va takomillashtirish, uni baholash u kishilikning jonli ma’naviy qalbini tiklash hisoblanadi. Ayni vaqtda falsafa tarixi falsafiy bilimlarning mavjudlik usuli hamdir. Chunki, har bir tarixiy davr, u aniq boʻladimi, oʻrta asrlar boʻladimi, yoki hozirgi davr boʻladimi, har bir davr oʻz mantigʻiga, oʻz falsafiy sistemasiga va oʻziga xos dunyoqarashiga ega boʻladi. Bundan tashqari falsafa tarixi har bir tarixiy davrda dunyoga yaxlit bir butun borliq sifatida qarash va unda insonning oʻrnini belgilash, ifodalash toʻgʻrisidagi bilim shaklida ham koʻrinadi. Bundan tashqari falsafiy tafakkur kategorial tafakkur sifatida ham shakllanish tarixiga egadir. Bu jarayon soʻzsiz har bir tarixiy davrning yetuklik darajasi bilan uzviy bogʻlikdir. Mazkur xodisalarni biz Sharq va Gʻarb falsafasida oʻziga xos tarzda shakllanganligini va mavjud boʻlganligini koʻramiz.

Ushbu masalalarga baxo berishda biz bir qator tamoyillardan kelib chiqamiz. Ular jumlasiga falsafiy ta’limotlarning obyektiv mazmunini ularning subyektiv shaklidan ajratish, insoniyat falsafasi taraqqiyoti birligi tamoyili, falsafaning bosqichma-bosqich rivojlanishi, tarixiylik kabilar hisoblanadi. Bundan tashqari Sharq va Gʻarb falsafasini tatbiq qilishda mantiqiylik, tarixiylik, sotsiologik, qiyosiy-tarixiy metodlarning roli benihoya kattadir.

Shu oʻrinda Sharq va Gʻarb falsafasi va uning evolyutsiyasini tahlil qilishdan oldin falsafaning fan ekanligi haqida ham toʻxtalib oʻtaylik.

Falsafa ilmi milliy, ayni vaqtda umuminsoniy qadriyatdir. Mazkur qadriyat inson oʻzini-oʻzi inson sifatida tanigan kunidan boshlab takomillashib, rivojlanib, chuqurlashib, murakkablashib, ilmiylashib va tobora insoniylashib borayotgan fandir.

Falsafaning oʻzi bir dunyoqarashdir, odamning dunyoga boʻlgan qarashlarining yigʻindisidir. Dunyoqarashning mifologik, diniy, ilmiy, siyosiy, badiiy, kundalik turmushga nisbatan boʻlgan shakllari mavjud. Falsafa dunyoqarashlarning boshqa shakllaridan shu bilan farq qiladiki, u eng avvalo ijtimoiy ongning ilmiy soxasiga taalluqlidir. Uning tarkibida esa boshqa fanlardan farqli oʻlarok, oʻziga xos kategorial alparat mavjud boʻlib, u oʻz taraqqiyotida qandaydir bir fanga tayanmasdan, balki barcha fanlarga, insoniyat oʻzining butun taraqqiyoti davomida erishgan tajribasining yaxlit holda toʻplagan bilimiga tayanadi.

Falsafaning mohiyati - bu "olam-odam" tizimidagi umumiy muammolar ustida fikr-mulohaza yuritishdan iboratdir.

Falsafa ichki jihatdan ixtisoslashmagan, kundalik hayotda mavjud bo‘lgan bilimlar bilan bog‘likdir. Bunday aloqa eng avvalo falsafaning tilida namoyon bo‘ladi. Falsafaning tili shaxsning hayotiy tajribasini qayd etadigan so‘zlarga boy bo‘ladi. Bu so‘zlarning vazifasi - odamlarning har kungi amaliy faoliyatini, ularning o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqelik bilan bevosita aloqaga kirishishlarini ta’minlash, shu jumladan, umumijtimoiy muhit bilan bevosita aloqaga kirishishini ta’minlashdan iborat. Falsafa tilini har kuni ishlatadigan tilimiz bilan solishtirib tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, umuman olganda falsafaning tili maxsus fanlar tiliga nisbatan jonlirok, tabiiy tilga yaqinroqdir. Falsafiy kategoriyalar madaniyatning rivojlanib borishi asosida shakllanadi hamda kundalik til strukturasida mujassamlashadi. Falsafa so‘zlarni izohlash jarayonida o‘z tushunchalarini tizimlashtiradi, ularning ma’nosini yanada chuqurlashtiradi, lekin ularning umumiy ma’nosini ham, iste’moldagi ma’nosini ham o‘zgartirmaydi.

Falsafiy bilimlarning mazmuni o‘z ichiga sog‘lom fikrni jamlab, hodisalarning eng muhim sabablarini bilishga va ulardan kundalik amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan bo‘ladi.

Aynan mana shu kundalik bilimlarda, ularning teran ma’nosida insoniyat hayotining bebaho qadriyat "donolik" deb nom olgan fazilati qiyomiga yetib, chuqur ma’no kasb etib boraveradi. Tabiat to‘g‘risidagi bilimlarda bunday qadriyat ishlatilmaydi. Shuning uchun ham biz ba’zan kishilarni "o‘z fanini yaxshi biladigan mutaxassis" deymiz, lekin uni hech qachon "dono odam" demaymiz. Mabodo u yoki bu olim to‘g‘risida mazkur tushunchani qo‘llaydigan bo‘lsak, u o‘sha olimning o‘z fanini nechog‘liq bilishligini ifodalaydi, balki o‘sha olimning olamga, hayotga nisbatan umumiy munosabatiga taalluqli bo‘ladi.

Falsafiy fikrlash qobiliyati mutaxassis faylasuflar bo‘lmagan kishilarda ham, donolik deb ataluvchi xususiyatni shakllantiruvib boradi. Ayni vaqtda, xususan, falsafa ilmi bilan shug‘ullanuvchi kishilar o‘z soxasi muammolari ustida fikr-mulohaza yuritishi jarayonida, kundalik turmushga nisbatan munosabatlar jarayonida shu kadar yuksaqlikka ko‘tariladiki, ularning erishgan darajasi biz aytayotgan "donolik" tushunchasiga muvofiq keladi.

"Donolik" deganda biz hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrokni, haqiqat va yaxshilik birligini, oliy xaqiqatni, sevgi va rostgo‘ylik mushtaraqligini, aqliy va ahlokiy kamolotning oliy darajaga yetgan holatini, qadriyatlarni kadrlash, his-tuyg‘ularining hayotga singib ketishini, har qanday narsaga va hodisaga mehr bilan qarash, har qanday harakatga tashvishli murakkab holatlarda ham masalaga aql ko‘zi bilan qarashni tushunamiz.

So‘ngi o‘n yilliklar mobaynida “falsafa” so‘zi donolikka tenglashtirib kelinmokda. Uning mohiyati esa e’tiborga olinmayotir. Falsafani fan darajasiga chiqarish uchun kurashayotgan ayrim olimlar ushbu atamaning bunday ma’nosi endilikda "eskirib koldi", u endi hoziri zamon falsafa fanini buzib ko‘rsatuvchi oxang so‘zga aylanib koldi, - demokdalar.

Lekin biz bunday fikrdan yiroqmiz. Bugun falsafani donolikka muhabbat deb talqin qiluvchi qadimgi an’analardak voz kechish uchun asosli sababni ko‘rmayotirmiz. Dunyo falsafasida endi - endi oyoqqa turayotgan ilmiy bilim aks ettirilgan edi. Mana shu tarixiy fakt insoniyat madaniy taraqqiyotining so‘nggi davrlarida benihoya murakkab ziddiyatlar orqali uchlashtirilib biroz o‘zgartirilgan shaklda bo‘lsa ham saqlanib qolindi. Falsafa ilmining kundalik turmush tajribasiga, shaxsiy hayotga va kundalik bilimlarga yaqinligi xuddi muayyan bir qadriyat singari donolik tarkibiga kiritishni taqozo etadi. Falsafiy tafakkurning barcha ko‘rinishlari donolarcha falsafiy fikr yuritishining o‘zi emasmi?

Dastlabki falsafiy ta’limotlar bundan 2500 yillar ilgari Hindistonda, Xitoyda, Misrda paydo bo‘lib, Qadimgi Gretsiya - Yunonistonda o‘zining mumtoz shakliga erishgan.

Falsafa mifologik dunyoqarash bilan ilmiy bilim o‘rtasida sodir bo‘lgan qarama-qarshilik, ziddiyatlar . negizida shakllandi. O‘sha vaqtdagi dastlabki ilmiy qarashlar o‘z isbotlarini - naql, rivoyatlardan emas, balki tabiatdagi sabab va oqibat aloqalaridan izlay boshladi. Bilish subyektlarining tamoyil jihatdan bunday yangicha shaklda yo‘naltirilishi, bilishni yangicha tushunish subyekt - obyekt munosabatlarida, bilish, dunyoqarash strukturasida yangilik edi. Tabiat xodisalari to‘g‘risida, tabiatning o‘zi haqidagi tabiiy - ilmiy axborotlarning ko‘payib borishi olam

haqidagi umumiy ilmiy g‘oyalarning pishib yetilishiga va asta-sekin olamning mifologik manzarasini siqib chiqarilishiga olib keldi. Vaqt o‘tishi bilan dunyoqarashning asosiy masalasi umuman olam haqidagi masala hamda odamning olamga munosabati to‘g‘risidagi maslalalar va ularga berilgan javoblar, shu bilan aloqador bo‘lgan juda ko‘p savollarga berilgan javoblar ilmiy shakl kasb etdi. O‘z mazmuniga ko‘ra yangicha mifologik va diniy dunyoqarashdan xoli bo‘lgan, mustaqil duiyoqarashni shakllantirdi.

Agar falsafaning rivojlanish tarixini tabiat to‘g‘risidagi umumiy va xususiy bilimlar rivojlanishi tarixini qiyoslaydigan bo‘lsak, bu falsafa bilan fanning o‘zaro mustahkam aloqada ekanligidan dalolat beradi. Tarix shuni ko‘rsatadiki, falsafa o‘zining ontologik va gioseologik masalalari bo‘yicha qaralganda ham, u xuddi tabiat fanlariga o‘xshab - ularning rivojlanish yo‘llari singari yo‘ldan taraqqiy etib bordi.

Shunday qilib, falsafa fani o‘zining shakllanish bosqichida, keyinchalik esa o‘zining rivojlanishi jarayonida tabiiy fan bilimlari bilan mazmunan uyg‘unlashgan jihatlari ham bo‘ldi.

Ilmiy falsafaning genetik jihati tizimiy jihat bilan to‘ldirildi. Falsafa bilishga oid turli sohalar jumladan, tabiat to‘g‘risida mavjud bo‘lgan axborotlarni muttasil olib ularni qayta ishlab bordi. Mana shu asosda olamning universal manzarasi shakllandi va u o‘zgarib, takomillashib boradi. Borliq, fazo, umumiy aloqadorlik, bilish, subyekt-obyekt munosabatlari, bilishning umumiy tamoyillari, usullari va boshqa shunga o‘xshash falsafiy tushunchalar ishlab chiqildi. Ayrim tabiiy fanlardagi asosiy tushunchalar ("atom", "modda"' va boshqa shunga o‘xshashlar) tabiatshunoslik fanlarining ba’zi bir umumiy qonunlari va tamoyillari (masalan, "energiyaning saqlanish va o‘zgarishi qonuni") falsafiy bilimlar mazmuniga kiradi. Falsafaning tarkibida tabiiy-ilmiy bilimlarning mavjudligi va faoliyat ko‘rsatishi uning ilmiyligini ko‘rsatuvchi belgilardan biridir,

Falsafaga tushunchalar tizimi, bilish vositalari jihatidan qaraganda u ham ba’zi bir jihatlar bo‘yicha ilmiy bilimlar sohasiga mansub ekanligi ko‘rinadi.

Xo‘sh, ilmiy bilimning harakterli belgilari, alomatlari nimalardan iborat bo‘ladi?

Odatda, bilish amaliyot hamda qadriyatlarni baholash faoliyati bilan qiyoslanadi. Bilish - bu voqelikning inson tafakkurida aks etishi va takror hosil bo‘lish jarayonidir. Uning maqsadi obyektiv xaqikatga erishishdir. Bilish - voqelikning aniq xissiy va tushuncha shaklidagi obrazlar orqali qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va tizimga solinishi bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bilim esa bilishning natijasidir. Bilimlar tizimining muayyan mezonlari mavjud.

Birorta bilim tizimi muayyan mezonlarga javob beradigan bo‘lsagina o‘sha bilimlar tizimi ilmiy bilim deb tan olinadi.

Mifologik va diniy bilimlarga tabiatdan tashqarida sodir bo‘ladigan xodisalarga ishonch-e’tiqod xosdir.

Bunday e’tiqod fanda mavjud emas.

Ilmiylik mezonlari asosan quyidagilarda ko‘rinadi:

1) obyektivlik yoki obyektivlik tamoyili. Ilmiy bilimlar tabiiy obyektlar mazmunini u qanday bo‘lsa shundayligicha ochib berishi bilan bog‘liqdir. Bunda individ manfaatlaridan hamda barcha tabiatdan tashqari kuchlardan begonalashish hodisasi sodir bo‘ladi. Tabiatni uning o‘zidan kelib chiqqan holda o‘rganish talab qilinadi, shu ma’noda uning o‘zi-o‘zini bilishi uchun yetarli bo‘ladi; predmetlar ham, ularning munosabatlari ham ular qanday xolatda bo‘lsalar, shundayligicha o‘rganilishi - tashqaridan hech narsani qo‘shmasdan, ya’ni unga qandaydir bir subyektiv yoki tabiatdan tashqari kuchni aralashtirmasdan o‘rganish zarur.

2) ratsionallik, aqliy tarzda asoslanganlik, isbot qilinganlik. Biz kundalik hayotda ayrim fikrlarni bayon qilganimizda kimnidir "fikriga", "obro‘siga" tayanamiz. Ilmiy bilimlarda esa biror narsa haqida shunchaki xabar berilmaydi, balki keltirilgan fikrning ma’nosi, mazmunnni tasdiklaydigan zarur negiz, asoslar ham keltiriladi. Bu yerda yetarli asos keltirish tamoyili amal qiladi.

3) Bilimning obyekt mohiyati, uning qonuniyatlarini qayta tiklashga qaratilganligi.

4) Bnlimning o‘ziga xos xodisa sifatida uyushtirilishi, uniig alohida tizimliligi: bu yerda gal kundalik oddiy bilimlarni shunchaki tartibga solish to‘g‘risida emas, balki chuqur anglab yetilgan tamoyillarga ko‘ra tartibga solish haqida nazariy tizim haqida bormoqda.

5) Sinab ko‘rish, tekshirib borpsh: bu yerda gal ilmiy kuzatuv, amaliyotda mantiq orqali sinab ko‘rish to‘g‘risida boradi. Ilmiy haqiqat amalda tekshiruvdan o‘tgach va tasdig‘ini topgach hamma tomonidan e’tirof etiladi.

Ko‘pchilik tomonidan tan olinish mazkur xolatning haqiqiyligini ko‘rsatuvchi mezon bo‘la olmaydi. Ko‘pchilik qandaydir bir holat uchun ovoz berganligi, o‘sha xolatning haqiqiy ekanligini tasdiqlamaydi. Haqiqatning asosiy mezoni boshqacha bo‘ladi. Haqiqat umumiy ahamiyatga egalikdan kelib chiqmaydi, balki, aksincha, haqiqat umumiy ahamiyatga molik bo‘lishni talab qiladi va uni ta’minlaydi.

Ilmiylikning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan mezonlarining hammasi falsafiy bilimlar mazmunini aniqlashda foydalansa bo‘ladigan mezonlardir. Ayniqsa, ularni ontologiya (tabiat falsafasi)ga, gnoseologiya (epistemologiya) va ilmiy bilish uslubiyatlariga ko‘proq tatbiq etish mumkin.

Keltirib o‘tilgan mulohazalar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, falsafa ilmiy bilimlar dunyosining tarkibiy qismidir. Falsafa - fan, ilmiy bilimning bir shakli. Ilmiy bilimning bir shakli sifatida olinganda, falsafa dunyoqarashning asosiy masalasi nuqtai nazaridan axborotning g‘oyat umumlashtirilgan holga keltirilishidir.

Bunday qoida eng avvalo falsafaning ijtimoiy fanlar bilan emas, balki tabiiyot fanlari bilan qiyoslanishidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham falsafani, aftidan, yuqorida aytib o‘tilgan mulohazalardan kelib chiqib tabiiyot fani, deb hisoblash mumkin, u o‘zining bir qismi bo‘yicha tabiatshunoslik fanlari tarkibiga kiradi.

Shu bilan birga u, ayni bir vaqtda jamiyatshunoslik fanidir. Falsafa shuningdek, jamiyatning o‘zini, ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong ijtimoiy bilish maxsusligining va shunga o‘xshash masalalarni o‘rganadi. Falsafa xususiy ijtimoiy fanlar hukuqshunoslik, iqtisodiyot fani, siyosatshunoslik va boshqa shu singari fanlar ma’lumotlarini muayyan bir nuqtai nazar ostida falsafiy jihatdan umumlashtirib boradi. Falsafa va ijtimoiy fanlarning predmet-mazmun jihatdan o‘zaro bir-birining tarkibiga singib ketishi falsafani jamiyatshunoslik bilimlari qatoriga kiritish imkonini beradi.

Falsafa fani xuddi ijtimoiy, tabiiy fanlar singari mustaqil fandir. U o‘zining mustaqil obyekti va predmetiga ega. Falsafaning predmetini «olam-odam-inson» tizimi tashkil etadi.

Bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo‘lgan olam va inson dunyosi ayni vaqtda bir-biri bilan uzviy aloqadagi dunyolar hamdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, umuman olinganda moddiy olam va uning mavjudligiga xos bo‘lgan qonuniyatlar falsafaning predmeti tarkibiga kirmaydi, balki, uning insonga alokador bo‘lgan eng umumiy jihatlarigina falsafa fani predmetining tarkibiga kiradi xalos. Moddiy olam uning mavjudligi to‘g‘risidagi qarashlar, g‘oyalar va nazariyalar aniq fanlar tomonidan o‘rganiladi. Inson tomonidan haqiqat, go‘zallik, yaxshilik, adolat nuqtai-nazari orqali yaratilgan olamning universal suvrati falsafada dunyoqarashni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashfqari falsafada moddiy borliq va insonni o‘rganuvchi boshqa fanlardan yana shu bilan farq qiladiki, bunda insonning olamga, olamning insonga munosabatining eng umumiy jihatlari o‘rganiladi. Insonning olamga, borliqqa bilishga ko‘ra munosabati ko‘pgina fanlar tomonidan o‘rganiladi. Bilishning empirik va nazariy darajasi, xissiy va ratsional bilish nisbati, haqiqat va adashish va boshqalar bir qator fanlar tomonidan ham tadqiq etiladi. Bulardan farqli o‘laroq bilish jarayonining eng umumiy tomonlarinigina o‘rganish. Falsafaning predmeti doirasiga kiradi. Bu jarayonning xususiy tomonlarini o‘rganish esa aniq fanlarning vazifasi hisoblanadi.

Falsafa ikki yo‘nalishda: umuman dunyo va odamning ushbu dunyoga nisbatan munosabati to‘g‘risidagi axborot sifatida, bilish tamoyillarining yaxlit bir majmui, bilish faoliyatining umumiy usullari sifatida rivojlanib keldi. Falsafaning ko‘p sonli funksiyalarini ikki: dunyoqarashga, hamda uslubiyatga oid guruhga ajratish mumkin. Biz dastlab uning dunyoqarash funksiyasini ko‘rib chiqamiz.

Jamiyatda inson muammosining naqadar ahamiyatli ekanligiga ko‘ra falsafaning dunyoqarash funksiyasi orasida uning gumanistik funksiyasi oldingi o‘rinda turadi.

Dunyoda hayot, o‘lim, tug‘ilish, oxirat to‘g‘risida o‘ylab, mulohaza yuritib ko‘rmaydigan birorta ham inson bo‘lmasa kerak. Bu hakdagi o‘y-fikrlar albatta odamning yurak-bag‘rini ezib yuboradi.

Falsafa, albatta, bizga abadiylik bahsh etmasa-da, lekin u biz yashab turgan hayot ma’nosini tushunishga yordam-beradi, hayetning mazmunini bilishga hamda o‘z ruximizni bardam-baquvvat tutib, uni mustahkamlashga ko‘maqlashadi.

Hayotda oliy darajadagi dunyoqarashdan - falsafiy dunsqarashdan bebahra qolish hayot ma’nosini tushunmaslik natijasida odam o‘zini-o‘zi halok etishi, giyoxvand bo‘lib qolishi, ichkilikbozlikka berilishi, jinoyat yo‘liga kirib ketishi mumkin.

Bugungi kunimizda uchrab turgan terrorchilar, hizbut-taxrirchilar ta’siriga tushib qolganlar shular jumlasidandir. Quldorlik davrlaridan boshlab ko‘p yillar mobaynida insoniyatning anchagina qismi mulkdan, hokimiyatdan, o‘z faoliyatining mahsulidan ajralgan holda yashab keldi. Inson ham jismonan, ham ruxan ezilib, qullarcha yashashga mahkum etildi. Shunday bo‘lsada falsafa inson shaxsini tashqi zulm-zo‘ravonlikdan xalos qildi hamda unga botiniy teran mazmun berdi. U o‘ylab-topilgan barcha soxta borliqlarni bartaraf etdi va har bir kishida ichki bir qoniqish paydo qilib, uning qalbidan xdqiqiy Yaratganning joy olishini kashf etib, unmng uchun yaigi bir olam yaratdi. Falsafa odamga insoniy fazilatlarni singdirib borishi bilan ham diniy, ham dunyoviy vazifani bajardi, ayni vaqtda unisini ham, bunisini ham birlashtirib, insonning bashariyat ekanligini ko‘rsatdi.

Hayotdagi barcha jadallashtiruvchi hatti-harakatlar odamga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi. U inson hayotini, uning butun turmush tarzini o‘zgartirib yubordi, ko‘pchilik xolda odamlar odamlar siigari emas, balki ishchi kuchi sifatida yashab kelmokdalar. Jamiyatning barcha tabaqalarida hozirgi zamon kishisining haddan tashqari ish bilan band bo‘lishi oddiy bir hol bo‘lib qoldi. Bunday bandlik esa uning ruxiy olamini so‘ndirib, ma’naviy xalok bo‘lishiga olib kelmokda. Ishdan bo‘sh vaktlarida o‘z ustida ishlashi uchun, jiddiy suxbatlar o‘tkazish yoki kitoblar mutolaa qilish uchun odam xotirjam bo‘lishi zarur. Ishdan ortmaydigan kishida bunday xotirjamlik bo‘lmaydi.

Ishdan ortmaydigan kishi endi bilim olish va o‘z ishini takomillashtirishi to‘g‘risida emas, balki ozgina bo‘sh vakt topsa, o‘yin-kulgi bilan o‘tkazishga, unda ham ruhiy zo‘riqish talab qilinadigan ko‘ngil xushlik qilishga harakat qiladi.

Hech narsani o‘ylamaslik, xech narsa haqida bosh qotirmaslik-odamning ikkinchi tabiatiga aylanib qoladi. U o‘ziga o‘xshagan kishi bilan suhbatga kirishar ekan, iloji boricha hammaga ma’lum umumiy mulohazalar bildirishga harakat qiladi va natijada ikki o‘rtadagi suhbat chinakam fikr almashuvga aylanib ketmaydi.

U endi o‘zigagina xos bo‘lgan xech narsaga ega bo‘lmaydi va xatto u go‘yo unda o‘sha o‘ziga xos narsa mavjud, undan o‘sha narsani talab qilib qolishlari mumkin degan, qo‘rquv bilan boradi. Bu holat mashxur fransuz faylasufi A.Kamyuning "Begona" asarida benihoya ta’sirli aks etgirilgan. Biz buni 70 yil xukmronlik qilgan Sovet totalitarizmi davrida kattiq his etdik.

Jamiyatda insoniyatni xor qilishga olib keladigan salbiy tendensiyalarga qarshi kurasha oladigan g‘oyat kuchli vositalardan biri, bu falsafadir. Lekin har qanday falsafa emas, balki tasavvur, milliy istiqslol falsafasiga o‘xshash teran etik mazmunga ega bo‘lgan falsafagina bunga qodir bo‘ladi.

Gumanistik dunyoqarashga oid bo‘lgan g‘oyalar biz o‘zimiz nima uchun yashayotganligimizning ma’nosi to‘g‘risida va bugun insoniyatning vazifasi to‘g‘risida biz o‘ylashimiz va taxmin qilishimiz mumkin bo‘lgan barcha narsa va hodisalarni o‘zida mujassam etgan. Ular bizning turmushimizga yo‘nalish berib turadi va unga qadr-qimmat baxsh etadi.

Falsafaning dunyoqarash funksiyalaridan yana biri - ijtimoiy-aksiologik funksiyasi hisoblanadi. Ushbu funksiya; ijtimoiy hayotni sharxlash va tanqid qilish funksiyalarini bajaruvchi sifatida ko‘rinadi. Bunga ko‘ra Falsafa Yaxshilik, Adolat, Xaqiqat, Go‘zallik singari qadriyatlar, ijtimoiy-ideal to‘g‘risidagi tushunchalarni ishlab chiqishni tashkil etadi.

Masalan, ijtimoiy ideal tushunchasining shakllanishini ko‘rib chiqaylik. Ijtimoiy ideal to‘g‘risidagi masalada falsafa bilan siyosiy tuzumning o‘zaro munosabati harakteri yaqqol ko‘rinadi. Bir qarashda bu yerda falsafa - sabab, siyosiy g‘oya bilan siyosiy tuzum-oqibat ekandek bo‘lib tuyuladi.

Bunday xulosa chiqarish uchun bir talay asoslar ham mavjud. Haqiqatdan ham, o‘tmishdagi Platon va Aristoteldan boshlab to Fixte, Gegel va XX asr faylasuflarining konsepsiyalarida davlat

qurilishi to‘g‘risidagi qarashlar muhim o‘rinni egallab kelgan, ular amaliy, siyosiy harakatlar uchun ancha mufassal tavsiyanomalar berganlar (chunonchi, Platon o‘zining davlat to‘g‘risidagi ta’limotida xususiy mulk va oilani bekor qilishni tavsiya etadi, Fixte jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlikka erishish va ijtimoiy muvozamatni ta’minlashga erishish maqsadida keng miqyosda tashkil etilgan va har doim xushyor turadigan politsiya nazorati tizimini amalga oshirishga chaqirgan).

Lekin falsafadan siyosatga o‘tiladigan yo‘l faqat bitta emas. Shuning uchun asrimizning 30-yillarida Germaniyada fashistlar tuzumi o‘rnatilganligi uchun faqat F.Nitsshe yoki M. Xaydegger falsafasi ma’sul emas. Chunki faylasuf ilstimoiy tuzum, uning idealini engumumiy shaklda bayon qiladi. Uni amalga oshirish ijtimoiy-tarixiy holat kishilarning vilchdoni, e’tiqodi, ahlokiy va aqliy yetukligiga bog‘lik.

Falsafaning qadriyatlarni yaratishga oid vazifalari bilan uning ijtimoiy voqelikni talqin etish vazifasi qo‘shilib bir butun xoldagi voqelikni tashkil etadi. Xuddi shuningdek, o‘sha ijtimoiy voqelikning tuzilishi, holatning tanqidi bo‘yicha ilgari suriladigan vazifalar ham o‘sha bir butunlik tarkibini tashkil qiladi. Talqin va tanqid, qadriyatlarni, ijtimoiy ideallarini qarab chiqish, tegishli nuqtai nazar ostida ijtimoiy voqelikka baxa berish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda faylasuf doimiy ravishda sotsiad-ijtimoiy voqelikning ideallarga muvofiq kelmasligi singari xodisalarga ro‘baro‘ keladi. Ijtimoiy voqelik, uni ijtimoiy ideal bilan taqqoslash xususida yuritilgan fikr - mushoxadalar ushbu voqelikning tanqid qilinishiga olib keladi. Bunday tankidda subyektning obyektdan qoniqish hosil qilmaganligi, uni o‘zgartirishga ko‘ra istagi ifoda etiladi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, falsafa tanqid qiluvchi fandir. Voqelikdagi ziddiyatlarga ko‘ra shakllangan falsafa ushbu ziddiyatlarni nazariy jihatdan ochib tashlash, uni xal etish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy kuchni o‘zida topa oladi. Hatto A.Yassaviy, Spinoza, Gegel dunyoning dono aql bilan yaratilganligi va voqelik bilan kelishib, tiich yashashga da’vat etganida ham, ular xaqiqatni qanday tushungan bo‘lsalar unga erishish yo‘llarini mavjud ijtimoiy borliqni tanqidiy taxlil qilish asosida ko‘rsatib berdilar, o‘z qarashlariga to‘g‘ri kelmaydigan odamlar o‘rtasida xukm surayotgan noto‘g‘ri tushunchalarni va qarashlarni, tushunchalarni, tasavvurlarni rad etadilar. Ziddiyatlarni aniqlash va ochib tashlash, qabul qilingan tushunchalar tizimi bilan qadriyatlar o‘rtasida hamda ularning dunyo tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichi kiritgan yangicha mazmunga muvofiq kelishi yoki kelmasligini aniqlash faylasuf olib boradigan tanqidiy jarayonning negizi va mohiyatini tashkil etadi. Eski dunyo g‘oyalarini tanqid kilar ekan, bu bilan faylasuf - buni u hoxlaydimi yoki yo‘qmi, baribir, u o‘sha ko‘hna dunyoning o‘zini ham tankid qiladi.

Falsafaning dunyoqarash funksiyalaridan yana biri madaniy-tarbiyaviy funksiyadir.

Falsafa ilmining, bilishga nisbatan ko‘yadigan talablari insondagi muhim fazilatlarni: rostgo‘ylik, xaqqoniylik, saxovat singari ma’rifatli, madaniyatli shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Falsafa odamlarni yuzaki fikr yuritishdan va tor doirali tafakkurdan himoya qilishga qodirdir. U doimo o‘zgarib turadigan voqea - xodisalar mohiyatini, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni mumkin qadar o‘z xolicha qanday bo‘lsa, shunday. aks ettirish maqsadida xususiy fanlarning nazariy va empirik xulosalaridai foydalanadi.

Yuksak darajada fikrlash madaniyati ko‘rsatkichlaridan biri - bu subyektning bilish jarayonidagi ziddiyatlarni chetlab o‘tmasligi hisoblanadi. U mana shu ziddiyatlardan ko‘z yummasligi, balki ularni hal etishga, to‘siqlarni yengib o‘tishga harakat qilishi kerak. Bunda u xususiy fanlarda mavjud bo‘lgan shu sohadagi axborotlarni ishga solishi, falsafiy kategoriyalardan foydalanib, ularni dolzarb holga keltirishi va bunda u o‘z mustaqilligini ko‘rsatishi, o‘zining masalalarga an’anaviy yondashish kabi fazilatlarini namoyish qilishi kerak bo‘ladi. Tafakkurning dialektik rivojlanib borishi har doim o‘z yo‘lida formal mantiqiy ziddiyatlar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi, obyektdagi mavjud real ziddiyatlarni hal etishga harakat qiladi hamda bu yo‘lda o‘zining ijodiy, antidogmatik harakterini namoyon etadi.

Fikri qotib qolgan kishini tarbiyalash shundan iborat bo‘ladiki, bunda odamni tevarak-atrofdagi olamga xuddi bir qancha o‘rnak, namunalar qo‘yilgan imkoniyatlar olamiga tiqilib turgandek qarashga o‘rgatadi. Unda haqiqat u yoki bu darajada mavhum tarzda - umumiy shaklda ifodalanadi. Odamni bunday qarashning aksini ta’kidlaydigan tushunchalarga yakinlashtirmaslikka zo‘r berib harakat qilinadi.

Dogmatizmning orqa tomoni - bu shubha qilishdan iboratdir. Dogmatizm bilan shubha-bu bir-biriga nisbatan fitna ko‘zg‘aydigan, ikkovi ham jonsiz jasadga o‘xshagan va noto‘g‘ri tarbiya natijasida ular orasiga jonli insoniy aql - idrok kirib qoladi. Ziddiyatga nisbatan munosabat aqlli kishi madaniyatining aniq mezoni hisoblanadi. Mantiqiy to‘g‘ri fikrlaydigan chinakam madaniyatli aql uchun ziddiyatning paydo bo‘lishi-bu kat’iy shtamp xoliga kelib qolgan intelektual hatti-harakatlar yordamida xal qilib bo‘lmas muammoning paydo bo‘lganligi to‘g‘risidagi xabar, erkin tafakkurni ishga solish uchun berilgan xabar hisoblanadi. Aql -idrokni shunday tarzda avval boshdanoq tarbiyalab borish kerakki, uning uchun ziddiyatlar hovlikib qolishga sabab bo‘lmay, balki mustaqil ravishda ishlash uchun bir turtki bo‘lmog‘i kerak.

Dialektikaga o‘rgatish degani-bu ziddiyatlarni kat’iy ravishda kayd etish maxoratiga o‘rgatish, voqelikni nomiga quruq ko‘z bilan qarash, ziddiyatlarni xas-po‘shlash yo‘lidan bormasdan, balki uni ro‘y-rost qarab chiqish uni hal qilish yo‘lidan borishga o‘rgatish degani. Dialektikaga o‘rganish kerak. Buning uchun maktabda, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonida yoshlarning dialektikani egallashlari uchun o‘kish, o‘qishdan tashqari ishlarni qanday tashkil etish kerakligini ko‘rsatib berishi lozim. Dialektika faqat yetuk kishilar va chuqur aql - idrok egasi bo‘lgan odamlar o‘rgana oladigan sirli bir san’at bo‘lmay, balki bolalarni juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalash mumkin va lozim bo‘lgan ilmdir.

Insonda falsafiy fikrlash-tafakkurni shakllantirib borish degani-bu ayni bir vaqtda har bir kishida madaniyatli shaxsga xos bo‘lgan o‘z-o‘zini tanqid, tanqidchilik, bilishga aloqador bo‘lgan shubha singari qimmatli fazilatlarni bir vaqtda shakllantirib borishdan iboratdir. Bu yerda shubha deganda to‘g‘ri narsadan ham shubhalanadigan salbiy xususiyatni emas, balki ilmiy tarzdagi shubha nazarda tutiladi, chunki ilmiy asosdagi shubha-bu ilmiy izlanishning faol vositalaridan biri hisoblanadi.

Shubha, tanqidchilik va o‘z-o‘zini tanqid qilish-bular e’tikodga yoki birovning, fikri, qarashining to‘g‘riligiga qat’iy ravishda ishonch bildirolmaslikni bildirmaydi. Aksincha, falsafa mustahkam umumiy uslubiy va gioseologik asosga ko‘ra har bir shubhaning kishiga o‘zini - o‘zi izchil ravishda rivojlantirib borishi uchun imkoniyatni ham yaratib beradi, ilmiy shubhani faktga asoslangan ishonch-e’tikodga aylantiradi, uni fanning boshqa sohalari bilan uygun tarzda qo‘shib rivojlantirib borishi uchun asos bo‘ladi. Bu esa xato va adashishlarni, kamchiliklarni yengib, chuqur, obyektiv, haqiqatga erishish imkonini beradi.

Falsafa odamlarga umumiy bir til baxshida etadi, hayotdagi eng asosiy qadriyatlar to‘g‘risida yagona, hamma uchun ahamiyatli bo‘lgan tushunchalarni ishlab chiqadi. Bu tushunchalar tor doirada ixtisoslashish ekanligi tufayli vujudga keladigan "kommunikatsiya to‘siqlari"ni bartaraf etishga yordam beradigan muhim —omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Falsafaning yuqorida qarab chiqilgan funksiyalari bilan bir qatorda yana uning bayon etish, axborot berish funksiyasi ham mavjuddir.

Falsafaning asosiy vazifalaridan yana biri-bu fanning hozirgi zamon talablariga muvofiq keladigan, tarixiy amaliyotga hamda insonning intelektual talablariga mos to‘shadigan dunyoqarashni ishlab chiqishdir. Ushbu funksiyada falsafa ilmining o‘z obyektini o‘ziga o‘xshatib in’ikos etish, uning muhim elementlarini aniqlash, tizmmiy alokalari, qonuniyatlarini aniqlab berish, bilimlarni egallash, yanada chuqurrok iiyunchli informatsiya - axborot olishnish manbai bo‘lib xizat qilish kabi vazifalari o‘z ifodasini topgan.

Xuddi har qanday fan singari falsafa xdm uzluksiz dinamik informatsiom tizim bo‘lib, yangi-yangi axborotlar olish maqsadida axborotlarni to‘plash, tahlil qilish va qaytadan ishlab chiqish ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bunday axborotlar yaxlit bir tizimni umumiy tamoyillar va qonunlar asosida falsafiy tushunchalarda jamlanib, mukammal holga keltiriladi. Mana shu yaratilgan yaxlit bir tizimda ontologiya falsafasi (ya’ni borliq falsafasi), bilish nazariyasi, dialektika eng umumiy usul sifatida, ijtimoiy falsafa umumiy etika, nazariy estetika, xususiy fanlarning falsafiy muammolari, din falsafasi, falsafa tarixi, "falsafaning fadsafasi" (ya’ni falsafiy nazariya) va boshqa ana shunday bo‘limlar mavjuddir.

Falsafa o‘z usuli jihatidan fanga nisbatan bir nechta funksiyani: evristik, koordinatsiya kiluvchi, integratsiyalovchi hamda Mantiqiy-gioseologik funksiyalarni bajarishga qodirdir.

Evristik funksiyaning mohiyati ilmiy bilimlarni yanada rivojlantirish, ilmiy ixtirolar uchun zamin yaratishda ko‘rinadi. Formal-mantiqiy usul bilan bir butunlikda tadbiq ztilgan falsafa usuli falsafa sohasidagi bilimlarning o‘sib borishini ta’minlaydi. Kategoriyalarning umumiy tizimidagi ekstensiv va intensiv o‘zgarishlar mana shu jarayonning natijasi hisoblanadi. Yangi informatsiya oldindan bashorat qilish bo‘lishi mumkin, Falsafa o‘z mazmuniga ko‘ra nazariy dunyoqarash yoki umumiy uslubiy harakterdagi ixtirolarni oldindan aytib berish singari urinishlarga nisbatan hech qanday shaklda monelik qilmaydi. Bunda tarakqiyotning hamma uchun umumiy bo‘lgan yangi-yangi qirralari kashf qilinishi ehtimoldan xoli emas. Bunday yangiliklar dialektikaning shu vaqtgacha noma’lum bo‘lgan asosiy yoki asosiy bo‘lmagan qonunlarini shakllantirish imkonini berishi mumkin.

Xususiy fanlarga kelganda shuni aytish kerakki, bu yerda boshqa usullar bilan birgalikda majmua tarzda ko‘llangan falsafa usuli o‘sha fanlarga murakkab nazariy, fundamental muammolarni hal etishda yordam berishga qodir bo‘lib, ularning bashoratlarida o‘zi ham "ishtirok etishi" mumkin. Bunday gipoteza va nazariyalarni yaratishda falsafaning ishtirok etishi muhim ahamiyatga egadir. Bunday qaraganda, birorta tabiiy-ilmiy nazariyaning yaratilishida falsafaning sabab-oqibat, fazo haqidagi, zamon va boshqa biror falsafiy tushunchalari chetlab o‘tilmagan. Demak, falsafiy tamoyillar va tushunchalar tabiiy-ilmiy nazariyalarning shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

Falsafiy usul ilmiy ishga faqat o‘zining ayrim tushunchalari yoki kategorial bloklari bilangina emas, shu bilan birga u o‘zining tamoyillari bilan xdm ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qodir. Buni biz mavxumlikdan aniqlik tomon o‘tish tamoyilining aniq fanlar rivojida tutgan o‘rnida ko‘rishimiz mumkin.

XIX asrning 60-yillariga qadar organik kimyo sohasida hali hech kim butun bir tizimining asosini tashkil etuvchi modda to‘g‘risida hech nima bilmas edi. Kimyoda xali dastlabki "hujayra" aniqlanmagan vaqtlar edi. Ushbu hujayra topilganida tegishli uglevodorodlar yana ham murakkabrok organiq birikmalarga asta-sekinlik bilan aylanib borishi qanday kechishini ko‘rsatib berish imkoniyati mavjud bo‘lur edi. Mana shu muhim "hujayra" kashf etilmaganligi sababli organiq kimyoning butun tizimi noto‘g‘ri tuzilgan bo‘lib, ko‘pincha unga sun’iy yo‘llar bilan, zo‘rma-zo‘raki o‘tilar, natijada bunday o‘tishda zarur ichki bir butunlik mavjud bo‘lmas edi. Dialektik mantiq usullarini egallab, .dialektik tafakkur qonunlari va tamoyillarini organiq kimyo faniga to‘g‘ri qo‘llashi nemis kimyogari - organiqa olimi K.Shorlemmerga barcha organiq birikmalarning hosil bo‘lishi va murakkablashib borishidagi boshlaig‘ich “xujayra”sini - parafinni topish imkonini bordi, olim yana organik moddalarning o‘zaro bir-biri bilan birikib yangi moddalarga aylanib borishining obyektiv dialektikasini yaratib berdi va shu asosda keyinchalik organik kimyoning qat’iy ilniy tizimini tuzib chiqish mumkin bo‘ldi.

Falsafa usullaridan birining evristik funksiyasini qarab chiqish shuni ko‘rsatadiki, xususiy fanlarning rivojlanishida, ayniksa, gipotezalar va nazariyalarni shakllantirishda falsafaming roli g‘oyat katta. Falsafa ilmiy tadqiqotlarda har doim ham, ko‘zga yaqqol tashlanib turavermaydi va u har doim ham uslubiyat sifatida oldingi qatorga qo‘yilavermaydi. Aniq ilmiy vazifa, albatta, aniq usul orqali yoki shunday usullarning majmui orqali hal qilinadi. Falsafiy usul esa ko‘pincha "orqa tomondan" harakat qiladi: bunda u xususiy fan usullari hamda umum-ilmiy tushuichalar orqali ish ko‘radi. Shu narsa ayonki, dunyoqarashga xos bo‘lgan tushunchalar va tamoyillarsiz fanning rivojlanishi mumkin emas.

Falsafaning koordinatsnya qiluvchi funksiyasi. Ushbu funksiyaning mohiyati ilmiy tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan usullarni koordinatsiya qilib borishda ko‘rinadi. Bir qarashda bu ish ortiqchaga o‘xshab tuyuladi: basharti qo‘llangan usul mazmunli bo‘lsa, obyektning tabiatidan kelib chiqkan holda ish ko‘rilgan bo‘lsa, predmetini bilishni koordinatsiya qilinishidan tashqari, yana qandaydir qo‘shimcha usullarni koordinatsiyalash shart emas va hatto zararlidir. Tadqiqotchiga o‘sha obyektning o‘zidan kelib chiqib ish ko‘rishn, bunda obyektga muvofiq keladigan usulni topishi va shu yul bilan ilmiy izlanishning samarali bo‘lishiga muhim zamin tayyorlashining o‘zi yetarli bo‘ladi. Umuman olganda, bu to‘g‘ri fikr. Lekin bunda hozirgi zamon fanining-muhim jihati

usul bilan obyekt o‘rtasidagi aloqaning murdkkab xarakteri, olimlar ixtisoslashuvining o‘sib borishi jarayonlari, .fandagi subyekt bilan obyekt o‘rtasidagi bilvositachilik xisobga olinmagan.

Predmet bilan usul o‘rtasidagi ancha murakkablashib ketgan nisbatlar fonida xususiy usullarni koordinatsiya qilishga bo‘lgan extiyoj, eng avvalo, olimlarning o‘z sohasiga tadqiqotlar ixtisoslashuvining chuqurlashib borayotganligi bilam bog‘liq bo‘lgan salbiy omillarga qarshi turish zaruratiga ko‘ra sodir bo‘lmoqda. Bunday ixtisoslashuv oxir-oqibat shunga olib keladiki, natijada olimlar o‘zlarining ish usullari va uslubiyatlariga qarab bir-biridan uzoklashib ketadilar, natijada ular faniing uslubiy imkoniyatlaridan foydalanishda muqarrar ravishda cheklangan xolatga tushib qoladilar. Natijada bir qator usullarning o‘zi ilm kuchini yo‘qotishi xavfi paydo bo‘ladi, bir xil usullar ulug‘lanib, boshqalariga esa yetarlicha baxo bermaslik xavfi tug‘iladi.

Tizimiy-mantiqiy jihatdan olganda ilmiy bilish usullarining koordinatsiya qilinishi ham falsafiy tamoyillarga asoslanadi. Ular ichida bir-birini o‘zaro to‘ldirish bir-biridan ustunlik qilish tamoyillari muhim o‘rin tutadi. Shulardan birinchisi falsafaning umumiy aloqadorlik tamoyilini ifoda qilsa, ikkinchisi haqiqatning hamisha aniq ekanligiga asoslanadi.

Fanning har qanday usuli o‘zining nazariy bilish hamda mantiqiy imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Agar mana shu imkoniyatlardan tashqari chiqiladigan bo‘lsa, o‘sha usulning samaradorligi pasayib ketadi yoki butunlay yo‘qolib ketadi. Buning oqibatida qandaydir biror murakkab obyektni o‘rganish uchun ayrim usullarning bilish imkoniyatlari cheklanganligini to‘ldirib borishga qodir bo‘lgan boshqa bir qator usullar majmuidan foydalanish talab qilinadi.

Shunday qilib, usullarni tanlash va ulardan foydalanish vaktidagi bir yoqlamalikning oldini olishda mana shunday o‘zaro bir-birini to‘ldirib borish tadbiri asosiy shartlardan biri bo‘lib qoladi. Usulni bu xilda majmualashtirish faqat alohida olingan bir fan darajasidagina emas, hatto bilim olishning u yoki bu sohasidagi ko‘pgina ichki muammolarni xal qilish vaqtida ham ko‘l keladi. Bunda turli manbalardan turli usullarga ko‘ra bir xildagi axborotlarni olish, bir-birini takrorlaydigan usullardan foydalanishni shubha ostiga qo‘ymaydi.

Ushbu aytilgan gallar tadqiqotchi fanda allakachon mavjud bo‘lgan usullarning samaradorligiga karamasdan, yana boshqa usullardan ko‘proq foydalanishga harakat qilishi kerak ekan, degan ma’noni anglatmaydi. Agar shunday bo‘lsa uslubiy tuturiqsizlik vujudga kelishi mumkin. Muayyan vaziyatlarda birgina usulning o‘zi ham yetarli bo‘ladi. Yana shuni ham esda tutish kerakki, har qanday eski usul u qanchalik e’tiborli, ishonchli bo‘lishidan qat’iy nazar, agar uning "masalani hal qilib berish qobiliyati" yaqinda ishlab chiqilgan yangi usulga nisbatan pastroq darajada bo‘lsa, uni avaylab o‘tirish shart emas.

Bundan tashqari u yoki bu usullar - usullar majmuining tarkibi qanday ekanligi obyektiv mezonlar bo‘yicha aniqlab chiqiladi: uning samaradorligi qanday ekanligiga qarab bilish vazifasi aniq xal qilinadi. Bunda kaysi usulning ustunligi muammolarni yechish vaqtida hal qilinadi hamda mazkur tizimda kaysi usul asosiy bo‘lishiga qarab, qolgan usullarning mana shu yetakchi tizimga buysundirish tamoyiligi amal qilinadi. Bunday usul tadqiqotchiga har bir usullar majmui ichidan o‘zi uchun keraqli usulni tanlab olish imkonini beradi. Shunga ko‘ra u o‘ziga bir yoki bir necha usulni tanlab oladi va bu tadbir unga o‘z obyektining yaxlit holda o‘rganib chiqilishi hamda uning o‘ziga xos tomonlarini mukammal darajada aniq va to‘la bilib olish imkonini beradi.

Xususiy usullarga nisbatan falsafaning eng umumiy uslubiyati fakat yukorida aytib o‘tilgan ikki tamoyilga asos bo‘libgina kolmay, shu bilan birga boshqa tamoyillar uchun ham negiz bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim usullar guruhlari o‘rtasida mantiqiy aloka o‘rnatadi. Ilgaridan mavjud bo‘lgan u yoki bu usullar o‘rtasidagi koordinatsiyani o‘rnatib, olim tadkiqotning zarur bo‘lgan guruhlarini aniqlab olishda va ularga baxo berishda bir yoqlamalikka yo‘l qo‘ymaslik uchun foydalanadi. Chunonchi, bilishning hodisalardan moxiyat tomon harakat qilishi tamoyiliga tayangan xolda ba’zi bir olimlar biologiya fanining rivojlanib borishidan bugungi bosqichda empirik tadkiqot darajasidan nazariy tadqiqot darajasiga o‘tishni belgilab beruvchi usullarning nazariy-bilish imkoniyatlariga yetarli darajada baxo bermaslik xollari uchrab turishini e’tirof etmoqdalar. Sifat, mikdor, tahlil yaxlitligi tamoyiliga ko‘ra biolog olimlar masalani sifatli taxlil qilish maksadida matematik yondashuv usulidan yana ham kengrok foydalanish zarurligi to‘g‘risida xulosalar chikarmokdalar.

Shu munosabat bilan "biomatematik" usullarni ko‘llash to‘g‘risidagi masalani kun tartibiga ko‘yilmokda.

Mana shu aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, falsafiy-uslubiy tamoyillar fan usullarining umumiy tizimida ularni koordinatsiya qilishi, birlashtirib turishi mumkin. Aslini olganda, falsafaning materiya va taraqqiyotining uyushishi darajalarining yaxlitligi, struktura va funksiyaning bir butunligi, zaruriyat va imkoniyatning o‘zaro aloqadorligi va boshqa shunga o‘xshash tamoyillari ham xuddi shunday rollarni o‘ynaydi.

Falsafiy usul xususiy masalalarni yechish vaktida umumilmiy va maxsus usullardan ajratilgan holda ishlatilsa, fanda muvafaqqiyat qozonish mumkin emas, chunki u xususiy fanlarda o‘z xolicha ixtirolar kashf etishga qodir bo‘lgan qandaydir bir ochkich vazifasini bajara olmaydi.

Umumiy falsafiy usulning sermaxsul koordinatsiya ta’sirini o‘tkazishi avtomatik tarzda amalga oshavermaydi. Buning uchun tadqiqotchi o‘zi shug‘ullanayotgan maxsus tadqiqot-predmetini chuqur egallagan bo‘lmog‘i, shu sohadagi xususiy usullarning butun zaruriy majmuini egallab olgan bo‘lishi, tadqiqot obyekti bilan bogliq bo‘lgan ishlarda yetarli darajada tajriba orttirgan, falsafa tarixi yutuqlari, dialektiqa uslubini aniq ilmiy muammolarni hal etish vazifasiga qo‘llay olish tajribasiga ega bo‘lishi, bunday amaliy ishlarni mustaqil ravishda bajara olish mahoratiga ega bo‘lishi kerak. Bularning bari tadqikotchi tomonidan masalani muvaffakiyatli xal etishga yerdam beruvchi omillardir.

Falsafaning integratsiya kiluvchi funksiyasi. "Integratsiya" atamasi (lotincha integration-tiklash, to‘ldirish demakdir) qandaydir qismlar, bo‘laklarni bir butun, yaxlit holga keltirib birlashtirish degan ma’noni anglatadi. U ko‘pgina fanlarda ko‘llanadi va amalda umumilmiy tushunchalar maqomiga ega.

Falsafa funksiyalariga taqribai olganda, "integratsiya qiluvchi" degan atama falsafiy bilimlarning bir tizimni tashkil etgan qandaydir ko‘p elemeptlarga nisbatan yoki ularni yaxlit xolga keltirish qobiliyatiga nisbatan birlashtiruvchi vazifani bajarishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, bu yerda tizimning bo‘laqlarga ajralib ketishiga olib keladigan, elementlar, univg tarkibidagi qismlarning nisbiy mustaqilligi xaddan tashqari ortib ketishi, ya’ni yaxlitning bo‘linib ketit omillarini aniqlash va bartaraf etish uning guruhlarida yetishmovchi elementlar yoki alokalarning aniqlanishi ham, faol ravishda kmrib kelishi ham xisobga olinadi. Bunday holatlarning tizimga dezintegratsiya unga uyg‘unlik optimallik baxsh etadi, ya’ni uningtartibga keltirilganlik, uyushqoklik holatining ortib ketishiga olib keladi. Biz bu yerda "integratsiya" atamasini uning asl ma’nosiga teskari bo‘lgan "dezintegratsiya"ga qarshi ma’noda ko‘llaymiz.

Ayrim fan-predmetlarning shakllanishi har bir fan predmetlarining boshqa fan predmetlaridan bo‘lib oliiishi natijasida sodir bo‘ladi. Voqelikning obyektiv qonunlari esa har doim u yeki bu tadqiqot predmetini suyab turuvchi ustun bo‘lgan. Birok, umumiy ilmdan, uning butun tizimidan ajralib chiqqan fanlar ko‘pchilik holda bir-biridan ajratilgan holatga tushib qoladilar, ular o‘zlarining avtonomlik xususiyatlariga ko‘ra og‘ir ahvolga tushib qoladilar; ular o‘rtasidagi tabiiy aloqalar buziladi, tizimiy jihatdan bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatish xolatlari yo‘kolib ketadi.

Bunday bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatish hollari, masalan, tabiatshunoslik fanining yirik tarmoqlari o‘rtasidagi munosabatlar uchungina harakterli xususiyat bo‘lmay, balki o‘sha fanning doirasidagi tarmoqlar ichida ham xuddi shunday xol yuz berishi kuzatiladi. Buning natijasida fan ilmiy bir bilim tizimidan, ya’ni antik davrdagi yaxlit bir fan xolatidan, endi tobora ko‘prok summativ, ya’ni maxsus ixtisoslashgan qismlarga ajralib ketmyukda. Garchi bunday bo‘linish bilimni ixtisoslashib, tobora chuqurlashib borishiga olib kelayotgan bo‘lsa ham, o‘sha yirik bir fan o‘z tarkibidagi xususiy ixtisoslashgan elementlarga qarab. tobora ko‘prok qismlarga bo‘linib ketmokda.

Fanlarning o‘zaro bir-biri bilan alokaga kirishi, ularning differensiatsiyalanishi to XIX asrga kadar yetakchi tendensiya bo‘lib keldi. Tobora progressiv tarzda ixtisoslashib borishda katta muvafakkiyatlarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, baribir, fanlar o‘rtasidagi nomuvofiklik darajasining o‘sib borish hollari sodir bo‘ldi. Fandagi bir butunlik, yaxlitlik inqirozga uchradi.

Bunday sharoitda fanga nisbatan dialektik tarzda yondashuv fanlar o‘rtasidagi chegaralovchi to‘siklarni bartaraf etishga hamda ular o‘rtasidagi tabiiy alokalarni aniqlab, tiklashga qodir bo‘lib chikdi.

Bilimlarni integratsiyalash muammosini xal qilish asosida eng avvalo dunyoning bir butunligi to‘g‘risidagi falsafiy tamoyil yotadi. Modomiki, dunyo yaxlit, yagona ekan, uning o‘ziga o‘xshagan aksi ham xuddi o‘zi singari yaxlit bo‘lmog‘i kerak. Tabiatning tizimliligi, uning yaxlitlik harakteri tabiiy-ilmiy bilimlarning ham yaxlit bo‘lishini takozo etadi. Tabiatda narsa va xodisalarni bir-biridan ajratib, mutlaq cheklab ko‘yadigan chiziklar mavjud bo‘lmay, balki materiyaning harakat qilishida nisbatan mustaqil shakllar mavjuddir. Bunday harakatlar biri ikkinchisiga o‘ta borib, oxirida harakat va taraqqiyotning yagona zanjirini tashkil etuvchi butumlarga aylanadi. Xuddi shuningdek, o‘sha tabiat hodisalarini urganuvchi fanlar ham xech biri mutlaq mustakillikka ega bo‘lmay, balki faqat nisbiy mustaqillikka ega bo‘ladilar. Materiyaning harakat qilish shakllari, ya’ni ularning o‘rtasidagi bir-biriga o‘tish hodisalari ham "o‘tuvchi" fanlarda, ya’ni yaxlit bir fandan ixtisoslashgan shaklda ajralib chikqan fanlarda o‘z ifodasini topishi lozim. Bu xildagi "mutaxassislashgan" fanlar murakkab tarkibli bo‘lishi ham mumkin. Bunda ular boshqa fanlarning xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirmbgipa qolmay, balki uch va undan ham ko‘prok failarga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. O‘zining falsafiy asoslari bo‘yicha ular dialektik fanlardir, chunki ular o‘z tarkibida o‘zlari ajralib chiqqan fan elementlarini saqlab qolgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi tizimiy aloqani ifoda etadi, "aloqadorlik” birligini hamda "bir-biriga o‘tib turish"ni bir-biri bilan bog‘liq ekanligi, ya’ni yaxlitlikni namoyish qiladi; Ular shu jihatdan ikki xil shaklda ko‘rinadi. Bir tomondan ular fanlar tizimida integratsiya omili sifatida birlashtiruvchi bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, ixtisoslashuv yo‘lidagi yangi yo‘nalishni ifoda etadilar hamda bir-biriga qarama - qarshi bo‘lgan ikki tendensiya (dezintegrativ va integrativ tendensiyalar)ni birlashtirib, ularni yaxlit holga keltiradi.

Hozirgi vaqtda fanda ko‘pgina integratsiya kyluvchi omillar amal qilayotgan bo‘lib, bu xol integratsiyaning yaxlit bir tizimli hodisa bo‘lib qolganligini ta’kidlash imkonini beradi; shu jihatdan olgangda, fan krizis-buxron holatidan kutilib chikdi, deyish mumkin. Endigi muammo uning ko‘prok darajada uyushqoqlik ko‘rsatishi va tartibga keltirilishdadir. Hozirgi zamon sharoitida fanlarning differensiatsiya qilinishi jarayoni ularni bundai buyongi bir-biridan ajralib ketishiga olib kelmay, balki aksincha, ularning o‘zaro birlashib, jipslashib ketishiga olib keladi. Biroq, hozircha fanlarning ajralib borishiga batamom barham berilganicha yo‘q, ilmiy bilimning ayrim. uchastkalarida ba’zan uning hatto kuchayib borayotganligi kuzatiladi. Shunga qaramay, fanning integratsiya qilinishiga tomon, uning sintezi tomon siljish tendensiyasi bizning davrimizda nafakat tobora sezilarli balki belgilovchi jarayon ekanligi aniq ko‘rnmokda.

Fan darajasida, umuman olganda, falsafa ilmiy bilimlar integratsiyasining eng zarur omillaridan biri sifatida ko‘zga tashlanmokda. Integratsiyaning juda ko‘p turlari, tiplari va darajalari mavjuddir. Integrativ omillarni maxsus tadqik etib o‘rgangan olimlar ularni umumiylik darajasiga qarab xususiy va eng umumiy bo‘lgan integrativ omillarga ajratadilar. Natijada quyidagicha iyerarxiya vujudga keladi: qonun - usul - tamoyil - iazariya - ideya - metateoriya - aniq fan - metafan - aralash fan - majmui fan - olamning ilmiy manzarasi - falsafa. Bu yerda har bir omil o‘zidan oldin kelgan omilga nisbatan integratsiya kiluvchi rolni bajaradi. Har bir omilning integratsiya qiluvchanlik kuchi oxir-oqibatda qonuniyatlarning hamda ular aks eggiradigan predmet xususiyatlarning umumiylik-mushtaraqlik darajasiga qarab aniqlanadi. Shuning uchun nstagan bir aniq tarzdagi integratorlarni tekshirmamg. ularning har biri o‘zining muayyan chegarasiga ega bo‘ladi. Fan integratsiyasining aloxida olingan har bir xolatida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan integrativ omillar, fanlarni nisbiy yaxlitlikka tomon koordinatsiya hamda subordinatsiyalashtirib, ularning o‘zaro bir-birining tarkibiga singib borishiga, spetsifik - o‘ziga xos bo‘lgan mexanizmning yaratilishiga olib keladi.

Bu yerda falsafa, bir tomondan, o‘z funksiyasini bajarsa, ikkinchi tomondan, turli darajadagi mushtarak, integratorlik vazifasini ado etadi. Falsafa bunda eng umumiy integrator vazifasini bajaradi. Bu yerda uning fanlar ichidagi integratsiyalovchi funksiyasi faqat umumiy integratsiyalovchi funksiyasining boshqacha ko‘rinishini tashkil etadi. Bundan tashqari, uning

umumiy madaniy integratsiyalovchi funksiyasi ham yuqoridagi funksiyalar tarkibiga kiradi. Shuningdek, mazkur funksiya ijtimoiy hayotning turli jabhalarida mavjud bo‘lgan tarqoqlikni ham yengib o‘tishga, ijtimoiy uyushqoqlik va ijtimoiy strukturalar darajasini ifodalashga qaratilgan bo‘ladi. Moddiy ishlab chiqarish bilan ma’naviyatning, aqliy mehnat bilan jismoniy mexnatning, mafkura bilan fanning, san’at bilan fanning o‘zaro bir-biridan uzoklashib, begonalashib borishi to‘g‘risidagi vazifalar ham ana shu funksiya tarkibiga kiradi. Bashariyatning iqtisodiy-sinfiy, milliy, irqiy jihatlari bo‘yicha va davlat asoslari bo‘yicha bir-biridan uzoqlashib, begonalashib ketganligi to‘g‘risida galirib o‘tirmasa ham bo‘ladi.

Falsafaning mantiqiy-gioseologik funksiyasining vazifasi ushbu masalalar bo‘yicha falsafiy usulning o‘zini, uning mavjud tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, ilmiy bilishning u yoki bu tushunchalari va nazariy strukturalarini mantiqiy-gioseologik jihatdan asoslab berish ham mana shu funksiya tarkibiga kiradi.

Umumiy usul elementlarini takomillashtirib borish uchun zarur bo‘lgan axborotni ishlab chiqish, uni bilishning umumilmiy usullarini rivojlantirish, bilishga tizimli yondashuv, modellashtirishda, tatbiq etishda muhim rolni o‘ynaydi. Ilmiy nazariyalar tuzilishiga qo‘llangan Mantiqiy dialektika tamoyillari ularning mantiqiy asoslari tarkibiga ham kiritiladi.

Xususiy fanlarda tafakkur shakllari, uning qonunlari va mantiqiy kategoriyalari maxsus tarzda o‘rganilmaydi. Shunga ko‘ra ular mantiqiy-uslubiy vositalar ishlab chiqish zaruriyati bilan muttasil to‘qnashib turadilar. Bunday vositalar ularga qisqa bir muddat obyektdan "uzoqlashish", oxirida yana o‘sha obyektga "qaytib kelish" imkonini beradi. Bunday harakat vaktida ular o‘zlarining o‘sha obyekt to‘g‘risidagi haqikiy bilimlarini to‘g‘ri ekanligini boyitgan holda keladilar. Xususiy fanlar mantiq faniga, gnoseologiyaga, bilishning umumiy uslubiyatiga extiyoj sezadilar. Bu vazifani mantiq shaklida kelgan dialektika bajaradi.

Agar umumiy gnoseologiya obyektni xuddi o‘zidek ilmiy bilish imkoniyatlari va zaruriyati borligiga ishontirsa, mantik kabi dialektika mana shu muvofiklikka erishishni ta’minlaydi. U rivojlanib borayotgan obyektning muttasil ravishda o‘zgarayotgan moxiyatini mumkin qadar to‘larok, aniqroq aks ettiradigan vositalarni ishlab chiqadi.

Dialektika nazariy tabiiyotshunoslikning turli soxalarida bilish faoliyatining umumiy oriyentirlarini chizib bersa, tabiiyotshunoslik fanlari metodologiyasining eng yangi yutuqlari bilan birga bilishning tamoyillarini umumlashtirgan xolda falsafaning umumuslubiy funsiyasiga amaliy ahamiyat baxsh etadi.

Shunday qilib, biz falsafaning metodologik funksiyalarini qarab chikdik, birok falsafaning uslubiy imkoniyatlari yuqorida bayon kilinganlardanda kengroq va chuqurrokdir.

Umuman olganda, falsafa va falsafa tarixii, predmet yondoshuvlariga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi bir narsadir. Tarixiy bayon qilingan falsafa - bu falsafa tarixdir. Mantiqiy bayon qilingan falsafa esa filosofiyadir. Falsafa tarixsiz falsafa mavjud bo‘lmagani singari falsafasiz falsafa tarixi ham mavjud bo‘lolmaydi. Agar biz Sharq falsafasining tarixiy tarakqiyotini qarab chiqadigan bo‘lsak, biz bugungi Sharq falsafasining mohiyatini, uning asosiy muammolarini, bu muammolarning yechimini aniq bila olamiz. Xuddi shunday G‘arb falsafasining bugungi kundagi asosiy maktablari, oqimlari va ularda qo‘yilgan muammolarni tushunmoquchun biz albatta uningtarixini mukammal o‘rganib chiqmog‘imiz lozim.

Obyektivlik tamoyiliga ko‘ra Sharq va G‘arbda shakllangan falsafa va uning evolyutsiyasi har birining o‘zidagi sabab va oqibatlar silsilasi bilan uzviy bog‘liq. Bizning nazarimizga ko‘ra bugungi kunga kadar falsafa olamida Sharq va G‘arb falsafasining o‘ziga xos tarzda vujudga kelishi, rivojlanishi biror bir ilmiy tadqiqotda chuqur va aniq o‘z bayonini topgani yo‘q. Shunday bo‘lishiga qaramasdan biz bugun ular o‘rtasidagi o‘ziga xoslikni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Tarixiy nuqtai-nazardan qaralgaida qadimgi dunyo falsafasida u Xitoyda bo‘lmasin, Hindistonda. bo‘lmasin, Markaziy Osisda bo‘lmasin yoki u Qadimgi Gretsiyada bo‘lmasin olam va uning tuzilishi, taraqqiyot, inson, uning mavjudligi asosiy masala hisoblangan. O‘rta asrlar davriga kelib esa Sharqda ham G‘arbda ham din falsafasi hukmron madaniyat bo‘lib qoldi. Biz buni tasavvuf falsafasida, F.Akvinskiyning falsafiy qarashlarida ko‘ramiz. Xuddi shunday uygonish davri Sharqda ham, G‘arbda ham falsafaning yuziii insonga burdi, uning hayoti muammolariga

kararatdi. Uyg‘onish davri ayniksa Markaziy Osiyoda takrorlanmas fenomen sifatida ko‘rindi. Fan va falsafa tarakkibtiga Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino va boshqalarning qo‘shgan xissasi shunday darajadaki, buni biror narsa bmlan o‘lchab bo‘lmaydi. Ular nafaqat Markaziy Osiyoda uygonish davriping ijodkorlari, balki ular G‘arb madaniyatining uygonnshiga va rivojlanishita nixoyatda katta turtki bergan buyuk insoniyat iftixori bo‘lgan mutafakkirlardir. Yevropaning xozirgi zamom fani buyuk Xorazmiyning "Al-jabr"idan boshlansa, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" xozirgi zamon G‘arb tibbiyotining hamisha stolningustidaturadigan kitobi bo‘lib qolgan bulsa bunga yana qanday dalil kerak.

G‘arb uygonish davri ham xuddi shunday o‘ziga xosliklarga ega. T.Mor, T.Kompanellolar tomonidan utopik ijtimoiy hayot chizgilari zamimida Turon zamshshmizning buyuk mutafakkirlari Moniy va Mazdaqlarning falsafiy qarashlari yotadi. Chunki kariyb bir yarim ming yil ilgari ular tomonidan jamiyatdagi ziddiyatlarni bartaraf etish, adolatli hayot va uning tamoyillari, davlat boshqaruvini insonparvarlashtirishga oid nihoyatda nodir fikrlar bayon kilingan edi. Shu o‘rinda G‘arb sivilizatsiyasi uchun benihoya ahamiyatli bo‘lgan Avesto haqida kiska to‘xtalib o‘tmog‘imiz lozim.

Mazkur kitobda olamda ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi va ularning bir-birlariga qarshi kurashi, yaxshilik kuchlariga xudo Axura Mazda, yomonlik kuchlariga esa xudo Axriman boshchilik qilishi haqida, insonning hayoti, uning takdiri, baxti va baxtsizligi shu ikki kuch kurashm bilan bogliq ekanligi ko‘rsatiladi. Asarda kishilar o‘z amaliy ishlari va ahlokiy fazilatlari bilan yaxshilikka moyil ekanliklari, ular yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ruhlarga ko‘maqlashishlari lozim ekanligi, aks xolda, yomonlik tantana qilib, ular abadul-abad azob-ukubatlarda yashashi mumkinligi haqida gal ketadi. Bunda kishilarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari va qarashlari ularning amaliy faoliyati bilan bog‘langan xolda ko‘rsatilib, ular kishilar faoliyatini rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi kuchlar sifatida ifodalanadi.

"Avesto"da Sharq ma’naviy ummoni jamlangan va tizimga keltirilgan holda bayon qilingai. Uning kishilar hayotiga insoniylik, adolat, ezgulik kabi g‘oyalarni olib kirishda, joriy qilishda, yomonlik va yovuzlik, vayrongarchilik va zulm, adolatsizlikka qarshi kurashda, kishilarni yaxshilik bayrog‘i ostida birlashishda o‘ynagan roli benixoya kattadir.

Ayni vaqtda "Avesto" xalqiing o‘zini-o‘zi bilishida, o‘zining imkoniyatlarini xisobga olgan holda o‘zining kelajagini belgilay olishidagi aqlini ifodalashda ham insoniyat tarixida katta rol o‘ynadi. “Avesto"da ilgari surilgan g‘oyalar XIX asrda yashagan va ijod etgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe tomonidan yangi davrda, Yevropa sivilizatsiyasi nuktai-nazaridan qaraldi. U o‘zining "Zardusht tavallosi" nomli asarida "Avesto"da o‘rtaga ko‘yilgan kuchli shaxs g‘oyasini kalitalizm sharoitida ruxan zo‘riqqan, individualizm turmush tarzi ikir-chikirlari orasida umumiy hayot, umumiy turmush tarzi, madaniyati bilan sug‘orilgan kishilarni yuksaqlikka, insoniylikning oliy darajalari sari olib chiqishi mumkin bo‘lgan matonatli irodali va sergayrat shaxs timsolini va bu shaxsning ichki dunyosining uning ruxi bilan bog‘likligi, rux va iroda musaffoligi jamiyatdagi har qanday mayda-chuydalik tabiatiga ega bo‘lgan ziddiyatlardan uni xalos qilishlik kuchiga ega ekanligini ko‘rsatib berdi.

Bunga o‘xshash Sharq va G‘arb falsafiy g‘oyalari o‘rtasidagi izchillik kudrati bobida ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Bunga o‘xshash izchilliklar faqat bir narsaga yo‘naltirilgan, u ham bo‘lsa umuminsoniy ma’naviyatni yanada boyitish, umumplanetar "Men"ning insoniy qadriyatni yanada mukammallashtirish va dunyoda adolat, tinchlik va osoyishtalikni karor toptirishdan iboratdir.

Ma’lumki, XX asr ma’naviy olamida Yevropaning buyuk aqllilari xisoblangan Sartr, Kamyu, Yaspers, Marsel, Xaydegger tomonidan yaratilgan ekzistensializm falsafasi alohida o‘ringa egadir. Bu falsafaning markazida inson va uning mavjudligi turadi. Bunda inson o‘zining erkinligini amalga oshirnsh jarayonida o‘z-o‘zini yaratadi. Umuman, ekzistensializm falsafasi mana shu g‘oyalar zaminida shakllanadi va rivojlanadi. Siz o‘qiyotgan qo‘llanmada ekzistensializm falsafasi haqida baxoli kudrat ma’lumot beramiz. Lekin gal hozir ushbu falsafaning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaganligi haqida ketmokda. Inson va uning mavjudligi falsafa tarixida bizning nazarimizga

ko‘ra mukammal suratda tasavvuf falsafasida bayon qilingan. Buni biz Imom Gazzoliy falsafasida ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, Imom G‘azzoliy o‘z zamonining barcha ilmlarini o‘rganib ularga munosabat bildirgan allomadir. Uni kalom ilmining sxolastik usullari ham, falsafani haddan ziyod aqliy mushohadakorligi, ichki ziddiyati ham, ismoiliylarning biryoqlama qarashlari ham qonaotlantirmagan. G‘azzoliy har bir ilmga baxo berar ekan uning inson tabiati va ruhiyatiga kanchalik mos kelishi hamda inson kamolotiga xizmat qilishi mumkinligini asosiy mezon qilib oladi. U ulug‘ ruhshunos olim sifatida ish ko‘radi. Kalom ilmi o‘zining akidalari bilan inson yuragiga yo‘l topolmasligini, xudoni anglash va sevish uchun yetarli emasligini anglagan olim tasavvufda buni imkonlari borligini ko‘radi.

Bunda bilish jarayonining shariat, tariqat, ma’rifat, xaqiqat bosqichlari bo‘yicha borishi va bu jarayonning yangi ma’noda va mazmunda takrorlamib borishi insonning va insoniyatning o‘z-o‘zini bilishi va shu tariqa poklanishi, mukammallashishi jarayoni hamdir. Biz mutlaq kafolat bera olmaymizki, ekzistensializm falsafasining g‘oyaviy va ilmiy ildizlari tasavvuf falsafasiga, buyuk Sharq yaratgan inson falsafasiga borib takalmaydi deb. Xuddi shunday qarash tasavvuf falsafasi bilan nemis mumtoz falsafasini kiyoslashda ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Ma’lumki, sufiylar aqlning ikki shakli: ilohiy (eng umumiy) aql va insoniy (xususiy) aql haqida galiradilar. Albatta sufiylar talqinida ilohiy hukmlar silsilasini ko‘ramiz. Ammo mazkur silsilalar zamirida mukammal falsafiy tizimning mavjudligini mutlaqo unutmasligimiz kerak. Shu o‘rinda biz Markaziy Osiyolik sufiy faylasufdarimiz Platonning obyektiv idealizmidai xabardor bo‘lganliklarini ham e’tiborga olishimiz kerak bo‘larmikan?. G‘oya haqidagi ta’limotda Platon falsafasi, sufiylar falsafasi, Kant va Platoi tezis - antitezis - spntez shaklidagi dialektik taraqqiyotning bo‘ginlari emasmikan?. Mazkur bo‘g‘inlar mukammallik xukuqiga da’vogarlik qilayotgan umumjaxon falsafasining oltii ustunlari ekanligiii jaxom falsafiy ahli qachonlardir tan olganku! Masalan, faqat Razzoliy asarlarida 1145 yildan boshlab yevropa tillariga tarjima kilina boshlagan. O.Dante, F.Bekon, D.Didro. J.J.Russo, G.Gegel uni donishmand mutafakkir sifatida tilga olganlar. Bunga o‘xshash tarixiy faktlarni ko‘plab keltirish mumkin. Gal bularni mukammal tadqiq qilishdadir.

Yuqorida aytganimiz singari bugun jahon mamlakatlari taxlikali davrni o‘z boshidan kechirmoqdalar. Davrimizning siyosiy va mafkuraviy manzarasini Prezidentimiz I.A.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-sessiyasida so‘zlagan nutqlarida benixoya mukammal ifodalab bergan edilar. Prezidentimiz sessiyada so‘zlagan nutklarida muhim bir nazariy masalani ko‘tardilar, u ham bo‘lsa G‘arb bilan Sharq o‘rtasida sodir bo‘layotgan yangi ko‘rinishdagi munosabatlar harakteriga doir masaladir.

Hozirgi davr shunchalik kuchli iqtisodiy va harbiy imkoniyatlar bilan ham harakterlanadiki, ular asosida vujudga kelgan ziddiyatlarni faqat bir narsa, u ham bo‘lsa, aql hal qilishi mumkin ekanligini eng oliy xakam vakt ko‘rsatmokda. Biz buni Markaziy Yevropada vujudga kelgan va xal bo‘lgan ziddiyatda, Yaqin Sharqda vujudga kelgan va ma’lum darajada hal bo‘layotgan ziddiyatda va boshqa bir qator lokal ziddiyatlarning paydo bo‘lishi va yechimida ko‘rmokdamiz. Hozirgi zamon sivilizatsiyasida insoniyat takdiri tafakkurga va yana tafakkurga bogliq bo‘lib koldi. Masalaga bunday yondashish yana bir marta Sharq va G‘arb falsafasini mukammal o‘rganishning dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olinganda falsafa davrning abstrakt aqlidir. Unda ma’lum bir davrda ijtimoiy va ma’naviy hayotda sodir bo‘layotgan barcha munosabatlar taraqqiyot yo‘nalishlari, ziddiyatlar umumlashgan xolda aks etadi. U insoniyat tarixining shunday biografiki, unda nafaqat o‘tmish va hozirgi davrning eng umumiy jihatlari, balki ulardan kelib chiqqan holdagi kelajak ham o‘z aksini topadi.

Falsafaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni uning bajaruvchi funksiyalari orqali namoyon bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan xolda birinchi galda falsafa jamiyat a’zolarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bunda u nafakat ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o‘zida mukammal jamuljam qiladi, balki gumanitar, aiik va fundamental fanlar yikqan nazariy bilimlarni ham umumlashtirgan xolda jamiyat taraqqiyoti, fan - texnika taraqqiyotining istiqbollarini ham belgilab beradi.

Jamiyat a’zolarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda falsafaning o‘rni haqida gal ketganda shaxsning jamiyatga, ijtimoiy borliqqa, ijtimoiy ong shakllariga, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarga, e’tiqodlarga, tarixga bo‘lgan munosabati va uning tabiatini belgilashda falsafaning ahamiyati haqida aloxida to‘xtalmoq kerak.

O‘zbekiston mustaqillikni ko‘lga kiritishi bilan mamlakatda ijtimoiy hayotning mohiyati tubdan o‘zgardi. Jamiyat iqtisodiy hayoti bozor munosabatlari bilan harakterlanuvchi yangi munosabatlar tizimiga ko‘chdi. Natijada mehnatning mazmuni va harakteri o‘zgarib ketdi. Shaxsning tadbirkorlik ongi, farosati, qobiliyati va ijodiga keng imkoniyatlar ochildi. Jamiyatda taqsimotning sotsialistik tamoyillariga to‘liq barham berildi. Davlat va uning funksiyalari tubdan o‘zgardi va u o‘zining butun borlig‘i bilan jamiyat a’zolari tomon burildi. Mamlakat abstrakt kommunistik ideologiyadan mutlaqo yuz o‘girdi. Shunday qilib mamlakatda vujudga kelgan yangi ijtimoiy borliq kishilardan hayotga yangicha qarashni, munosabatni talab qildi. Albatta mazkur murakkablikni faqat bir tafakkur tamoyili - dialekxik tamoyil bilangina tushunish, unga moslashish, uni harakatga keltirishning yalovbardori bo‘lish imkoniyatini tug‘diradi. Jamiyat taraqqiyotining ziddiyatlashganligi, sabab-oqibat munosabatlarining tizimli ekanligini, bir sifatdan ikkinchi sifatga ketma-ketlik bilan o‘tish ijtimoiy borliqning larzasiz yangi sifatga ega bo‘lishi mumkin ekanligini bilish, unga tushushish nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Ikkinchi jihatdan, jamiyatning bir butunligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaguvchi qadriyatlarga bo‘lgan munosabat ham xuddi shunday harakterga egadir. Ma’lumki. qadriyatlar va unga bo‘lgan muiosabat ma’lum darajada ijtimoiy inersiyalilik harakteriga ega. Ko‘nikuvchailik va unga mute’likni shakllantirishda ushbu inersiyaning roli kattadir. Fukarolarimiz orasida mustaqillikka o‘n to‘rt yildan ortik vakt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdal sotsializm davridagi u yoki bu xolatlarni qo‘msashni uchratamiz. Bu ko‘msash ayni vaqtda mustaqillikni mustaqkamlashga jiddiy zarar ekanligini faxmlayvermaymiz. Agar mazkur fuqarolarda o‘tmishni ko‘msashning o‘rniga bozor muiosabatlarining moxiyatini tushunish ustuvorlik qilganda jamiyat taraqqiyotm bugupgi kundanda tezrok rivojlamgan bo‘lar edi. Endi gal mustaqillik borlig‘mga mos va xos, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi qadriyatlarni milliy an’analarimiz va turmush tarzimizdan kelib chiqqan xoldayaratishdan va uning xalqchilligini ta’minlashdan iboratdir.

Yakkaxokim sotsialistik mafkuraning jamiyat hayotidan surib chiqarib tashlanishi va yangi mafkuraning yaratilishi jamiyatda dinga bo‘lgan munosabatni ham tubdan o‘zgartirdi. Yangi munosabat so‘zsiz falsafaning kuchi va imkoniyatlariga tayanadi. Bugungi kunda din jamiyat hayotida muhim rol o‘ynovchi ma’naviyat, madaniyat, qadriyat, ta’limot hisoblanadi. Biz dinning bosh tushunchasiga "Olloh bizning qalbimizda va yuragimizdadir" deb qaraymiz. Qayta qurilayotgan, demokratik jarayonlar tobora chuqur va keng miqyosda amalga oshirilayotgan yurtimizda dinning o‘rni va roli tobora ortib bormokda. Bugungi kunda din fan zidi bo‘lmasdan, balki dunyoviy hayotga hamnafas bo‘lgan qadriyat sifatida ko‘rinmoqda. Bu holatlarni tushunish va tushutirib berishda falsafaning o‘rni va roli benihoyadir. Falsafadagi inkorning dialektik harakteri mazkur jarayonlarning mag‘zi-mag‘zidan o‘tib uning mohiyatini ifodalashga xizmat qiladi.

Ayni vaktda falsafa ijtimoiy hayotda g‘oyaning o‘rin va roli masalasini tushuntirib berishda ham muhim ahamiyatga egadir. Ma’lumki, falsafa fanligidan tashqari mafkura hamdir. Lekin uning bu ikki funksiyasi bir-biridan ma’lum jihatlari bilan farklanadi. Chunki, mafkuraning o‘zi mustaqil ijtimoiy ong shakli sifatida mavjud bo‘ladi va u ma’lum bir sinf, millat, jamiyatning manfaatini aks ettiradi. Va shu jihatdan u tabiatiga ko‘ra nazariy harakterga ega bo‘lgan falsafaga murojaat etadi. Falsafa hamisha istalgan mafkuraning nazariy asosi bo‘lib kelgan. Milliy istiqlol falsafasining ham nazariy asosini falsafa tashkil qiladi. Falsafiy tamoyillardan kelib chiqqan xolda biz jamiyat falsafasiz mavjud bo‘lolmaydi, degan aksiomaga tayanamiz. Lekin hamma gal jamiyatning qanday mafkuraga tayanishida, qanday mafkura atrofida birlashishida va qanday mafkuraning ketidan borishishidadir. Yurtboshimiz milliy istiqlol falsafasi hakida galirganlarida "... ko‘p millatli O‘zbekiston xalqini ezgu g‘oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu-intilishlarini, hayotiy ideallarini o‘zida aks ettiradi. Milliy g‘oya va milliy istiqlol falsafasi hakida gal borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi xali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o‘zimizda

tasavvur qilishimiz kerak, deb o‘ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaki, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g‘oyalarning ma’no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha’nu-sharafi, or-nomusi, ishonch-e’tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan goyalar tizimidir" deb yozgan edilar.

Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maksadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’iy nazar har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaxo merosi, milliy qadriyat va an’nalarimizga munosib bo‘lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insopni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol falsafasining bosh maqsadi ekanligi Prezidentimiz I.Karimov o‘zlarining "Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobining so‘zboshisida ko‘rsatib berganlar: "Shu narsani alohida ta’kidlamoqchimanki, - degan edilar yurtboshi ushbu kitobda, - milliy g‘oya va istiqlol falsafasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilar ma’naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir".

Milliy istiqlol g‘oyasining ijtimoiy qadriyatini bilish, uni o‘z kalbi va ongiga singdirish, e’tiqodiga aylantirish amaliyotining muhim vositasi rolini falsafa bajaradi. Milliy istiqlol g‘oyasi turli xildagi qarashlar, fikrlar uyg‘unligi asosida shakllanadi, rivojlanadi. Ayni vaqtda u fukarolarimizdan tafakkur erkinligini yanada rivojlantrish va takomillashtirishni talab qiladi va shunga xizmat ham qiladi. Shu xolatdan kelib chiqib, xilma-xil qarashlar va fikrlarni, sog‘lom, progressiv dunyoqarashga keltirish, sog‘lom duneqarashni kishilarning turmush tarziga aylantirish ayni vaktda chuqur falsa.fiy muloxazani talab qiladi. Buning uchun biz xilma-xil qarashlar, oqimlar, ta’limotlar, konsepsiyadar tarixi bo‘lgan falsafa tarixiga qayta-qayta murojaat qilishimiz, qarashlar jangidan ongli xulosalar chiqarishga o‘rganmog‘imiz kerak bo‘ladi.

Shunday qilib falsafa madaniyat, mafkura, san’at, donolikka muhabbat, dunyoqarash, metodologiya sifatida jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Unga inson qanchalik mehr-muhabbat bilan yondoshsa, u hayotdan shunchalik mehr-muhabbat ko‘radi. Chunki u falsafa yordamida hayotdan mehr-muhabbatni topishga, uni qadrlashga o‘rganadi. Falsafa insonni o‘zini-o‘zi,bilishga, tushunishga, shu orqali o‘zgalarni ham xuddi shunday bilishga va insonni eng ulug‘ qadriyat sifatida kadrlashga o‘rgatuvchi universitetdnr. Ayni vaqtda falsafa benixoya aniq qoidalar tariflar, tamoyillar, kategoriyalar, qonunlarga asoslangan aniq fan hamdir. U mulohaza, fikrlash orqali tushunadigan eng qiziqarli fandir. Falsafani tom mazmuni bilan egallagan inson uchun hayotda, jamiyatda, fanda ochilmagan eshikning o‘zi bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari:

Ma’maviyat tushunchasi qanday ma’nolarni ifodalaydi?

Sharq xalqlari ma’naviyati, madaniyati vafalsafasi nimalarda ko‘rinadi?

G‘arb xalqlari ma’naviyati, madaniyati va falsafasi nimalarda ko‘rinadi?

Sharq va G‘arb ma’naviyatidagi umumiylik nimada ko‘rinadi?

Sharq va G‘arb manaviyatidagi xususiylik nimada ko‘rinadi?

Hozirgi davr mafkuraviy manzarasini tushunishda ma’naviyatning o‘rni va roli nimada?

Adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston 2003.

Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o‘z tanlagan yo‘lidan qaytara olmaydi. (I.Karimovning "O‘zbekiston" televideniyasi uchun maxsus intervyusi), Xalq so‘zi, 2004 yil 30 mart;

Karimov I.A- Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.O‘zbekiston , 3998.

Karimov I.A. Jamiyatimiz falsafasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O‘zbekiston , 1998.

M.Sharifxo‘jayev. O‘zbekiston : yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. T.: Sharq, 2002.

S.Jo‘rayeva. Haqiqat manzaralari. T.: "Yangi asr avlodi", 2002.

F.Sulaymonova. Sharq va G‘arb. T.FAN, 2001.

Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T,, 2000.
Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., Moliya instituti 2000.
N.Mamatov, O.Jumayev Fukarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim omili. Toshkent 2004y.
Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafatarixi. T-; 2002 y. (9-16 betlar)
S.Yo‘ldoshev va boshk. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.

## 2-mavzu: QADIMGI SHARQ MA’NAVIYATI VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI

**REJA:**

**1. Ma’naviyat tafakkurning qadimiy ildizlari. Misr va Bobilda falsafiy fikrlar.**
**2. Qadimgi Hindistonda paydo bo‘lgan ma’naviy ta’limotlar va maktablar.**
**3. Qadimgi Xitonda yuzaga kelgan ma’naviy yo‘nalishlar.**
**4. Qadpmgi Turon xalqlarining diniy manaviy qarashlari.**

Oddiy tasavvurga ko‘ra Quyosh Sharqdan chiqani kabi, falsafiy qarashlarning paydo bo‘lishi ham qadimiy Sharq xalqlari taffakuriga borib taqaladi.

Qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va madaniyati, ularning afsonaviy, diniy, axloqiy, siyosiy va huquqiy badiiy-estetik va falsafiy tasavvur va qarashlari, ularga xos mazmunlar haqidagi bilimlar antiq davr mualliflari asarlarida, arxiologik manba’larda, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari: afsonalar, dostonlar va rivoyatlarda aks etgan.

Dastlabki falsafiy tasavvurlar va qarashlar Sharqning eng qadimgi mamlakatlaridan bo‘lgan Bobilda eramizdan oldin 4-ming yillikning boshlarida paydo bo‘ladi. Shu davrlardayek odamlarning dunyoda ro‘y berib turadigan xilma-xil xodisa va voqealarga bo‘lgan munosabatlarlari va qiziqishlarini, garchi hali sodda va yuzaki, ibtidoiy shaklda bo‘lsa-da, o‘zida aks ettirgan falsafiy qarashlar paydo bo‘la boshlagan. Buni bkz kadimgi Bobil adabiyotining ko‘zga quringan mashhur asarlaridan biri «Gelgamish haqida doston»da, undagi tuproq, suv, xavo, issiqlik va sovuklikning inson hayoti va tirikchiligining abadiy manbai ekanligi, Gelgamishning obihayot qidirib, boshidan kechirgan sarguzashtlari, chekkan azob-uqibatlari, odamlarming tabiiy qonunlar asosida yashashlari zarurligi, kishilarning hayot va o‘lim sirlarini bilishga azaldan intilib kelishlari hakida qilingan xikoyalardan yaqqol bilib olamiz.

«Adona haqida doston»da esa insoniyat hayotida yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik boylik bilan qashshoqlik bir-biriga tubdan qarama-qarshi va zid ekanligi haqidagi fikrlar ifodalangan. «Jafokash avliyo haqida doston», «Xo‘jayinning quli bilan suhbati» kabi asarlarda biz buning yaqqol guvohi bo‘lamiz. Eslab o‘tilgan birinchi dostonda baxt va baxtsizlik, adolat va adolatsizlik haqida, ularniig sabablari va bartaraf etish usulari hamda yo‘llari xususida dastlabki falsafiy tasavvurlar va g‘oyalar bayon etilgan.

Jamiyat ishlab chiqarishi o‘rtaga ko‘ygan talablar, inson amaliy faoliyati tug‘dirgan extiyojlar asosida Bobilda tabiat hodisalari haqida, ularning mazmunini tushunib olib, ulardan turmushda foydalanish zarurati, maxsulot va narsalarning miqdorini aniqlash, og‘irligi va uzunligini o‘lchash, ishchi kuchlarning samarasini belgilash, binolar hajmini topish dalalarning yer satxini xisoblab chiqish zarurati dastlabki arifmetik va geometrik bilimlarning paydo bo‘lishini taqozo etadi. Bu narsa o‘sha davrlardayok takvimning paydo bo‘lishiga olib kelgan va odamlardan astronomiya sohasida ma’lum bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shu asosda Bobilliklar quyosh soati, Quyosh ko‘rsatgichi va uning 12 bo‘lakka bo‘linishini azaldan bilishgan. Antik davr ma’lumotlariga ko‘ra, Bobilda matematika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda, tibbiyot, tarix, geografiya, filologiya, musiqa, tasviriy san’at, astrologiya kabi bilim soxalari asta-sekin kurtak yoza boshlagan.

Qadimgi Misr ham jahon madaniyatining eng qadimgi o‘choqlaridan biri bo‘lib, unda ham ilk madaniy yodgorliklar eramizdan avvalgi to‘rt ming yillikning boshlarida vujudga kelgan. Bobil madaniyati kabi kadimgi Misr madaniy yodgorliklarida ham xalq donishmandligining hamma turlarida o‘sha davrdagi yuktimoiy, iqtisodiy hayot, tabiat hodisalariga munosabat kishilarning

ijimoiy, siyosiy, ahlokiy, huquqiy, ularning sintezi bo‘lgan falsafiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan.

Qadimgi misrliklar suvni odamga ozik-ovqat yetishtiruvchi, inson uchun dastlabki ulug‘ ne’mat, deb bilganlar. Suv ularga butun tabiatning, hayotning asosi bo‘lib ko‘ringan. Ular Nil daryosini ilohiy bir mo‘jiza deb, tabiatdagi o‘simlik va daraxtlarga talpinganlar. Qadimgi misryaiklar astronomiya sohasida ba’zi bilimlarga ega bo‘lib, sayyoralarni yulduzlardan ajrata bilganlar, aloxida yulduzlar haritasini va har hil taqvimlar tuzganlar.

Qadimgi Misrda tibbiyot juda rivojlangan, misrliklar kasalliklarning juda ko‘p turlaridan xabardor bo‘lishib, tashhis qo‘yish soxasida katta tajribalarni qo‘lga kiritganlar.

Qadimgi misrliklar, ayniqsa qurilish, arxitekturaga, san’atning juda ko‘p turlariga, xisob-kitob, o‘lcham va chizmachilik, matematik va astronomik bilimlarga egaligi jihatdan boshqalardan tubdan farq qilishgan. Haqiqiy ma’noda ular geometriya va astronomiyaga oid bilimlarning ilk yaratuvchilari bo‘lishgan. Misr exromlari-piramidalar buning rad qilib bo‘lmas hayotiy guvohlaridir.

Umuman, Qadimgi Bobil va Misr xalqlarining madaniyati, urf odatlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, badiiy, axloqiy va falsafiy qarashlari butun qadimiy Sharq xalqlari kabi diniy qarashlar bilan sug‘orilgan bo‘lgan. Ularning bu qarashlari nasldan-naslga, avlodlardan-avlodlarga o‘tib, Sharqdagi boshqa ko‘pchilik xalqpar madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Buni biz qadimiy Hindistonning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

2. Qadimgi Hindiston o‘zining boy tarixi va madaniyatiga, diniy va falsafiy ma’lumotlariga ega bo‘lgan. Hindistonda eramizdan 3 ming yil muqaddam yerni sun’iy sug‘orish, dehkonchilik tarakkits etgan anhorlar kazilgan, kulolchilik, yog‘ochsozlik, to‘qimachilik, zargarlik, hunarmandchilik, pishik g‘ishtlardan ko‘p kavvatli binolar kurish, jun va zigir tolasidan matolar tayyorlash, mis va temir, kalay va qo‘rg‘oshindan kurol-aslaxalar yasash taraqqiy etgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Hiidiston» asarida yozilishicha, eramizning birinchi asrlaridayoq Hindistonda tibbiyot, riyoziyot, ilmi nujum, kimyo, musika, poeziya, tarix, san’at va falsafaga oid bilimlar keng rivojlangan bo‘lgan. Ayniqsa. noyob tabiatga, sahiy zaminga, ajoyib nabotot va xayvonot olamiga boy bo‘lgai Qadimgi Hindistonda madaniyat va san’atga oid, diniy, falsafiy qarashlar keng rivojlangan. Bupga bizgacha yetib kelgan «Ramayana», «Maxabharat» («Maxayana»), «Kamila va Dimna» kabi buyuk asarlar to‘liq guvoxlik beradi. Bu buyuk nafosat va betimsol xikmat xazinasi bo‘lgan asarlarda hind xalqining kadimiy urf-odatlari, an’analari, odob-axloki, madaniyati, diii va tarixi, milliy qadriyatlari bilan birga, ularning ijtimoiy-siyosiy, xukukiy badiiy va falsafiy qarashlari yorkin ifodasini topgan.

Bulardan tashqari, kadimiy Hindistonda falsafiy fikrlar to‘rtga Vedalarda ham ifodalangan. Ular: Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Atharvavedalardir. Bu vedalardan eng muhimi Rigveda bo‘lib, u eramizdan 1500 yil oldin paydo bo‘lgan. Bu Vedalarda diniy qarashlar bilan birga olam, borliq fazo va vaqt inson, inson hayotining ruhiy va tabiiy asoslari, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi alokadorlik, ilohiy kuchlar, ularning faoliyatlari hakida muhim falsafiy fikrlar va qarashlar ilgari suriladi. Keyinchalik bu vedalarni turlicha tushunish asosida ularni turlicha talqin etuvchi falsafiy maktablar vujudga keladi. Bu maktablar o‘z g‘oyaviy yo‘nalishlariga ko‘ra ikki oqimni tashkil qilishadi. Birinchi oqim tabiiy materialistik yo‘nalishda bo‘lib, uni buddizm, hinduizm, jaynizm, lokayata va chorvaka maktablari tashkil qiladi. .

Ikkinchi oqim esa diniy idealistik yo‘nalishda bo‘lib, unga vedanta, mimansa, sankxiya, yoge, n’yaya, vaysheshika, maktablari kiradi.

Bu yukoridagi maktablardan lokayata va chorvaka maktablari xaqikiy real dunyo, deb insonlar yashaydigan dunyoni tushunadilar. Ularning tarafdorlari dunyoni, tabiat hodisalarini, ular qanday bo‘lishsa, xuddi shunday tushunmok va tushuntirmok kerak, degan talabni ilgari suradilar. Ular nuktai nazaricha, butun borliq: olov, suv, havo, tuproqning yig‘indisidan iborat bo‘lib, inson ham ana shu to‘rt unsur birikmasidan tashkil topgan. Chorvakalar dunyoni hech kim yaratgan emas, balki uning asosida to‘rt moddiy elementlar birligi yotadi, deb hisoblaydilar. Ular: «Olovni kim

issiq qildi, suvni kim sovuq qildi?» va kabi savollar berib, «Ularning hammasini shu hodisalarning o‘zidan kidirish kerak», - deb javob qaraytaradilar.

Lokayata maktabi vakillari, hayotning murakkab shakllari uning oddiy shakllarining uzoq davom etgan evolyutsiyasi tufayli vujudga keladi, deyishadi. Ularning fikricha, inson bir marta yashaydi. Shuning uchun u baxtli hayot kechirishga, o‘zining oqilona ehtiyoj va manfaatlarini qondirishga intilishi kerak. Bunday falsafiy qarashlar qadimgi Xitoyda ham vujudga keladi.

3. Qadimgi Hindiston kabi, qadimgi Xitoy ham Sharqda yirik o‘choklardan biri bo‘lgan. Eramizdan 2000 yil ilgari bu yerda ham dehqonchilik keng taraqkiy etib, sug‘orish ishlari ancha rivojlanadi. Bu yerda ham metaldan, xususan, temirdan mexnat kurollari ishlab chiqarish avj oladi. Qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya, hunarmandchilik, savdo-sotiqning ravnaqi turli bilmlarning rivojlanishi uchun keng yul ochadi. Natijada, qadimgi Xitoyda, astronomiya, biologiya, tibbiyot, san’at va madaniyat sohalari katta yutuqlarga erishadi. Bu yerda ham dastlabki falsafiy ta’limotlar paydo bo‘lib, ularda dunyo abadiy, u 5 unsur - olov, suv, yer, daraxt va metalldan tashkil talgan, degan qarashlar ilgari suriladi.

Eramizdan oldingi VP-VI asrlarga kelib, Xitoyda daosizm falsafiy okimi paydo buladi. Uning asoschisi Lao-Szi, birinchi Xitoy faylasufidir. U dune moddiy, u tabiiy qonunlar asosida to‘xtovsiz harakat va o‘zgarishda bo‘ladi, deydi. Lao-Szi o‘zi bu xakda shunday yozadi: «Ulug‘ dao hamma yokqa qarab okadi. U o‘ngga ham, so‘ngga ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudod tu-iladi, ular hamisha o‘zgarishda bo‘lib, bir joyda to‘xtab qolmaydi».

Daosizm falsafiy ta’limotiga ko‘ra dunyodagi hamma narsalar qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog‘liqligi asosida, bir-biriga zid xolda aylanib, o‘tib turadi. Tabiatdagi go‘zallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yo‘g‘lik, uzunlik va qiskalik bir-biriga o‘tadi, bir-birini tug‘diradi, bir-biriga bog‘liq. Tabiatdagi barcha xodisalar karama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi.

«In» va «Yan» qarama-qarshi kuchlar va tabiatning «5 unsuri» haqidagi ta’limotni Szou Yan ishlab chiqadi.

Qadimgi Xitoy falsafiy qarashlarida Konfuiiyning (Er.avval 551-479 yillar) axloqiy ta’limoti ham muhim o‘rin tutgan. U o‘zinig falsafiy qarashlarida kishilarni tarbiyalash masalasiga katta e’tibor karatadi. Uning fikricha, odamlar o‘z tabiyatiga ko‘ra bir-biriga o‘xshashdirlar, fakat ular o‘z tarbiyalariga ko‘ra bir-birlaridan fars qiladilar.

Konfutsiyning ta’limotida Li degan tushuncha alohida ahamiyatga ega. Bu tushuncha «Tartib», «Marom» degan ma’nolarni anglatadi. «Li» bo‘lmasa, jamiyatda tartib bo‘lmaydi, demak, jamiyat ravnaq topmaydi. Shuning uchun jamiyatda doimo tartib bo‘lishi zarur», - deydi u. Xullas, Qadimgi Xitoydagi falsafiy ta’limotlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bu yerda ham materialistik va idealistik tendensiyadagi falsafiy okimlarning guvohi bo‘lamiz. Masalan, ko‘pchilik qadimgi Xitoy faylasuflari tushuncha, predmetning nomi bilan reallikdagi predmetning. o‘zaro munosabati to‘g‘risidagi muammoni hal qilishga qizikqanlar. Mo Di (Mo-Szi), Syun-szi va boshqalar tushunchalar («nomlar») obyektiv hodisalar va narsalarning mnson ongida!'i in’ikoslari, desalar, Gunsun Lui tushunchalarni mutlak mohiyat, deb qarab, ularni borliqdan uzib ko‘yadilar. Umuman. Kopfutsiy va Myan-Szining-axloqiy siyosiy nazariyalari, Xan Fey-szi va «qonunchilar» maktablari vakillarining davlat va hukuq to‘fisidagi fikrlari hakida ham ma’lum mulohazalar aytish mumkin. Bular Qadimgi Xitoy fadsafasinyng «oltin davri»ni tashkil qiladi.

Eramshning 1-chi asrida Xitoyga buddizm dinining falsafiy ta’limoti kirib keladi va tarkala boshlaydi. Nixoyat, buddizm Xitoyda daosizm va konfutsiychilik bilan birlikda Xitoy xalqi falsafiy tafakkurining yetakchi ko‘rinishlariga aylanadi.

4. Markaziy Osiyo- Qadimiy Turon jaxon ilf-fani. madaniyati va ma’naviyati rivojiga ulkan xissa qo‘shgan mintakalardan birp bo‘lgan. Hozir O‘zbekiston, deb ataluvchi bu xudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki butun jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini bugun jahon tan olmoqda. So‘nggi tarixiy va arxiologik tadqiqotlar bu mukaddas zaminda odamzodning ilk ajdodlari faoliyat ko‘rsatganliklaridan dalolat bsradi. Shu jihatdan Sharq Markaziy Osiyo insoniyat ilk paydo bo‘lgan mintaqalar qatoriga kiradi.

Miloddan avvalgi V-SH ming yillarda mintaqamizning markaziy va shimoliy rayonlarida qishloq xo‘jaligi, chorvachilik bilan birga, xunarmandchilik, konchiliq, mis, oltin va temir eritish, metallardan har xil mexnat va harbiy qurollar yasash, to‘quvchilik, binokorlik. zargarlik soxalari tarakkiy etgan. Bu hududda Sug‘diyona, Baktriya, Xorazm kabi dastlabki shahar-davlatlar paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyo xalqlarining eng buyuk madaniy muvaffaqiyatlaridan biri - bu xududda yozuvning ixtiro etilganligidir. Bu yerda yozuvning tarixi eng qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi 1 minginchi yillikning boshlaridayoq oramiy yozuvi, uning negizida xorazm yozuvi, Avesto yozuvi, sug‘d yozuvi, kushon yozuvi, nihoyat, yunon yozuvi, yangi eraning boshlaridan O‘rxun-Enasoy yozuvlari, uyg‘ur yozuvlari vujudga keladi. Yozuvning ixtiro kilinishi insoniyat ma’naviyat imkoniyatining kengayshiga, ilm-fan va bilimlarning yanada boyib borishiga, kishilar falsafiy tafakkurining rivojlanishiga olib keladi».

Xullas, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbeklarning tarixiy ildizlari, madaniyati, ijtimoiy, siyosiy, diniy-axloqiy va falsafiy qarashlari shakllanishining ilk davrlari ana shu qadim zamonlarga borib taqaladi.

Bizning Markaziy Osiyoda yashagan qadimiy avlod-ajdodlarimiz falsafiy fikri haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishimizda qadimiy xalq og‘zaki ijodiga oid afsona va rivoyatlar, kadimgi Hind, Xitoy va Yunon tarixchilarining asarlari, «Avesto», «Bexistun», «Bundaxshin» va shular kabi yozma yodgorliklar, jumladan, Turk O‘rxun-enasoy runiy matnlari muhim manba’lar sifatida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ular ichida «Avesto», Sharq, shubhasiz, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ma’naviyat madaniyat, xususan, falsafiy qarashlarini o‘rganish uchun bebax.0 manba’dir. Bu asar bizga qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ilk tabiiy-ilmiy tasavurlari, ijtimoiy-siyosiy, diniy va falsafiy fikrlarining shakllanishini aniqlash uchun juda boy manba’ bo‘lib xizmat qiladi. Biz «Avesto»ga murojaat kilganimizda, undagi diniy mifologik va falsafiy jihatlarni bir-biridan farklashimiz lozim. Chunki unda juda ko‘p masalalar insoniy munosabatlar asosida yoritilib, undagi asosiy g‘oyalar iloxiy kuchlar-xudolar xoxish-irodasini bajo keltiruvchi kuchlar qiyofasida namoyon bo‘ladi.

«Avesto», tadqiqotchilarning yozishicha, 21 kitobdan iborat bo‘lib uning 7 kitobi dunyo va inson zotining o‘tmishi haqida, 7 kitobi inson ahloki, uning huquqlari haqida va nixoyat, 7 kitobi tibbiyot, ilmiy-hay’at hamda aniq fanlarga oid bilimlar haqida bo‘lgan. Bu asar mazmunini tashkil etgan diniy-falsafiy g‘oyalar miloddan ilgarigi bir qancha asrlar davomida shakllanib, to‘planib, rivojlantirilib borilgan. Nixoyat, miloddan ilgari VI-V asrlarda Zardusht tomonidan tartib berilib, kitob holiga keltirilgan. Bu asar zardushtiylik dinniy-fasafiy ta’limotining muqaddas kitobi sifatida o‘zida ajdodlarimizning tabiat, borliq, olam, jamiyat, inson, uning hayoti, axloqi, xukuklari, burchi kabi masalalar yuzasidan dastlabki diniy falsafiy qarashlarini ifodalaydi.

Afsuski, bu kitobning turtdan bir kismigina bizgacha yetib kelgan, xolos. Hozir mavjud «Avesto»: «Gotlar», «Yashta» (yoki «Yasna») va «Videvdat» qismlardan iborat bo‘lib, ulardan «Gotlar» eng kadimgi, deb hisoblanadi. Qolgan qismlari esa sosoniylar davrida qayta tiklangan bo‘lib, unga sosoniylar davlati manfaatlari asosida taxririy o‘zgarishlar kiritilgan. Shu sababli ko‘pchilik tadqikotchilar «Avesto»ning falsafiy g‘oyalarini tahlil qilishni uning «Gotlar» qismidagi zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limotining insonga, insonni jamiyatdagi o‘rni va rolkga munosabatini ko‘rsatishdan boshlaydilar.

Zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limotiga ko‘ra, olamda ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari bo‘lib, ular bir-birlariga qarshi kurash olib boradilar. Yaxshilik kuchlariga xudo Axura Mazda, yomoilik kuchlariga xudo Axriman boshchilik qilishadi. Insonning hayoti, uning takdiri, baxti va baxtsizligi shu ikki kuch kurashi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladi. Bunda indon bu faoliyatning subyekti sifatida emas, balki xudolar ta’sir ko‘rsatadigan obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda kishilar o‘z amaliy ishlari va ahlokiy fazilatlari bilan yaxshilikka moyil ekanliklari, ular yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ruhlarga ko‘maqlashishlari lozim, aks holda, yomonlik tantana qilib, ular ababul-abad azob-ukubatlarda yashashi mumkinligi aytiladi. Bunda kishilarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari va qarashlari ularning amaliy faoliyati bilan bog‘langan holda ko‘rsatilib, ular kishilar faoliyatiny ragbatlantiruvchi, yo‘naltiruvchi kuchlar sifatida ifodalanadi. Masalan, asarda shunday deyiladi: «Don ekkan kishi takvadorlik urukini ekadi. U

(Ahura) Mazdaga ixlosmandlik e’tiqodini olg‘a suradi, u (o‘z) iymonini oziqlantiradi». «Ekin ekish, demak, yerdagi yovuzlikni yo‘kotishdir, chunki don ekilgaada, devlarni ter bosadi, devlar tegirmonda unga aylantirganda, devlar gangib qoladi, un tegirmondan chiqqanda, devlar sarosimaga tusha boshlaydi, non paydo bo‘lgan paytda, devlar qo‘rqqandaridan zo‘r berib, dod solib qochadilar».

«Avesto»da insoniyat tarixi haqida ham fikr yuritilib, unda aytilishicha, birinchi paydo bo‘lgan odam Ilmadir. Boshqa odamlar keyinchalik undan tarkalgan. Ilma yashagan davr insoniyatning oltin davri, deb tasvirlanadi. Bu davrda odamlar o‘lmaydilar, ularga abadiy baxor yaratilgan bo‘ladi, ular baxtli va farovon yashaydilar. Birok shunday bir paytda odamlar takiklangan mol go‘shtini yeb, gunoh qilib ko‘yishadi. Bumdan g‘azabi kelgan Angra manyu («Axriman») xudosi ularga kor va sovukni yuboradi. Ilma shunda uy kurib, odamlarni va bir juftdan hayvonlarni saqlab qoladi. Shundan boshlab, insoniyat tarixining birinchi davri oltin davri tugab, ikkinchi-yaxshilik va yomonlikning kurash davri boshlanadi. Bu davrda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi keskin kurashlar so‘nggida xudo Ahura Mazda xudo Axriman ustidai g‘olib chiqadi va oaxtli hayot saltanati karor topadi. Bu insoniyat tarixining uchinchi davri bo‘lib. iisoiiyatning kelajagi davridir. Bu davrda kishilarning baxt-saodat, adolatli jamiyat haqidagi orzu-umidlari O‘shaladi. Bu davrda oldin o‘lganlar tiriladi, gunohkorlar jazolanadi. Jamiyatda mexnatsevarlik, adolat. xalollik, poklik, yaxshmlik asosiy o‘rinni egalaydi.

«Avesto»da kuyidagi uch jihat insonning insoniyligini ta’minlovchi asrssiy fazilatlar ekanligi aytiladi. Bular: 1). Ezgu fikr; 2) Ezgu so‘z; 3) Ezgu nsh (amal)dir. Mana shu fazilatlarga ega bo‘lgan inson oliy haqikatga mO‘sharraf bo‘ladi. Bularga erishishning asosiy vositasi mehnat qilish, o‘rganish, izlash, o‘z ustida tinmay ishlashdir. Xullas, «Avesto»da ilgari surilgan diniy-falsafiy ta’limot, zardushtiylik g‘oyalari keyingi davrlar Sharq va Yevropa diniy-falsafiy ta’limotlarining shakllanishi va paydo bo‘lishida juda katta o‘rin tutgan va rol o‘ynagan. Buni bugungi kunda ko‘pchilik tadqiqotchilar adolat gozasidan holislik bilan kayd qilishmoqda. Buni bizning xududimizda zardushtiylik ta’limoti ta’sirida undan keyin paydo bo‘lgan moniylik, mazdakiylik va shu kabi ta’limotlarida ham ko‘rish mumkin. Biz Markaziy Osiyo qadimiy xalqlarining falsafiy tafakkuri taraqkiyotini o‘rganish uchun «Avesto»dai keyingi manixeychilik bilan tanishishda buning yaqqol guvoxi bo‘damiz, Monixeychilik yoki Moniylik ta’limoti eramizning 3-asrida shimoliy Eronda vujudga keladi. Uning asoschisi Moniydir (216-276 yilar). Moniychilik, tadqiqotchilarning yozishicha, zardushtiylik va xristianlik hamda buddaviylik ta’limotlari ta’siri asosida Eron shoxlaridan sosoniylar xumronligi davrida shakllangandir.

Bu ta’limotga ko‘ra, dunyo nur(ziyo) va zulmatning abadiy kurash maydonidir. Dunyoda insoning vazifasi - shu dunyodagi nur(ziyo)dan baxramand bo‘lib, zulmat (yovuzlik, yomonlik)ga qarshi kurash olib borish.

Moniy o‘z ta’limotida jamiyatdagi kishilarni ikki toifaga bo‘ladi: 1-toifa-mumtoz zodagonlar; 2-toifa-mehnatkashlar ommasi va savdogarlardir. U dunyoni ham ikki dunyoga ajratadi: 1- dunyo-bu odamlar real yashaydigan dunyo bo‘lib, unda adolatsizlik, zulm, zo‘ravonlik hukm suradi. 2-dunyo-bu «Ziyo dunyosi»(«Nur dunyosi») «Ziyo dunyosi» da inson kamolotga erishadi. «Ziyo dunyosi» barcha narsalarni yaratgan, insonni ham yaratadi, shu sababli kishi zulmatdan xoli bo‘lishi, o‘z istagicha va o‘z xoxish irodasi bilan yashashga harakat qilishi lozim.

Moniy ta’limotiga ko‘ra, inson soflikka, musaffolikka, «gunoxlardan holilik»ka harakat qilishi zarur. U o‘z muridlari va shogirdlarini dunyoviy ishlardan bo‘yin tovlamaslikni, duyoda ko‘p narsalarga xaddan tashqari intilmasliklarini, o‘rtachalikka; isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikni, mo‘tadil hayot kechirishga da’vat qiladi. Moniy shunday yozadi: «o‘limdan keyin xech kimsaga ro‘zg‘or asboblari bilan hovli ham, uy ham kerak bo‘lmaydi». «Men o‘z umrim davomida ko‘p hokimlarni ko‘rdim, ular dunyoda axloksizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo pirovardida alamlarga va tubanlikka duchor bo‘ldilar».

Moniyning ko‘pchilik qarashlari o‘z davri feodal zodagonlariga yoqmagan, ularni ko‘rkuvga solgan. Ular Moniy g‘oyalarini tenglikni ilgari suruvchi, barcha mol-mulkni zadagonlar va kambaqallar orasida teng va baravar taksimlashga da’vat, deb tushunib, uning o‘zini qatl qilishib, uning tarafdorlarini esa quvg‘in qilishadi.

Shunday qilib, moniy ta’limotida diniy-ahlokiy qarashlar bilan bir qatorda, falsafiy qarashlar: adolat, ozodlik, ahlokiy kamolot xjida o‘z davridagi xalq ommasining o‘y-fikrlari, orzu-umidlari o‘z ifodasini topgandir.

Markaziy Osiyo xalqlari kadimiy falsafiy qarashlarini o‘rganishda eramizning 5-asri oxiri va 6-asr boshlarida Eronda zardushtiylik ta’limotining yangi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘lib, so‘ng markaziy Osiyo, Kavkaz va Shimoliy Hindistonda keng yoyilgan mazdakizm yoki mazdakiylik diniy-falsafiy ta’limoti bilan tanishish ham muhim o‘rin tutadi.

Mazdakiylik ta’limoti, aslida, moniylik diniy-falsafiy ta’limotni to‘ldiruvchi diniy-falsafiy ta’limot bo‘lib, uning ildizlari zardushtiylikka borib taqaladi.

Bu ta’limot Mazdak (470-529 yillar) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u shimoliy Eronning Nishopur shaxrida zodagon oilasida tug‘iladi. Mazdan dastlab zardushtiylik dini otashgoxlaridan birida kohin bo‘lib, keyinchalik butun Eron bo‘yicha bosh koxin vazifasida ishlaydi. U bunda zardushtiylikka asoslanib o‘zining yangi ta’limotini ishlab chiqadi. Mazdakiylik ta’limotiga ko‘ra, dunyoda bo‘ladigan xodisalar va voqealar ongli va biror maksadni ko‘zlab harakat qiluvchi ezgulik va yorug‘lik manbai bilan ko‘r-ko‘rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong‘ulik manbai o‘rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash ezgulik (yaxshilik)ning, yorug‘likning qorong‘ulik (joxillik) ustidan muqarrar g‘alabasi bilan tugallanadi.

Shu bilan birga, Mazdakiylik jamiyatdagi ijtimoiy da’vat.etgan Mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida ham xichmat qiladi.

Mazdakiylik ta’limotiga ko‘ra, jamiyatda yuktimoiy notenglik yuzaga kelsa, yovuzlik va. zulmat-xukmronlik qiladi. Bu esa kishilar o‘rtasida hasad, g‘arazgo‘ylik, ziknalik, o‘g‘irlik, makkorlik, shafkatsizlik, urushlar, turli-tuman baxtsizlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli bu illatlarni jamiyatdan bartaraf etish uchun shu notenglikni paydo qiluvchi asoslarning o‘zini yo‘kotish, zarur, deb xisoblaydi.

Mazdakning aytishicha, xudo kishilarga o‘zaro teng taksimlab olosh, deb, noz-ne’matlarni yaratgan. Biroq, ba’zi xudbip kishilar o‘z malfaatini ko‘prok o‘ylab ish qilishgani uchun bu noz-ne’matlani taqsimlashda adolat buzilgan. Shu asosda ba’zilar mol-mulkka ega badavlat bo‘lishib, boshqalar kambag‘al bo‘lib qolishgan. Shu bois, badavlat kishilardan mol-mulkning bir qimini tortib olib, uni kambakallarga taqsimlab berish adolatli ish bo‘ladi, chunki kambakallar cham mol-mulkka ega bo‘lishlari zarur.

Mazdakning bu ta’limotini oddiy xalq ommasi keng qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli u ko‘p joylarga juda tez yoyiladi. Bu davrda ko‘pchilik joylarda dehqon jamoalari va shahar mehnatkashlari ahvoli og‘irligi tufayli mazdakiylikning bu g‘oyalari ular manfaatdorlariga mos bo‘lib tushadi. Mazdakiylikning bu g‘oyalari Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo xalq ommasi ko‘zgoloilarining g‘oyaviy bayrog‘i bo‘lib xizmat qiladi. O‘sha davr feodal zodagonlar mazdakiylik ta’limotiniig feodal jamiyati negizlariga putur yetkaza boshlaganligini ko‘rishib, mazdakiylik ta’limoti tarafdorlarimi shafkatsiz jazolaydilar. Mazdakni esa Sosoniylar davlatining podshosi Anushervom tomondan 529 yili katl qilinadi. Umuman olganda, mazdakiylik moniylikdan fark qilib, bu ta’limot faqat falsafiy qarashlar majmuasi bo‘lib qolmay, balki amaliy harakterga ham ega bo‘lgan, o‘z goyalarini amalga oshirishga karatilgan ta’limotdir. Bu ta’limotning xur fikrlilik g‘oyalari o‘zidan keyin Sharq mamlakatlarida, Markaziy Osiyoda, hatto G‘arb mamlakatlarida ham yuzaga kelgan ozodlik harakatlari bilan bog‘liq falsafiy oqimlarga o‘z ta’sirimi ko‘rsatgan.

O‘z-o‘zini tekshirish savollar:

Qadimgi Bobil va Misrda paydo bo‘lgan ilk ma’naviy qarashlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda?

Qadimgi Turonda qanday diniy- ma’naviy ta’limotlar vujudga kelgan?

Qadimgi Hindistonda qanday ma’naviy yo‘nalishlar va falsafiy maktablar paydo bo‘lgan?

Qadimgi Xitoyda paydo bo‘lgan ma’naviy okimlarni sanab bering.

Qadimgi Xitoyda paydo bo‘lgan ma’naviy oqimlarning mohiyati nimada edi?

Adabiyotlar ro‘yxati:

Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. . -T.: O‘zbekiston 1996.
Karimov I.A. Jamiyatimiz falsafasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O‘zbekiston , 1998.
Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. -T.: O‘zbekiston 1999.
Osnov! filosofii: Uchebnoye posobiye dlya studentov. -T.: O‘zbekiston 1998.
Sulaymanova F. Sharq va G‘arb . -T.:, 1997. (189-202 betlar)
Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002y.

## 3-mavzu QADIMGI G‘ARB MA’NAVIYATI, UNING SHAKLLANNSHI VA MAVJUDLIGI

**REJA:**

**1. Antik davr ma’naviyatishshg o‘ziga xos xususiyatlari.**
**2. Qadpmgi Rim ma’naviyatning asosiy makgablari va yunalishlari.**
**3. Qadimgi Rim ma’navnyati.**

Antik davr yunon falsafasi kadimiy Sharq – Bobil va Misr, Markaziy Osiyo. Hindiston va Xitoyda paydo bo‘lgan diniy-falsafiy ta’limotlar ta’sirida. Yunonistonda yuksak rivojlangan kuldordik jamiyatining tarixiy, iqtisodiy siyosiy va madaniy-ma’naviy shart-sharoitlar asosida vujudga keldi. Miloddan ilgarigi VSH-VI asrlarda Kichik Osiyo, O‘rta yer dengizi kirg‘oqlaridagi shaharlar bilan yakin Sharq, Kavkaz hamda G‘arb mamlakatlari xalqlari o‘rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy muiosabatlar juda ham avj oladi. Bu davrga kelib bu hududlarda kulchilik munosabatlari juda rivojlanadi. Natijada, quldorlik jamiyati Yunonistonda jadallik bilan tarakkiy eta boshlaydi. Ayniksa, bu hududdagi Milet va Efes shaharlarida kuldorlik o‘zining yuqori bosqichiga erishadi. Oqibatda, bu shaharlar Yunon ilm-fani va falsafasining beshigiga aylanadi.

Milet faylasuflari o‘z falsafiy qarashlarini tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan ifodalaydilar. Bu davrlarda falsafa va boshqa bilim soxalari ham bir-birlaridan ajralmagan xolda bir butun shaklda «falsafa» nomi bilan atalar edi.

Ilk yunon faylasuflari Milet shaxri falsafiy maktab vakillari: Fales, Anaksimanr va Anaksimenlardir. Ular o‘zlarining falsafiy asarlarida kosmologizmga oid, ya’ni astronomik bilimlarga oid o‘z qarashlarini ifodalab berdilar. Ulardan qadimiy Yunonistonda «yetti donishmandning biri» xisoblanib, shuxrat kozongan Fales Bobilliklarning astronomik tassavvurlarini rivojlantirib, kadimgi yunon astronomiyasiga asos soladi. U oddindan quyosh tutilishini aytishga doir o‘zining xisoblash usulini ishlab chiqadi vata’riflab beradi. Anaksimandr esa quyosh soatini ixtiro qilib, gnomon nomli asbob yasaydi va ko‘k-osmon gumbazi sferasi doirasi modelini tuzadi. U birinchi bo‘lib Yunonistonning geografik haritasini chiqadi.

Qadimgi Yunon falsafasining kosmologizmida Arastuning kosmos haqidagi ta’limoti ham muhim o‘rin tutadi. Arastu nazarida, olamning markazida yer turadi, u sokin xolatda mavjuddir. Yerning atrofidagi davralarga-sayyoralar, kuyosh va yulduzlar osmonda joylashgan bo‘lib, ular Yerni to‘rt tomondan aylanib turadi. Arastuning ushbu nazariyasini mashxur astronom Ptolomey davom ettiradi va rivojlantiradi. Shu asosda geotsentrik (olamning markazi Yer deyuvchi) nazariya qaror topadi. Astronom Gipparx esa Quyosh, Oy, sayyoralar, yulduzlar katalogini tuzadi. Eratosfen bo‘lsa, Yer sharining aylanma uzunligini o‘lchaydi o‘lchaydi va h.k.. Lekin antik yunon kosmologiyasida geotsentrik nazariya xukmronlik kilgani xolda Aristrax Samosskiy Yerning Quyosh hamda o‘z o‘ki atrofida aylanishi haqida o‘z qarashlarini ishlab chiqadi.

Faylasuf Epikur esa, osmon jismlari haqida shunday deydi: «Yer, u bilan alokador yoritkichlar cheksiz olamning bir bo‘lagidir, olamda bizning dunyomiz kabi dunyolar, unga o‘xshash va undan fark qiluvchi dunyolar son-sanoksiz ko‘p. Quyosh, Oy va boshqa yulduzlar tizimi girdobli aylanib turgan tabiat yo shamol, yoki olov, yoki ham unisi, ham bunisining

ko‘shilishidan kelib chiqqan. Quyosh, Oy va boshqa yoritqichlar bizning sezishimiz darajasida yo katta, yoki kichik bo‘lishi mumkin. Bu yoritkichlarning aylanishi zaruriy va qonuniy harakat tufaylidir».

Epikur shular bilan birga, Quyosh, Oy tutilishi borasida ham o‘z muloxazasini bayon qilarkan. Ob-havoni oldindan aytish mumkinligini, bulutlarning tashkil topishi, suvning bug‘lanish-parlash oqibatida bulutlar paydo bo‘lishi, ya’ni chaqmoq, yashin, siklon – to‘fonlar, Yer qimirlash, zilzila sabablari haqida genial gumonlar, taxminlar, extimol fikrlar bildiradi.

Qadimgi yunon faylasuflaridan Demokrit bo‘lsa, Quyosh va Oy yaltirok, tekis hamda yumshoq atom zarrachalarining to‘planishi, birikishidan hosil bo‘lgan. Oyda toglar, vodiylar va jarliklar bor deb uning qattiq jismligini e’tirof etgan. Shunday qilib, ilk yunon falsafasining kosmologizmiga yakun yasab, shuni aytsak bo‘ladiki, kadimgi yunon faylasuflari ayni vaktda tabiatshunoslar ham bo‘lishgan. Ularning kosmogonik ta’limotlari keyingi davr astronomik bilimlarning rivojlanishi, xozirgi kun XX asr kosmanavtikasi uchun ilk zamin bo‘lgan.

Qadimgi yunon faylasuflari borliq va uni bilish haqida ham o‘z dunyoqarashlari asosida o‘z ta’limotlarini yaratganlar. Ulardan milet maktabining asoschisi Fales (mil. yil 624-547yy) olamning asosini suv tashkil qiladi, deb biladi. Chunki uning ko‘z oldida suvning xaivonot, nabotat va insoniyat hayotida hal qiluvchi o‘rni va ahamiyati gavdalanar edi. Fales dengizning kemalar, savdo-sotik ishlari; daryolarning, masalan, Nilning dexkonchilikdagi muhim ahamiyatini ko‘rar, mushoxada etar, ayniqsa, yomgirning ekin-tikin ishlari uchun hayotbaxsh xislatlari uni xayratga solgan edi. Shuning uchun U hamma narsa suvdan paydo bo‘ladi va hamma narsa suv shakliga aylanadi, deydi.

Anaksimandr (mil. Avv.610-546 yy) esa olamda ko‘p dunyolar bor, deb taxmin qiladi. U olamdagi hamma konkret narsalarning asosida cheksiz «aleyronlar» yotadi, deydi. Anaksimandr, «aleyron» nomuayyan, konkret bo‘lmagan, umumiy moddadir, «aleyron» hamma konkret narsa va buyumlarning negizini tashkil qiladi, deydi. Uning bu fikri yunon falsafiy tafakkuri rivojida muhim qadam bo‘ladi.

Falesning do‘sti, ioniyalik Anaksimen (mil. avv.588-525y.y.) bo‘lsa, borliqning asosida havo yotadi, deb xisoblaydi. . Uning firicha, tabiatdagi hamma tabiiy xodisalar havoning quyuqlanishi-yoki suyuqlanishidan hosil bo‘ladi. Havoning suyuqlanishi uni o‘tga, olovga; quyuqlanishi esa uni shamolga, bulutga keyin esa suvga, yerga, oqibatda toshga aylantiradi.

Efesslik Geraqlit (mil. avv. 530-470y.y.) bo‘lsa, butun olamning asosi, barcha tabiiy narsa va xodisalarning negizi - bu olovdir, deydi. Uning fikricha, barcha marsalar olovdan paydo bo‘ladi va so‘ngra yana olovga aylanadi. Hamma narsaii o‘z ichiga olgam bir butun olamni xudolardan ham, odamlardam ham xech kim yaratmagan, olam bu qonuniyatli tarzda alangalanadigan va qonuniyatli tarzda o‘chadigan abadiy barhayot olovdir, u ilgari ham shupday, hozirda ham shunday, bundan keyin ham shunday bo‘ladi deydi. Geraqlit olovning yerga, suvga, havoga aylanishini va aksincha ta’riflab, hamma narsa harakatda, o‘zgarishda va rivojlanishda, deydi. U borliqni chuqur tushunishiga, tasavvur etishga, bilishga undaydi.

Samoslik Pifagor (mil. avv. 571-497 y.y.) bo‘lsa, butun olamning asosini, dunyodagi narsa va xodisalarning negizini «son» tashkil qiladi, deydi. Uning nuqtai nazaricha, «1» umumiy, boshlang‘ich, muqaddas sondir, u barcha narsa va hodisaning asosidir.., «2» aks, salbiylik, ziddiyatlilikni ifodalaydi. «3» bu tabiat -uchlikdir, 1 va 2-ning, asos va aksning, brshlang‘ich va uning qarshi tomonlarining birligidir. «4» -bu tabiatdagi to‘rt element - suv, havo, olov, yerdir va x.k. Xullas, Pifagor soi va sonlar hakida fikr yuritib, tabiiy hodisalarning mikdormy jixdtdariga e’tiborni jalb qilib, ilmiy fikrlashga muhim hissa ko‘shadi.

Ayniqsa, Pifagorning Sharq xalqlaridan olgan «Gipotenuza kvadrati katetlar kvadratlarining yigindisiga teng» degan teoremasi matematika fanining kelgusi taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Lekin Pifagorning dunyoqarashi o‘z asosiy yo‘nalishi jihatidan Geraqlit falsafiy yo‘ialishiga butunlay zid edi.

Milodgacha V-IV asrlarda, xususan, V asrning 40-30 yillari davrida qadimgi Yunoniston o‘zining eng gullagan davriga kiradi. Bu davrda matematika, astronomiya, arxitekturaga oid bilimlar kuchli rivojlanib, kadimgi yunon falsafasining buyuk namoyandalari yetishib chiqadi. Ayni

shu davrda yunon materialistik falsafiy yoʻnalishining yirik vakillari Levkipp (mil. avv.500-440 y.y.) va Demokrit (mil. avv.460-370 y.y) maktablari shakllanib, ravnaq topadi. Bu asrlar orasida dastlab Sukrot hamda Aflotun, sal keyinroq Arastu (mil. avv.382-322 y.y) lar yashab ijod qiladi.

Levkipp qadimgi atomistik nazariyaning asoschisi sifatida olam boʻlinmaydigan juda kichik mayda, koʻzga koʻrinmaydigan atomlar va boʻshlikdan iborat, degan qarashni ilgari suradi. U olamdagi narsa va hodisalarning hammasi ana shu zarralar - atomlarning birikuvidan paydo boʻladi, obyektiv zaruriyatdan kelib chiqadi, deydi. Levkippning bu qarashlarini rivojlantirgan, uni yukori pogʻonaga koʻtargan, uning davomchisi Abderlik Demokrit edi. Demokrit «birinchi yunon ensiklopedik aql egasi» sifatida atomistik iazariyani ishlab chiqadi. Demokritning bu nazariyasiga koʻra ham olam eng mayda atomlardan iborat, borliqning asosida atomlar va boʻshliq yotadi, atomlar esa boʻlinmas zarrachalar boʻlib, boʻshliqda harakat qiladi. Ularning turli xil qoʻshilishidan turli-tuman narsalar kelib chiqadi, ularning bir-birlaridan ajralishlari tufayli bor narsalar yoʻk boʻladi. Hamma abadiy son-sanoksiz atomlar cheksiz boʻshlikdagi turli xil joylashuvidan bexisob dunyolar paydo boʻlib, yoʻq boʻlib turadi. Bu xolat tabiiy zaruriyat asosida sodir boʻladi. Sababsiz xech bir narcha, hech bir xodisa yoʻq, hamma narsa, hamma xodisa sababli va zaruriydir.

Demokritning bilish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. U xissiy bilishning shakli-xissiy sezishni bilishning birinchi bosqichi, deb hissiy bilishni «korongi bilish», deydi. Uningcha, chin bilish, hakikatni bilish, insonning aqliy faoliyati orqali bilishi tufayli yuzaga keladi. Aql bilan bilish bu eng yuqori, eng chuqur, eng toʻgʻri bilishdir. deydi Demokrit. U inson bilishda, shubhasiz, xissiy va aqliy bilishni birlikda olib qaraydi.

«Donolik uch holatda: yaxshi fikrlash, yaxshi soʻzlash va yaxshi ishda koʻrinadi»-deb yozadi Demokrit. «Fikrlashga vaqt emas, balki tarbiya va tabiat oʻrgatadi»,-deydi u.

Xullas, kadimgi yunon faylasuflari: Levkipp va Demokritlarning atomistik nazariyasi keyingi davr, ayniksa, bshning XX asrda fizika, kimyo, biologiya kabi fanlarning ravnaqtopishida muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Qadimgi yunon faylasuflaridan juda katta mavkega ega boʻlgan faylasuf Aflotundir. Aflotun (mil. avv.427-347 y.y.) Afina oksuyak zadoganlaridan boʻlib, avval Kratildan, soʻng Sukrotdan ta’lim oladi va mashhur faylasuf boʻlib yetishadi. Aflotun oʻzining obyektiv idealistik falsafiy tizimini ishlab chiqadi. U «Pir», «Fedon», «Teetete», «Davlat», «Parmenid», «Sofist» nomli asarlari va dialoglarida oʻz dunyoqarashini, iyasgimoiy-iqtisodiy, siyosiy nuqtai nazarlarini bayon qiladi.

Aflotun falsafiy ta’limoti oʻzining idealistik tizimi, bilish nazariyasi, dialektik metodi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan harakterlanadi. U oʻzining idealistik falsafiy tizimida «gʻoyalar dunyo»si va «narsalar dunyosi bor, deydi. «goyalar dunyosi» doimiy, oʻzgarmas, haqiqiy, chin dunyodir. «Narsalar dunyosi» esa oʻtkinchi, vaqtincha, oʻzgaruvchan dunyodir, «narsalar dunyosi» «gʻoyalar dunyosi»ning xira koʻlankasi, soyasidir, deydi. Aflotunning nuqtai nazaricha, olamning asosini ham ayni shu «gʻoyalar dunyosi» tashkil qiladi. Uningcha, «gʻoyalar dunyosi» butun borliqning ham mohiyatini tashkil etadi. Aflotunning bilish nazariyasi ham oʻziga xosdir. U oʻz bilish nazariyasida jon va tan haqvda soʻzlab, jonni tandan mustaqil, aloxida ruhiy, iloxiy, xech oʻlmas, deb xisoblaydi. «Jonlar dunyosi» «gʻoyalar dunyosi» bilan yaqin, «jonlar dunyosi» «narsalar dunyosi»ga, ya’ni insonlar taniga kelib kirgach, insonlarda bilish hosil boʻladi, deydi. Aflotun inson bilishida insondagi sezgi, xis, idrok, tuygʻu hosil kiluvchi sezgi a’zolarining rolini inkor qilib, bilish bu jonning «eslashi», «xotirlashi», deydi.

Aflotun oʻzining «Davlat» kitobida xokimiyat, uning shakllari, aholisi, tabakalarga boʻlynishi toʻgʻrisida fikr yuritadi. U oʻzining «Ideal davlat» utopiyasida jamiyatni uch tabaqaga: 1) xokimlar - faylasuflar; 2) qarbiylar, davlat alparati xodimlari; 3) dexkonlar va xunarshndlarga boʻladi.

Aflotun Afinada Parakda bogida oʻz shogirdlariga dars beradi. Shu asosda Afinada uning nomi bilan bogliq Akademiya tashkil topadn. Aflotunning idealistik falsafiy ta’limoti Oʻrta asr sxolastikasiga, Sharq mamlakatlari, jumladai. Markaziy Osiye xalqlari tafakkuriga katta ta’sir qilgan. Hozirgi zamoi XX asr Gʻarb mamlakatlari, xususan AKShda «Aflotunga kaytish lozim!» degan ovozlar ham eshitilib, ular falsafasida oʻziga xos talqinga ega boʻlmokda.

Qadimgi yunon falsafasining eng soʻnggi buyuk namoyandasi Aflotunning shogirdi Arastudir.

Arastu (mil. avv. 384-322 y.y.) Yunoiistonning Stagira shaxrida tug‘ilib, 17 yoshida Afinaga kelib, Aflotun akademiyasiga o‘qishga kiradi va unda 20 yil ta’lim oladi. U Aflotun bilan juda ko‘p masalalarda munozaralar qilib, Aflotunning falsafiy ta’limotini rad qila boshlaydi. Aflotun vafotidan keyin Arastu Afinada o‘z maktabini tashkil qilib, uni yunon fani va falsafasining markaziga aylantiradi. U kadimgi Yunonistonda hamma ilmlarga oid yutuklarii egallab, ularni sistemalashtiradi, rivojlantiradi. Hozirgi zamon tabiatshunosligi, jamiyatshunosligi, mantiq fani o‘zlarining dastlabki tarakkiyetini boshlanishi va ibtidosini Arastu ilmiy faoliyatidan olgan. Uning «Fizika», «Matematika», «Jon to‘g‘risida», «Kategoriyalar», «Ikkinchi Analitika», «Topika», «Organon» singari asarlarida samarali ijodi-tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikka, falsafaga oid qarashlari o‘zining to‘la ifodasini topgan.

Arastu Aflotunning «g‘oyalar dunyosi» to‘g‘risidagi nazariyasiga qarshi chikib, uning «goyalar dunyosi» «narsalar dunesidan aloxida». degan fikrini - bu aslo mumkin emas, qanday qilib narsalar boshqa, ularning mohiyati-g‘oyalari aloxida yashaydi? Bu aqlga to‘tri kelmaydigan xol,- deydi Arastu. Aflotunning: «narsalar dunyosi harakatda, o‘zgaruvchan va ma’lum vaqt bilan bog‘liq, g‘oyalar dunyosi esa, o‘zgarmas, doimiy va abadiydir»,-degan fikriga qarshi: «Bu kanakasi? Original - asl o‘zgarmas, uning aksi, g‘oyasi o‘zgaruvchan bo‘lar ekan, bu mantiqka zid karash-ku!» deydi. Arastu Aflotunning «g‘oyalar dunyosi» to‘g‘risidagi ta’limotni qat’iy rad qilib, u narsalarning asli, moxiyati, substansiyasi shu narsalarning o‘zidadir, deydi va bu qarashni isbotlaydi.

Arastu o‘zining «Metafizika» asarida to‘rt xil sabab haqida fikr yuritadi. Ular quyidagilar: 3) moddiy sabab: 2) shakliy sabab; 3) yaratuvchi sabab; va 4) maksad.

U bunda bu sabablarning har birini bir-bir taxlil qilib, izoxlab beradi, moddiy sabab, ya’ni modda har bir narsaning materiali, har bir narsa undan hosil bo‘ladi. Shakliy sabab, ya’ni shakl har bir narsaga shakl ato qiladi. Masalan: «xaykal shaklsiz bronzadan, idish-tavoklar beshakl loydan fark qilishib, ular muayyan shakl vositasidagina shu narsa kiyofasini kasb etadi. Agarda shakl bo‘lmasa, bronza yoki mis, loy qanday material xolida bo‘lsa, shunday qolaveradi», deydi u.

Arastu bunda shaklni faol hisoblaydi, u xatto shaklni narsaning borliq ko‘rinishi, borliqning ma’nosi, deydi. Arastu fikricha, agar modda va shakl «narsalar nimalardan tuzilgan?» degan savolga javob bersa, «yaratuvchi sabab nima yaratildi?»-degan savolga javo beradi. Masalan, ota-ona bolaning sababchisidir. Oxirgi sabab-bu «maksad» bo‘lib, Arastu tasavvuricha, «nima uchun? degan savolga javob bo‘lib, unda tabiat xodisalarining kelib chiqishi, paydo bo‘lishi ifodalanadi. Arastu bu bilan har bir ijtimoiy xodisada, har bir inson faoliyatida ma’lum maqsad borligini kayd qiladi.

Arastu falsafasidagi yana bir muhim jihat-bu uning imkoniyat va voqelik kategoriyalarini har tomonlama tadkiq qilib ishlab chiqadi.

Arastu shunday yozadi: «„kimki xech narsani sezmasa, u xech narsani bilmaydi va xech narsani tushunmaydi; agar biror narsani bilsa, (mushoxada kilsa) unda u kishi buni tasavvur sifatida ham bilib oladi, chunki tasavvurlar sezgilar demakdir. Faqat materiyasizdir, xolos».

Arastuning buyuk xizmatlaridan biri uning harakatning turlari va taraqqiyot shakllari to‘g‘risidagi quyidagi qarashlaridir. Uningcha borliqda olti xil harakat, olti tur unumiy o‘zgarishlar bor. Ular kuyidagilar: a) mohiyatdagi o‘zgarishlar: 1) paydo bo‘lish; 2) yo‘q bo‘lish; 3) tor ma’noda o‘zgarishlar; 3) bir xolatlardan boshqa xolatga o‘tish sifatiy o‘zgarish; 4) ko‘payish; 5) ozayish-mikdoriy o‘zgarish; 6) joy almashuvi, xol o‘zgarishi.

Umuman, Arastuning bilish nazariyasi uning mantik haqidagi mulohazalari bilan, falsafiy va mantiqiy kategoriyalarni ta’riflash bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Uning falsafiy kategoriyalarni birinchi bo‘lib tasnif qilishi ham muhim ahamiyatga ega. U kategoriyalarni o‘n guruxga bo‘lib tasnif qildi:

1) mohiyat; 2) mikdor; 3) sifat; 4) munosabat; 5) o‘rin; 6) vaqt; 7)-holat; 8) egalik; 9) ta’sirlanish; 10) iztiroblanish: Uning kategoriyalarni bunday guruxlarga ajratishi moddiy dunyoni, tabiatni, jamiyatni, inson ongi va ruhiyatini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

Arastu birinchi bo‘lib inson tafakkuri qonunlarini ochdi va ta’rifla byordi, u tafakkurning hamma muhim shakllarini tadkiq qildi.

Arastuning iqtisodiy nazariya sohasiga qarashlari ham e’tiborga loyik qarashlardir. Uning ayriboshlash, kiymat shakllari, ekvivalent shakllari, mehnat, tenglik muammolariga oid tadqiqotlari jamiyat iktisodini o‘rganishning dastlabki bayonlaridandir. Arastu tovarnnng pul shaklini oddiy kiymat shaklining yanada rivojlaiishidan, ya’ni bir tovar qiymatining boshqa bir tovarda ifdalanishining yanada rivojlanishidan, iborat ekanligini tamomila ravshan qilib ko‘rsatadi. U buiday deydi: «5 loja-falon kadar pulga» deyishdan farq qilmaydi. Teng barovarlik bo‘lmasa, ayriboshlash, bo‘lmagani kabi, o‘lchovdoshlik bo‘lmasa, teng baravarlik ham bo‘lmaydi».

Xullas. Arastu o‘z davrida kadimiy Yunonistonda butun ilm-fan. san’at va siyosat soxalarida erishilgan hamma yutuqlarni falsafyy umumlashtirishga muvaffak bo‘lgan mutafakkirdir. Shuning uchui uning asarlari antik jamiyatning bilimlari jumladan, falsafiy tafakkur tarixining muhim malbai hisoblanadi. Uning kishilik tarixidagi Buyuk xizmatlari: ko‘pchilik bilim sohalariga oid ilmlar bilan birga, falsafiy ta’limotining progressiv tomonlarining keyingi O‘rta asrlar Sharq, Markaziy Osiyo, Hindiston va Uyg‘onish davri Yevropa xalqlari falsafiy tafakkuriga ko‘rsatgan katta ta’siridir. Biz ta’sir qaqida keyingi mavzularimizda ham to‘xtalib o‘tamiz.

Qadimgi yunon falsafasining eng muhim jihati - uning stixiyali dialektik harakterga egaligidir. Bu dialektikaning asoschilaridan biri Geraqlitdir. U o‘zining olov to‘g‘risidagi ta’limotida barcha narsalar olovdan paydo bo‘lib, so‘ngra olovga qaytadi, deb, olovning yerga, suvga, havoga aylanishini va aksini ta’riflab. dunyoni doimiy harakatda, o‘zgarish jarayonida ko‘radi.

Geraqlit dunyodagi to‘xtovsiz o‘zgarishlarining asosiy sababini narsalardagi qarama-qarshiliklardan, deb biladi. Uningcha, bir xillik va har xillik, xdmohanglik va nohamohanglik kabilardan birlik hosil bo‘ladi, bu birlikdan hamma har xillik va birxillik tashkil topadi. Hayotda tirik va o‘lik, uyg‘ok va uyqudalik, yoshlik va qarilik birgadir. Narsalar doimo o‘zaro bir-biriga o‘tib, o‘zgarib turadi. «Sovuq issiq bo‘ladi, issik sovuq bo‘ladi. Xo‘l qurukqa, kuruk ho‘lga aylanadi. Nifoklashuvchi kelishishi, tarqaluvchi yigilishi (birikishi) ajoyib xilma-xil oxanglar hamohanglikni kurash jarayonida paido qiladi». Geraqlit dialektikaning karama-qarshiliklar kurashi va birligini yaxshi taxmin qiladi. U shunday yozadi: «Baxo bebaholikdan, bebaxolik baholikdai, ular bir-birining o‘limi bilan yashaydi va bir-birining yashashi bilan o‘ladi, hayot harakat, o‘zgarish bilan hayot, hamma narsa harakatda, o‘zgarishdadir, bir daryo suviga ikki marta cho‘milish mumkin emas, chunki daryoda tinimsiz yangi-yangi yeuvlar oqib turadi». «Dengiz suvi ham toza ham toza emas. U baliklarga davo, hayotbaxsh bo‘lsa, insonlarga ichish uchun yaramaydi va zararlidir». «Eng kelishgan maymun inson zotiga nisbatan eng xunukdir». «Eshakka xashak oltindan a’lo turar». «Tabiat karama-qarshilikka intiladi, lekin bir-biriga o‘xshashlik emas, homoxanglik tugdiradi». Masalan, tabiat inson individlarini qarama-qarshi jinslardan, erkak va ayollardan tuzgan, demak, ularni qarama-qarshi jinslardan yaratgan, bir xil jinslardan emas. San’at ham, xuddi tabiatga o‘xshash qarama-qarshiliklardan, turli xil oxangliklardan tashkil topadi. Rasm ham kora, qizil, sariq, ok bo‘yoklar birligidan paydo bo‘ladi. Musiqada esa, yuqori, baland, past turli ovozlardan oxang kuy, ashula hosil bo‘lib, so‘zlar tashkil topadi va x.k.».

Bu kjorida keltirilgan fikrlardan Geraqlitning stixiyali, sodda, ammo to‘g‘ri dialektik qarashlarini bilib olamiz.

Lekin shu bilan birga, qadimgi yunon falsafasida (mil. avv.U1-U asrlarda) eleat falsafiy maktabi vakili Ksenofan (mil. avv. 565-473y.y..) Geraqlitning yukoridagi tabiat xodisalaridagi ko‘p xillik, harakat, o‘zgaruvchanlik haqidagi dialektik konsepsiyasiga qarshi kurashib, u xech qachon paydo bo‘lmagan, yo‘q ham bo‘lmovchi, yakkayu yagona, har doim barkaror, o‘zgarmas dunyo haqida fikr bildiradi.

Eleat maktabining ikkinchi vakili Parmenid (mil. avv. VI asr oxiri V asr boshlarida yashagan) «Tabiat haqida» poemasida: «Yakkayu yagoia borliq bor, bu borliq kelib chiqmagan ham, yo‘q ham bo‘lmaydi, o‘zgarmaydi ham. Borliq bor, u harakatsiz «deb» Geraqlit dialektikasini qat’iy inkor qiladi.

Qadimgi yunon falsafasining yana bir vakili Empedokl (mil. avv.490-430y.y.) o‘z falsafiy karashida narsalarni tashkil etgan elementlar va ulardan hosil bo‘lgan narsalarni harakatda, deb karagan. U bu harkatlarning sababi, 6 deb «dushmanlik» va «do‘stlik», ishq-muhabbat va rashk,

raqiblik kabi qarama-qarshi kuchlardir, deydi. Empedokl o‘z mushohada va kuzatishlaridan kelib chikib, chindai ham karama-qarshi kuchlar tortish, birikish, ko‘shilish do‘stlik, muxabbat, sevgi tufayli sodir bo‘lsa; itarilish, ajralish, raqiblik, yomon ko‘rish, nifoklik, dushmanlik tufayli vujudga keladi, deb xulosa chiqaradi.

Bir gurux qadimgi yunon faylasuflari dialektikani o‘zaro savol-javob usuli (metodi) deb tushushlshadi. Shulardan biri Aflotun bo‘lib, u dialektikani «savol-javob metodi», deb izoxlaydi. U o‘zining «Davlat» nomli asarida, bu usulni qo‘llab, uni «dialektik» metod, deydi. O‘z asarlarida u dialektikaga shunday ta’rif beradi: «Dialektika kishilarni savol-javob bera bilishga o‘rgatadi», «uni xususan, nutkda qo‘llash muhim ahamiyatga ega»,-deidi. Aflotun «Adolat», «Go‘zallik», «qaramlilik»ni ifodalash va tashviq etishda dialektikaning muhimligini kayd qiladi, U dialekgika haqida so‘zlar ekan, uni tushunchalar mantiqini ochish usuli sifatida harakterlaydi.

Umuman, Aflotun o‘z falsafiy sistemasida «narsalar dunyosi harakatchan, o‘zgaruvchan, vaqtincha, desa ham, «g‘oyalar dunyosi»ni o‘zgarmas, doimiy, abadiy, dyob tushungani uchun, uning dialektikasi savol-javob bera olish san’atidan iborat bo‘lib qoladi.

Qadimgi yunon falsafasida Geraqlitdan keiin dialektikani rivojlantirgan faylasuf - bu Arastudir. U o‘zining tabiiy-ilmiy qarashlari oayon kilingan «Fizika», «Osmon haqida», «Meteologiya», «Hayvonlarning kelib chiqishi», «Metafizika», «Etika» kabi asarlarida dialektik fikrni mlgari suradi.

Arastu o‘zining bu asarlarida, xususan, «Fizika»da dnalektik fikr yuritib, shunday yozadi: Birinchi modda-olamning substrati, materiali - «ikki sifatli» bo‘lib, bir-biriga zid-issiklik va sovuqlik, kuruqlik va namlik xususiyatlari bilan dunyoning asosini tashkil qiladi. Uning nazaricha, mazkur xususiyatlar qo‘shilib, issik va kuruk-olovni, issiq va xo‘l-nam xavoni, sovuq va nam-suvni, sovuq va kuruq-yerni hosil qiladi. To‘rt element-olov, havo, "yer, suv-o‘zaro bir-birlari biln qo‘shilib, turli jismlarni hosil qiladi, bu jismlar ham o‘zaro qo‘shilib, yemirilib turadi. Masalan, suvning parga aylanishi yoki xavoga o‘tishi ham shu elementlarning turlicha qo‘shilishi tufayli ro‘yobga chiqadi. Har bir elementning o‘z joyi bor: olov va xavo yukorida, suv va yer quyida bo‘ladi. Arastu bu o‘rinda beshinchi eyelement - efir to‘fisida ham fikr yuritadi va uni beshinchi mokiyat, deb ataydi. U Demokritning atomistik nazariyasiga qarshi chiqib, narsalarda bo‘linmaydigan xech qanday materiya zarrasi yo‘k, hamma zarralar bo‘linaveradi, bu bepayon olamda «kuruklik va issiqlikka» bo‘linish davom etaveradi; narsa, jism tarkibi cheksiz», deydi. Arastuning bu qarashlari o‘z davri uchun j>'da muhim dialektik farazlar edi. Xullas, dialektika kadimgi yunon falsafasida dunyoga, borliqqa qarash, uni tushunish usuli, savol-javob san’ati sifatida, materialistik va. idealistik ko‘rinishlarda stixiyali shaklda yuzaga kelganligi tarixiy fakt edi. Bu narsa kadimgi yunon falsafasining o‘ziga xos yutuklaridan biridir.

Eramizdan oldingi 11-1 asrlarga kelib, Yunonisgon Rim imperiyasiga karam bo‘lib qoladi. Yunoniston antik darvda erishgan butun moddiy va ma’naviy boyliklarga Rim impvriyasi egalik qila boshlaydi. Bu davrga kelib yunon falsafasi ham Rim olimlari va faylasuflari tomonidan o‘zlashtirila boshlanadi. Natijada, Rimda ham o‘z falsafiy qarashlarini olg‘a suruvchi mutaffakirlar, faylasuflar yetishib chiqa boshlaydi.

Bu davrda Rimda yunon faylasuflari ishlab chiqqan falsafiy nazariyalar va ma’lumotlar Rim mutafakkirlari va faylasuflari tomonidan qayta ishlanib, ularni qayta tiklash asosida turli yo‘nalishdagi falsafiy nazariyalar va ta’limotlar paydo bo‘ladi.

Mana shunday bir sharoitda Rimda Demokrit va Epikur ta’limotini qayta tiriltirib, uni davom ettirgan Lukretsiy Tit Kar, platonchilar safdoshlaridan eklektik Sitseron, neoplatonizm oqimining asoschisi Plotinlar yashab, ijod qiladilar.

Lukretsiy Kar (mil. avv.99-55y.y.) o‘zining «Narsalarning tabiati to‘g‘risida» asarida Demokrit va Epikur ta’limotini taxlil qilib, tushuntirib berib, uni targ‘ib qiladi. U atomistik nazariyani o‘z asarida kengaytirib, yanda chuqurlashtiradi va rivojlantiradi.

Lukretsiy Karning bayoniga ko‘ra, materiya abadiy, u bir holatdan ikkinchi xolatga aylana boradi, hech nimadan xech nima kelib chiqmaydi, urug‘dangina u yoki bu o‘simlik yoki xayvon paydo bo‘ladi. Biz atomlarning kichikligi tufayli ularni ko‘ra olmaymiz. Dengiz kirg‘ogida ko‘ylagimiz nam bo‘lib qoladi, kuyoshda esa bu namlik yo‘qolib, ko‘ylak qurib qoladi. Biz

namlikning paydo bo‘lishini ham, uning qarshi jarayonini ham ko‘ra olmaymiz. Uzuk ko‘p taqilishi tufayli yupqalashadi, yo‘lak esa kishilarning katnayverish jarayonida siykalashib qoladi. Biz bu jarayonlarni ham sezib, xis qilmaymiz. Atomlar, zarralar, Epikur aytgandek, shaklga, og‘irlikka, xajmga ega bo‘lib, bo‘shliqda doimo harakatdadir. Narsalardan ulardagi xususiyatlarni ajratish mumkin emas. Masalan, og‘irlikni toshdan, issiqlikni olovdan, namlikni suvdan ajratib bo‘lmaydi, Materiyaga vakt va makon xosdir. Materiya - mayda zarralar - atomlardan iborat, atomlar na bo‘linadi, na buziladi.

Yer ham boshqa dunyolar kabi tabiiy sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan. Yerda ham, ko‘kda ham, suvda ham, nabodot, hayvonot olamida ham hamma narsa va xodisalar moddiy sabablarga ega. Masalan, yashin, chaqmoq, yomg‘ir, shabnam, shudring, kuyun, shamol, kirov, kor, do‘l, zilzila, yonartog‘ (vulqon), magnit - bularning bari o‘z moddiy sababiga ega. Tanadan ayrim jon yo‘k. Xech qanday duiyoviy ruh, dunyoviy aql ham yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Jon tez harakat qiladigan atomlardan iborat bo‘lib, u ikki kismli hayot, tiriklik asosi bo‘lgan ruxdir; aql va ong undan tuzilgandir. Lekin jon butun tana-organzmga yoyilgan bo‘lsa, rux inson ko‘kragining o‘rtasida joylashgan.

Xullas, Lukretsiy Kar, olam atomlar va bo‘shliqdan iborat, deb biladi. U narsalarning sifatini obyektiv harakterga egaligini aytib, narsasiz sifat bo‘lmaganidek, sifatsiz narsa ham bo‘lmaydi, deydi, Lukretsiy Kar dunyoni insonning bilishi mumkinligini e’irof qilish bilan birga, bilishda maqsad-kishilarni turli-tuman xurofatlar ta’siridan ozod qilishdir, deydi. U dunyoni bilishda sezgi a’zolarining roliga shubha bilan karovchi skeptitsizmga qarshi chikib, bilimlarimiz fakat sezgi a’zolarimiz orqali olingan ma’lumotlarga tayanadi. Agar bizning sezgi a’zolarimiz,- deydi Lukretsiy Kar, - dunyo to‘g‘risida to‘g‘ri ma’lumot berolmasa, u vaktda kishilar dunyoni bila olmagan bo‘lar edi».

Lukretsiy Karning zamondoshi Mark Tulliy Sitseron (mil. avv. 106-43 y.y.) falsafa soxasida eklektik qarashlari bilan maydonga chiqadi. Uning falsafa soxasidagi xizmatlaridan biri-boshqa tillardagi falsafiy lug‘atlardan foydalanib, lotin tilida lug‘at tuzadi; Siiiron mashxur notik ham bo‘ladi. U o‘zining «Davlat to‘g‘risida», «Qonunlar hakida» asarlarida kuldorlar aristokratiyasini himoya qiladi, senatorlarni yoklab, xususiy mulkchilikni jamiyatning asosi, deb hisoblanadi. Davlat esa mana shu quldorlarning xususiy mulkini himoya qilish kerak, deydi u. Sitseron xalq ommasiga, ayniqsa, kullarga-ular faqat jismoniy mehnat qilish uchun yaratilgan, deydi. U davlat arbobi sifatida siyesiy jihatdan Demokrit va Epikur izdoshlariga, Lukretsiy Kar kabi zamondoshlari qarashlariga qarshi kurash olib boradi.

Rim imperiyasida bu davrda yuzaga kelgal falsafiy oqimlardan yana biri - bu neoplatonizm oqimidir. Bu oknmning asoschisi Plotii eramizpipg 204-270y.y.) bo‘lib, uning fikricha, olamiy jarayon payqab va ifodalab bo‘lmaydigan iloxiy bosh yagona ibtidodan boshlanadi. Bu ibtido avval olamiy aql, sungra olamning joni (ruxi) sifatida, undal keyin ayrim jonlar sifatida, ayrim jonli jislar sifatida to materiyagacha davom etadi. Plotin fikricha, bu ibtido butun borliq asosi bo‘lgan yagona ilohiy kuch - xudodir. Qolgan barcha narsalar (ham) ruxiy, xissiy narsalar. ham moddiy narsalar) shu iloxiy kuchdan yaralgan nurning emmanatsiyasining natijasidir. Uning nuktayi nazaricha, Quyosh o‘zidan nur taratgan kabi, iloxiy kuch-xudo ham o‘zidan butun koinotni undagi barcha narsalarni emmanatsiya usuli bilan chnqarib goborgan. Bu emanatsiya kilingan narsalarga rux ham (jon ham) materiya ham kiradi. Insonning joni va taiasi ham ularning birligida shu iloxiy kuch-xudo tomonidan emanatsiya qilingan. Shuniig uchun inson-xayetining oliy maqsadi -o‘z jonining shu iloxiy kuch-xudo bilan ko‘shilishiga erishuvdan iboratdir. Kishi bunga ekstaz (jazava) xolatga tushish orqali, uni bajarish orqali erishadi, bu xolatda uning joni, ruxi butun xissiy dunyodan va taladai xalos bo‘ladi. Buninguchun kishi o‘z nafsiii va jismoniy ishtiyoklarini tiyish vositasi bo‘lgan hamda butun ruxiy kuchlarini, shu jumladan, biluvchilik kuchlarini rivojlantirish yo‘li bilan erishadi. Bunda yuksalib borishning oliy ekstaz (jo‘sh urish) bosqichida inson ruhi xudo bilan qaytadan birlashadi.

Plotinning falsafiy ma’lumotida ham dialektika o‘ziga xos ifodasini topgan. Unda olamdagi uyg‘unlikka, go‘zalikka, yaxshilik va yomonlikka sabab bo‘ladigan, ularning moxiyatini tashkil etgan qarama-qarshiliklar va ularning birligi ko‘rsatib berilgan.

Xullas, Rim faylasuflari o‘z falsafiy ta’limotlarini yaratgan bo‘lishsa ham, qadimga yunon falsafasiga deyarli hech qanday yangi, original falsafiy fikrlar ko‘sha olmaydilar. Ular asosan yunon falsafasining diniy-ahlokiy aqidalarini, undagi ba’zi ta’limolarnigina qayta ishlab chiqish bilan chegaralandilar, xolos.

Chunki bu davrlarda Rim imperiyasi o‘zining ichki ziddiyatlarining tobora keskinlashib borishi, natijada. kuldorlik jamiyati ichida inqiroz kuchayib ketib, jamiyat mafkurasi soxalariga diniy, idealistik aqidaviy ta’limotlar keng yoyilib, yunon jamiyatida erishilgan madaniyat, fan, san’at va falsafa soxalaridagi yutuklarga nisbatan reaksiya avj ola boshlaydi. Oqibatda, kutubxonalar yopilib, taraqqiyotparvar ilg‘or kishilar: olimlar va faylasuflar quvg‘in etila boshlaydi. Bularnig bari Yevropa mamlakatlarida sxolastik din hukmronligiga sabab bo‘ldi. Bu narsa eramizning V asriga kelganda, quldorlik jamiyati yemirilgach, butun qadimiy Yunon va Rim ilg‘or madaniyati va falsafasining ham butunlay oyoq osti kilinishiga va uiutilishiga olib keldi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Qadimgi Yunonistondagi Milet maktabi faylasuflari hakida nimalarni bilasiz?
2. Geraqlit va Demokritning falsafiy qarashlari haqida galirib bering.
3. Pifagor va Suqrotlar qanday faylasuflar bo‘lishgan?
4. Platomning "g‘oyalar dunyosi" haqidagi ta’limotiming moxiyatini tushuntirib bering.
5. Aristotelningfalsafiy qarashlari iimalardan iborat?
6. Qadimgi Rim ma’naviyatida Lukretsiy Kar va Plotinning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

Karimov I.A- O‘zbekiston; milliy istiqlol, iktisod, siyosat, mafkura. . -'!'.: O‘zbekiston 1996.
Karimov I.A. Jamiyatimiz falsafasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O‘zbekiston , 1998.
Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. -T.; O‘zbekiston 1999.
Osnov! filosofii: Uchebnoye posobiye dlya studentov. -T.: O‘zbekiston 1998.
Sulaymanova F. Sharq va G‘arb . -T.:, 1997.
Forobiy. Fozil odamlar shaxri. -T., Ibp Sino, 1997.
Falsafa. O‘quv qo‘llanma. -T., Sharq1999.
Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002y. (17-56,57-83,84-96, 112-124-betlar).

## 4-mavzu O‘RTA ASRLAR SHARQINING MA’NAVIY HAYOTI

### REJA:

1. **O‘rta asrlar davri ma’naviyatining o‘ziga xos xususiyatlari.**
2. **Tasavvuf falsafasi.**
3. **Markazpp Osiyo faylasuflarining tabnpy-ilmiy qarashlari.**

VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarini arablar bosib olib, ular o‘zlari istilo qilgan bu xalqlarga yangi din-islom dinini zo‘rlik bilan joriy qildilar. Bu davrlarda Markaziy Osiyo xududida Sug‘d, Xorazm, Farg‘ona, Ustrushana, Chag‘aniyon o‘lkalari Sharq bilan G‘arbni Shimol bilan Janubni bog‘lovchi Ipak Yo‘lining markazlardan bo‘lib ular madaniy jihatdan ancha rivojlangan bo‘lishadi. Lekin arablar bu o‘lkalarni bosib olgach, ularni arab xalifaligiga bo‘ysundiradi bu xududlarda o‘zlarining bosqinchilik siyosatini olib borib, maxalliy xalqlarning madaniyati, dinlari, yozuvlari, bilimdon kishilarini butunlay yo‘qotishga harakat qildilar. Arab

bosqinchilarining bu hatti-harakatlariga qarshi mahalliy xalq vakillari Abu Muslim, Mukanna, Hamza al-Horij, Rafi Ibn Layslar boshchiligida xalq ko‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tadi. Arab hukmdorlari bu qo‘zg‘olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradilar va bu xalqlarga uzil-kesil islom dinini singdirib, o‘z hukmronliklarini o‘rnatadilar.

Tasavvuf (so‘fiylik yoki so‘fizm) islom falsafasida diniy falsafiy yo‘nalish sifatida VIII asrning o‘rtalarida arab xalifaligi mamlakatlarida vujudga keldi. U asosan, shu mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotining xususiyatlari bilan taqozo qilingan bo‘lsa ham, lekin unda neoplatonizm ta’limotining, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa buddizm diniy ta’limotlarining ta’sirini yaqqol ko‘rish mumkin. Tasavvuf paydo bo‘lganidan keyin u turdi davrlarda, dastlab arab mamlakatlarida, keyinchalik Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Pokistom, shimoli-G‘arbiy Xitoy, Indoneziya kabi mamlakatlarga keng tarqaladi. Natijada, tasavvuf dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy hayotidan, ularning falsafiy va badiiy tafakkuridan keng o‘rin olgan, ko‘p tarmoqli, ko‘p yo‘nalishli murakkab ta’limotga aylanadi. Lekin u turli mamlakat xalqlari o‘rtasida turlicha mazmun kasb etsa ham, uning ruhi islomiy ruh bo‘lib qoladi.

Tasavvuf islom ta’limoti olamidagi mazhablar, oqimlar silsilasi ichida o‘zining demokratik qarashlariga izn bergani, inson qalbi va ruxiyatini nishonga olib, ahlokiy poklikni targ‘ib qilishi bilan, jaholat va xudbinlikka qarshi maydonga chiqqanligi jihatidan ilmi vaxdat yoki ilmi tavhid nomini oladi. U islom dunyosidan «tariki tasavvuf», ya’ni tasavvuf yo‘li sifatida musulmon axlining el-yurt ishlarini ado etishiyu, shariat koidalariga rioya qilishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li, deb karaladi. Ilmiy, falsafiy va diniy adabiyotlarda «tasavvuf» so‘zining lug‘aviy ma’nosi nimadan iboratligi va u qanday so‘zdan kelib chiqqanligi to‘g‘risida xanuzgacha yagona fikrga kelingani yo‘q. Ko‘pchilik tadqiqotchilar tasavvuf so‘zi, asli arabcha: «suf» so‘zi (undan «so‘fi», «so‘fizm» so‘zlari ham) dan kelib chiqqan bo‘lib, «suf» - bu arabcha: «suffa» - o‘zbekcha jun, jundan, degani, bu ta’limot yo‘liga kirgan kishilar dastlab jundan to‘kib tayyorlangan xirka (bizningcha: chakmon) kiyib yurishgan, shu sababli ular ta’limoti «so‘fiylik» yoki «tasavvuf» deyilib, o‘zlari esa «so‘filar» deb atalgan, degan fikrni bildirishadi.

Boshqa tadkiqotchilar esa «tasavvuf» ni, uning o‘zagi «suf» ni yunon tilidagi «sofos» («donishmandlik») so‘zidan olinganligini qayd qilishadi. Tasavvuf ta’limotining yirik tadkiqotchilaridan biri A. Krimskiyning yozishicha, «so‘fi» so‘zi VIII asrning o‘rtalaridan boshlab adabiyotlarda ko‘llanila boshlagan. Bu so‘z dastlab, asosan, komil, yetuk, e’tikodli musulmon darvishlarga nisbatan ishlatilgan. «Qiyos ul - lug‘at» da esa shunday yozilgan. «So‘fi - xirkalo‘shdir, zeroki, yungni suf deyiladi; fukaroning istiloxidan, o‘z diliga nigox karatgan, hayolini xakaan boshqa barcha narsalardan poklagan kishi «so‘fi» deb ataladi», deyiladi. Shuningdek, mutasavvuf Muhammad G‘iyosiddin: «so‘fi», "sufa" so‘ziga mansub bo‘lib, so‘fiylar joxiliyat ayyomida Ka’bada xalqni xakka da’vat etish bilan shug‘ullanganliklari sababli ular tasavvuf axli mavqeiga erishganlar, deb yozadi.

Mutasavvuf Abul Hasan Ali Xajiriyning sharxlashicha xirkalo‘shlar ya’ni so‘filar azaliy soflik va poklikka vosil bo‘lganlar: asxobi suffa, ya’ni tilovat kiluvchi va tavallochilar guruhini ham so‘filar, dsyilgan. Ba’zi mutafakkirlarning fikricha "suf" so‘zi (arabcha «svf») ning har bir harfi aniq ma’noga egadir. Masalan: "S" - sadoqat, sinoat, saodat; «V» - vasl, vafo; «F» harfi farox, fotiha so‘zlaridan iborat, deyiladi.

Vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy shunday sharx keltiradi: «Yunoncha "suf" so‘zi bizcha hikmatdir. Shuning uchun faylasufga «filosufa», ya’ni «hikmatni suyuvchi» deb ism berilgan. Musulmonlardan bir guruxi o‘shatushunchaga yaqin fikrga borgandan ular ham "suffiya" deb ataldilar. Musulmonlarning ba’zilari "suffiya" so‘zining termin ekanini bilmasdan uni «sod» harfi bilan yozib, uni "suffa" so‘ziga nisbat berib: «Suffa suhbatdoshlari - asxobi suffadan iborat kishilar», deydilar. Undan keyin bu so‘zni Sufatuyus - ya’ni taka juni so‘zidan qisqartirilgan, deb tushunishdilar»,- deydi.

Ozarbayjon olimi A.G.Aliyev o‘zining tasavvufga bag‘ishlangan maqolasida Yax’yo Suxravardinning bu xakda: «Qur’on» da "so‘fi" so‘zi yo‘q va bu so‘z turkiydir. Islom mamlakatlarining ikkala kismida ham bu so‘zdan bexabar bo‘lishgan», degan fikrlarni keltirib, u

kadimiy turklarning duNyoqarashida.suv kulti muhim o‘rin tutganligshi, «suf» so‘zi ana shu' "suv" so‘zidan yaralgan degan fikrni ilgari suradi.

Umuman, tasavvuf qanday-so‘zdan kelib chiqqan bo‘lsa ham, u soflik, poklik, riyosizlik, taqvo haqidagi ta’limot, qarashlarni ifodalaydi.

Qadimda shayx Abusaid Abuxayrdan: «Tasavvuf nima?» - deb so‘raganlarida, u kishi: «Boshingga ne bo‘lsa, chiqarib tashlash, ko‘lingda neki bor, qo‘lingdan chiqarish va boshqalardan senga nima ozor yetsa, ranjimaslik».- deb javob bergan ekan. Hakikiy tasavvuf axli chindan xdm bu shartlarga amal qilib yashagan.

Tasavvuf ta’limoti panteizm, asketizm va mistitsizm goyalarini targ‘ib qilish bilai birga, uning asosida insop, uning ma’naviy-ahlokiy kamoloti goyasi yotadi. U insonni zo‘r kat’iyat bilan yomon axlokdal kutulishi va yaxshi ahloqqa yetishishga yetaqlaydi. Binobarin, uningcha, «Rizo axli» boriga qanoat qiluvchi kishilardir.

Shayxul-mashoyix mutasavvuflarning qayd qilishicha, tasavvuf - nafs lazzatlarmdan voz kechib nafs manzillarini bosib o‘tib ollox vasliga yetishishdir. Ular tasavvufni - o‘limi yo‘k hayot va hayoti bo‘lmagan o‘limdir deb, insonning xayvoniy shfsoniy hayotida o‘lmoqni va insoniy hayotda yashamokni ilgari suruvchi ta’limot deb izoxlaydilar. Kimning vujudida xayvoniy xirslar. hayvoniy xislar ustunlik kilsa u tilsiz va omgsiz maxluq xayvonga aylanib, nafs tuzog‘iga ilinadi: nafs insondagi eng xatarli dushman, uning o‘z g‘animi ichida, degan g‘oya tasavvuf ta’limoti asosida yetadi. Mutasavvuflarning fikricha, insopning ahloqini tuzatish, uni ma’naviy kamolotga yetkazish uchun inson o‘z tabiatidagi salbiy, xayvoniy hissiyotlarni mahv etishi kerak. Unda iymon, vijdonni, Hakka e’tiqodni tarbiyalash zarur. Binobarin, iymonli, ya’ni pok va rostgo‘y, insofli va halol, mehr muruvvatli avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatning asosiy vazifasi bo‘lishi lozim. Iymon inson uchun muqaddas tuyg‘u. Iymon bilan Haqqa e’tikod qildingmi - xech kimni aldama, xech kimga ozor berma, hayotda xalol bilan haromni farkla, yolg‘ondan, munofiklikdan qo‘rk, muttahamlik yo‘liga zinxor qadam bosma. Demak, tasavvuf bu - imon, e’tiqod yo‘li, komillik, mukammallik, barkamollik yo‘lidir. Tasavvuf ta’limotining asosiy obyekti npsop va uning xaqqa, hakikatga muposabatidir. Unda «insonning xudoga, insonning xaqqa», «inson olloh uchun» kabi g‘oyalar xukmron g‘oyalar bo‘lib, pir va shogird, murid va murshid munosabatlari asosiy o‘rin egallaydi. Umuman, tasavvufga doir nuqtai nazarlar unda ifodalangan g‘oyalar va qarashlar turli-tumandir. IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari, amaliy yo‘llari ishlab chiqila boshlandi. Bu davrga kelib, so‘filarning amadiy - ruxiy (ya’ni psixofizik) mashqlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash va chiniktirish, o‘z-o‘zini va xakni anglash va haqka yetishish tadbir usullari shakllanib, rivojlanib bordi. Natijada, tasavvufga oid tushunchalar, nazariy qarashlar tizimi yuzaga kelib, tasavvuf alohida ilm, aloxida ta’limot sifatida qaror topdi. Aniqlanishicha XI asrgacha bo‘lgan yozma manbalarda tasavvuf tushunchasi va tasavvuf oqimlarining 78 ta ma’nodagi talqini mavjud bo‘lgan.

Mutasavvuflar dastlabki vaktlarda tasavvufni nukul «sirli», «tushuntirib bo‘lmaydigan holatlar», «iboratga kelmaydigan ishoratlar» deb fikr bildirgan bo‘lsalar, bora-bora bu xolatlar haqida o‘z fikr muloxazalarini nazariy jihatdan umumlashtirib so‘filarni tarbiyalash vazifalari, pir-murshidlik koidalari, ular odob-axlok normalarini bayen qila boshlaydilar, natijada, tasavvufning bosqichlari va ular o‘rtasidagi munosabatlari, tasavvuf axlining olam va odam moxiyati insonning muomala madaniyati, tavxid va vaxdat ma’lumotlari haqida ko‘plab qarashlar ishlab chiqila boshlanadi. Shu asosda tasavvuf butun islom olamini zabt etib, barcha qadimiy shaharlarda xonakoxlar quriladi, karvon yo‘llarida rabotlar, zoviyalar kad ko‘tarib.aziz-avliyolarning mozorlarida shayxlar maskan tutib, ko‘plab shogirdlarni tarbiyalay boshlaydilar.

Tasavvuf ta’limotining ilk davrlarida maqomat va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so‘fiylik yo‘riqlarini va vazifalarini belgilash, iloxiy haqikatlarni xalq orasida yoyishda Zunnun Misriy (796-861), Boyazid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bagdodiy (vafoti 910), Hakim at-Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Xalloj (858-922) larning xizmatlari katta bo‘ladi. Keyinchalik Abusaid Abulxayr (967-1049), Abdullox Ansoriy (3006-1089), Axmad Yassaviy (vafoti 1 166), Yax’yo Shaxobiddin Suxrovardiy (1155-1191), Ibn - al - Arabiy (1165-1240), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Nakshband (1318-1389) va shular kabi shayx-ul-mashoyixlar tasavvuf ilmini

o‘zlarining yangi fikr va qarashlari bilan boyitadilar. Ular tasavvufda yangi oqimlar, yangi silsilalarni vujudga keltiradilar. Natijada, tasavvuf haqida ko‘plab risolalar va kitoblar yozila boshlaydi. Tasavvuf ta’limoti bu davrlar shoirlari badiiy tafakkuriga ham ta’sir qilib, natijada, tasavvuf goyalarini kizg‘in targib etuvchi ulkan she’riyat ham vujudga keladi.

Tasavvuf ta’limotida so‘fimipg ruhiy kamolotga erishish yo‘lining to‘rtta asosiy bosqichi ko‘rsatiladi. Bunda: tasavvuf axli dastlab islom dini talablariga buysunishi kerak deyiladi. Birinchi bosqich - shariatii tashkil etadi. Fakat shundan keyingina solix, ya’ni tasavvuf yo‘liga kirgan so‘fiy ikkinchi bosqich - tariqatga ko‘tarilishi mumkin. Bu bosqichlarni bosib o‘tganlargina ulardan yukorirok uchinchi bosqichga - ma’rifatga erishadilar. Tasavvuf ahli ma’rifat bosqichini to‘liq egallab, bosib o‘tgandan keyingina to‘rtinchi bosqich - xaqiqatii egallaydi. So‘fi haqiqatga erishuv jarayonida o‘zini jismoniy shaxs sifatida tugatib, u iloxiy shaxsga aylanib, ollohga ya’ni xakka yetishadi, unga singib ketish natijasida bokiylikka ega bo‘ladi.

Tasavvufga oid ilmiy manbalar, kitoblar va dasturlarda bu atamalarni izoxlash va tushuntirishga ko‘p e’tibor beriladi. Ular tasavvuf ta’limotini o‘zida ifodalagan bu bosqichlarni bu ta’limotni egallashga bel bog‘lagan kishining ruhiy-ahlokiy, ma’naviy kamolot yo‘li deb qarashadi. Bu jihatdan bu bosqichlarni tasavvuf ta’limotining amaliy qismi deb ta’riflashadi. Darhaqikat ham shunday, chunki solik (ya’ni tasavvuf yo‘liga qadam qo‘ygan yo‘lovchi) bajarishi kerak bo‘lgan barcha yo‘riqlar, irodat va ishorat usullari, pir-muridlik koidalari odobiga rioya etish kabilar barch.asi shu bosqich ichiga kiradi.

Soliqning tasavvufga oid bu ruxiy-ahlokiy kamolot yo‘lini bosib o‘tishida o‘ziga xos maqomat va xollar ham mavjud bo‘ladi.

Mutasavvuf Abunasr Sarroj solikning bu yo‘lda quyidagi makomatlarni bosib o‘tishi lozimligini kayd etgan:

Tavba.
Vara’.
Zuxd.
Fakr.
Sabr.
Xavf.
Rajo.
Tavakkul.
Rizo.

Bu makomat darajalarini bir bir egallab, muvaffakiyatga erishgan solik xol martabasiga yetadi va ilohiy jamolni mushoxdda qila boshlaydi, uning qalbini shavk-zavq qamrab oladi. U bunda shunday xolatga ko‘tariladiki, uning butun a’zolari har bir olgan nafasi ham ollohning borligi va buyukligidan xabar beradigan bo‘ladi.

Soliq xol martabasiga ko‘tarilganidan keyin u xuddi makomat bosqichlarini bosib o‘tganidek. xol bosqichlarini ham bosib o‘tishi zarur bo‘ladi. Holningta’rif-tasnifga keltirilgan bosqichlari kuyidagilar: 1. Kurb, 2. Muxabbat, 3. Shavk, 4. Uns, 5. Mujohida, 6. Mushoxida, 7. Munoshifa.

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra inson o‘z tabiati jihatdan qarama-qarshi ikki asos - modda va ruxdan iborat, unda shu ikki asosning barcha xususiyatlari jamuljamdir. Agar insonda moddiylik xususiyatlari ustun kelsa, unda xayvonlik sifatlari kuchayadi, agar ruxiy xususiyatlar ustun kelsa, iloxiylik sifatlari rivojlanadi. Lekin insondagi rux modda (jism) quliga aylanmasligi kerak. Aksincha, unda modda (jism) rux uchun bir asbob, o‘lchov yoki vosita bo‘lib xizmat qilsin. Odatda ruxan tarakkiy etgan insonlar aqlu zakovati ilhom va ijodkorlikka ega bo‘lgan, ilohiy tab’ va farosat bilan boshqalardan ajralib turadilar. Bunday kishilardan ruhi tarakkiy etgani sari, u o‘z tanasi (modda, jism)ga sigmay qola boshlaydi. Bunday kishi o‘z ruhida koinot bilan aloka qilib, olam sir-asrorlaridan xabardor bo‘lib, har xil bashoratlarni qilib, turli-tuman mo‘jizalar ko‘rsatadigan bo‘ladi. Tasavvuf ta’limotida so‘filar insonni jism olami bilan iloxiy olam orasidagi chegara deb karaydilar. Ular insonni shu jihatdan tongga o‘xshatadilar. Ma’lumki, tong ham tun bilan kunning

chegarasi, tongdan kuyosh chiqib, qorong‘ilik-tunni xaydagani kabi rux ham jism olamini tark etib nurlar olamiga talpinadi.

Umuman olganda, tasavvuf ta’limoti o‘z evolyutsiyasi davomida ikki xil oqim sifatida ikki bosqichda namoyon bo‘ladi. U o‘zining birinchi oqimida va birinchi bosqichida feodallar tomonidan ezilishga qarshi goyalar, mafkura sifatida ortodoksal islomning diniy g‘oyalariga zid bo‘lib, o‘zi paydo bo‘lgandan ancha keyingi davrlar ijtimoiy-falsafiy va sotsial-ahlokiy fikrlar tarakqiyotiga progressiv ta’sir ko‘rsatadi. Birok u o‘zining ikkinchi oqimi namoyandalari karashida ikkinchi bosqichda zoxidlikni, tarki dunyochilikni, bu dunyodagi kishilar hayotiga nafratni, ijtimoiy adolatsizliklarga befarq karashni targ‘ib etuvchi ta’limot sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga Abu Homid Muhammad Ibn Muhammad al-G‘azzoliy falsafasida tasavvuf islom ortodoksal kalom ta’limoti bilan qo‘shilib, musulmon ruxoniylari tomonidan rasmiy ravishda tan olinadi. Birinchi okim vakillari qarashlariga ko‘ra, tasavvuf, ham botinan, ham zoxiran iloxiy ahloq, u fakat insoniy, go‘zal va xur hayotdagi tiriklikni yoqlaydi. Shunga ko‘ra, tasavvuf axli saxovat, futuvvat, kanoat, sabr-bardosh, diyonat. sadokat va ishorat axlidir. Ulardagi bu fazilatlar inson xulkidagi barcha noqislik, jamiki yomonlik, tubanlik va pastkashliklar bilan kurashuvchilardir.

Ikkinchi okim vakillari qarashlariga ko‘ra esa, tasavvuf inson qadr-qimmatini yerga uruvchi, insonda mehnatga nisbatan nafratni tarbiyalovchi, kishilarga o‘zlari yaratadigan moddiy va ma’naviy ne’matlardan foydalanishga ularning haq-hukuqi yo‘k bo‘lgan ta’limotdir.

Umuman olganda, tasavvuf ta’limotida butun dunyo bo‘yicha: junaydiya, qodiriya, suxiovordiya, xanafiya, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tarikatlari ma’lum va mashxurdir.

Markaziy Osiyo - Turkiston zaminida esa asosan qodiriya, yassaviya, kubroviya, va naqshbaidiya suluklari, ya’ni tarikatlari keng tarqalgan.

Qodiriya sulukining asoschisi Saiyid Abduqodir Giloniy (u Eronning Gilon viloyatida 1079 yilda tug‘ilgan) bo‘lib, bu zoti sharif bizda G‘avsul A’zam, shayxul-mashoyix, avliyolar sultoni nomi bilan mashxurdir. U kishining nasl-nasablari o‘n avlod orqali Muhammad alayxisalomning kizlari Fotima va uning o‘g‘illari Imom Hasan va Imom Husanga borib takaladi. Shayx Abdug‘odir Giloniy 1166 yilda vafot etadi.

Yassaviya sulukining asoschisi butun Sharqda mashxur siymo Ahmad Yassaviydir. U janubiy Qozog‘istonning Sayram kishlog‘ida shayx Ibroxim ota xonadonida tug‘ilgan (yili ma’lum emas). U shayx Xoja Yusuf Hamadoniyiing 4 xalifasidan biri bo‘lgan. Ahmad Yassaviy Turkistonda o‘z sulukini asoslash va uning g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun badiiy adabiyotning she’riy shaklidan foydalanib o‘z “Hikmatlar»ini yaratadi. Bu «Hikmatlar» asosan pandu nasihatlardan iborat bo‘lib, ularda o‘z davridagi zolimlarni, amaldorlarni, poraxo‘rlarni, o‘z imonidan kechgan, Olloxni unutgan, dunyo, boylik yo‘liga kirib, insof va diyonatni, mexr- shafkatni byutmaydigan shaxslarni tanqid qiladi. Ommani esa ruxiy jihatdan tipchlantirib, bu dunyoga ko‘ngil bog‘lamaslikka uning o‘tkinchi ekanligini aytib, oxiratni, u dunyoni o‘ylashga chakirad.

Ma’lumki O‘rta Osiyo xalqlari XIV asrning 70-yillaridan boshlab mo‘g‘ul bosqinchilari zulmidan kutulib, vayron qilingan shahar va kishloqlarni, sug‘orish tarmoklarini, hunarmandchilik va savdo-sotiqni tiklash, ularni ma’lum izga solish bilan, ularning dunyoviy masalalarga kizikishlari ortib boradi.

Mana shunday bir sharoitda Movarounnaxrda tasavvuf ta’limotining yangi suluki, yamgi okimi naqshbandiya vujudga keladi. Naqshbandiya sulukining asoschisi xazrat Baxouddin Nakshbamddir. U kishining asl ismi Muhammad Ibn Muhammad Jaloliddin bo‘lib, Xojai Buzruk, pyuxi Baxouddin Nakshband, Baxouddin Balogardon pomlari bilan musulmom olamiga mashxurdir. U Buxoro yaqinidagi kasri Himduvon kishlogida (1318 yilda) tugilgai. Nakshbandiya tadiqatida dunyoviy, xayetiy masalalarga jiddiy e’tibor beriladi. U tarki dunyo qilishga, dunyo ishlaridan voz kechishga qarshi chikib, kishilarni real hayot ishlari bilan band bo‘lishga, dunyo lazzatlaridan baxramand bo‘lishga, buning uchun mexnat qilish, bilim olish, halol yashashga chakiradi. Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq Gijduvoniy va Bahouddin Nakshband asos solgan tariqat yo‘lining 1 1 ta asosiy qoidasi bo‘lib, ular kuyidagilar:

1 . Xilvat dar anjuman; 2. Safar dar vatan; 3. Nazar dar kadam; 4. Xo‘sh dardai; 5. Yodkard; 6. Bozgasht; 7. Nigoxdosht; 8. Yoddosht; 9. Vukufi zamoniy; 1 0. Vukufi kalbiy; 11 . Vukufi adadiy.

Baxouddin Naqshband tomonidan asoslangan «Naqshbandiya» tariqat'ining nomi uning yuqorida keltirilgan qoidalaridan kelib chiqadi. Bu koidalarda aytilishi bo‘yicha: «Zoxiran xalq bilan, botipan xak bilan» yoki «Qo‘ling mehnatda bo‘lsin, dilingda olloh taoloning.naqshi bitilgai bo‘lsin ("dil ba yoru, dast ba kor")», degan g‘oya ilgari suriladi.

Baxouddii Nakshbandning o‘zi dexkonchilik bilan, hunarmandchilik bilan kun kechiradi. U o‘z uyida xech qanday mol-mulk va boylik saqlamagan.

Baxouddin Naqshband o‘z tariqatida inson hamisha kalban, ya’ni ma’naviy yuksak bo‘lishi, jisman yerdan, vatandan uzilmay yashashi keraqligini uktiradi.

U shunday deydi:

Bizda hech narsa io‘q hech kimimiz yo‘q,
o‘sha hech parsa deb, hech gamimiz yo‘q.

Naqshbandiy tariqati XIV asrda paydo bo‘lgan bo‘lsa ham, Afg‘oniston, Hindiston, Indoneziya va boshqa Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari o‘rtasida keng tarkalgan. Bu tasavvuf tariqati Sharq xalqlari iyastimoiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotida juda katta rol o‘ynaydi. Bu ta’limotda o‘z mexnati bilan kun ko‘rish, yashash, adolat uluglanib, boshqalar mexnati bilan kun kechirish, tekinxo‘rlik kishilarga qilinadigan ijtimoiy zulm, istibdod qat’iyan koralandi.

X,ozirgi kunda Mustakil O‘zbekistonimizda o‘tmish ma’naviy me’rosimiz, jahon umuminsoniy qadriyatlar chuqur o‘rganilayotgan va tiklanayotgan bir sharoitda tasavvuf falsafasini ham o‘rganish, u erishgan yutuqlardan g‘oyalardan komil insonni tarbiyalashda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xullas, tasavvuf ta’limoti o‘tmishda butun musulmon xalqlari ijtimoiy va ma’naviy hayotiga chuqur kirib borib, bu xalqlarning ilm-fani, madaniyati va adabiyoti rivojiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi bizga ma’lum. Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va ulamoyu-xukamolari tasavvuf falsafasidan ma’naviy oziklanib uning insonparvarlik, haqsevarlik, adolatlilik g‘oyalaridan ruhlanganlar. Biz bugungi kunda tasavvufni o‘rganmay turib o‘zimizning o‘zligimizni ya’ni o‘rta asrlar davri tarixiniz haqida xalqimizning ma’naviy va hayoti haqida o‘sha davr falsafiy va badiiy tafakkuri haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin emas. Tasavvuf falsafasini o‘rganish va uni egallash xozirgi kunda bizning mustaqil O‘zbekiston sharoitida biz o‘rganayotgan falsafada komil inson muammosini to‘g‘ri xal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bizning hamma talabalarimiz bu ta’limotni o‘rganishi ham farz ham karz hisoblanadi.

VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga kelganda, Arab xalifalarining markaziy Bag‘dodda madaniy-ma’rifiy hayot ancha yuksalib, unda ilm-fan kuchli rivojlana boshlaydi. Bu shaharda tashkil topgan «Dor ul-xikma»-«Donolar uyi»da yahudiy, xristian va islom olimlari o‘rtasida hamkorlik ishlari, xususan, Qadimgi Sharq mutafakkirlari, yunon va rim olimlar asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharxlar yozila boshlanadi. Bu ishlar, ayniqsa, xalifa Xorun ar-Rashid davrida va udan keyin uning al-Ma’mun xalifaligi davrida juda avj oladi. Al-Ma’mun otasi davrida xalifalikning Markaziy Osiyo bo‘yicha vakili sifatida Marvda ioib bo‘ladi. U otasi vafotidan so‘ng uning o‘rniga xalifa bo‘lgach, barcha musulmon o‘lkalaridan, shu jumladan, Markaziy Osiyodan ham olimu ulamolarni Bagdodga jalb qilib, ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirishga katta e’tibor beradi. Xususan, uning taqlifiga ko‘ra Bag‘dodda bu davrda Markaziy Osiyodan kelishgan vatandoshlarimiz Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Marvaziy, Marvarudiy, Javhariy kabi buyuk olimlar faoliyat ko‘rsatib, bu davr jaxon ilm-fani, madaniyat va falsafasiga katga xissa qo‘shishadi.

IX asrning oxirlariga kelib, Markaziy Osiyo xududlarida arab xalifaligining ta’siri susayib borib, bu xudud xalqlari mustaqchllikka erisha boshlaydilar. Mustaqillikka erishgan bu xududlarda bir iyecha mustakil davlatlar paydo bo‘ladi. Bu mustaqil davlatlar: Somoniylar, Xorazmshoxlar,

Gaznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar kabi feodal dakdaxdari- bo‘lib, ular o‘rtasida o‘zaro savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ta’naviy munosabatlar rivojlanadi, natijada, bu mustaqil davlatlar hududlarida Buxoro, Samarkand, Marv, Urganch, Xiva kabi shaharlar o‘z davrining madaniyat va ma’rifat markazlariga aylanadilar. Bu shaharlarda madaniy va ma’naviy hayot yuksalib. ilm-fan, san’at va madaniyat gurkirab rivojlana boshlaydi. Bu madaniy va ma’naviy markazlarda o‘zaro va boshqa musulmon Sharqining turli shaharlari o‘rtasida savdosotiq, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy alokalar kuchayadi, ularda ilm-fan o‘choklari: maktablar, madrasalar ochiladi. Markaziy Osnyoda vujudga kelgan bu mustakil davlatlar boshqa musulmon o‘lkalari davlatlari bilan o‘zaro yaxshi diplomatik aloqalar o‘rnatishlari tufayli Markaziy Osiyodan ko‘plab yoshlar Bagdod. Basra, Qoxira, va Damashk kabi shaharlarga, Sharqnimg esa juda ko‘p boshqa o‘lkalaridan Buxoro, Samarkand, Marv shaqarlari madrasalariga o‘kishga kelishib, ilm olishadi. Natijada, bu davrda Markaziy Osiyo xalqlaridan jaxonga mashxur juda ko‘p buyuk mutafakkirlar: olimlar, san’atkorlar, shoirlar yetishib chiqishadi. Ayni shu davrda Markaziy Osiyodan jaxonga mashxur islomshunos-xddisshunos olimlar: Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, ensiklopedist allomalar: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino, mashhur islom fiqxshunosi Marg‘inoniy, mashxur filolog olimlar: az-Zamaxshariy, Mahmud Koshgariylar yashab ijod etishadi.

Bu davr badiiy adabiyot soxasida ham arab, fors va turk tillarida ijod qilgan shoirlar: Abu Mansur as-Saolibiy, Rudakiy, Daqiqiy, Yusuf Xos Xojiblar o‘z asarlari bilan dunyo madaniyatida o‘chmas iz koldiradilar.

X asrning oxiri-XI asrning boshlarida Xorazmda ilm-fan, madaniyat va san’at kuchli rivojlanadi. Bunda Xorazmshohlarning avlodlaridan bo‘lgan shox Ma’mun boshchiligida Markaziy Osiyoda birinchi akademiya-Ma’mun akademiyasi tashkil topib unga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qiladi. Bu akademiyaga shu davrning buyuk olimlari, xususan, Abu ali Ibn Sino ham jalb qilinadi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan bu mustaqil feodal davlatlarda ular o‘rtasida o‘zaro urushlar, har hil to‘knashuvlar bo‘lib turshilariga karamay, bu davrda me’morchilik, kurilish ishlari, xunarmandchilik, obodonchilik, madaniy-ma’naviy aloqalar kuchayib, ular madaniy yuksalib borishadi. Bunday madaniy yuksalishlar, avvalo, ularning arab mustamlakachiligidan qutilishlari, bu xalqlarning mustaqil davlatlarining vujudga kelishi, o‘zlarining milliy madaniyatlarini qayta tiklashlari, boshqa musulmon Sharqi o‘lkalari davlatlari bilan madaniy alokalarining yaxshi yo‘lga qo‘yilishi tufayli sodir bo‘ladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi bu madaniy yuksalish VIII-IX asrlarda arab xalqlarida yuz bergan madaniy yuksalish kabi bu xudud xalqlari hayotida ham sodir bo‘lgan o‘ziga xos uyg‘onish davri edi.

Ushbu uyg‘onish, avvalo, bu xalqlar hayotida shu paytgacha ularda hech kachon yuz bermagan yangi siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy kjsalish bo‘lib, u ayni shu davrda bu xalqlarning mustakillikka erishuvi tufayli ro‘y bergan edi. Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlaridan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar insoniyat sivilizatsiyasi tarixida o‘ziga xos, betakror so‘nmas iz qoldirishadi va o‘zilaridan keyingi XIU-XVI asr Amir Temur davri madaniy yuksalishi yangi uyg‘onshining hamda Yevropa uyg‘onishining vujudga kelishida juda katta rol o‘ynadilar. Shuning uchun bu davr Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy yuksalishini haqli ravishda biz O‘rta asrlar Sharq madaniy yuksalishining ilk Uyg‘onish davri, deb ayta olamiz. Markaziy Osiyo xalqlari madaniy uyg‘onishi o‘zining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy jihatidan ham, hududiy geografik jihatdan ham, makon va vaqt jihatidan ham, arab uyg‘onishi va Yevropa uyg‘onishidan tubdan farq qiladi. Bu uyg‘onish davri Markaziy Osiyo xalqlari qayotida o‘ziga xos, betakror madaniy yuksalish bo‘lishi bilan, bu hudud xalqlarining o‘zligini anglashi, o‘z mustaqiligini qo‘lga kiritishi, o‘zlarining milliy mustaqil davlatlarini tuzishlari bilan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy yuksalishlari bilan, buyuk ensiklopedist daholarni yetishtirishlari bilan insoniyat madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Lekin ikki asrdan ortikrok davom etgan bu davr yuzaga kelgan mustakil davlatlarning, ularda hokimiyatni boshqargan mahalliy feodallarning o‘zaro noittifokligi, xokimiyat uchun, shon-shuxrat uchun. boylik uchun olib borgan urushlari, nizolari tufayli XSH asrning boshlarida o‘z nixoyasini topadi. Markaziy Osiyo xalqlari XIII asrning 20-yillarida mo‘g‘illar tomonidan istilo kilinishi tufayli o‘z mustakilliklarini yo‘kotadi va mo‘g‘illar

asoratiga tushib qoladi. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlarining ilk Uyg‘onish davrida erishgan hamma yutuqlari, madaniy kjsalishi mo‘g‘illar tomonidan yer bilan yakson qilinadi, o‘zlari talanadi, qiriladi, butun boyliklari tortib olinadi, buten o‘lka mo‘g‘illarning mustamlakasiga aylanadi. Bu holat deyarli bir yarim asr davom etib, nihoyat, XIV asrning 70-yillariga kelganda, Amir Temur tomonidan mo‘gillar asoratiga uzil-kesil zarba berilishi va mustaqil Amir Temur davlatlarining Temur imperiyasining vujudga kelishi bilan barham topadi. Amir Temur va temuriylar mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotidagi yangi uyg‘onish davri edi. (Bu keyingi mavzuda yoritiladi).

IX-XP asrlarda insoniyat sivilizatsiyasiga o‘zlarning munosib xissalarini qo‘shgan Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlardan biri Muhammad Muso al - Xorazmiy (783-850) dir. Al-Xorazmiy dunyo faniga juda katta hissa qo‘shgan vatandoshimizdir. U algebra fanining asoschisidir. «Algebra» so‘zi esa uning «Al-kitob al-muxtasar fil-hisob al-jabr va al-muqobala» asarining nomidan olingan «al-jabr»ning lotincha yozilishidir. Uning arifmetikaga oid risolasi xozir biz foydalanadigan o‘nlik qatorlar tizimi xind rakamlariga asoslangan bo‘lib, keyinchalik butun Yevropa va dunyoga tarkaladi. Al-Xorazmiyning geografiyaga oid asari kiyingi davrlarda bir qancha geografik asarlarning yaratilishiga zamin bo‘ladi. Uning astronomiyaga oid «Zij» asari Sharqda ham, Yevropada ham astronomik bilimlarining rivojlanishiga yo‘l ochib beradi.

Bular: 1) «Al jabr va. al muqobala hisobi haqida kitob» (algebraga oid); 2) «Hind hisobi hakida kytob»(arifmetikaga oid); 3) «Kitob surat al-arz» (geografiyaga oid); 4) «zij» (astronomiyaga oid); 5) «Usturlob bilaan ishlash hakida kitob», 6) «Usturlob yasash haqida kitob», 7) «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», 8) «Kitob ar-ruhoma», 9) «Kitob at-ta’rix», 10) «Yahudiylarining taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola». Al-Xorazmiyning bu asarlari u yashagan feodal tuzumiiing amaliy talablariga javob sifatida vujudga keladi. Rivojlanib kelayotgan feodal tuzumi taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davr ilm-fan taraqqiyotining asosiy omillari bo‘lib xizmat qiladi. Bu davrdagi qurilish, savdo-sotiq, xunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun astropomiya. geodeziya, geometriya va boshqa ilm soxalarini taraqqiy ettirish zarur edi. O‘z davrining ilg‘or olimi bo‘lgan al-Xorazmiy bu bilim soxalarining amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lgan holda o‘zining arifmetikaga oid asarida shunday yozgan edi: «Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi «Aljabr va al-muqobala xisobi haqida qisqacha kitobni taqlif qildim, chunki meros taqsimlashda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o‘lchash, kanallar o‘tkazishda geometriya va boshqa shunga o‘xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir. Olimning «Al-Xorazmiy» nomi lotin tilida «algoritmus» deb atalib, hozir bu ibora xisoblash sohasida «algoritm» degan xolda fanda chuqur o‘rnashib qoldi. Al-Xorazmiyning tabiatshunoslyk fanlariga oid 20 dan ortiq asarlari bo‘lib, ulardan bizgacha faqat 10 tasi yetib kelgan.

Xorazmiyning algebraga oid «Al-kitob al-muxtasar fi xisob al-jabr va al-muqobala» risolasi uch qismdan iborat bo‘lib, 1-qismning oxirida kichik bir bo‘lish savdo muomalasiga oid masalalar; 2-kism-geometrik qism-algebraik usullar qo‘llangan o‘lchashlar haqida, nihoyat, 3-kism - vasiyatlar haqidagi qism. Bu qismni u «Vasiyatlar kitobi» ham deb atagan. Bu asarning boshida al-Xorazmiy o‘z oldiga kompleks sonlarga oid masalalarni yechishga doir nazariy fikrlarni bayon qilishni maksad qilib ko‘yadi. Shu bilan birga, u o‘z davrida kun tartibida turgan ehtiyojlar, islom va shariat talablariga ko‘ra yuzaga keladigan masalalar, me’morchilik va irrigatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilishni ham ko‘zda tutganligini bildiradi.

Umuman olganda, al-Xorazmiy algebrasi - bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish haqidadir. Uning aytishicha, algebra uch xil son bilan ish ko‘radi. Bularning birinchisi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), ikkinchisi: kvadrat (mol), uchinchisi; oddiy son yoki dirham. Al-Xorazmiyning yozishicha, ildiz -o‘zini o‘ziga ko‘paytiriladigan mikdordir, kvadrat esa ildizni o‘ziga ko‘paytirishda hosil bo‘lgan kattalik (son)dir. Uning asarida u ish ko‘radigan tenglamalar mana shu uch mikdor orasidagi munosabatlarga oid amallardir. Al-Xorazmiy o‘z risolasida ish ko‘radigan bu masalalar oltita chiziqli va kvadrat tenglamalarning tasnifi va yechimiga oiddir. Al-Xorazmiy asos

solgan bu algebraik bilimlarni undan keyin Sharq olimlari davom ettiradi va muvaffaqiyatli rivojlantiradilar.

Al-Xorazmiyning eng yirik asari uning astronomiyaga oid «Zij»idir. Bu asari 37 bob, 116 ta jadvaldan iborat bo‘lib, uning dastlabki 5 bobi xronologiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda «to‘fon», «iskandar», «safar» va xristian eralariga oid yil, asr sanalarini hijriy eraga ko‘chirish qoidalari beriladi. 6-bobda u aylana (doira)ning 12 burji, har bir burj-30 darajaga, har bir daraja 60 dakiqaga, har bir dakiqa-60 soniyaga va hokazo bo‘laqlariga bo‘linishi bayon etiladi. 7-22-boblarda Quyosh, oy va 5 ta sayyoralarning harakatlari bayon qilingan. 23-bob esa trigonometriyaga bag‘ishlanib, unda al-Xorazmiy «tekislik» va «akslangan sinus» tushunchalarini kiritadi va ularga oid funksiyalar jadvalarins keltiradi. 25-27- boblar matematik geografiyaga bag‘ishlangan. Bu boblarda muallif geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalarini keltiradi. Shu bilan birga, bu o‘rinda koordinatlarning o‘zgarishi Quyoshning yillik, oylik va sutkalik harakati ekliptik: ekvatorial koordinatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. 28-bobda esa al-Xorazmiy yana trigonometrik masalalarni ko‘yib, bunda tangens, kotangens tushunchalariii kiritadi va ularga mos jadvallarni beradi. 29-bobda u yana planetalar harakati va ulariing harakat tezligi haqida bayon qiladi. 30-bobda Quyosh va oy ko‘rinmas qulchalarining o‘lchamlari keltiriladi. 31-32 va 36-37-boblarda munalokimlik masalalarining bayoni beriladi. Nihoyat, 33-35-boblarda Quyosh va Oy tutilish va parallaks (yoritkichning ko‘rinish farqi) masalalari yoritilib berilgan. Al-Xorazmiyning bu asari butun Sharq va Yevropa tabiatshunoslik bilimlarining taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Hatto u keyingi davr geografik kashfiyotlarning ochilishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Al-Xorazmiyning «Yer surati haqida kitob»i geografik asar sifatida juda muhim ahamiyatga ega. Kitobda boshlang‘ich meridian sifatida Arin (xozir Hindistonda Ujayn) shaxridan o‘tgan meridian tanlangan. Unda Yerdagi shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joylarning koordinatlari keltiriladi. Bu shaharlar, daryolar, tog‘lar, orollar va boshqa joylar iqlimlar bo‘yicha taqsimlangan. U o‘z geografiyasini iqlimlar nazariyasiga ko‘ra birinchi marta to‘liq bayon etgan. Al-Xorazmiy Yerning insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga alfatadi. U uzunliklarni Kanar orollaridan boshlab hisoblaydi. Al-Xorazmiy ekvatordan janubda 8 ta shahar; 1-iqlimda 64 ta shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iklimda 59 ta shahar, 4-iqlimda 146 ta shahar, 5-iklimda 79 ta shahar, 6-iklimda 63 ta shahar, 7-iqlimda 25 ta shahar va 7-iqlimdan shimolda 40 ta shaharning koordinatlarini keltiradi. Asarning 2-bobida shu yetti iqlimdagi tog‘lar tasvirlanadi. Tog‘larning boshlanishi va oxirining koordiiatlari keltiriladi. Al-Xorazmiy bunda Yaqin va O‘rta Sharqdagi, ayniqsa, Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog‘larni, bu yerlardagi shaharlarni batafsil bayon qiladi. Bunga uning bu yerlarning geografiyasini yaxshi bilganligi, ular bilan shaxsan tanish bo‘lganligi qo‘l keladi.

Xullas, al-Xorazmiyning yukorida keltirilgan asaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, u fanlarning qator tarmoqlarining asoschisidir. Uning bu bilimlar soxalariga oid g‘oyalari keyinchalik bir necha fanlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Al-Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmokda, ular turli Sharq va G‘arb tillariga tarjima qilingan. U o‘z asarlari oilan nafaqat o‘z vatani-Xorazmni, balki butun Sharq, arab dunyosini, Markaziy Osiyoni dunyo xalqlariga mashhur etdi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi vatandoshimiz, buyuk alloma al-Xorazmiy ijodiy faoliyatini, uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarini chuqur o‘rganishga va kelgusi avlodlarga imkoni boricha to‘liq yetkazshga sharoit va imkoniyat tug‘dirdi. Bugungi kunda professor O.F.Fayzullayev qayd qilganiday, geometriyani Yevklid, nosvklid geometriyani Lobachevskiy, kimyoviy elementlarning davriy tizimini Mendeleyev, nisbiylik nazariyasini Eynshteyn yaratganidek, «tenglamalar nazariyasi sifatida algebrani al-Xorazmiy kashf etganligini butun jahon tan oladi». Fan va texnika soxalarida «amper», «vatt», «rengen», «kgori» kabi terminlar qatorida «algoritm», «algol» tushunchalari ham ilmiy mulokotdan mustaxkam o‘rin oldi.

IX-XP asrlarda yashab ijod etgan Markaziy Osiyo xalqlari va butun dunyo tabiiy-ilmiy fikrlarning rivojlanishiga juda katta xissa qo‘shgan buyuk mutafakkirlarning ikkinchisi Axmad Ibn Muhammad al-Farg‘oniy (798-865) dir. Ahmad Farg‘oniy O‘rta asrlarda yashagan Markaziy

Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida asosiy o‘rinni egallaydi. U asli Farg‘onaning Qubo (xozirgi Quva) shaxrida tug‘ilib o‘sib, o‘zining datlabki ma’lumotini shu yerda oladi. Ahmad o‘tkir zexnli va qobiliyatli bola bo‘ladi, u matematika, geografiya, mantiq, iloxiyot, falsafa, tilshunoslik soxalarini puxta egallaydi, xusnixat soxasida suls va nasx xatlarini chiroyli yozadigan bo‘ladi. Ahmad o‘z davridagi arab, fors, turk va yunon tillarini o‘rganadi. U o‘zi o‘rgangan barcha ilmlar ichida, ayniksa, astronomiya (ilmi nujum)ga katta mehr bilan qaraydi. So‘ng o‘z bilimlarini oshirish, o‘qish va o‘rganish uchun o‘sha davrning ilmiy markazlaridan bo‘lgan Bag‘dodga kelib, u yerda «Baytul-xikma» («Hikmatlar uyi»)da ustozlardan saboq olib, o‘zi ham ilmiy tadqikotlar olib boradi. U bu yerdagi olimlar bilan birliqda va hamkorlikda xind, fors va yunon tillaridan arab tiliga tarjimalar qiladi.

Ahmad Farg‘oniy Bag‘dodda «Baytul-hikma»ning yetakchi olimlaridan biri sifatida tanilib, shu yerda yashab, ijod etadi. 1998 yilda Mustakil O‘zbekiston ahli va butun jahon jamoatchiligi Axmad al-Farg‘oniyning 1200 yilligini keng nishonladi.

Hozirgi kunda Ahmad al-Farg‘oniyning 8 ta asari bizga ma’lum bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir. Ular quyidagilar:

1. Astronomiya asoslari haqida kitob (arabcha: «Kitob fi usul imi an-nujum»-ya’ni «Astronomiya ilmining usullari haqidagi kitob).
2. «Usturlob bilan amal qilish haqida kitob» (birgina ko‘lyozma xolda Rampur (Hindiston)da saqlanmokda).
3. «Oyning yer ostida va ustida bo‘lish vaktlarini aniqlash hakida risola».
4. «Yetti iqlimni xisoblash haqida» (qo‘lyozmalari Gotada va Qoxirada saqlanmokda).
5. «Quyosh soatini yasash haqida kitob» (qo‘lyozmalari Halab va Qoxirada saqlanmoqda).
6. «Al-Horazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari (qo‘lyozmasi topilmagan).
7. «Al-Farg‘oniy jadvallari» (ko‘lyozmasi Patna (Hindiston)da saqlanadi).
8. «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» (arabcha: «Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilmi annujum»). Bu asari XII asrdayok Yevropada lotin tiliga tarjima qilinib, uning muallifi lotincha turilgan xolda «Alfraganus» nomi bilan XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinadi va Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘taydi.

Al-Farg‘oniyning bu yuqorida keltirilgan asarlaridan birinchi va va sakkizinchilaridan boshqalari shu paytgacha xali hech kim tomonidan o‘rganilmagan va hozirgi zamon tillariga tarjima ham qilinmagan. O‘zbekiston mustaqillikka erishuvi va al-Farg‘oniy vatandoshimizning 1200 yillik yubileyini o‘tkazish munosabati bilan bizning olimlarimiz uning bu asarlarini o‘rganish, o‘zbek tiliga tarjima qilish ishlarini boshlab yubordilar. Umid qilamizki, ular o‘rganilib, tahlil qilinishi bilan al-Farg‘oniy vatandoshimiz ijodining yangi qirralari, uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining yangi-yangi tomonlari ochilib, bizning mustaqilligimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Al-Fargoniyning «Astronomiya asoslari haqida kitob» asari astronomiyadan eng sodda darslik bo‘lib, u astronomiyadan boshlang‘ich ma’lumotlarni o‘zlashtirishda ancha qulay bo‘lgan. Uning 9-bobi-geografiya bo‘limi «Yerdagi ma’lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi narsalar haqida» deb atalib, unda yerdagi yetti iqlimning hammasi, ulardagi mamlakatlar, viloyatlar va shaharlari bilan birga tasvirlanadi va tavsiflanadi. Al-Farg‘oniy bunda o‘z tavsifini Afrikaning Atlantika okeani qirgoqiga yaqin joylashgan fazolardan boshlab Osiyo qit’asining eng Sharqiy chekkasigacha, ya’ni Tinch okeanidagi Yaponiya orallarigacha davom ettiradi. Uning tasnifi va tavsifi kengliklar yo‘nalishida ekvatorial yerlardan to shimoliy qutb yerlarigacha davom ettiriladi. Al-Farg‘oniyning tavsiflash usuli Al-Xorazmiyning tavsiflash usulidan farq qilib, u xindlarning an’anasiga asoslanadi. Uning iqlimlar tavsifida 3-,4-,5-,6- va 7-iqlimlarning tavsifi dikqatga sazovordir. Bularda Markaziy Osiyo va unga tutash yerlarning shahar va viloyatlari batafsilroq va to‘laroq tavsiflanadi. Masalan, kuyida biz bu tavsiflardan misol keltirgaiimizda, bunga o‘zingiz ham guvox bo‘lasiz: «Uchinchi ikdim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatning shimolidan, so‘ng Hind mamlakatidan va so‘ngra Qobul va Kermon viloyatlaridan o‘tadi.

To‘rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so‘ngra Xurosondan o‘tadiki, bunda Xo‘jand, Ustrushona, Farg‘ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Xirot, Amuya, Marvarud, Marv, Saraxs,

Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so‘ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfaxoqdam o‘tadi.

Beshinchi iklim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so‘ng Xurosonning shimolidan o‘tadi, unda Toroz shahri-savdogarlar shaxri bor. Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turarband (Utror-hozirgi Aris) va Ozayborjon, Armiya (Armaniston) viloyati, Bardaa (Barda), Nashava (Naxchivam) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdai boshlanadi va Yajuj -mamlakatidan o‘tadi, so‘ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volga bo‘yin), Jurjon (Kaspiy) dengizining o‘rtasidan kesib o‘tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Yettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatning shimolidan boshlanadi, so‘ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo) o‘tadi, so‘ng Jurjon dengizining shimolidan o‘tadi, so‘ng Rum (Qora dengizi) dengizini kesib o‘tadi va saqlablar (slavyanlar) mamlakatlaridan o‘tadi va G‘arb dengizi (Atlantika)da tugaydi. Bu yuqorida keltirilgan parchadan ko‘rish mumkinki, Al-Fargoniy katta kengliklardagi o‘lkalarni tasvirlar ekan, o‘zining ona vatani Markaziy Osiyoni batafsilroq tavsiflaydi. Uning Yajuj mamlakati degan kenglik bu mo‘g‘ilistonning Sharqi va Xitoyning shimoliy-Sharqiga oid geografik xududlardir.

Al-Farg‘oniy Olam manzarasini fikran o‘ziga xos idrok qilgan. U vaqtlarda Olam sakkiz qavat osmondan, ya’ni Quyosh, Oy va beshta sayyora-Merkuriy (Utorud), Venera (Zuhra), Mirrix (Mars), Yupiter (Atorud), Saturn (Zuhal) va 102 ta yulduzlar sferalaridan tashkil topgan, deb tasavvur qilingan Al-Farg‘oniy osmon sfera o‘zida bor narsalarning xammasi bilan birlika aylanib turadi. Yerning Sharqiy bo‘lagidagi kishilar Kuyosh va Oyning chiqishini oldin ko‘rishmaydi. Kishi agar Yerning shimoliga borsa, ilgari shimoldan chiqadigan yoritkichlar doimo ko‘rinadigan bo‘lib qoladi. Ilgari janubdan chiqadiganlari esa umuman ko‘rinmay qoladi. Bu aytilganlar Yerning yuzasi yumoloq ekanligini va Yerning gumbazga o‘xshashligini bildiradi, deydi.

Bulardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Al-Farg‘oniy Yerni Ptolemeyga nisbatan boshqacha tushunadi. Al-Farg‘oniyning astronomiyaga qo‘shgan hissasi-bu osmon sferalari yoritqichlari, xususan, Yerning ham radiuslarini birincha marta o‘lchab, aniqlab borishi edi. Bu olam tuzilishini ilmiy tasavvur etishning muhim vositasi bo‘ladi.

Al-Farg‘oniyning yozishicha, osmon manzarasini gavlantirib beradigan ikkita (belbog‘) bor, ular: osmon ekvatori va Quyosh ekliptikasi. Osmon ekvatori Yer ekvatorining davomi, ular bir tekislikda yotadi.

Farg‘oniy Yer radiusi yoyining 1 ining uzunligini topib, uni 360 ga ko‘paytirib, 40800 km ni tashkil qilishini aniqlaydi. Bu Yer meridianining uzunligi edi. Yer va meridianining xozirgi zamon ilmiy asboblari va usulari bilan o‘lchangan uzunligi, ya’ni «Yer belbog‘i» 40 ming 8 kmni tashkil qiladi. Shundan kelib chiksak, Al-Farg‘oniy o‘lchovi o‘z davri uchun juda katta aniqlik edi.

Al-Farg‘oniy dunyo xalqlarining yil hisoblari - kalendari muammosi bilan ham shug‘ullanadi; u xind, yunon, eron, suriya, kopt, Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan barcha kalendlarni takkoslab o‘rganib chiqadi. Al-Farg‘oniy yilning 4 fasldan iboratligi, ular orasidagi munosabatlar geografik kenglikka bog‘likligini aytib, bu muammoni yechishga ham o‘z ulushini qo‘shaydi.

Al-Farg‘oniy Quyosh, Oy, sayyoralar va yulduzlarning harakati va munosabatlarini o‘rganishda, osmonning kelajak manzarasini bilish uchun geometrik-kinematik usul qabul qilib olinishida usturlob (astrolyabiya) asbobining ahamiyati haqida, uning nazariyasini yaratadi. Bu stereografik proyeksiyalar pazariyasi edi. Al-Farg‘oniyping bu kashfiyoti keyingi davr astronomik-matematik nazariyalarning barchasiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Al-Fargoniy Yer ekvatorida Quyosh ikki marta baqorgi va kuzgi teng kunliklarida zenitda bo‘lishini, osmon qutblari gorizont tekisligida yotishini, kutblarda kecha qishga, kunduz yozga 6 oydan teng bo‘lishlaririni ham ko‘rsatib bergan. U Qohira yaqinidagi Rauza orolida o‘zining o‘lchov ishlarini olib borgan, u Nil daryosi gidrometerologik tabiatini aniqlab beruvchi kilometrni ham quradi, bu kilometr bugungi kungacha ishlab kelmoqda.

Al-Farg‘oniy birinchi bo‘lib, Quyosh va Oy tutilishlarini ham ilmiy tushuntirib bera olgan mutafakkirdir. Shunday qilib, Al-Farg‘oniy O‘rta asrlarda astronomiyaga oid asar yozgan mutafakkirlardan birinchi bo‘lib Sharqda va Yevropada shuhrat qozondi hamda butun dunyo ilmiy

jamoatchiligi orasida barkaror mangu o‘rin oldi. Al-Farg‘oniy o‘z davrida ilm-fan rivojlanmasa, mamlakat obod, yurt farovon bo‘lmaydi, deb tushunar edi. Uning fikri-zikrida xalq, uning osoyishtaligi, to‘k va farovon turmush kechirishi yotadi. Bu esa faqat ilm-fan, ma’rifat va ma’naviyatni rivojlantirish orqali amalga oshadi, deb ishonib yashardi. Al-Farg‘oniyning bu g‘oyalari bugunchi kunda biz uchun ham juda qimmatlidir.

O‘rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishda, ayniqsa, Abu Nasr Ibn hammad al-Forobin (870-950) faxrli o‘rin tutadi. U Sirdaryo bo‘yidagi Forob qishlog‘ida tug‘iladi va dastlabki bilimish Shosh, Samarqand va Buxoroda oladi. So‘ngra Forobiy o‘z bilimini davom ettirish uchun Bag‘dodga boradi. Natijada u o‘z davrining yirik olimi va buyuk faylasufi bo‘lib yetishadi. Forobiy Bag‘dodda yashab ijod kiladi, umrning so‘nggi yillarini Xalab va Damashqda o‘tkazib, shu yerda vafot etadi.

Al-Forobiy 160 da ortiq asarlar yozgan bo‘lib, bizga ularning bir qismigina yetib kelgan. U yaratgan asarlarni ularning harakteriga qarab ikki guruxga ajratish mumkin: a) qadimgi yunon tabiatshunos olimlari va faylasuflari ilmiy merosini o‘rganish, tarjima qilish va sharxlashga oid asarlar. Bulardan Aristotelning «Kategoriyalar», «Ikkinchi analitika», «Topika», «Poetika», «Ritorika», «Sofistika» va shu kabi asarlariga yozilgan sharxlarni keltirish mumkin; b) O‘rta asr faniningtabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalariga oid risolalar. Bulardan: «Ixso-al-ulum», «Hikmat asoslari», «Aristotel «Maitig‘»ining talkinlari», «Katta musiqa kitobi». «Assiyosat al-madaniy», «Mantiqqa kirish», “Vakuum haqida», «Fozil odamlar shaxri» va shular kabilardir.

Forobiy asarlarini ularning mazmuniga qarab quyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

1. Falsafaning umumiy masalalariga oid asarlar (Masalan: «Substansiya haqida so‘z», «Masalalar manbai», «Qonunlar haqida kitob» va shular kabi);

2.Inson bilishining tabiatiga oid asarlar (Masalalar: «Yoshlarning aqli haqida kitob», «Kattalarning aqli haqida so‘z», «Mantiq haqida katta kiskartma kitob», «Isbot kitobi», «Sillogizm shartlari kitobi», «Jonning mohiyati haqida risola» va boshqalar);

3.Falsafa va tabiatshunoslik fanlarining mazmuni va mundarijasi haqida asarlar (mas.: «Ilmlarning kelib chiqishi va ta’rifi haqida kitob», «Faslafa tushunchasining ma’nosi haqida so‘z», «Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob», «Falsafaga izohlar» va shular kabi);

4. Moddaning miqdori, xajmi va fazoviy munosabatlarini o‘rganishga oid asarlar (mas.; «Hajmi va mikdor haqida so‘z», «Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob» va boshqalar);

5. Modda xossalari va turlari, hayvon va inson organizmining xususiyatlarini o‘rganuvchi asarlar (mas.:«Fizika usullari haqida kitob», «Hayvon a’zolari to‘g‘risida so‘z», «Inson a’zolari haqida risola va shu kabilar»);

6.Tilshunoslik, she’riyat, notiqlik va hatgotlikka oid asarlar (mas.: «SHe’r va kofiyalar haqida so‘z»., «Ritorika haqida kitob», «Lug‘atlar haqida kitob», «Hattotlik haqida kitob» va boshqalar);

7. Ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish, axloq, hukuq va tarbiyaga oid asarlar (mas.: «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola», «Shaharni boshqarish», «Urush va tinch turmush haqida kitob», «Fazilatli xulklar» va boshqalar).

Forobiy falsafiy qarashlarining asosini uning dunyosining tuzilishi haqidagi panteistik ta’limoti tashkil qiladi. Bu ta’limotga ko‘ra, butun mavjudot-borliq emanatsiya asosida yagona boshlang‘ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu oltita bosqichdan iborat bo‘lish, ular o‘zaro sababiyat orqali bog‘langan. Bundagi birinchi bosqich-birinchi sabab - bu «vujudi vojib»-o‘z-o‘zidan zaruriy mavjud bo‘lgan yagona Ollox (as-sabab al-avval); ikkinchi bosqich-bu birinchi «vujudi mumkin» bo‘ldi, ular osmon jismlari, ikkinchi sababdir (as-sabab as-soniy); uchinchi bosqich-bu ikkinchi «vujudi mumkin», ya’ni faol aqldir (al-aql al faol); to‘rtinchi bosqich - to‘rtinchi sabab-bu tirik mavjudotlarga xos jonxir (an-nafas), ya’ni uchinchi «vujudi mumkin»dir; beshinchi bosqich-beshinchi sabab-bu narsa va xodisalarning ko‘rinishi, ya’ni shakli (as-surat)dir, ya’ni to‘rtinchi «vujudgi mumkin»dir; nihoyat, oltinchi bosqich-oltinchi sabab-bu narsa va xodisalarning jismi, tanasi, ya’ni moddadir, bu beshinchi «vujuddi mumkin»dir. Bu bosqichlar bir-birlari bilan sababiy bog‘langandir.

Borliqning Forobiy tomonidan bunday talqin qilinishi o‘sha davrda tabiiy-ilmiy g‘oyalarning yanada rivojlanishiga keng yo‘l ochadi, Uning talqinidagi to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi bosqichlar osmon va yer satxidagi jismlar moddiylik xossasiga ega bo‘lib ular ham 6 turga bo‘linadi: to‘rt element osmon jismlari, minerallar, o‘simliklar, aqlsiz xayvonlar va aqlli xayvonlar. Forobiyning borliq haqidagi bu ta’limotida shakl va mazmunning munosabati haqida u shaklni narsalarning qiyofasi, tuzilishi va shu kabi mikdoriy aniqlovchilarning yaxlit ko‘rinishi, deb; moddani esa narsalarni tashkil kiluvchi mohiyat, asos, deb tasavvur qiladi.

Forobiy xudo bilai borliqni bir butunlik sifatida olib, ulardan sabab-oqibat shaklida boshqa barcha narsalarni keltirib chiqaradi. Uningcha, xudo yakka-yagona bo‘lib, u na massaga, na nasabga, na ta’rifga ega bo‘lmagan zaruriy, o‘z-o‘zicha mavjud «vujudi zarurdir», boshqa barcha bosqichlarning, xususan, moddaning ham sababidir. «U shu ma’noda barcha narsalar mavjudligining sababini;-deb yozadi Forobiy,-u ularga abadiy mavlsudlik kasb etadi va ularni no mavjudlik xolos etadi».

Forobiyning fikricha, oltinchi bosqich modda ko‘plab belgi va xususiyatlarga ega, ya’ni u sifat va mikdorga, substansiya va aksidensiyaga, imkoniyat va voqelikka, zaruriyat va tasodifga, qarakat, makoi va zimonga ega. Uning ta’kidlashicha: «hamma narsalar uchun umumiy jism-olamdir, olamdan tashqarida xech narsa yo‘q». Jism bo‘lishlik xislati mavjud hamma narsalarning xususiyatidir.

Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o‘zining falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Garchi u insonni «aqlli xayvon»desa ham aqlli inson haqida shunday yozadi: «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir muloxazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, (ular) yomon ishlardan o‘zini chetga olib goradilar. Bunday kishilarni okil, deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zexn-idrokka ega bo‘lganlarni. aqlli, deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, (muttaham), aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim».

Forobiy, borliqni insoning bila olishini kayd qilib, insopiiig bilishini, uking ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi 6oshqaradi, barcha- ruhiy «quvvatlar». jumladan bilish qobiliyati ham unga bog‘liq, deydi. U o‘zining «Ilm va san’atning fazilatlari» risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (al-oraz)lardan, ya’ni sifatlardan substansiyani-mohiyat (javhar)ni bilishga qarab borishini, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishni aytadi.

Forobiy inson bilmshi jarayonini ikki bosqichga bo‘lib, bu bosqichlarning o‘zaro bog‘liqligini, aqliy bilim xissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida ta’kidlaydi. U nison bilish jarayonining bu bosqichlarini insondagi «tashki quvvat» va «ichki kuvvat»lar bilam izoxlaydn. «Tashki kuvvatlar» bevosita tashqi ta’sirlar orqali sezgi a’zolarida vujudga keladigan sezgilardir. Ular 5 turli: teri-badam sechgisi, ta’m bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi. ko‘rip! sezgisi. Bularnng hammasini Forobiy xissiy bilish («quvvat hissiya»), deb qaraydi. «Ichki quvvatga»ga esa u esda olib qolish (xotira), hayol (tasavvur), kis-tuyg‘u nutq (fikrlash) «quvvatlari»ni kiritadi. «Ichki quvvat» deganda u insonning aqliy bilish bosqichini tushunadi. Uningcha, ilmni egallash shu «quvvatlar» orqali amalga oshadi.

Forobiy «Aql ma’nolari haqida» risolasida aql muammosini chuqur taxlil qilib, bu haqida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta’sir, ya’ni ta’lim-tarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikricha, aql faqat insongagina xos bo‘lgan ruhiy kuch bilan bog‘liq kobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir.

Forobiy o‘z bilish nazariyasida Platonning g‘oyalar dunyosi, g‘oyalarning tug‘ma bo‘lishi haqidagi ta’limotga qarama-qarshi, g‘oyalarning, tushunchalarning borliqdan, reallikdan olinganini, masalan, matematik tushunchalar: nuqta, chiziq, doira va satx kabi geometrik tushunchalar real mavjud narsalarning inson miyasidagi fikri in’iqoslari ekanligimi aytadi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. U o‘rta asrlarda birinchi bo‘lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari hakida izchil talimot yaratdi. Forobiyning bu ta’limoti uning «Fozil shahar aholisining maslagi», «Davlat saodatga erishuv yo‘llari haqida risola» asarlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. U «Fozil shahar axolisining

maslagi» risolasida shunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muxtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun xolda har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun iisonlar ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan kismiga o‘rnashdilar, natijada, inson jamoasi vujudga keldi».

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishuvining muhim vositasi xisoblaydi. U insonlarni o‘zaro hamkorlikka, xalqlarni o‘zaro do‘stlikka, tinchlikka chakirib, dunyoda yagona insonlar jamiyatni tuzishni orzu qiladi. Forobiy inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatni koralab, inson qadr-qimmatini ulug‘lovchi jamiyatni orzu qiladi. U o‘zining «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola» asarida: «Davlatnig vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axlok yordamida qo‘lga kiritiladi»,-deb yozadi. Forobiy davlatni har tomonlama yetuk kishi, yetuk xislatlarga ega .bo‘lgan, xalq tomonidan saylangan kishilar boshqarishi lozimligini aytadi. Davlatni yetuk kishilar boshqarsagina fozil jamiyat, fozil shahar, fozil mamlakat karor topadi. Fozil jamiyat, fozil davlat shunday bo‘ladiki, bu jamiyatning har bir a’zosi kasb hunar, ilm-fanni egallash bilan shug‘ullanadi. Bunday davlatda odamlar chin ma’nosi bilan ozod va erkin bo‘ladilar. «Ular orasida turli xil yaxshi odatlar, shavqli - zavqli ashulalar paydo bo‘ladi». Bunday jamoatni boshqaruvchi kishi yoki kishilar guruhi o‘zlarida olti xil xislatga ega bo‘lishi zarur. Bular: avvalo adolatli bo‘lish, ikkinchidan, dono bo‘lishi uchinchidan, qonunlarga katiy rioya qilishi va to‘rtinchisi yangi qonunlar yarata olishi, beshinchisi-kelgusini oldindan ko‘ra bilishi va nihoyat, oltinchisi-boshqalarga g‘amxo‘r va mehribon bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, Forobiyning fozil jamoa, fozil davlat, fozil raxbar haqidagi ta’limoti uning komil inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Mutafakkirning qarashicha, fozil jamoadagina komil inson xislatlari kamol topadi. Uning bu ta’limoti insonni ma’naviy ozod etishiga, uniig imkoniyatlarini, qobiliyat va iste’dodlarini ochishga, yuzaga chiqarishga, xizmat qilib, ilg‘or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo‘lib ko‘shildi.

Forobiy o‘z falsafiy qarashlarida insoniylikni ulug‘laydi. U bu xakda shunday yozadi: «Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido-insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo‘lganligi uchun ham o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim».

Xullas, Forobiy falsafiy qarashlariga yakun yasab shuni qayd etish lozimki, uning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari o‘zidan keyingi mutafakkirlar, xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino qarashlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Forobiy o‘z davridayoq buyuk faylasuf, Sharq mutafakkirlari orasida Aristoteldan keyingi «Ikkinchi muallim» degan nomga sazovor bo‘lgan karashlari bizning mustaqillik sharoitimizda ham muhim ahamiyatga ega.

O‘rta asr Sharqining, xususan, Markaziy Osiyo ilk uyg‘onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayxon Muhammad Ibn Ahmad Beruniy (973-1048)dir. U qadimiy Xorazmning poytaxti bo‘lgan Kot shahrida tug‘ilib o‘sadi va shu yerda muvaffaqiyat bilan bilim oladi. U ona tilidan tashqari, arab, sug‘d, fors, suryoniy, yunon, qadimiy yaxudiy tillarini, keyinroq sanskrit va xind tillarini o‘rganadi. Beruniy o‘z davridagi deyarli hamma ilm soxalarini zgallaydi va ularga oid o‘zi ham ko‘plab asarlar yozadi. Natijada, u o‘zidan keyingi avlodlarga katta va boy ilmi meres-160 dan orti asarlar, tarjimalar, yozishmalar qoldiradi. Uning bu asarlarining 45 dan ortig‘i astronomiyaga, qolganlari tabiatshunoslik, tarixshunoslik, filologiya va falsafiy muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning bir qismigina bizgacha yetib kelgan. Beruniyning bizgacha yetib kelgan asarlari: «Osoral-boqiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»), «Hindiston», «Geodeziya», «Kitobi Saydana» («Farmakagnoziya»), «Geografiya», «Qonuni Ma’sudiy» («Ma’sud qonunlari»), «Mineralogiya», «Kitobi at-tafxim», «Dorivor o‘simliklar hakida kitob» va boshqalarni ko‘rsatash mumkin. Uning «o‘tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» («Osor al-boqiya») asarida muallif yozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida xorazmliklar, sug‘diylar, eroniylar va arablarning islom dinigacha bo‘lgan e’tikorlari to‘g‘risida, ularning astronomik, matematik va geografik tushunchalari haqida juda qimmatli tarixiy ma’lumotlar beradi.

Beruniy o‘zining «Hindiston» nomli asarida Hindistonning iqlimi, uning geografik tuzilishi, xalqlari, ularning urf-odatlari, ilm-fani, adabiyot va san’ati, falsafasi, diniy qarashlarini bayon qilib beradi. U bu asari bilan juda katga shuxrat qozonadi.

Beruniy astronomiyaga oid bir qancha original asarlar yaratib, ularda oston yoritqichlarining harakatlari ustida olib borgan kuzatishlarini bayon qiladi va o‘z o‘tmishdoshlari al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy qarashlarini rivojlantiradi.

Beruniy «Geodeziya», «Kitobi Saydana» («Farmakognoziya»), «Geografiya» asarlarida o‘zining topografiya, farmakognoziya, geografiya, meteorologiya soxalarida olib borgan tadkiqotlarini umumlashtirib bayon qilib beradi. Bu asarlari ham shu soxalarga oid ishlarga juda katta xissa bo‘lib qo‘shiladi. U o‘zining «Astrologiya san’ati asarlarini o‘rganish uchun kitob» asarida osmondagi o‘n ikki burj, ular bo‘ysinadigan sayyoralar tabiati, harakati, ularning Yer iqlimiga ta’siri haqida, bu xakdagi to‘g‘ri va xato qarashlarni bayon qiladi.

Beruniyning astronomik qarashlarida Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrlari juda qimmatli fikrlardir. U astronomiyada o‘z davrida sayyoralar va osmon yoritqichlarini izohlashda geotsentrik va geliotsentrik ta’limotlarni qo‘llash bu fanga xech bir zarar keltirmaydi, deydi, aksincha, bu ta’limotlar orqali astronomik hodisalarni yaxshilab tushuntirib berish mumkin, deydi.

Beruniyning Yer, Quyosh, uning nurlari, nurlarga xos issiqlik, yer ichki haroratlari, ularning tabiati haqidagi qarashlari ham diqkatga sazovordir. Uning bu hodisalar haqidagi mulohazalarida qanchadan-qancha genial gumonlar, fikrlar o‘z ifodasini topgan.

Beruniy o‘z asarlarida tog‘lar va sahrolar, daryo va dengiz hamda okeanlar, foydali qazilmalar, minerallar, ularning paydo bo‘lishi, xossa va xususiyatlari haqida ham qimmatli ilmiy fikrlarni bayon qiladi. Bu jihatlari bilan u -buyuk tabiatshunos olim sifatida namoyon bo‘ladi. Beruniy o‘z astronomik qarashlarida xatto koinotda boshqa dunyolar ham mavjud degan fikrni ilgari suradi. Olimning bunday fikrlari, bir tomondan, uning qadimgi Hind, Markaziy Osiyo va yunon mutafakkirlarning ilg‘or qarashlarini chuqur o‘rganganidan, tafakkur doirasining juda kengligidan dalolat beradi. Biz Beruniy asarlarini o‘rganar ekanmiz, deb yozgan edi taniqli faylasufimiz I. Mo‘minov, - uning teran aqliga, iste’dodiga, dadilligi va mardligiga, tabiat va uning xodisalarini tushunish va tushuntirishda teran ilmiy tafakkur yuritishiga qoyil qolmasdan ilojimiz io‘q.

Astronomiya sohasida o‘z zamonasi darajasidan butun bir tarixiy davrga ilgarilab ketgan ilmiy fikrlarni izhor etish va targ‘ibot qilish uchun Beruniydek xaqiqat qidiruvchi bo‘lmoq lozim edi.

Beruniy O‘rta asr Sharq uyg‘onishi sharoitida xaqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, u tabiatshunoslikning turli soxalarida o‘z davri uchun taajjubga soluvchi shunday ilmiy va faraziy fikrlarni olg‘a surdiki, ular bir necha asrlardan so‘ng Yevropa ilmida o‘z isbotini topdi. Beruniy al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy tabiatni bilish, o‘rganishda asoslangan kuzatish, takqoslash, tajriba, mantiqiy umumlashtirish taxdil kabi metodlarini o‘z tadqiqotlarida to‘g‘ri qo‘llash asosida ularni ilmiy mazmun jihatidan boyitdi. U o‘z ilmiy faoliyati jarayonida tabiatni bilishning tajriba ilmiy metodini ishlab chikdi. Beruniyning bu metodiga ko‘ra, tabiatni bilishda eskilik, fanatizm, aqidachilik, shaxsiy g‘araz, subyektivizmdan ozod, bo‘lish, aksincha, tabiatning o‘ziga, uni kuzatishda tajribaning rad etib bo‘lmaydigan dalillariga asoslanish lozim.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Beruniy asarlarida, uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan bog‘liq chuqur ijtimoiy-falsafiy muloxazalar, umumlashmalar ham o‘z ifodasini topgan. U Forobiy falsafiy ta’limotiga asoslanib Ollohni hamma narsaning birinchi sababi, deb hisoblaydi. Uning tushunishicha ham Xudo hamma narsaning yaratuvchisi ekanligi e’tirof qilinadi. Lekin Beruniy shu birinchi sababdan kelib chiqqan hamma narsaning rivojlanish va o‘zgarish xuquqini tabiatga beradi. Uning ta’limoticha, tabiatda hamma narsa tabiiy qonunlar asosida yaratiladi, tabiat o‘zining tabiiy kuchiga ega bo‘lib, shu kuch ta’sirida tabiatda to‘xtovsiz harakat, o‘zgarish, o‘sish, rivojlanish, vujudga kelish, yemirilish, xalok bo‘lish jarayonlari sodir bo‘ladi. Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki Beruniy o‘z falsafiy qarashlarida deizmga yaqin pozitsiyada turgan. U moddiy dunyoning adabiyligi haqida gapiradi.

Beruniy fikricha, xudo va boshlang‘ich modda, ya’ni materiyadan boshqa xech narsa bo‘lmagan. Borliq abadiy. u o‘zgarish va taraqqiyotdadir. Materiya muayyanlik libosiga burkanadi, u faoldir, harakat tamomila materiyaga tegishli, u ruxni modda bilan bog‘laydi va uni turli shakllarda kezib yurishga majbur etadi.

Beruniy yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit qarashlariga qo‘shilib, atomistika ta’limotini tan oladi. lekin ulardan farqli o‘larok borliqda bo‘shliqning mavjudligini inkor etadi. -U atomlar sifat jihatdan o‘zgarish xususiyatiga ega, degan fikrni bildiradi. Beruniy nuqtai nazaricha, makon va zamon borliqning muhim xususiyatlaridir.

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgal. U insonni eng sharafli borliq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o‘zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta’kidlaydi. Uningcha, insonlar o‘rtasidagi tafovut ko‘proq tashqi jihatdan mavjud bo‘lib, ular ichki tuzilashi va tashkil topishi jihatdan bir umumiylikka ega. Lekin inson maymunga o‘xshasa ham, ular o‘rtasida tub farqlar mavjud. U «Hindiston» asarida insonlarda tillarning turlicha ekanligi to‘g‘risida to‘xtalar ekam: «Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab-odamlarning guruxlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoqda yashashlaridir»,-deydi

Beruniy jamiyatda ijtimoiy hayotning o‘ziga xos «shartnoma» asosida tuzilishini e’tirof etadi. U: «Inson o‘z extiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligiii aiglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi bu xali insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun (ular) yana mehnat qilishlari ham zarurdir»,-deydi.

Beruniy mamlakat ravnaqi, el-yurt farovonligini ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. U: «har bir olim o‘z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o‘z tadqiqotida aniq maqsadga ega bo‘lishi, tinimsiz mehnat qilishi, xatolarni qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydirma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur»,-deb yezgan edi. Beruniy mamlakatda xalqlar do‘st, inoq, itgifoq bo‘lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga kirg‘in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralaydi va kishilarni tinchlikka chaqiradi.

Vatandoshimiz Beruniyning bu g‘oyallari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, uning juda ko‘p g‘oyalari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ko‘llab-quvvatlanib, ular yurtboshimizning nutqlari va maqolalarida, ilmiy risolalarida yanada rivojlantrilmoqda, hamda ular O‘zbekistonning o‘ziga xos va o‘ziga mos mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib borishda xizmat qilmokda. Bugungi kunda Beruniyning ona Vatani-mustaqil O‘zbekistonda uning ijodiga lsuda katta e’tibor berilib, uni har tomonlama chuqur o‘rganilmoqda.

Nihoyat, IX-XII asrlar musulmon Sharqi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivolsiga o‘zining buyuk hissasini qo‘shgan komusiy olimlardan yana biri Abu Ali Husayn Ibn Abdullox Ibn Sino (980-1037) dir.

Abu Ali Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilib, so‘ng Buxoroda o‘qib ulg‘ayadi. Bu yerda u turli ustozlardan ta’lim olib, o‘z davri ilmlari: matematika, mantiq, astronomiya, xuquqshunoslik, fizika, kimyo, falsafa kabi dunyoviy ilmlarni chuqur o‘rganadi. Ayniqsa, u tibbiyot ilmini kuchli va zo‘r qiziqish bilan egallaydi. Tabobat saboqlari uning uchun shu qadar kuchli ta’sir qiladiki, u 16 yoshga kirganda bu soxa ilmlarni nazariy o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki amaliy tibbiyot bilan shug‘ullanib, tabiblik ham kila boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino 18 yoshga to‘lganda juda ko‘p ilm sohalarini egallagan bo‘ladi. U shu davrdan boshlab o‘zi ham bu soxalarga oid asarlar yarata boshlaydi.

Abu Ali Ibn Sino o‘z davrining barcha ilg‘or ta’limotlarini, xususan, kadimgi Hind, Yunon, Turon, nixoyat, O‘rta asr arab, Uyg‘onish davri Markaziy Osiyo ilmiy merosi bilan chuqur tanishadi, ularni o‘z dunyoqarashida umumlashtiradi. U o‘zidan oldin o‘tgan Sharq olimlari, vatandoshlari: al-Xorazmiy, al-Kindiy, al-Roziy, Forobiy asarlari bilan birga, yunon olimlari: Galen, Gippokrat, Yevklid, Arximed, Pifagor, Porfiriy, Platon, Aristotel asarlarini ham chuqur o‘rganadi. Ayniqsa, Forobiyning asarlari Uning falsafiy va ijtimoiy qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Natijada. Abu Ali Ibn Sino tibbiyot, falsafa, qator tabiiy-ilmiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, sohalarida, falsafiy mazmundagi badiiy adabiyot soxalari bo‘yicha ham ko‘plab asarlar muallifi, mashhur qomusiy olim bo‘lib yetishadi. U bizga o‘zidan 450 dan ortiq asarlar qoldiradi,

shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq psixologiya, axlokshunoslik va boshqa ijgimoiy-siyosiy hamda ma’naviyat masalalariga bag‘ishlangan. Lekin bizga ulardan faqat 100 ga yaqini yetib kelgan. Ibn Sino o‘zinining bu asarlari bilan O‘rta asr Sharqiy, xususan, Markaziy Osiye xalqlari falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy fikrlar tarixiga buyuk xissa ko‘shadi. Natijada, u o‘z davrida butun Sharqda «Shayx-ur-rais» («Olimlar boshlig‘i») degan nom oladi.

Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan asarlari orasida 5 tomdan iborat «Al-Qonun fit tib» («Tib qonunlari») asari, 18 tomdan iborat mantiq, fizika, matematika va metafizika (Falsafa)ni to‘liq o‘z ichiga olgan. «Kitob ash-Shifo», «Kitob an-najot», shuningdek 20 tomlik «Kitob al-Insof» («Insof kitobi»), «Donishnoma» asarlarini aloxida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ibn Sino o‘z asarlarini o‘sha davrda turli soxalarda erishilgan ilmiy yutuqlarni falsafiy umumlashtirish, ularni tartibga solish va izchil bayon etish bilan birga, o‘zi ham turli ilmlarga oid masalalarda ajoyib yutuqlarni qo‘lga kiritib, o‘z davri uchun ilg‘or g‘oyalarni olga suradi.

Ibn Sinoning asarlaridagi falsafiy qarashlari o‘zining tabiiy-ilmiy harakteri, ularda tabiat falsafasi haqidagi g‘oyalarning ustunligini yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, unda inson tanasini boshqarib turuvchi tabiat qonunlari, inson organizmi bilan tabiiy muhit, inson va tabiatning o‘zaro munosabati masalalarini bayon qilishda o‘z ifodasini topganining guvoxi bo‘lamiz. Shu jihatdan bu asar o‘zining tibbiyotdagi buyuk ahamiyatidan tashqari katta falsafiy qiymatga ham ega. Bu asarning asosiy qismida inson tanasi, uning faoliyati, unda kechadigan ruhiy jarayonlar o‘zlarining ilmiy talqinini to‘gri topgan. Uning tibbiyot soxasidagi erishgan yutuqlari muhim falsafiy ahamiyatga ham egadir.

Ibn Sino o‘zining «Ash-Shifo» kitobida tabiatshunoslikning geolognya, mineralogiya, astronomiya, kimyo, matematika, botalika soxalariga oid muhim fikrlar olga surilib, ularni rivojlantirish falsafiy bilimlarni boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishiganidan keyin bizda Ibn Sinoning tabiatshunoslikning turli soxalariga uning qo‘shgan xissasi, uning asarlaridagi tabiat falsafasi tadkiqotchilari tomonidan keng o‘rganilmokda.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uning «Ash-Shifo» asarida keng rivojlangan 3 ta katta sohada: metafizika, fizika va mantiqda ko‘proq o‘zining yorkin ifodasini topgan. Bu soxalardan metafizika-iloxiyot, vujud va mavjudod, dunyoning boshlanishi, tuzilishi va tarkibi haqidagi muammolarni o‘rganadi. Fizika soxasi - tabiatshunoslik masalalarini, jism, modda, ularning tuzilishi ba tarkibini o‘rganish bilan bog‘liq masalalarini o‘z ichiga oladi. Mantiq bo‘lsa-bilish metodi, to‘g‘ri fikrlashni, aqliy bilish shakllarini o‘rganadi.

Ibn Sino asarida umumiy falsafiy masalalarni 2 ga bo‘ladi. Ular: 1) nazariy va 2) amaliy masalalardan iborat bo‘lib, o‘z navbatida, ularning har biri qator ilm soxalarni o‘z ichiga oladi. Uning vujud, mavjudot, borliq haqidagi ontologik ta’limotida u vujudni ikkiga: vujudi vojib, ya’ni zaruriy vujud hamda vujudi mumkinga ajratadi. Bunda vujudi vojib, ya’ni zaruriy vujud hamma narsalarning boshlang‘ich - birinchi sababi, ya’ni tangridir. Vujudi mumkin esa shu vujudi vojibdan kelib chiquvchi boshqa barcha borliqdagi narsalardir. Vujudi vojib yakkalikni, vujudi mumkin ko‘plikni ifodalaydi. Vujudi vojib o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lib, u azaliy; vujudi mumkin esa vujudi vojibdan paydo bo‘ladi. Lekin bu paydo bo‘lish birdaniga bo‘lmay, balki asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich sabab-oqibat bog‘lanish asosida kelib chiqadi. Bu kelib chiqish ematsiya asosida amalga oshadi.

U «Kitob ash-shifo» asarida shunday yozadi: «Zaruriy vujuddan kelib chiqqan vujudlar undan uzoqlashgan sari mustaqil bo‘la boradilar, lekin o‘zlarining boshlang‘ich sabablarining xislatlarini saqlab qoladilar va ular keyingi vujudlar uchun sabab bo‘ladilar».

Ibn Sinoning yozishicha birinchi vujudning hislatlari undan kelib chiqadigan barcha vujudlarga o‘tib boradi. Uning vujud haqidagi fikrlari, mavjudot shakllarining o‘zaro boglanishlari, ularning hammasi dastlabki zaruriy vujuddan kelib chiqishi haqidagi emanatsiya ta’limoti «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma» asarlarining metafizika bo‘limlarida har tomonlama bayon etib berilgan.

Ibn Sinoning bu qarashlari panteistik ta’limbt bo‘lib, u O‘rta asr Sharq mutafakkirlari falsafiy qarashlarining ko‘pchiligiga xos bo‘lgan ilg‘or ta’limot hisoblanadi.

Ibn Sino o‘z ta’limotidagi «vujudi mumkin»ni substansiya («javhar») va aksidensiya («oraz»)ga ajratadi. Substansiya, uningcha turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u sodda va murakab substansiyalardir. Sodda substansiya boshlang‘ich elementlar - olov, xavo, suv va yerdan iborat bo‘lib, shuningdek, modda, shakl, ruh va aql ham shu sodda substansiyaga kiradi. Jism, narsalar esa murakkab substaniiyadir. Jism va narsalar modda va shaklning birligidan tashkil topib, ular tabiat: o‘simlik, xayvonot, inson va boshqa shakllarda mavjuddir.

Ibn Sino falsafiy bilimlarni ikki qismga yoki bo‘limga ajratadi. Ularning birinchisi - nazariy falsafa: ikkinchisi - amaliy falsafa. Nazariy falsafa - metafizika (buni u oliy fan, deydi), matematika (buni u o‘rta fan, deydi) va tabiat haqidagi fanlar (buni u quyi fan, deydi)dan iborat. shashy falsafa-siyosat, xuquq, iqtisodiyot, ahloqshunoslikdan tashkil topadi, Ibn Sino qarashicha, metafizika oliy ilm sifatida mutlaq vujudni, ya’ni «vujudi vojib»ni-Tangrini-yaratuvini o‘rganish va bilishdan iborat iloxiyot haqidagi fandir.

Ibn Sino insonni tana va jondan tashkil topadi, deydi. Miya esa jonni boshqaruvchi markazdir. Uning fikricha, xasharotlar, o‘simliklar, xayvonlar va insonlar qandaydir ichki kuch - jon («an-nafas»)ga egadir. Inson joni bunda eng oliy va yetuk jondir. Shuning uchun inson fikrlash xislatiga mavxum tushunchalarni o‘zlashtirish, bilish mavjudotning moxiyatini tushunish, maksadli faoliyatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egadir. Inson aqli jonning oliy darajadagi ifodasidir. Inson mavjudot mohiyatini bilishi uning tafakkurining dunyoviy aql bilan ko‘shilishi asosida vujudga keladi.

Ibn Sino ijtimoiy-siyosiy masalalarni davlat, jamiyatning tuzilishi, vazifalari, jamoani boshqarish, ijtimoiy uyushmalarning faoliyatini, insonning xulk atvori, odatlari ahlokiy mezonlarni, xukuqiy tartib qoidalarni amaliy falsafa, o‘rganadi, deydi. Shundan kelib chiqib, u amaliy falsafani o‘z predmeti va vazifalariga qarab, 3 qismga bo‘ladi: 1) ahlokshunoslik; 2) iktisodiyot; 3) siyosat. Bunda axloqshunoslik inson shaxsiyatining fazilatlari, ahloqiy normalar va qoidalarni o‘rganadi. Iqtisodiyot esa oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini boshqarish va ta’minlab turish uchun zarur bo‘lgan masalalarni o‘rganadi. Inson bo‘lsa, bu - davlatni idora qilish va boshqarish xukumat, fuqarolar o‘rtasidagi mundsabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish masalalarini o‘rganadi.

Ibn Sino jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvlari asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Uning ta’kidlashicha, jamiyat a’zolarining hammasi bu qonunlarga itoat etishlari zarur. Jamiyatda qonunlarni buzishlar va adolatsizliklar jazolanishlari lozim.

Shunday qilib, Ibn Sino o‘zining ko‘p tarmoqli maxsuldor ijodi tibbiy va tabiatshunoslik famlariga oid tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga juda katta xissa qo‘shdi. U IX-XP asrlar Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osns xalqlari madaniy «uyg‘onishi»ning ma’naviy yutuqlarini o‘z asarlarida mujassamlashtirgan xolda butun insoniyatning madaniy-ma’rifiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Uning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlarining bugungi kunda bizning mustaqil O‘zbekistonda adolatli huquqiy demokratik davlat qurishimizda ham ahamiyati juda katta. Buni Prezidentimiz Islom Karimovning 1999 yil yanvar oyida «Ibn Sino jamg‘arma fondini tashkil qilish to‘g‘risida»gi chiqargan farmoni yaqqol tasdiqlaydi.

O‘rta asr Sharqida arab xalifaligi davriga kelib yangi feodal ishlab chiqarish usulining qaror topishi bilan intellektual bilimlar monopoliyasi ruhoniylar qo‘liga o‘tadi. Natijada diniy rasm-rusumlari va an’ana-odatlari jamiyatdagi axloqiy-iqtisodiy va xuqukiy-iqtisodiy normalarga aylanadi. Bu davrda falsafa amaliyotdan ajralib, ko‘proq sxolastikaga aylanib, ilohiyot haqidagi ta’limot harakterini oladi. Tabiat va insonni ilmiy o‘rganish gunoh hisoblanib, bunday o‘rganishga kirishgan mutafakkirlar daxriylikda ayblanadi va quvg‘in qilinadi. Lekin shunga karamay, bu davrda ham jamiyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyoti ma’lum darajada to‘xtamay davom etadi.

Bu davr mutafakkirlari islom dinining cheksiz hukmronlik qilgan sharoitlarida ham olamning tabiati va mohiyati, uning taraqqiyoti, koinotning sirlari, insonning hayoti va uning dunyodagi o‘rni haqida, insonda uchraydigan har xil kasalliklarning sabablari haqida diniy qarashlar bilan birga, ulardan tubdan fark qiladigan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarni ham ilgari suradilar. Bu bilan ular

ilgor falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslik bilimlari rivojiga o‘zlarining munosib xissalarini qo‘shadilar. Arab xalifaligiga qarashli hududlarda ilm-fanning taraqqiyoti bilan birga, erkin fikr qiluvchi, diniy aqidalardan yetishib chiqadilar. Bu mutafakkirlar o‘z qarashlari bilan O‘rta asr Sharq falsafasiga asos soladilar. Ular o‘z qarashlarining dunyoviyligi, o‘z asarlarining aql-idrokli, o‘qimishililigi, qadimgi yunon-rim falsafiy qarashlari bilan tanish bo‘lgan, o‘z kuchlari va bilimlariga qattiq ishongan kishilar bo‘lishgan edi. Bunday mutafakkirlardan biri, birinchi arab faylasufi Yoqub Ibn Isxoq al-Kindiy (800-879) dir.

a) Al-Kindiyning falsafiy qarashlari.

Al-Kindiy asli arablarning Yananda yashaydigan Kinda degan qabilasidan chiqqan bo‘lib, uning taxallusi ham shu kabilaning nomidan olingandir. Al-Kindiyning nomi aslida Abu Yusuf Yokub Ibm Isxokdir. Al-Kindiy dastlab boshlang‘ich ta’limni Kufadan olib, so‘ng Basraga boradi va u yerda olimlar qo‘lida o‘qiy boshlaydi. Al-Kindiy Basrada o‘ziga zarur, deb bilgan bilim soxalarini egallab, so‘ng yana o‘z bilimini oshirish maqsadida Bag‘dodga kelib, dastlab fors, yunon falsafasini o‘rganishga kirishadi. Lekin bu davrda yunon falsafasiga oid ko‘p kitoblar arab tiliga xali tarjima qilinmagan edi. Shu sababli u qadimgi yunon falsafasini o‘qish maqsadida yunon tilini o‘rganishga kirishadi va tez orada bu soxada nihoyatda katta muvaffaqiyat qozonadi. Al-Kindiy yunon tilini bilib olishi asosida qadimgi yunon faylasuflarining asarlarini o‘rganish bilan cheklanmay, ularning bir nechtasini arab tiliga tarjima ham qiladi. U o‘zining ilmga chinakam berilganligi tufayli tez orada bilimdon kishilar orasida xurmat-e’tiborga sazovor bo‘lib, uning nomi shahar amaldorlari va olimlari doirasida tez-tez tilga olinadigan bo‘ladi, bundan xabar topgan xalifa Al-Ma’mun uni «Baytul xikma» («Donolar uyi») akademiyasiga jalb qiladi. Al-Kindiy bu yerda yirik tarjimon va olim Xusayn Ibm Isxok bilan tanishib, uning qo‘lida tarjima ilmini o‘rganadi, arab tiliga yunon tilidan tarjima qilish san’atini egallab, tez orada kuchli tarjimonlarning biri bo‘lib qoladi. Natijada, u Aristotelning «Metafizika», Ptolomeyning «Geografiya», Yevklidning «Elementlar» kitoblarini gonon tilidan arab tiliga tarjima qiladi. Shu bilan birga, Al-Kindiy Aristotelniig «Kategoriya», «Ikkinchi amalitika», «Organon» asarlariga, Ptolemeyping «Almagest» asariga, Evklidning «Elementlar» kitoblariga sharxlar yozadi.

Al-Kindiy qadimgi yunon faylasuflari va olimlarining asarlarini tarjima qilib va ularga shaxrlar yozibgina qolmay, uning o‘zi ham shu davrda mavjud bo‘lgan bilimlarning turli soxalarida ijod ham qiladi. U ayniqsa, matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, musiqa kabi sohalarni kuchli o‘rganib, shu sohalarga oid ko‘plab asarlar yaratadi. Al-Kindiyning yaratgan asarlarining umumiy soni 270 taga borgan bo‘lsa ham, biroq bizgacha ularning juda oz qismi yetib kelgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, uning faqat falsafaga oid asarlarining soni oltmishdan ortiq, mantiqqa oid asarlari esa qirkdan ziyod bo‘lgan.

Al-Kindiyning falsafiy qarashlarining shakllanishida uning qadimgi xind, xitoy, yunon va O‘rta Osiyo xalqlari falsafiy qarashlari bilan tanishuvi, ularni chuqur o‘rganishi katta rol o‘ynaydi. Uning falsafiy qarashlari o‘sha paytda eng ilg‘or oqim sifatida tanilgan mu’tazilliylar ta’limoti bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga keladi.

Arab falsafasi mutaxassislarining fikriga muvofiq, garchand musulmon arab Sharqida Al-Kindiygacha ham juda ko‘p yirik mutafakkirlar o‘tgan bo‘lsa ham, faylasuf degan nomga fakat Al-Kindiygina musharraf bo‘lgan, xolos.

Al-Kindiy falsafa bilan din o‘rtasidagi tortishuvni falsafa foydasiga xal qiladi. U falsafa fanini o‘rganishning zarurligini isbot qilishga urinib, uni tabiya va jamiyat xodisalarining tushirib beradigan, borliqni bilishning muhim quroli, deb aytadi. Al-Kindiy, falsafaling dushmanlari ham falsafaga muhtojdirlar, deb uqtiradi. Buni shunday tushunish mumkin: bordi-yu, biror kishi agar falsafa bilan shug‘ullanish yaramaydi, desa, doim nima uchun yaramaydi? deb so‘rashimiz mumkin. Shunda raqib o‘zi aytgan fikrining haqiqat ekanligini tasdiqlovchi mantiqiy-iqtisodiy dalillar keltirishi kerak bo‘ladi, ya’ni bunda u o‘z-o‘zidan faylasuflik qilishi kerak bo‘ladi, deb yozadi u. Bu oddiy misol orqali Al-Kindiy falsafaning zarurligini uqtiribgina qolmay, balki falsafaning vazifasi nimadan iborat? Inson aqli narsa va xodisalarning asl mohiyatini bilishga qodirmi? Degan savollarga xam javob berishga harakat qiladi. "Falsafa, - deydi u, - boshqa fanlar singari narsa va

xodisalarning sabablaripi tushuntiradi. Noma’lum xaqikatning sababini topish orqaligina uning mohiyatini bilish mumkin".

Al-Kindiy, olam to‘g‘risidagi butun haqiqatni bir mutaffakirning o‘zi to‘liq tushunib, egallab yetolmaydi, deydi. Haqiqat necha-necha asrlardan beri necha-necha mutaffakirlar tomonidan to‘planib kelinadi: bir odamning umri, qanchalik uzun bo‘lmasin, Uning aqli qanchalik kuchli bo‘lmasin, uning ilmiy izlanishlari qanchalik sabotli bo‘lmasin, u qanchalik ko‘p mehnat sarf qilmasin, baribir, u olam to‘g‘risidagi bor haqiqatning hammasini to‘liq tushunib yetolmaydi. Buning uchun, deydi u, yuzlab, minglab yillar, necha-necha avlodlarning matonatli izlanishlari, o‘tkir fikrlari zarur bo‘ladi. Shu tufayli biz bir oz bo‘lsa-da haqiqatni bizga bildirib ketgan o‘tmishdoshlarimiz, ota-bobolarimizdan minnatdor bo‘lishimiz lozim, deydi u.

Al-Kindiy o‘z qarashlarida: olam markazida Yer turadi, u esa osmon gumbazi bilan o‘ralgan. deydi. U dunyoni ikki olamga bo‘ladi: Yerdagi va falakdagi olamlar. Yerdagi insonlar yashaydigan olam o‘zgarish, rivojlanish, chirish va o‘lish kabi xususiyatlarga ega; falakdagi olam esa o‘zining o‘zgarmasligi, rivojlanmasligi va o‘lmasligi bilan Yerdagi olamdan farq qiladi. Shuni aytish kerakki, Al-Kindiy olamning vujudga kelishida va harakatlanishida unga turtki bergan birinchi sabab deb Ollohni tushunadi. Olloh azaliy, abadiy va yakkayu yagona, u butun koinotda umumiy tartiblarni o‘rnatuvchidir.

Al-Kindiyning tabiat va jamiyatdagi narsa va xodisalarning sabablarini aniqlashdagi qarashdagi qarashlari qanchalik sodda bo‘lmasin, bari-bir ularda optimistik rux ustunlik qiladi.

Ayniqsa Al-Kindiyning arab falsafasida Sharq aristotelchshshgining paydo bo‘lishidagi roli g‘oyat kattadir. U Aristotel falsafasini juda yaxshi bilgan va hatto uning ba’zi bir g‘oyalariga tanqidiy ham yondoshgan. U Aristotelning 10 ta kategoriyasi o‘rniga o‘zining 5 ta prasubstansiyasini (materiya, shakl, harakat, makon va zamonni) ilgari surgan. Uning nuqtai nazaricha, tabiatdagi barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. Materiya esa to‘rt unsur: olov, suv, havo va tuproqdan iboratdir. Materiya doimiy harakatdadir, harakat esa narsalarning bir turdan ikkinchi turga o‘tishidan iboratdir. Bu o‘z navbatida o‘zgarish demaqsir. Al-Kindi harakatni olti turga bo‘ladi; 1) paydo bo‘lish; 2) yo‘q bo‘lish; 3) uzayish; 4) qisqarish; 5) o‘zgarish va nixoyat; 6) siljish. Har qanday harakat esa ma’lum bir vaqt ichida sodir bo‘ladi. Vaqt harakatping sekin yoki tezligidan iborat bo‘lib, u o‘tgan zamon bilan kelgusi zamonni bog‘laydi. Materiya shaklga ham ega, faqat shakliy tafovut tufayli u yoki bu narsalar boshqa narsalardan farq qiladi. Al-Kindiy borliqning makon atributini ham e’tirof etadi. Makon, deb u jismni o‘z ichiga oladigan, jismdan tashqaridagi satxga aytamiz, deydi. Makon bilan uni to‘ldirib turadigan narsa bir-biriga bog‘lik, deydi u. Agar makon bo‘lsa, uni to‘ldiruvchi biron narsa bo‘lishi kerak va aksincha, agar makonni to‘ldirib turuvchi narsa bo‘lsa, albatta, makon bo‘lishi kerak.

Al-Kindiyning falsafiy qarashlarida uning dunyoni ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta’limoti ham muhim o‘rin tutadi. Bunda ilmiy bilishning birinchi bosqichi mantik va matematika yordamida yuzaga kelsa, tabiatshunoslik bilimlari orqali inson ilmiy bilishi-bilishning ikkinchi bosqichiga ko‘tariladi. Inson o‘zining ilmiy bilishining uchinchi bosqichiga esa metafizika (ya’ni falsafa) orqali ko‘tariladi, deydi u.

Umuman, Al-Kindiy falsafiy qarashlari falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslikka oid ajoyib fikrlarga juda boydir. U o‘zidan oldin o‘tgan va o‘z zamondoshlarining qarashlarini umumlashtirib, tanqidiy ravishda ularni qayta ishlab chikqan, kadimgi faylasuflarning, xususan, Aristotel asarlarining, shu bilan birga, butun qadimgi yunon falsafasining durdonalari bilan kelgusi avlodlarni baxramand qila olgan ensiklopedik mutafakkirdir.

Xullas, Al-Kindiy faqat qadimgi yunon olimlari va faylasuflari asarlarini arab tiliga tarjima qilib, ularga sharxlargina yozib kolmay, balki o‘zi ham orginal falsafiy asarlar yaratdi. Shular jumlasiga uning quyidagi falsafiy risolalarinn ko‘rsatib o‘tish mumkin: «Aristotel kitoblarining soni va falsafani o‘rganish uchun nimalarga muxtoj bo‘linadi?», «Platonning «Siyosat» kitobida eslatib o‘tilgai raqamlarini qanday tushunish kerakligi haqida risola», Ptolemeyning «Almagest» kitobi va Aristotelning «Analitika» kitobiga izoh», «Gippokratning tibbiyoti haqida risola» va boshqalar. Bu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar bilan Al-Kindiy arab falsafasida peripateizm ta’limotiga asos soldi.

O‘rta asr eron falsafasining buyuk vakili ar-Roziydir.

Ar-Roziy (864-925)ning to‘liq ismi sharifi Abu Bakr Muhammad Ibn Zakariyo ar-Roziydir. U eronlik bo‘lib, Ray shaxrida dunyoga keladi. Roziy yoshligidan arab va qadimgi yunon tillarini o‘rganadi, Ray va Bag‘dod shaharlarida o‘qiydi, U ayniqsa, tibbiyot, kimiyo, botanika, astronomiya, matematika, mantik va falsafaga oid ilmlarni chuqur egallab, Sharqning buyuk ensiklopedist olimi, adib va mutafakkiri bo‘lib yetishadi. Roziy keyinchalik Ray va Bag‘dod shifoxonalarini boshqaradi. Roziy tabobatga, kimyoga, falsafaga, mantiqqa, etikaga, ilohiyotga, astronomiyaga, fizikaga oid 184 ta asar qoldiradi, shulardan bizgacha faqat 61 tasi yetib keladi (ulardan 36 tasi tibbiyotga, 4 tasi kimega oid).

Roziyning falsafiy qarashlari Eron, Turon, arab, Hind, Xitoy falsafiy sistemalari hamda qadimgi yunon falsafiy ta’limotlari asosida shakllanadi. Uning dunyoqarashida materialistik tendensiyalar ustun o‘rin oladi. Roziyning ilmiy tadqiqotlari tajriba va eksperementlarga asoslangai o‘z davri dogmatik qarashlaridal holi, tabiatshunoslikning falsafiy muammolariga ko‘prok oiddir. Shu bilan birga, u o‘z davrida o‘zining original falsafiy qarashlari bilan zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketib, qator ilg‘or falsafiy g‘oyalarni olga suradi.

Roziy o‘z dunyoqarashida hukmron mafkura-islom ortodoksal ta’limotini inkor qilibgina qolmay, balki Aristotel va uning izidan borgan o‘z o‘tmishdoshlari Al-Kindiy, Ravandiy va shu kabilarga nisbatan butunlay boshqacha yo‘l tutdi. Uning falsafiy ta’limoti bo‘yicha, real dunyo beshta azaliy boshlang‘ichning bir-biriga qo‘shilishidan tashkil topgan. Bu beshta azaliy boshlang‘ich: materiya (xayulo), makon, zamon, jon (an-nafas) va xudo (borib)dan iboratdir. Roziy bunda xudoni azaliy boshlang‘ich sabablardan faqat biri, deb biladi, u dunyoning vujudga kelishida boshqa azaliy boshlang‘ich sabablar qanday rol o‘ynasa, xudo ham shupday rol o‘ynadi, deb hisoblagan. Shu sababli u xudoni dunyoni yaratuvchi emas, balki boshqaruvchi kuch, deb tasavvur qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Roziy xudoni butunlay inkor etuvchilar jumlasiga kirmaydi. U shu bilan birga, materiyaning abadiyligi, uning makon va zamonda cheksizligi, dunyo hech kim tomonidan yaratilmaganligi, harakat esa narsalarning ajralmas xususiyati, harakatning manbai narsalarning o‘z ichida, deb biladi. Ar-Roziy materiyani olamning asosiy negizi, deydi. U o‘zining materiya haqidagi ta’limotida Demokrit atomistik nazariyasiga asoslangan xolda materiyani «bo‘linmas zarrachalar» («ajzou loyata jazza») dan iborat, deb tushunadi. Bu zarrachalarning bo‘shliq (xolo) zarrachalari bilan turlicha birikishi natijasida to‘rtta unsur: suv, tuproq , havo va olov paydo bo‘ladi. Dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar shu unsurlarning turlicha mikdorda o‘zaro ko‘shilishidan tashkil topadi, deydi u. Bular shuni ko‘rsatadiki, Roziy o‘zining dunyoning tuzilishi haqidagi ta’limotida ma’lum darajada qadimgi yunon faylasuflarining atomistik qadrashlariga suyangan. Uning bu ta’limotiga ko‘ra atomlar massa va og‘irliqqa ega bo‘lgan abadiy moddiy narsalar. Bu moddiy narsalardan moddiy dunyo tashkil topadi. Roziy bunda moddiy dunening, tabiatdagi jismlarning asoslari va tuzilishlari haqida gapirib, ular ikki narsadan: materiya va shakldan iborat, lekin materiya mohiyati jihatdan shakldan ustun turadi, deydi. U bunda o‘z davri falsafasida qabul qilingan termiilardan foydalanib, materiyani javhar (substansiya), shaklni esa oraz (aksidensiya), deb hisoblaydi.

Roziygacha ko‘pchilik Sharq faylasuflari o‘z falsafiy qarashlarida xudo (olloh)ni birinchi asos, birinchi sabab, deb, olamning, materiyaning abadiyligini xudoning abadiyligini isbotlashdan keltirib chiqarib izohlagan bo‘lishsa, Roziy esa materiyaning abadiyligi haqidagi ta’limoti bilan olamning xudo tomonidan yaratilmaganini isbotlashga harakat qildi.

Ilmiy tajriba va kuzatishlarga asosan Roziy ta’limoti bo‘yicha, olamdagi narsalar olloh tomonidan yaratilmay, olam ham Olloh tomonidan yaratilgan emas. Olamning paydo bo‘lishi va rivojlanishi asosida moddiy narsa - materiya yotadi. Materiya abadiy va uzluksizdir. Materiya esa faqat makon va zamonda yashaydi. Shuning uchun materiyaning yashash shakllari bo‘lgan makon va zamon ham cheksiz va adabiydir. Makon va zamon bizga va Ollohga bog‘liq bo‘lmagan xolda obyektiv va mutlaqdir.

Roziy falsafiy ta’limotning qimmatli tomonlari bular bilan cheklanmaydi. Uning falsafiy ta’limotining yana bir qimmatli tomoni shu ediki, Roziy inson aql-idrokini behad ulug‘ladi, odamlarni tabiat xodisalarini o‘rganishga, bilishga chaqirdi, insonlarni esa baxtli hayot qurishga, ilm-fanni egallashga da’vat qilib, diniy dunyoqarashga oid o‘sha davrdagi mutaassiblikni qattiq

tanqid qildi. Roziy o'z qarashlarida moddiy dunyoning tabiatning insondan, iison bilimlaridan oldin mavjudligini, ular inson ongi va tafakkuriga, uning sezgilari va aqliga bog'lik emasligiii aytib, ular insonga, uning sezgi a'zolariga ta'sir qilishi natijasida inson ularni biladi, deydi. Bu shuni ko'rsatadiki, Roziy bilish masalalarida ham (garchand hamma vaqt izchil bo'lmasa-da) ilg'or yo'l tutdi. U insonning tabiatni bilish imkoniyati haqidagi fikrlarni olg'a surib, tajribaga katta ahamiyat berdi. Roziy bunda ulug' tabiatshunos sifatida inson bilimlarining to'g'riligini isbotlashda tajriba muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Roziy inson aql-idrokining qudratiga yukori baho berib, insonni tabiatdagi predmet va xodisalarning mohiyatini bilishda benihoya qudratga ega, deb ta'kidlaydi. Uning falsafiy ta'limoti bo'yicha, inson o'zining aql va tafakkur qobiliyati bilan.butun hayvonot dunyosidan farq qiladi. Inson dunyo hodisalarini bilishda o'z sezgi va idrok ko'rsatmalariga tayanishi va aqliy qobiliyatiga ishonishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, u xar xil payg'ambarlar va din mutaassiblari tomonidan qilingan va qilinadigan mo'jizalarga, ko'rsatiladigan karomatlarga ishonmaslikni aytadi. Roziy, inson-idrokining qudrati va kuchiga, uning bilish qobiliyatiga ishongan holda, kishilarni ilm-fan va ma'rifatni egallashga chaqiradi, u insonlarning baxtli hayotga erishishi ularning ilm-fanni egalashi orqali ro'yobga chiqadi, deb tushuntiradi. Bizning uchun eng sharafli bo'lgan narsa, deydi u, - faqat jismoniy lazzatlarga intilish emas, balki ilm va ma'rifat orttirish va xaqiqatga erishishdir. Uning falsafiy ta'limoticha, inson hayotining mohiyati baxtli turmushga chiqishishdir. Shuning uchun har bir kishi baxtli hayot uchun kurashishi kerak. Bu kurash ikki yo'ldan iborat. Birinchisi: hayotning hamma moddiy ne'matlaridan foydalangan xolda, ijtimoiy "hayotda faol ishtirok etish: ikkinchisi, eng axlok iqtisodiy yetuklikka erishishdir. Bunga erishish insonning o'ziga bog'liq. Inson o'z takdirini, o'z hayotini o'zi yaratadi. Eng baxtli kishi insonlarga eng ko'p foyda keltirgan kishidir. U o'zining «Kitob tibbi ar-ruhoniy» risolasida insonlarning eng oliy ahlokiy-iqtisodiy yetuklikka erishish yo'llari haqida fikr yuritib, bu yo'lda uchraydigan to'siqlar, kishidagi bo'lidigan kamchiliklar va ularni yengib o'tish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Uningcha, eng oliy ahloqiy-iqtisoiy yetuklikka erishgan odam, ya'ni haqiqatdan, eng mu'tabar faylasuflar intilgan xol kisqacha shundan iborat: kishilar bir-biriga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bir-birini ochiq ko'ngillik va xushmuomalalik, raxmdillik bilan qabul qilishi, yordam qilishi, kishilarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, baxt va saodatga intilishidir, Roziy o'zining insonning baxti xayotga intilishi haqidagi ta'limotida insonning ijtimoiy hayotida Ollohning faol aralashishi o'rniga insonlarning real hayotda faol qatnashishlarini ilgari surdi. U inson hayotidagi hamma yaxshi narsalar Ollohning inoyati, deyuvchi islom mutaassib ruhrniylarini kattiq tankid qildi. Ko'pchilik tarixiy manba'larning ko'rsatishicha, Roziy islom aqidalarini inkor qiladi. Shuning uchun ham islom ortodoksal ruxoniylari rasmiy ravishda Roziyni dinsizlikda ayblanganlar, ko'pchilik mutafakkirlar uning falsafiy ta'limotini rad qilishga uringanlar, ba'zi ilg'or mutaffakirlar esa o'zlarining Roziy falsafiy qarashlariga hayrhoxligini ochiq-oydin ayta olmaganlar. Ba'zi tarixiy manba'larda aytilishicha, Roziy hatto islom dini akidalarini tanqid kiluvchi ikki asar ham yozgan. Bular: «Nakd aladyon» («Dinlardagi ziddiyat») va «Hiyal almutanabbiyin» («Soxta payg'ambarlar nayrangi»). Bu asarlar bizgacha faqat bir necha fragmentlardagina yetib kelgan.

Roziy yana o'z qarashlarida o'sha davr uchun eng ilg'or va kimmatli bo'lgan xalqlarning o'zaro tengligi, kishilarning dinga nisbatan erkinligi haqidagi fikrlarni ham ilgari suradi. Umuman, Roziy o'z falsafiy va ijtimoiy qarashlarida ilm-fanni ximoya kilib, diniy mutaassibliklarga qarshi chiqishi o'z davri uchun misli ko'rilmagan darajadagi jasurlik edi. U o'z davrida faqat islom ortodoksal ta'limotigagina qarshi chiqib qolmasdan, balki o'sha davrda Eron va O'rta Osiyoda keng tarkdlgan manixizm, ismoilizm va shularga o'xshash reaksion falsafiy ta'limotlarni ham rad qilgan.

Shunday qilib, Roziy mugakallimchilarga va Ollohni yagona sabab deb biluvchi faylasuflarga qarshi chiqqan faylasuf sifatida materiyaning adabiyligi va doimiyligi, uning doimiy harakat va o'zgarishda bo'lishi, makon va zamonning obyektivligi haqidagi ta'limotlari bilan barcha inson bilimlari uning obyektiv olam, tabiatni bilish orqali vujudga kelishi, ilmni diniy e'tikoddan ustun qo'yishi haqidagi qarashlari bilan o'z davrida yangicha falsafiy yo'nalish yaratgan faylasufdir. Uning bu falsafiy qarashlari keyingi davrlardagi mutafakkirlarning erkin fikr yuritish va hur fikrlari

uchun, progressiv falsafiy qarashlarning hamda tabiatshunoslikning falsafiy masalalarining yanada rivojlanishida muhim rol oʻynaydi.

Biz yuqrida Roziyning falsafiy ta'minotini rad qilishga uringan faylasuflar haqida gapirdik, ana shu faylasuflardan biri-islom ortodoksal ta'minotining, ya'ni mutakallimchilarning otashin tarafdori, Oʻrta asr arab sxolastik kalom falsafasining yirik nazariyotchisi Muhammad al-Gʻazzoliydir.

Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-Gʻozzolii (1058-1111) yirik musulmon arab faylasufi va mashhur islom iloxiyotchisidir. U Tus shahrida kosib oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Muhammad Ibn Axmad Tusdagi oʻzining kichik doʻkonida ip yigiruvchi, ya'ni gʻazzolchilik bilan tirikchilik qiladi. Abu Hamid Muhammadning Gʻazzoliy taxallusi ham ayni shu otasining kasbidan olingan. Otasi Abu Hamidni oʻqimishli inson boʻlishini juda xoxlaydi. Shu sababli u oʻz vafoti oldidan uy-joyini sotib, oʻzining bir axli solixo mutasavvuf doʻstiga oʻgʻlining ilm olish uchun sarflashni vasiyat qiladi. Ota vasiyati amalga oshib, Abu Muhammad Gʻazzoliy butun islom dunyosi tan olgan benazir faylasuf, buyuk islom iloxiyotchi olimi boʻlib yetishadi. U dastlabki ma'lumotni Nishopurda olib, soʻng uni Bagdodda davom ettiradi, oʻkishni tugatib, «Nizomiya» madrasasida islom xuquqi - fikxdan, mantiq va falsafadan dars beradi.

Umuman, barcha buyuk olimlar kabi, Abu Hamid Gʻazzoliy ham yoshligidan ilmga oʻta chanqoq boʻladi, u tinimsiz, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, oʻqib oʻrganadi, ilm oladi. Gʻazzoliy islom haqiqatni bilishning eng toʻgʻri yoʻli boʻla oladimi, yoʻqmi yoki faylasuflar kabi haqiqatni faqat aql bilan bilish mumkinmi, kabi shubha va savollarga toʻgʻri javob topishda juda koʻp izlanadi. Nihoyat, oxirgi u eng toʻgʻri yoʻl, deb Islom yoʻlini tanlab, uning muqaddas dasturi Kur'on va Hadis ilmi ekanligiga oʻzicha ishonch hosil qiladi hamdaunga iymon keltiradi.

Abu Hamid Gʻazzoliy islom ilmlarning turli soxalarini dunyoviy ilmlarga qoʻshib chuqur egalaydi. U bunda iimani oʻrgansa, shu soxani toʻldirishga, rivojlantirishga harakat qilib, har bir oʻrgangan narsasini islom tarozisiga koʻyib, oʻlchab koʻrish asosida baxolashga harakat qiladi. Oqibatda, oʻzi shugʻullangan islomning turli soxalariga oid yuzdan ortiq asarlar yaratadi. U fikr ilmiga oid «Bosit», «Vajid» va «Qosit» singari asarlar yozadi. Kalom ta'limotiga doir «Tavxitdul A'qoid», «Ar-Risolat – ul - kudsiya», «Al-Iqtisodu fil e'tiqod», «Ijmoi-ul-Avvom an Ilm-ul-Kalom» kabi asarlar yozadi. Gʻazzoliy oʻz asarlarida oʻziga xos bir islomiy falsafa boʻlgan kalom ilmini joxil kishining oʻqishidan xech bir foyda yoʻq, bu ilm faqat iymonida shubhaga tushganlarni tuzatishga yaraydi, deb, uni din ulamolariga oʻrganishni tavsiya etadi.

Gʻazolliyni jahonga mashhur qilgan va dunyo tan olgan faylasuflar qatoriga qoʻshgan asarlari - bular mu'tazilliylar, botiniylar (ular koʻproq aqlga tayanganlar) ning yoʻldan ozgani va islomni zaiflashtirishlariga- qarshi yezgan «Fadoix al-Botiniya», «Al-Qismoi-al-Mustaqil», «Mufasi-ul-Xilof» va «Ad-Diras-al-Margʻum» kabi asarlaridir.

Abu Hamid Gʻazzoliy jahon faylasuflari, xususan, yunon faylasuflari asarlari bilan ham tanishib chiqqan boʻlib, u oʻz oʻtmishdoshlari ulkan allomalar Forobiy va Ibn Sinolarning Platon va Aristotel falsafasi ta'sirida qolganliklarini, ularga ergashganliklarini tanqid qilib, «Taxofut-ul-falosifa» («Faylasuflarga qarshi») asarini yaratadi. U bu asarida islomni, Qur'onni insoniyatning aqliy bilimlaridan iborat taroziga solishni qoralaydi. Aksincha, insoniyatning aqliy bilimlarini «Kur'on» tarozisiga solib tekshirib chiqish kerak. Chunki shunday qilinmasa, islomni yanglish tushunish davom etaveradi. Biz buning oldini olishimiz kerak, deydi u.

Gʻazzoliy bu asarida islom falsafasi nuqtai nazaridan kelib chiqib, kishilar haqiqatni tanishi, ya'ni Ollohni tanishi kerakligini, ular his-tuygʻuda ham, aqliy bilimlarda ham adashishlarmni isbotlaydi. U oʻzining «Ixyo ulum-ud-din» asarida bilish kishining dilida mujassamdir, deydi. Dil esa, uningcha, ilohiy ne'mat, uni odiy qalb yoki yurak ma'nosida tushunsmaslik kerak. Dilga esa jon ham, aql ham, nafs ham kiradi, ular jisman ham, ruxan ham birdir. Shuningdek, «Qur'on» va «Hadiojing qaysi joyida «dil» soʻzi kelsa, undan albatta parsalarni anglab, ularning mohiyatiga yeta oluvchi inson ma'naviyati tushuniladi, deb yozadi.

Gʻazzoliy oʻzining «Ab xal-valad» («Ey, farzand!») deb nomlangan risolasida: «Basharti goz yil ilm oʻrganib, mingta kitobni oʻqib jamuljam etsang-u ammo unga amal qilmasang, Ollohning rahmatiga umidvor boʻlishga xdkking yoʻq», - deydi. U bunda yana shunday yozadi; Bandalik uch

asosdan iborat: birinchisi - shariat yillarini davom ettirib, uni himoya qilmoq; ikkichisi - Olloxning takdiri azali va qazo qadariga rozi bo‘lmoq; uchinchisi - Ollohning roziligidan kelib chiqib, nafsning xohlagan narsalarini tark qilmokdir.

Uningcha, ilm olishdan murod - bu kishining toat-ibodat qilish mohiyatiga tushunib yetmoqlikdir. Bilgilki, deydi u toat-ibodat yaxshi va yomon, halol va harom ishlarda, so‘z va amalda shariatga ergashmokdan iborat.

G‘azzoliy so‘fizm ta’limotiga ham katta hissa qo‘shadi. U tasavvuf ta’limoti haqidagi Makkiy - Abu Tolib, Xoris al-Muxosibiy, Shayx Shibliy, Junayd al-Bag‘dodiy asarlarini o‘rganib chiqib, o‘zi ham bu hakda «Ixyo Ulum-uddin» nomli asar yozadi. Uning bu asari nihoyatda mashhur bo‘lib unda tasavvuf va boshqa islomiy ta’limotlar qamrab olinadi. U bu asarida tasavvuf ilmini to‘g‘ri ta’limot, deb baxolaydi.

Xullas, Razzoliy o‘zining asrlarida islom ilohiyayoti tizimini ishlab chiqib, uni falsafiy jihatdan asoslab beradi. U islomning eng yirik nazariyotchisi hisoblanadi. Razzoliy o‘zining «Adashishdan qutqaruvchi» asarida Oliy tangriga-Ollohga, payg‘ambarga va oxiratga ishonish-islom diniga ishonishning asosidir, deydi. U Ollohni inson aql orqali anglashi mumkin emas, uni kishi maxsus ruhiy, jismoniy (psixofizik) harakatlar: siqinish va ibodat orqali anglashi, bilib olishi mumkin, deydi. Uning fikricha, jon xudo (Olloh) singari fazodan tashqarida, olam Olloh tomonidan yaratilgan.

G‘azzoliy o‘zining «Ihyoi umum-ud-din» («Diniy ilmlarni tiriltirish») asarida haqiqat faqat va faqat «Qur’on»da, uning sunna yo‘nalishiga xosdir, inson Ollohdan ko‘rqishi uning dahshatli sudiga hukm qilishidan saqlanishi lozim, deydi.

G‘azzoliyning diniy falsafiy sistemasi so‘fizmni ortodoksal (yunoncha ortodoks - o‘zbekcha to‘g‘ri fikr, degani) kalom ta’limoti bilan birlashtirdi. Bu bilan u amadda islomning islohotchisi sifatida maydonga chiqadi.

Umuman, G‘azzoliy o‘z falsafiy qarashlarida islom aqidalarini yaigi platonizm g‘oyalari bilan qo‘shgan, o‘zi yaratgan islomning diniy falsafiy sistemasida so‘fizm ta’limotini yanada rivojlantirgan faylasufdir. Shu bilan birga, u o‘z asarlarida Aristotel, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkir faylasuflarning ratsionalistik falsafiy sistemalariga qarshi ashaddiy kurash olib boradi.

G‘azzoliyning falsafiy g‘oyalari O‘rta asr yahudiy (Maymonid, Baxil Ibn Pakuda) falsafiy qarashlariga hamda O‘rta asr Yevropa xristian diniy falsafiy ta’limotlar (R.Lulliy, I.Ekhart va b.) iga katta ta’sir qiladi.

Lekin G‘azzoliyning islom ilohiyotiga oid falsafiy qarashlariga O‘rta asr arab xalifaligining G‘arbiy kismida yashab ijod etgan arab faylasufi Ibn Rushd qarshi chiqadi.

Ibn Rushd(1126-1198)ningfalsafiy qarashlari. Asli nomi Adub-Valid Muhammad Ibn Ahmad (Yevropada Averroes deb yuritiladi) hozirgi Ispaniyaning Kordoba shahrida tug‘ilib, Andalusi va Marokko shaharlarida yashab, ijod etadi hamda Marokkoda vafot etadi.

Ibn Rushd Aristotel qarashlarini davom ettirib, o‘z falsafasida materializm elementlarini rivojlantirgan, shu asosda o‘z shaxsiy falsafiy sistemasini yaratgan buyuk arab faylasufidir. U o‘z qarashlarida xudoning mavjudligini e’tirof etsa-da, dunyoni, materiyani xudo yaratmagan, deydi. Ibn Rushd ta’lim berib aytadiki, dunyo, materiya boshlanishga ham, oxiriga ham ega emas. Materiya benihoya, abadiy va azaliy, deydi. Uning qarashicha, moddiy dunyoda faqat zaruriyat hukm suradi, xudo ham shu zaruriyatga bo‘ysunadi.

Ibn Rushd ortodoksal islom-kalom ta’limoti ilgari suradigan; kishining o‘lgandan keyin tirilishi, oxiratning mavjudligi, «u dunyo» to‘g‘risidagi qarashlarni butunlay rad qiladi. U insondagi jonni tana bilan chambarchas bog‘liq, undan ajralmas, deydi. Uningcha, jon umuman olganda o‘lmasdir, bir butun holda olganda, insoniyat ham o‘lmasdir, uning umumiy aqli, ya’ni'umumiy aql ham o‘lmas va adabiydir. Inson aqli haqiqatni bilishga qodir.

Ibn Rushd o‘z davri uchun gtrogressiv bo‘lgan «ikki-xil haqiqat» to‘g‘risidagi ta’limotni yaratadi. Bu ta’limotda aytilishicha, ilmiy-falsafiy fikr erishgan haqiqat diniy-ta’limotlarda mavjud xakiqatlarga mos kelmasligi mumkin. Uning bu fikri o‘z navbatida fanni va falsafani dinning, ilohiyotning iskanjasidan, dindorlar tazyiqidan ozod qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Ibn Rushd o‘zining Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy asari-«Faylasuflarni rad etish» («Taxofut-ul-falosifa»)ga qarshi yozgan «Faylasuflarnp rad etish» («Taxofut-ut-taxofut») asarida G‘azzoliyning islom ortodoksal kalom ta’limotini qattiq tanqid qiladi. U kishi oliy kamolotga faqat zikru sano orqali emas, balki falsafiy bilimlarni egallash orqali erishadi, deb ta’lim beradi. Ibn Rushdning bu falsafiy ta’limoti O‘rta asrdagi Yakin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, keyinchalik esa uyg‘onish davri Yevropa mamlakatlarida falsafiy qarashlarnimg rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. U O‘rta asr xurfikrligining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli Ibn Rushdga va uning falsafiy ta’limotiga qarshi keyingi davr butun musulmon va xristian iloxiyotchilari qattiq kurash olib bordi.

Shunday qilib biz yuqorida ko‘rib chiqqan O‘rta asr arab falsafasi deyilganda, islom dinini qabul qilgan va o‘z asarlarini arab tilida yozgan, arab xalifaligiga qarashli xududlarda yashovchi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqarilgan «Qur’oni Karim» va «Hadisi Sharif»ga asoslanuvchi, falsafiy ta’limotlar majmuini tushunamiz. O‘rta asr arab falsafasining paydo bo‘lishi «Kur’oni Karim» («Kalom»)ning paydo bo‘lishi bilan va keyinchalik islom iloxiyotida yuzaga kelgan ortodoksal kalomchilar-mutakallimchilar va ratsional iloxiyet namoyandalari - mu’tazilliylar faoliyatlari bilan bog‘liq xolda yuz beradi. Bunda qadimgi yunok falsafasida yuzaga kelgan platonizmning yangi ko‘rinishi-neplatonizm bilan Yangi aristotelizmning birikishi O‘rta asr arab falsafasida yetakchi yo‘nalish bo‘lgan Sharq peripatetizmini keltirib chiqaradi. Sharq peripatetizmining navbatdagi rivojlanishi O‘rta asrdagi O‘rta Osiyolik mutafakkirlar falsafiy qarashlarida o‘z ifodasini topadi va rivojlantiriladi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari:

Tasavvuf atamasining ma’nosi nima?
Tasavvuf ta’limoti qachon va kayerda paydo bo‘lgan?
Tasavvuf falsafasining mohiyati nimadan iborat?
Tasavvuf taraqqiyotining qanday bosqichlari mavjud?
Markaziy Osiyoda qanday tasavvuf tariqatlari paydo bo‘lgan?
IX-XP asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarini ijtimoiy-falsafiy tafakkurini qanday omillar jadal rivojlantirdi?
IX-XP asrlar Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy bilimlar qaysi qomusiy olimlar tomonidan rivojlantirildi?
Muso Al-Xorazmiy va Ahmad Al-Farg‘oniylarning tabiiy-ilmiy qarashlari haqida galirib bering.
Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolarning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari nimalardan iborat?
Abu Nasr Al-Forobiyning falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizii o‘z tanlagan yo‘lidan qaytara olmaydi. (I.Karimovning O‘zbekiston televideniyasi uchun maxsus intervyusi), Xalq so‘zi, 2004 yil 30 mart;
Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukulmas irodasiga bog‘liq (Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 14- sessiyasidagi nutki), Xalq so‘zi, 2004 yil 30 aprel;
Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. //Muloqot, 1998, 5-son.
Karimov I.A- O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston 1998.
Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmokda. -T.: O‘zbekiston 1999.
Al-Buxoriy. Hadislar I-IV tomlar. —T.: Meros 1990-1992.
Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. -T.; 1995.
Mo‘minov I.M. Amir TemurningO‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. -T.:Fan, 1993.
Mo‘minov I.M. O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. -T.:Fan1994.
Falsafa. O‘kuv qo‘llanma. -T., Sharq 1999.

Falsafa. Ma’ruzalar matni. —T., Moliya instituti 2000.
Azamat Ziyo. Milliy tuzugimiz. - «Fidokor», 2004 yil, 24 avgust.
Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
S.Yo‘ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.

## 5-mavzu O‘RTA ASRLAR G‘ARB MA’NAVIY HAYOTIDA DIN VA INSON MUAMMOSI

**REJA:**

1. **O‘rta asrlar davri manaviyati.**
2. **Uyg‘onish davri ma’naviyatining o‘ziga xos xususiyatlari.**
3. **Yangi davr falsafasining asosiy yo‘nalishlari.**

XI-XIII asrlarda G‘arbiy yevropadagi ijtimoiy taraqqiyot O‘rta asrlar nomi bilan yuritiladi. Bu davr G‘arbiy Yevropada ham quldorlik munosabatlariniig o‘rnini feodal munosabatlari egallagan davr edi. Bu davrda din mafkura sohasida ham hukmronlik qiladi, u jamiyatda asosiy mafkuraga aylanib, cherkovning esa siyosiy va mafkuraviy ta’siri ko‘pchilik G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida xaddan ziyod kuchayib, insoniyat fikrining oarcha soxalari - falsafa, xuquqshunoslik sana’at va madaniyat soxalarni tabiatshunoslik sohalarida ham diniy dogmatik aqidalar hukmronlik qiladi. Ayniqsa, bu davrda falsafa tajribaviy bilimlardan, amaliyotdan ajralib, dinning hizmatkoriga, sxolastikaga, ilohiyotga aylantiriladi, Bu davrda tabiatni o‘rganish gunox hisoblanib, tabiatii o‘rganishga kirishgan kishilar daxriylikda ayblanadilar va quvg‘in qilinadilar, hatto ular olovda ham kuydirilar va o‘ldirilar edi. Natijada, dunyoviy bilimlar ustidan diniy ta’limotlar hukmronlik qiladi. Din ijtimoiy fikr ustidan cheksiz hukmron bo‘ladi.

Lekin dinning qattiq ta’zyiqiga qaramasdan, jamiyat taraqqiy etib, tabiiy va ijtimoiy qarashlar ham rivojlanib, antiq davr madaniyati, fal yutuqlari, falsafiy qarashlari o‘rganila boshlaydi, natijada, bu davr falsafasida ham yangi-yangi oqimlar, yo‘nalishlar paydo bo‘la boshlaydi. Ayni shu davrda, ya’ni G‘arbiy Yevropaning O‘rta asrlar davrida, falsafada, skeptitsizm, agnostizm, neoplotonizm, kabi oqimlar paydo bo‘ldi. Lekin bu davrda, baribir, katolik cherkovining ramiy dunyoqarashi tizimini tashkil etgan teologiya va sxolastik falsafa butun O‘rta asr davomida hukmronlik qiladi. Bu diniy sxolastik falsafiy qarashlarga nazariy manba’ bo‘lib kadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotelning falsafiy ta’limotlari hizmat qiladi. Bu davr diniy-sxolastik falsafiy oqim-nominalizm va realizm oqimlari vujudga keladi va ular o‘zaro bir-birlariga qarshi kurash olib boradi.

Nominalizm o‘sha davr shahar savdogarlari va hunarmandlari manfaatlarini ifodalovchi, ularning cherkovning mutlaq xokimiyatiga qarshi kurashini aks ettiruvchi, o‘z davrining progressiv falsafiy oqimi bo‘ladi.

Realizm esa cherkov va yirik feodallar manfaatini ifoda etuvchi, ular dunyoqarashi bo‘lgan sxolastik, reaksion falsafiy okim hisoblanadi. Bu ikki okim o‘rtasidagi kurash umumiy tushunchalar, «universallar»ning moxiyatini aniqlashdan kelib chiqadi.

Realizmga asos qilib Platonning obe’ktiv idealizmi olingan edi. Uning asosiy vakillari: Anselm (1033-1109), Ioan Skot Eriugen (815-877), Foma Akvinskiylar edi. Ularning fikricha, umumiy tushunchalar, ya’ni kategoriyalar - «universallar» - real mavjud bo‘lib, ular mustaqil g‘oyaviy mohiyat sifatida predmetlarga, kishilarga nisbatan birlamchidir. Moddiy olamning predmetlari esa shu umumiy tushunchalarning shakliy ifodasi, ikkilamchidir. Umumiy tushunchalar mangu bo‘lib, predmet va hodisalar vaqtincha va o‘tkinchidir. Realistlar fikricha, «umuman uy» g‘oyasi birlamchi bo‘lib, uning shakliy ifodasi sifatida yakka-yakka xoldagi uylar vujudga keladi.

O‘rta asrlar falsafasidagi bu relizm oqimi katolitsizm cherkovi va sxolastik dogmalarning falsafiy asosiy edi. Uning XIII asrdagi ko‘rinishi tomizm, deb ataladi. Tomizm Foma Akvinskiy ta’limotini tashkil etadi. Bu ta’limotga ko‘ra, dunyoda turli shakllar bor, jon ham shu shakllardan biridir, shakllariing shakli esa, bu-xudodir, jon birlamchi va o‘lmasdir. U tanadan chiqishi bilan tana

halok bo‘ladi. F.Akvinskiy umumiy tushuncha masalasidan chikib kelib, aqlni ikkiga bo‘ladi: 1 .Tabiatdan tashqari aql yoki «xudo aqli»; 2.Tabiatdagi aql yoki kishi aqli, ya’ni inson aqli.

Tabiatdan tashqaridagi aql birlamchi, kishi aqli esa ikkilamchidir.

Boshqacha aytganda, umumiy tushuncha bo‘lgan «xudo aqli» birlamchi, tabiatdagi aql, ya’ni inson aqli «xudo aqli»ning maxsulidir. Akvinskiyning bu qarashlari cherkovii mazariy jihatdan mustaxkamlashga hizmat kilgan edi va xozir ham xizmat qilmokda. U hozirgi kunda XX asr falsafasidagi xukmron oqimlardan biri «Neotomizm» nomi bilan yuritiladi.

Nominalistlar, ularning asosiy vakillari: Berengariy Turskiy (1000-1088), Ioan Rasseliy (1050-1112), Uilyam Okkam (1300-1350) ta’limoticha, tabiatdagi yakka-yakka predmet va hodisalar, ularning xususiyatlari real mavjud, ularning in’ikosi bo‘lgan umumiy tushunchalar esa ikkilamchidir. Chunki, «umuman o‘y», «umuman inson»-bir guruh, o‘ylar, bir guruh kishilarning ini’kosidir, xolos.

XIV va XVI asrlar G‘arbiy Yevropada Uyg‘onish davri, deb yuritiladi. Bu uyg‘onish dastlab Italiyada, so‘ngra Yevropadagi boshqa mamlakatlarda vujudga keladi. Bu davrda Yevropa mamlakatlarida feodal munosabatlari ichida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshlaydi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi tabiatni, undagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini o‘rganish tabiatshunoslik bilimlarining rivojlanishiga olib keladi. Ilg‘or olimlar va mutafakkirlar dunyoviy ilmlarni din va sxolastika hamda cherkov xukumronligidan ozod qilish uchun kurash olib boradilar. Natijada, feodal reaksiyasiga qarshi burjuaziyaning, dinga qarshi fanning, sxolastik falsafaga qarshi yangi uyg‘onish davri falsafasining kurashi yuzaga keladi. Ana shu tarixiy sharoitda o‘z asarlari va yangi kashfiyotlari bilan bir qancha ijodkorlar olimlar va faylasuflar yetishib chiqadi.

Ana shunday kishilardan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir. U o‘zining 25 yil osmon jismlari ustida olib borgan kuzatishlarining natijasi sifatida 1543 yilda e’lon qilgan «Osmon jismlarining gir aylanishi» nomli kitobida Aristotel va Ptolomeyning cherkov rasmiy ravishda qabul qilgan geotsentrik nazariyasini o‘zining ilgari surgan geliotsentrik gipotezasi bilan rad etadi.

Ma’lumki, geotsentrik nazariyaga ko‘ra. olamning markazn Yer, u harakatsiz, boshqa barcha planetalar, golduzlar, hatgo Kuyosh ham uning atrofida harakat qiladi va aylanib turadi. N.Kopernikning yaratgan geliotsentrik gipotezasiga ko‘ra, Yer olamning markazi emas, uning harakatsizligi noto‘gri. Aksincha. Yer, avvalo, o‘z o‘qi atrofida harakat qiladi, bu harakat tufayli kun bilan tun yuzaga keladi; ikkinchidan, olamning markazida Yer emas, Kuyosh turadi, uning atrofida boshqa sayyoralar bilan birga, Yer ham aylanadi, natijada, Yerda to‘rt fasl sodir bo‘ladi. Kopernikning bu kashfiyoti tabiatshunoslpk fanlarida juda katta voqea bo‘lib, bu tabiatshunoslik fanlari rivoji uchun, dunyoviy ilmlarning rivojlanishi uchun tabiiy ona zamin rolini bajaradi.

Uyg‘onish davrida paydo bo‘lgan, tabiatni o‘rganish asosida yuzaga kelgan falsafiy qarashlar O‘rta asrlarda paydo bo‘lgan diniy-sxolastik falsafiy qarashlar bilan olib borilgan kurashlari natijasida panteistik falsafiy ta’limot vujudga keladi. Bu okimning shu davrda yetishib chiqqan vakillaridan biri Jordano Brunodir. Uning ta’limoticha, moddiy olam birlamchi bo‘lib, ong ikkilamchidir; moddiy olam mangu va abadiydir, uni hech kim yaratgan emas, moddiy olam mangu, u so‘ngsiz va cheksiz, u cheksiz turlarda ifoda etiladi, undagi barcha predmet va xodisalar bir-birlari bilan bog‘liq va alokadorlikda. Olamda Quyosh sistemasidan tashqari yana sonsiz-sanoqsiz dunyolar mavjud. Olam bepoyon. Yer esa ana shu bepoyon olamning zarrasidir. Brunoning bu qarashlari uchun uni Rim katolik cherkovi daxriylikda ayblab, Rimda olovda yondirib o‘ldiradi.

Lekin J..Brunoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, Uyg‘onish davri falsafasi taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Chunki u O‘rta asr diniy-sxolastik falsafaga qarshi dunyoviy bilimlarni din iskanjasidan, cherkov xukmronligidan xolos qilish, ozod etish uchun zamin yaratgan edi.

Uyg‘onish davrida N.Kopernik J.Bruno izdoshi sifatida maydonga chiqqan buyuk olim, matematik, mexaniq, fizik, astronom Galileo Yealileyning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari ham muhim rol o‘ynaydi. U N.Kopernik gipotezasi, ya’ni Yer o‘z o‘qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi g‘oyasini qizg‘in targ‘ib qilib, u hakda o‘zining «Dunyoning ikki sistemasi haqida suhbat»

asarini yozadi. Bu asarda dinning va cherkovning diniy -sxolastik aqidalarini keskin tanqib qilib chiqadi.

Cherkov inkvizatsiyasi uni ham qamoqqa olib, Rimda sud qilishadi, «tavba qildirishadi». U sud jarayonida, go‘yo o‘z qarashlari noto‘g‘ri, ulardan qaytganligini tan oladi. Sud xukmi o‘qilib bo‘lganidan keyin, sud zalidan, qamalmasdan, chikib ketishi oldida, odamlarga karata: «Baribir, Yer o‘z o‘qi atrofida aylanadi» deb chiqib ketadi. Shunday qilib, uyg‘onish davrida tabiatni, olamni bilishning o‘sishi, fanning din xukumronligidan ozod bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.

XVII - XVIII asrlar G‘arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davr Yevropa mamlakatlarida O‘rta asrchilik feodal munosabatlari tugatilib, kalitalistik munosabatlar to‘liq qaror topadi va rivojlana boshlaydi. Kalitalistik ishlab chiqarish ehtiyoji tabiatni, insonning o‘zini, jamiyatni ilmiy o‘rganish, bilishni takazo qiladi va uni o‘rganishni tezlashtiradi. Dengizlarda savdo munosabatlarining o‘sishi kemasozlikning rivojlanishiga, kemalar Yer shari bo‘ylab ilmiy ekspeditsiyalarning uyushtirilishi, yangi yerlar, yangi kitalarni ochilishiga olib keladi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshunoslik bilimlari, mexaniqa, matematika, fizika, kimyo, astronomiya soxalarida yangi-yangi tadqiqotlar olib borilib, O‘rta asr sxolastikasi va diniy aqidalarni uloqtirib tashlanadi. Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Bunda nemis olimi Keplerning sayyoralarning harakati, qonunlarining ochishi, ingliz olimi Isaak Nyutonning olamning tortilish qonunlarini kashf etilish, ingliz faylasufi F.Bekon tomonidan insonning dunyoni bilishdagi muhim rol o‘ynovchi induktiv metodni ishlab chiqishi, fransuz olimi Rene Dekartning inson bilimining hosil bo‘lishiga oid detuktiv metodni asoslab berishi muhim rol o‘ynaydi. Shular asosida bu davr falsafasida metafizik va metamexanistik materializm karor topadi. Metafizik va mexanistik materializmning namoyoidalari F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs fransuz faylasuflari R.Dekart, P.Kobak, Lametri va Gelvetsiy qarashlarida o‘zining yorqin ifodasini topadi.

Bu yangi davrda tabiatni bilishga intilishning kuchayishi natijasida falsafada empirik va ratsionalistik oqimlar vujudga keladi. Empirik okimning asoschisi F.Bekon hisoblanadi. Uning qarashicha, tabiatni bilishning manbai bu - tajriba, ekstteriment, kuzatishdir. Inson sezgi a’zolari orqali tabiat to‘g‘risida hosil kilingan faktlar, dalillar va ma’lumotlarni tajriba orqali tekshirishi, aniqlashi, undagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Shu asosda insoning tabiat to‘g‘risidagi to‘g‘ri, to‘lik bilimlari hosil bo‘ladi.

F.Bekonning falsafa va fan tarixidagi eng katta xizmati - uning inson bilishining induktiv metodini ishlab chiqishidir.

Ratsionalistik oqimning asoschisi fransuz faylasufi Rene Dekartdir. Dekart ta’limoticha, insonning tabiatni bilishining birdan-bir to‘g‘ri metodi bu aqlga asoslangan deduktiv metoddir.
Dekart o‘zining bu qarashlarini «Metod to‘g‘risida mulohazalar» asarida bayon qiladi. U o‘z asarida insonning tabiatni bilishida quyidagi talablarni ilgari suradi.

1. Haqikat, deb karalgan bilim fakat akd nuktai nazaridan aniq, ravshan, shubhalardan xoli bo‘lgan nazariy xulosalari asosida chiqarilgan fikrlar bo‘lmog‘i lozim.
2. Har bir murakkab muammo yoki masalani ularning tarkibini tashkil qilgan muammo va masalalarga ajratish, bo‘lish lozim.
3. Bilishda isbot bo‘ladigan, ma’lum bilimlardan hali noma’lum va isbot qilinmagan bilimlarga o‘tib borish zarur.
4. Tadqiqot hakidagi fikrlar - bilimlarni tashkil etgan mantiqiy xalqalardan xulosa chiqarishda birontasi ham tushirilib yoki e’tiborsiz koldirmaslign lozim. Dekartning qarashlariga ko‘ra inson bilishining birdan-bir manbai - bu tafakkur aqliy saloxiyatidir. Uning qarashicha, insonning sezgi a’zolari, tajribalari hamma vaqt ham to‘g‘ri bilim beravermaydi, shu sababli ularga inson o‘z bilish jarayonida to‘liq ishonmasligi zarur.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

Foma Akvinskiy falsafasining asosiy jihatlari nimada?
Nominalizm va realizm o‘rtasidagi farqlarni nimalarda ko‘rasiz?
Yevropa Uyg‘onish davri falsafsi deganda qanday falsafiy qarashlar tushuniladi?

Yevropa Uyg‘onish davri falsafasiga qanday xususiyatlar xos?
Yevropa Yangi zamon falsafasi deyilganda qanday falsafiy qarashlarni tushunamiz?
Yevropa Yangi zamon falsafasining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
XVP-XVSH asrlarda fransuz faylasuflari tomonidan materializmning qanday shakli asoslangan?
Yangi zamon falsafasi va tabiatshunoslik fanlari ittifoqi haqida nimalar deya olasiz?

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

Karimov I.A. O‘zbekistonyin o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. -T.: O‘zbekiston 2003.
Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.4. -T.: O‘zbekiston, 1996.
Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. -T.: O‘zbekiston 1997.
Sulaymanova F. Sharqva G‘arb. -T.:, 1997.
Falsafa. O‘quv qo‘llanma. -T., Sharq 1999.
Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., Moliya instituti 2000.
Erpo‘lat Baxt. Jamiyat va shaxs manfaati aks etadi. - «Fidokor», 2004 yil, 24 avgust.
Gunnar Skirbekk, NilsGilye. Falsafatarixi. T-; 2002y. (241-268; 267-366 betlar)
S.Yo‘ldoshev va boshk

## 6-mavzu YANGI VA ENG YANGI DAVR SHARQ MA’NAVIYATIDA FAN, ADABIYOT VA DIN

### REJA:

1. **Yangi va eng davr ma’naviyatining umumin xususnyatlari.**
2. **M.Bedilnnng falsafiy qarashlari.**

Bir yuz ellik yildan ortiq mo‘g‘il mustamlakachiligi XIV asrning 70 yillariga kelib sohibqiron Amir Temur boshchilig‘idagi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar tufayli barham topdi. Qadimiy Turon va Turkistonda Amir Temur boshchilig‘idagi davlat-qudratli va buyuk imperiya vujudga keldi. Amir Temur faqat Movorounnahrninggina xukumdori bo‘lib qolmasdan, u Oltin O‘rda, Eron, Hindiston, Kavkaz orti, Kichik Osiyo, Qora dengiz sohillari, Suriya va Misrgacha - jami 27 mamlakatni istilo qilib, juda katta va keng xududni o‘z ichiga olgan buyuk imperiyani tashkil qildi. Amir Temur tufayli Markaziy Osiyo xalqlarining milliy mustaqillikka erishuvi nafaqat Movarounnahrning o‘zida balki shu mintaqadagi boshqa mamlakatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Amir Temur nafakat Movarounnaxr xalqlarini mo‘gil mustamlakachiligidan xolos qildi, balki shu bilan birga, o‘zi istilo qilgan mamlakatlarda feodal parokandaligiga ham barham berib, butun malakatda nisbatan tinchilik va osoyishtalikni tartib-intizomni karor topdirdi. Bu narsa o‘z navbatida, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining keng rivoj topishiga olib keldi. Amir Temur davlati tasarrufiga kirgan shaharlarda qayta tiklash, ta’mirlash ishlari, yangi binolar barpo etish avj oldirildi, ularda xunarmandchilik, shaharlar atrofida bog‘-rog‘lar qishloq joylarida esa irrigatsiya ishlari keng yo‘lga qo‘yilib, ekin maydonlari kengaytirildi, dexkonchilik ishlari yaxshilana bordi. Tashlandik, xorabozor yerlar obod qilina boshlandi. Ayniqsa, shaharlar qurish gurkirab rivojlana boshladi, ularda esa ilm-fan, madaniyat va san’at gullay boshladi. Bu jihatdan Amir Temur imperiyasining poytaxti bo‘lmish Samarkand g‘oyat obod va ko‘rkam shaharga, ya’ni shoir madx qilganday, «yer yuzining saykali»ga aylandi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u fakat davlat alparatini mustahkamlashga, mamlakatdagi mayda va yirik, lekin tarkoq feodallarni birlashtirishga harakat qilibgina kolmasdan shu bilan birga mamlakatning siyosiy qudratini oshirish uchun iqtisodiy kudratini ham oshirishga, keng xalq ommasining ma’naviyatini ham yuksaltirishga katta e’tibor berdi. U o‘zi ishg‘ol qilgan xorijiy mamlakatlarda qo‘lga kiritayotgan moddiy va ma’naviy intellektual boyliklarni o‘z xalqi moddiy va ma’naviy-intedlektul boyliklariga qo‘shgan holda ularni

elu yurt obodonchiligi, shahar va qishloqlarning gullab-yashnashiga, xalq farovonligiga sarf qildi. Amir Temur davrida qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlandi. Mamlakatda qurilish inshootlari barpo qilinib, sug‘orish shoxobchalari kengaydi, cho‘llar (Mug‘on cho‘li) o‘zlashtirildi, kanallar o‘tkazildi, ko‘priklar, yo‘llar, karvonsaroylar qurildi. Buyuk Ipak yo‘li tiklandi. Ayniqsa, Amir Temur mamlakatning ichki va tashqi savdosiga katta ahamiyat berdi. Sharqda Hindiston, Xitoy, Shimolda Rossiya, G‘arbda Ispaniya, Fransiya, Angliya, Janubiy G‘arb, O‘rtayer dengizi qirg‘oqlari xalqlari, arab mamlakatlari bilan kizg‘in savdo-sotiq aloqalari o‘rnatildi. Bularning bari Amir Temur davlatining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga siyosiy va ma’naviy mavqeining oshishiga xizmat qildi.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining rivojlanishi va yangi bosqichga ko‘tarilishidagi asosiy omil-movorounnahr xalqlarining IX-XII asrlarda erishgan madaniy yutuqlari (madaniy meros) bo‘lsa ham, shu bilan birga, shu davrdagi qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro madaniy aloqalar ham muhim rol o‘ynaydi. Lekin Markaziy Osiyo xalqlarining XIV-XV asrlarda madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida, xususan, falsafiy qarashlarining rivojlanishida IX-XP asrlardagi o‘zimizning ajdodlarimiz tomonidan yuzaga keltirilgan madaniy-ma’rifiy merosni o‘rganish va egallash aloxida o‘rin tutadi. Bu davr buyuk mutaffakirlari: Navoiy, Jomiy, Binoiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Jaloliddin Davoniy, Sa’diddin Taftazoniy, Mir Said Sharif Jurjoniylar xususan Amir Temur va temuriyzodalar dunyoqarashlarining shakllanishi va takomil topishida qadimgi yunon mutafakkirlaridan tortib, O‘rta asrlardagi Sharq Markaziy Osiyolik buyuk olimlarning ilmiy merosi, islom dini ta’limoti muhim g‘oyaviy manba’ bo‘lib xizmat qiladi. Shu manba’lar asosida XV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davri madaniyati, ilm-fani, san’at va adabiyoti, iljimoiy falsafiy qarashlarn vujudga keladi va rivojlanadi. Amir Temur va temuriylar davrida zargarlik san’ati, me’morchilik san’ati, musavvirlik, xattotlik va mukovasozlik san’atlari yuksak taraqqiy etadi, oltin, kumush va bronza eritadigan moxir ustalar, buyuk me’morlar, dunyoga mashhur naqqosh va rassomlar, minatyura san’ati vakillari yetishib chiqadi. Amir Temur va temuriylar davrida, ayniqsa falakiyot, riyoziyot, handasa, geografiya, tibbiyot kabi tabiiy-ilmii bilimlar; tarix, pedagogika, mantik, axloqshunoslik, falsafa kabi ilsgimoiy-gumanitar bilimlar yaxshi rivojlanadi. Ayniksa, adabiyotshunoslik, she’riyat va nasr tez va kuchli rivojlanadi. Natijada, mashhur shoirlar yozuvchilar xattotlar yetishib chiqadi.

XV asrning boshlariga kelganda Samarqandda falakiyot va riyoziyot fanlari kuchli taraqqiy etadi. Mirzo Ulug‘bek asos solgan falakiyot maktabi, falakiyot rasadxonasi va u qurdirgan observatoriya o‘sha davrda tabiiy-ilmiy bilimlar tarakqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

Nihoyat, bu davrda falsafa va mantiq ilmlari bilan shug‘ullangan yirik olimlar paydo bo‘lib, bu soxalarga oid maxsus risolalar ham yaratiladi. Bunga misol qilib Sa’diddin Taftazoniy va Mir Said Jurjoniy yaratgan asarlarni ko‘rsatish mumkin. Mirzo Ulug‘bek asos solgan falakiyot maktabi vakillari: Mansur Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, G‘iyosiddin Jamshid va boshqalar esa tabiatshunoslikning falsafiy masalalariga oid o‘zlarining qimmatli fikrlarini ilgari surishadi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movorounnaxrda tasavvufning yangi oqimi - naqshbandiya vujudga keladi va u yassaviy tariqati bilan bir qatorda- bu davr ma’naviyatining goyaviy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Islom dini esa bu davrda Amir Temur va temuriylar siyosatida mamlakatdagi ma’naviy birlik, madaniy yuksalish, adolatni o‘rnatish, xuquq va tartibotni saqlash ishiga qaratiladi. Naqshbandiya va yassaviya tariqatlari islomga tayangan xolda kishilarni ahloqiy poklikka, mehnatga, ilm-fanni egallashga chorlab, ular goyalarini targ‘ib qilib, jamiyatning ma’naviy-ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, Amir Temur va temuriylar davrida falsafaga oid maxsus asarlar kam yaratiladi. Lekin ilg‘or ijtimoiy-falsafiy fikrlar badiiy adabiyet asarlarida o‘zlarining chuqur ifodasini topadi. Xususan, bu davrdagi adib va shoirlar Abdurahmon Jomiy, Ubayd Zakoniy, Lutfiy, Sakkokiy, Binoiy va ayniqsa, Alisher Navoiyning badiiy asarlari boy falsafiy mazmun kasb etishadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuzaga kelgan lekin mo‘g‘illar istilosi natijasida Uyg‘onish davrining qayta tiklalishi va uning yangi cho‘qqisiga ko‘tarilishi davri bo‘ldi. Bu davr madaniyati va ilm-fani jaxon madaniyati va ilm-

faniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilib, uning yutuqlari jahon xalqlari madaniyati va ilm-fanining keyingi rivojlanishiga zamin bo‘lib xizmat qildi.

Amir Temur shaxsi va faoliyati haqida gapirar ekanmiz, dastlab uning siyosiy sahnaga qadam qo‘ygan davrdagi tarixiy vaziyat to‘g‘risida to‘xtalish lozim. Amir Temur siyosat maydoniga 24 yoshida kirib keldi. Bu davrda butun Movorounnahrda boshboshdoklik maxalliy feodallar o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshilik avjga chiqqan, buning ustiga mo‘g‘il mustamlakachiligi maqalliy xalqqa xaddan tashqari kuchaygan bir holat kechmokda edi. Bir yarim asrga yaqin muddat davomida mo‘g‘il mustamlakachiligi jabri-jafosini har tomonlama chekib kelgan oddiy fuqarolardan tortib, barcha siyosiy arboblar va din peshvolarigacha nihoyatda og‘ir davr edi. Jamiyatdagi ozodlik va taraqqiyotga bo‘lgan manfaatlarni o‘zida mujassam etgan Amir Temur ana shunday xoloskor va yetakchi sifatida maydonga chiqdi. Demak, Amir Temur qadimiy Turon va Turkiston zaminida tasodifan paydo bo‘lgan shaxs emas, unga jamiyatda ijtimoiy extiyoj mavjud bo‘lgan. Qadimiy Turon va Turkiston zamini juda uzoq davrlardan oziqlanish jihatdan rivojlangan, madaniy merosi boy, madaniy, qatlamga ega bo‘lgan joy bo‘lgan. Bu davrda o‘zbek davlatchiligining tarixiy asoslari qaror topganiga Amir Temur zamonasida ikki ming yildan oshgan edi.

Amir Temur shaxsi haqida Prezidentimiz shunday degan edi: «Xalqimizning uzoq o‘tmish tarixida inson kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug‘ qozongan, nom taratgan, millatimiz faxri bo‘lmish ulug‘ zotlar benihoya ko‘p o‘tgan. Ammo ular qatorida yulduzlararo quyoshdan charachab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o‘rin tutadi.

Hazrat sohibqiron shaxsiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Amir Temur yoshlik chog‘idan mard, dovyurak, g‘ururli, o‘tkir zehn va aqlu idrok sohibi bo‘lib o‘sadi. U tufli dunyoviy va diniy ilmlarni, harbiy san’atini chuqur egallaydi. 12 yoshda Qur’oni Karimni yod oladi, hadis ilmini chuqur o‘rganadi. Oqibatda iimon-e’tiqodli, halol-pok, inson bo‘lib yetishadi.

U yoshligidan o‘z oldiga ona yurtini mo‘g‘il bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo‘yadi va bu yo‘lda kurash olib borib boskinchilar zulmidan jafo chekkan el va elatlarning boshini qovushtiradi. Natijada 24 yoshda hokimiyatni qo‘lga olib, o‘z davlatini tuzadi. Uning bu davlati bir yuz ellik yillik mustamlakachilikdan kutilgan Turkiston xalqlarining mustaqil davlati edi. Amir Temur mamlakat qudratini har soxada yuksaqlikka ko‘tarib unn butun dunyoga mashhur qiladi. U o‘zining butun hayotining mazmuni betakror faoliyatining asosiy ma’nosi deb Vatan ozodligini uning mustaqilligini ta’minlashni tushundi.

Shavkatli Amir Temur bobomizning tarix oldidagi buyuk xizmatlari bizning bugungi kun mustakilligimiz uchun ahaniyati nimalardan iborat? degan savol qo‘yilsa, ularga quyidagi javoblarni berish mumkin:

1) Amir Temur eng ayevalo murakkab tarixiy sharoitda o‘z xalqining boshini qovushtirib, mo‘g‘il istilochilariga qaqshatqich zarba berdi. Oqibatda mo‘g‘illar zulmidan qutulib, mustaqillikni qo‘lga kiritib Turkiston zaminida ilk bor istiqlol bayrog‘ini baland ko‘tardi. Parokanda mamlakatlar, ellar va elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanat tuzdi. Natijada: «Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir»: -degan shior Amir Temur saltanatining barcha hududlarida birday amal qilib, bu tamoyil butun mamlakatning ahloqiy - ma’naviy me’zoniga aylandi.

2) Amir Temur o‘z davrida qudratli va buyuk davlat qurdi. U qudratli davlat qurmasa, uning davrida betakror ma’naviy meros ham, buyuk obidalar ham bizgacha yetib kelgan tarixiy yodgorliklar ham yuzaga kelmas edi. Shu jihatdan mustaqil O‘zbekistonimiz mustahkamlayotgan davrda Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida juda ham kadrlidir. U o‘z davrida buyuk o‘zbek davlatchiligining poydevorini qurgan, yaratib bergan buyuk zotdir. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o‘z davri balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Shuni aytish kerakki Amir Temur o‘z davlatini faqat kuchga suyanib boshqargan emas. Agar davlat faqat kuchga tayangan holda boshqarilsa, u uzoq davr yashamaydi. Buning misollari tarixda juda ko‘p. Shu sababli Amir Temur o‘z davlatini, avvalo, aql-idrok, zakovot va huquqiy asoslarga tayangan holda idora etadi. Bunga uning o‘zining: «Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim»-degan fikrlari, yorqin misoldir.

3) Amir Temur faoliyatidagi biz uchun ibratli jihatlaridan yana biri shundaki, u savdo-iqtisodiy munosabatlar orqali xalqlar, mamlakatlar o‘rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish sohasida buyuk yutuqlarga erishish mumkinligini o‘z davrida tug‘ri tushunib yetgan buyuk siymodir. “Shu sababli u o‘z davrida Yevropa va Osiyoni bog‘lashni xizmat qilgan ulkan diplomatik ishlarni amalga oshiradi. Amir Temur buning uchun bir tomondan-Fransiya va Angliya, yana bir tomondan-Rim,Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar o‘rganib bu aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgan.

Sohibqironning o‘z saltanatida bundan 600 yil avval bosh kotirgan va shu yo‘lda olib borgan tashki siyosati, uning «dunyo savdo axli ila obod bo‘lajak!» degan g‘oyasi bizning bugungi kunda ham qo‘shni davlatlar bilai barpo etayotgan «yagona iqtisodiy - savdo maydoni» yaratish uchun buyuk ibrat bo‘lib xizmat qiladi.

4) Soxibqiron Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatlari bugungi kunda biz uchun ham juda muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Bu ko‘xna dunyoda jahongirlar ko‘p o‘tgan. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. U muborak zot aytganlarki: «qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kesitrsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim».

Amir Temur va temuriylar sa’i-harakatlari bilan o‘z davrida qurilgan madrasalar masjidlar xonaqohlar, saroylar, bozorlar, ko‘priklar, yo‘llar, bekatlar, xammomlar, kanallar, qal’alar va boshqa qator imoratu inshootlarning bog‘-rog‘larning son-sanog‘i yo‘q, Masalan, Amir Temurning bevosita rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome’ masjidi, Go‘ri Amir va Ahmad Yassaviy, Zangi ota maqbaralari, Oksaroy va Shoxi Zindadagi me’moriy mo‘jizalar; Bog‘i, Chinor, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bexisht, Bog‘i Baland singari o‘nlab go‘zal saroy-bog‘lar va boshqa inshootlar shular jumlasidandir. Eng muhimi - deydi yurtboshimiz,- mazkur qurilishlar geografiyas» birgina Turkiston bilan chegaralanpb qolgan emas. Buning nsbotn sifatida sohibqiron kadami yetgan joylardagi tarixiy obidalarni eslashning o‘zi kifoya."

Amir Temur Movarounnaxr va Xurosonning shahar va qishloqlarida, xatto Janubiy Ozarbayjon Qobul va Bag‘dod kabi uzoq shaharlarda ham obodonlik, bunyodkorlik tiklash ishlarini olib bordirgan, sug‘orish inshootlarini qurdirgan» siymodir.

5) Ma’lumki, har qanday jamiyat ilm-fani ma’rifatsiz tarakkiy etmaydi. Buni teran anglagan soxibkiron Amir Temur xokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlaridayok mamlakatda madrasalar barpo etish, ilm toliblariga nafakalar tayinlash masalalariga katta e’tibor beradi.

U qaysi bir shaharga bormasin qaysi mamlakatni istilo qilmasin, eng avvalo, o‘sha yerdagi olimlaru fozillarga katta e’tibor berar, ular bilan uchrashuv suxbatlashar va baxslar olib borar edi, nihoyat kamtar ulardan xaqikiy bilimdonlarini Samarqandga taklif qilardi va ularga, oilalariga shart-sharoit yaratib berib xurmat-ehtirom, mehr muruvvat ko‘rsatar edi; o‘zi esa tarix, tibbiyot, matematika, astronomiya, me’morchilik sohalarida yuksak saloxiyatga ega edi.

6) Amir Temur jamiyatda kishilar iymon, e’tiqodsiz yashashi mumkin emasligini juda teran va to‘g‘ri tushunadi. Shu sababli u odamlarga din, iymon, ishonch va e’tiqod kerakligina har doim ta’kidlaydi. U o‘zining «Tuzuklari»da: «har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim» - deb yozadi.

Amir Temur Qur’oni Karimni yod bilgani, Hadisi shariflarni yaxshi egallagani uchun diniy bahslarda yirik ulomolar bilan ko‘pincha bab-barobar so‘z yuritib baxslashadi. U islom dini, musulmonchilik aqidalari jamiyat osoyishtaligi, ravnaqi, ijtimoiy adolat iymon butunligi, ma’naviy poklik uchun xizmat qilishni yaxshi tushunadi. Lekin shu bilan birga shaxsiy e’tiqodiga ko‘ra, davlat davlatligini din- esa dinligini qilishi kerak. Uning bu g‘oyasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini zarracha yo‘qotgani yo‘k.

7) Va nihoyat, shuni aytish kerakki, bir yuz ellik yildan ortiq mo‘til mustamlakachiligi XIV asrning 70 yillariga kelib soxibqiron Amir Temur boshchiligidagi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar tufayli barham topdi. Qadimiy Turon va Turkistonda Amir Temur boshchilig‘idagi davlat - qudratli va buyuk imperiya vujudga keldi. Amir Temur faqat Movorounnaxrninggina hukmdori bo‘lib kolmasdan, u Oltin O‘rda, Eron, Hindiston, Kavkaz orti,

Kichik Osiyo, Qora dengiz soxillari. Suriya va Misrgacha - jami 27 mamlakatni istilo qilib, juda katta va keng xududni o‘z ichiga olgan buyuk imperiyani tashkil qildi. Amir Temur tufayli Markaziy Osiyo xalqlarining milliy mustakillikka erishuvi nafaqat Movarounnaxrning o‘zida balki shu mintaqadagi boshqa mamlakatlarning ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Amir Temur nafaqat Movarounnahr xalqlarini mo‘g‘il mustamlakachiligidan xolos kildi, balki u shu bilan birga, o‘zi istilo qilgan mamlakatlarda feodal parokandaliliga ham barham berib, butun malakatda nisbatan tinchilik va osoyishtalikni tartib-intizomni karor topdirdi. Bu narsa o‘z navbatida, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining keng rivoj topishiga olib keldi. Amir Temur davlati tasarrufiga kirgan shaharlarda qayta tiklash, ta’mirlash ishlari, yangi binolar barpo etish avj oldirildi, ularda hunarmandchilik, shaharlar atrofida bog‘-rog‘lar kishlok joylarida esa rrrigatsiya ishlari keng yo‘lga ko‘yilib, ekin maydonlari kengaytirildi- dexkonchilik ishlari yaxshilana bordi. Tashlandik, xorabozor yerlar obod qidina boshlandi. Ayniksa, shaharlar qurish gurkirab rivojlana boshladi, ularda esa ilm-fan, madaniyat va san’at gullay boshladi. Bu jihatdan Amir Temur imperiyasining poytaxti bo‘lmish Samarqand g‘oyat obod va ko‘rkam shaharga, ya’ni shoir madh qilganday, «yer yuzining sayqali»ga aylandi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u faqat davlat alparatini mustahkamlashga, mamlakatdagi mayda va yirik, lekin tarqoq feodallarni birlashtirishga harakat qilibgina qolmasdan shu bilan birga mamlakatning siyosiy qudratini oshirish uchum iqtisodiy kudratini ham oshirishga, keng xalq ommasining ma’naviyatiii ham yuksaltirishga kachta e’tibor berdi. U o‘zi ishgol qilgan xorijiy mamlakatlarda ko‘lga kiritayotgan moddiy va ma’naviy intellektual boyliklarni o‘z xalqi moddiy va ma’naviy-intellektul boyliklariga kushgan xolda ularni elu- yurt obodonchiligi, shahar va qishloqlarning gullab-yashnashiga, xalq farovonligaga sarf qildi. Amir Temur davrida qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlandi. U tabiatdagi sabab-oqibatlarni tadqiq qilib, ularning muayyan xilma-xil turlarini ajratib ko‘rsatadi. Sabab - bu shunday narsaki, narsaning vujudga kslishi unga bog‘liqdir, deydi u. Uningcha, sabab ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Agar sababning muayyan belgilari oqibatga o‘tsa, ichki sabab, agar o‘tmasa, bunday sabablar tashqi sabablar bo‘ladi.

Taftazoniy falsafiy qarashlaridagi dikkatga sazovor masalalardan yana biri-bu imsomga xos kazo va kadr hamda idora erkinligi masalalaridir. U o‘zining «Taxzib al-mantiq va al-Kalom» asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga keng to‘xtaladi. Taftazoniyning fikricha, Xudo o‘z bandalariga ikki yo‘lni «taqlif» etadi: birinchisi-sharafli hayrli va makruh ishlarni qilish; ikkinchisi-nomutlub ishlar qilib, gunoxga botish va qilgan gunoxlari uchun jazo tortish. Bunda qaysi yo‘lni tashlash esa insonning o‘z irodasiga bog‘likdir. Mutafakkirning fikricha, Xudo tomonidan insoplarga ko‘prok yaxshi, hayrli, matlub ishlarni qilish yuboriladi. Yomon hulq-atvor, nomatlub ishlar «insonga uni sinash uchun bugoriladi. Yomon xulk-atvorli kishilar, o‘z yomonliklaridan qaytmasa, Xudo ularni jazolaydi. Bu jazodan qo‘rqqan kishilar o‘zlarining yomon hulq-atvorlaridan voz kechishi, qutulishlari lozim. Bu esa yana ularning irodalariga bog‘liqdir.

Taftazoniy o‘z bilish nazariyasida Ibn Sino (Ibn Sino narsa va xodisalar haqidagi hosil qilingan ma’lumotlarni bilim, deb hisoblaydi)dan farq qilib, ularni insonning his-tuyg‘u va bilimlar o‘rtasidagi vosita bo‘luvchi bosqich, deb tushunadi. Uning qarashicha, inson bilish jarayeni uch shartni taqozo etadi:

1. His-tuyg‘u a’zolari va ashyolar to‘rtasidagi o‘zaro ta’sir.
2. Bu ta’sirni inson ruhiyati tomonidan qabul qilinishi.
3. Aqliy bilish.

Taftazoniy bunda xis-tuyg‘u a’zolariga ashyolar va xodisalar ta’sir etib, tashqi xissiyotni paydo qiladi, tashqi his-tuyg‘u xissiyot asosida so‘ng ichki xis-tuyg‘u paydo bo‘ladi, bu xis-tuyg‘ular va xissiyotlardan, ularning shakllaridan bilim shakllanadi, deydi. Bunda xissiyot ashyolar va hodisalardan ularning zaruriy sifatlari va aloklari bilan birgalikda faqat tashki kiyofalarinigina kabul qilib oladi. Shu sababli Taftazoniyning fikricha xissiy tasavvurga ega bo‘lish uchun ashyo yoki narsaning o‘zi bo‘lishligi shartdir. Lekin, aqliy bilish uchun moddiy asoslar (ashyo yoki buyum)dan ancha uzoqlashgan bo‘lib, bunda xissiy bilimlarga tayanib, ulardan yuqori ko‘tarilish kerak, aqliy bilish ana shu yukoriroq bosqichda hosil bo‘ladi. Uning qarashicha, aqliy bilishning shakllari tassavurot va tasdiqotlardir. Aqlning quroli ashyo va buyumlarni aks ettiruvchi

tushunchalardir. U tushunchalarni ta’riflar ekan, o‘z oldiga: tushunchalar qanday kelib chiqadi va shakllanadi, degan savolni ko‘yib unga shunday javob beradi; aqlning tahliliy - xulosaviy qobliyati (uningcha: taxlilot) va shuuriy iste’dodi (uningcha: mafkulot) tushunchalarning shakllanishi uchun asosiy yo‘ldir. Uning yozishicha: «Faqat taxdilot va mavxumot vositasidagina ashyolar haqida bilish mumkin».

Xullas, Taftazoniyning falsafiy qarashlari Yakin va O‘rta Sharq xalqlari O‘rta asr ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ilg‘or o‘rin tutgan qadimgi yunon faylasuflari fikrlari bilan hamoxangligini ko‘rsatadi. Ammo Taftazoniy oldingi antik davr falsafiy qarashlari bilan cheklanib kolmay. o‘z qarashlaripi Sharq uyg‘onish davri yuksalishlaridan turib rivojlantiradi, ularni yangi g‘oyalar bilan boyitadi. Bu narsa uning qarashlarining dikqatga sazovor tomonidir.

Taftazoniyiing falsafiy qarashlari o‘z ilmiy qimmatini hozir ham yo‘qotgan emas. Lekin uning merosi bizda yetarli o‘rganilmagan, uni chuqur ilmiy o‘rganish falsafiy tafakkurimizni yanada boyitishga olib keladi.

Amir Temur va temuriylar davri falsaiy qarashlarini o‘rganishda e’tiborga loyiq mutafakkirlarning yana biri Mir Sayid Sharif Jurjoiiy (1339-1413)dir.

Asli ismi Ali binni Muhammad binni Ali Husayni Jurjoniy Eronning Gurgan viloyati markazi Astrobod shaxri yaqinidagi Tag‘u qishlog‘ida tug‘iladi. U yoshligida o‘sha davr Sharqda mavjud bo‘lgan barcha fanlar bilan shug‘ullanadi. Ayniqsa, u islom falsafasi bo‘lgan Kalom, Mantiq, tabiatshunoslikka doir barcha bilim soxalarini qunt bilan o‘rganib, keyinchalik ularning har biriga oid katga ilmiy asarlar yozib qoldiradi.

Jurjoniy 1387 yili Amir Temur tomonidan SHeroz fath etilishi bilan u yerdagi bir qancha olimlar qatorida Samarkandga taklif etiladi va bu yerda 20 yil samarali ijod qilib, sohibqiron vafotidan keyin yana SHerozga qaytib kelib, 3413 yilda vafot etadi.

Jurjoniyning bizgacha «Borliq haqida risola» va «Dunyoni aks etgiruvchi ko‘zgu» deb nomlangan falsafiy asarlari yetib kelgan. Shuningdek, uning Ar-Roziy at-Taxtoniyning «Shamsiya» asariga «Qotibiy Kazvimiyning «Hikmatulayn» («Hikmatlar birligi») asariga yozgan sharxlari ham i-lmiy falsafiy qimmatga egadir.

Jurjoniyning tabiatshunoslik fanlariga doir (arab tilida yozgan) bir qator asarlari ham mavjud. Bularga Maxmud al-Chagminiyning «Falakiyotga doir saylanmaga sharx asariga bag‘ishlab yozgan kitobini, Nasriddin at-Tusiyning «Falakiyotga oid eslatma» asariga bag‘ishlab yozgan kitoblarini samab o‘tish mumkin. Jurjoniyning falsafiy qarashlari, o‘zidan oldin o‘tgan salaflarinikida bo‘lganidek, O‘rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chuponchi: borliq haqidagi ta’limotni, koinot jumboqlaryni, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli tabiatning xususiyatlari, jismoniy va ruxiy munosabatlar", bilish muammolari va shular kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. U o‘z asarlarida koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi borliqning umumiy manzarasini yaratishga harakat qiladi. Bunda Jurjoniyga xos narsa borliq manzarasnni bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishga harakat qilishdan iborat. Uniig besh bobdan iborat bo‘lgan «Dunsni aks ettiruvchi ko‘zgu» asarining birinchi bobini «vojibul-vujud» va «mumkin ul-vujud»niig mavjudligi masalasini asoslashga bag‘ishlaydy. U bunda: «Yo‘k bo‘lishi mumkin bo‘lgan, bor bo‘lishi esa zarur bo‘lgan narsa vojib ul-vujud deb ataladi. Masalan, holikning o‘zligi kabi tushuncha. Borligi ham. yo‘gligi ham zarur bo‘lmagan narsa esa mumkin ul-vujud deb ataladi», deydi.

Jurjoniypikg karashicha, bu o‘rindagi vojib ul-vujud - bu Xudodir, mumkin ul - vujud esa moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida vojib ul-vujudni, ya’ni Xudoning borlig‘ini tan oladi. Uning fikricha, mumkin ul-vujud o‘zining bor bo‘lishi uchun qandaydir biror bir sababga extiyoj sezadi. U biror bir narsa tufayli, ya’ni birinchi sabab tufayli vojib ul-vujud darajasiga ko‘tariladi. Jurjoniy o‘zining risolasida shunday yozadi: «Bor bo‘lishga imkoni bor narsa ikki tarkibiy qismidan substansiya va aksidensiyada, ya’ni tub mohiyat va hodisadan tashkil.topadi. Agar mavjud bo‘lishga imkoni bo‘lgan narsa o‘z mavjudligi uchun joiga ehtiyoj sezmasa, unda uni tub mohiyat, deb agarda unga (joyga) extiyoj sezsa, xodisa, deb ataladi. Tub moxiyat besh xil bo‘lishi mumkin. Agarda biror bir tub mohiyat boshqa joyda birorta narsa o‘rnida qaror topgan bo‘lsa, u joylashgan o‘sha joy modda, deb uning xolati esa-shakl, deb ataladi. Agar u o‘z ichiga joy va xolatni olgan bo‘lsa, u jism, deb nomlanadi. Agar tub mohiyat bu aytilgan uch narsa (ya’ni: joy,

modda, shakl)ni o‘z ichiga olmasa, u ayiruvchi substansiya, deb ataladi. Agarda shu ayruvchi tub mohiyat jismni ifodalasa, u xolda uning o‘zgaruvchi qismi ruh, deb ataladi. Bu jismlardagi o‘zgarmaydigan narsa aql, deb ataladi. Agarda ushbu aql bevosita vojib ul-vujuddan kelib chiqqan bo‘lsa, u boshlang‘ich ong yoki umumiy aql, deb ataladi».

Jurjoniy, borliqdagi hech bir xodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta’kidlaydi. Uningcha, hamma mavjud narsalardagi butun harakat va o‘zgarishlar faqat makon va zamondagina ro‘y beradi. U butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog‘langan bo‘laqlardan iborat yagona bir butunni tashkil etgan butunlik sifatida ta’riflaydi. Jurjoniyning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to‘rt unsur; olov, havo, suv va tuprok. yotadi. U turli ko‘rinishdan iborat boshqa jismlar, ya’ni metallar, o‘simliklar va xayvonlar esa, yuqorida aytilgan to‘rt unsurning bir-birlari bilan ko‘shilishining (natijasi) hosilasi sifatida kelib chiqqandir, deydi. To‘rt unsur esa, doimo harakatda, o‘zgaruvchan bo‘lib, biri ikkichisiga aylanib qolishi mumkin. Masalan, xavo, suvga, suv tuproqqa va xakozo.

Umuman, Jurjoniy falsafiy qarashlarida moddiychilik g‘oyalari ustun bo‘lib, uning dunyoqarashi dialektikdir. Uning fikricha, moddiylikdan holi bo‘lgan bo‘sh joy yo‘q. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: «Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo‘lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo‘shliq emas, chunki uni moddadan tashqarida bo‘lgan tushuncha yoki biror o‘lchov bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, bir-biri bilan o‘zaro yopishib, ayni vaktda boshqa jism bilan ham bog‘lanib turmagan narsaning o‘zi bo‘lishi mumkin emas, har bir atrofdagi dunyo, o‘zi o‘rab turgan narsaga teng turshi zarur va birga joylashishi lozim, chunki bo‘shlikning bo‘lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo‘lakchalarning tarkibiy majmuasi olam, deb ataladi.

Jurjoniy mantiq ilmiga ham juda katta xissa ko‘shadi. Uning bilish nazariyasi va mantiqqa doir bir necha asarlari bo‘lib, ularda mantiq shshining falsafa va boshqa fanlar bilan munosabati, uning huqukshunoslik, tilshunoslik va iloxiyot sohasida amaliy tatbikiy masalalarni yoritib berilgai. Jurjoniyning bu xizmatlari tufayli mantik ilmiga islom aqidalariga xos bo‘lmagan «begona ta’limot», . deb g‘araz bilan qarab kelish barham topdi va shu davrdan boshlab madrasalarda mantiq ilmini o‘qitish huquqshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan bog‘lnq xolda olib boriladigan bo‘ldi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bizda Mir Sayid Sharif Jurjoniyning falsafiy qarashlari faylasuflarimiz tomopidan yetarli o‘rganilgan emas. Uning falsafiy asarlari o‘zbek tiliga tarjima ham qilinmagan. Agar bu ishlar Sharqshunos va faylasuflarimiz tomonidan amalga oshirilsa, bizning falsafiy tafakkur tariximiz yanada boyigan bo‘lardi.

Amir Temur va temuriylar davrida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fikrlarning rivojlanishida Mirzo Ulug‘bek va uning maktabi vakillarining tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulugbek fakat oddiy hukmdor bo‘lib qolmasdan, balki u buyuk olim bo‘ladi.

Asli ismi Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) Amir Temurning Eron va yaqin Sharqqa kilgan «besh yillik» yurishi paytida Ajam Iroqining Sultoniya shaxrida 1394 yilda dunyoga keladi. U temuriylar xonadonining suyukli farzandi sifatida yoshligidanoq saroy muhitida saroy ayonlari, olimlar, shoirlar ta’siri, ta’lnm va tarbiyasida ulg‘ayadi. Uning tarbiyasi shaxsan bobosi sohibqiron Amir Temur tomonidan nazorat qilinib, buvisi Saroymulkxonim enagaligida olib boriladi. Mirzo Ulugbek saroydagi eng yirik olimlar: Mavlono Axmad, Qozizoda Rumiy va boshqalardan sabok oladi. U kadimgi gonop mutaffakirlari va XI-XP asrlarda yetishib chiqqan yaqin va O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyo olimlarining asarlarini qunt bilan o‘rganadi. Mirzo Ulugbek, ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini matematika, geometriya, geografiya, kimyo,"astronomiyaga oid bilimlarni chuqur egallaydi. Natijada, yigirma yoshlarida o‘z davrining yirik olimlaridan biri bo‘lib yetishadi.

Mirzo Ulug‘bek 1411 yilda Movorounnahr va Turkistonning hokimi qilib tayinlanadi. U hokimlik kilgan davrlarda, mamlakat tashqi va ichki mudofaasini mustahkamlash bilan bir qatorda, Samarqand, G‘ijduvon, Buxoro shaharlarida ko‘plab madrasalar, masjidlar, turli ilm o‘choklari kurdirib, ilm-fanning rivojlalishiga katta e’tibor beradi. 1425-1428 yillarda Mirzo Ulug‘bek

Samarqandda, keyinchalik uning nomini jahonga mashhur qilgan rasadxona - observatoriyani kurdirib, o‘zining falakiyot maktabini yaratadi. U o‘zining bu maktabiga o‘z zamonasining eng buyuk olimlarini jalb qilib, ularga o‘zi boshchilik qilgan xolda, ilmiy tadqikotlar olib boradi. U o‘zining butun qobiliyat va iqdidorini, saloxiyatini xukmdorlikdan ko‘ra ilmiy faoliyatga ko‘proq qaratadi. Natijada, 1428-1438 yillar davomida o‘z ustozlari va shogirdlari bilan hamkorlikda olib borgan ilmiy kuzatishlarining yakuni sifatida uning shox asari - "Ziji jadidi Ko‘rogoniy" asari maydonga keladi.

Mirzo Ulug‘bekning bundan tashqari, yana «Bir daraja sinusni aniqlash hakida risola», «Risolai Ulug‘bek» kabi astronomiyaga oid, «Tarixi ulus arba’a» («To‘rt ulus tarixi»), uning muhtasari «Shajarai at turk» tarixga oid hamda bir necha musiqaga oid asarlari ham mavjud.

Nixoyat, Mirzo Ulug‘bek bobosi soxibqiron Amir Temur vafotidan keyin temuriyzodalar, maxalliy xukmdorlar, johil shariat peshvolari, xususan, ota-bola-shox va shaxzodalar o‘rtasida kurashlar oqibatida uning mansabparast o‘g‘li - Abdullatif tomonidan 56 yoshida 1449 yil 27 oktabrda fojiali o‘ldiriladi. U boshlagan ilmiy ishlarni uning shogirdlari: G‘iyosiddin Koshiy, Oloviddin Ali Ibn Muhammad Qushchilar va boshqalar tomonidan davom ettiriladi.

Mirzo Ulug‘bekning «Ziji jadidi Qo‘rog‘oniy» asari: kirish (nazariy qism) va to‘rgga katta boblardan iborat. «Kirish»ning o‘zi mustaqil to‘rt qismni o‘z ichiga olib, uning boshida «Qur’on»dan yulduzlar va sayyoralarga taalluqli oyatlar keltirilib, bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligi o‘sha davr g‘oyaviy talablaridan kelib chiqib asoslanadi. «Kirish»ning keyingi qismlarida bu ilmiy tadkiqotlar qanday maqsadda kaysi olimlar ishtirokida olib borilganligi, ularga muallifning minnatdorligi ilmiy tadkiqot qachon va qanday boshlanganligi, unda qanday ilmiy usullar va asboblar qo‘llanganligi va nixoyat, qachon tugaganligi yoritib berilgan.

Asarning birinchi bo‘limi - «Tarix, ya’ni xronologiyaning ma’rifati» deb atalib, uning o‘zi yetti bobni o‘z ichiga oladi. Bu boblarda islomda ko‘llaniladigan asosiy era-xijriy era bilan sur’yoniy-yunon erasi, ularda keltirilgan sanalar boshqa «jaloliy»erasi, xitoy va uyg‘ur erasi, xind-forsiy eralar bilan solishtirilib, ulardagi mashhur kunlar haqida baxs yuritiladi. Bu bo‘limda, shu bilan birga, turkiy muchal yillari hakida ham keng fikr yuritiladi.

Ikkinchi bo‘lim - «Vaktlar va ularga taalluqli narsalar» deb atalib, unda asosan, matematika va sferik astronomiya masalalari yoritiladi. Bunda olim ekleptikaning osmon ekvatoriga og‘ish burchagining aniq mikdorini topganligi - u 23 daraja 30 dakiqa, 17 soniya ekanligini yozadi. Bu miqdor O‘rta asrlar davri uchun nixoyatda aniq o‘lchangan mikdor edi.

Asarning uchinchi bo‘limi - 13 bobdan iborat bo‘lib, ularda faqat astronomiya masalalari: Quyosh, oy va boshqa besh sayyoraning harakatlari, «turg‘un yulduzlar»ning uzunlama va kenglama xolatlari yoritiladi. Muallifning bu bo‘limda keltirgan yulduzlar jadvallari o‘z davri uchun eng nodir va mukammal jadvallar bo‘lgan.

Niqoyat, «Ziji jadidi Kurogonishshing oxirgi to‘rtinchi bo‘limi, asosan, ikki bobdan iborat bo‘lib, u ilmi nujum astrologiyaga bag‘ishlangan.

Mirzo Ulug‘bekning bu asari o‘z davridagi eng mukammal astronomik asar sifatida tezda zamondosh olimlarning diqqat e’tiborini o‘ziga jalb qiladi va ular ijodiga ta’sir ko‘rsatadi. Uning qo‘lyozmalari tez orada Yaqin va Urta Sharq, Xitoy va Hindiston olimlari qo‘llariga ham yetib boradi.

Ulug‘bek vafotidan keyin Istambulga borib yashagan va ijod kilgan shogirdi - Ali Qushchi tufayli XVI asr o‘rtalarida bu asar Yevropa olimlari tomonidan lotin, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilinib, nashr etiladi.

Umuman, Mirzo Ulug‘bekning bu asari unda ilmiy kuzatishlar asosida ishlab chiqib keltirilgan astronomik jadvallar o‘zlarining ilmiy aniqliklari bir necha yuz Yil davomida Sharqu g‘arb olimlarini xayratga solib, astronomiya ilmida dasturulamal vazifasini o‘tab keldi.

Sobiq Sovet davrida Mizro Ulug‘bek va uning davri, uning astronomik ilmiy maktabi yuzasidan ma’lum kamchilik va cheklanganliklar bilan yozilgan Sharqshunos B.A.Bartoldning «Ulug‘bek va uning zamovdsi» (1918y) hamda akad. T.N.Qori-Niyoziyning «Ulug‘bekning astronomiya maktabi» (1950) monografiyalari yaratildi. Lekin marxum akad. I.M.Mo‘minov qayd

qilib o‘tganlaridek, O‘zbekiston mustaqillikka erishgungacha, Mirzo Ulug‘bekiing bu asari, uning astronomik maktabi, ilmiy merosi haqida «biror jidsiy monografik asar» vujudga kelmadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hamma tabiatshunoslar singari Mirzo Ulug‘bek ham o‘z dunyoqarashiga ko‘ra, moddiy. dunyoning inson ongidan tashqari va mustaqil mavjudligini, tabiat hodisalarining va butun koinotning, shubhasiz, o‘z qonunlari va qonuniyatlari asosida harakatllnishi va mavjudligini, shu bilan birga tabiat va jamiyat xodisalarining o‘zaro alokadorligi, ular hakidagi bilimlar kishilik jamiyatini rivojlantirish yo‘lida xizmat qilish zarurligini tushunib yetgan donishmand mutafakkirdir.

Mirzo-Ulug‘bek va u asos solgan astronomik maktabning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarini chuqurroq o‘rganish va tushunishda uning sodik shogirdi Ali Qushchining qarashlari va astronomiyaga oid yozgan asarlari g‘oyat kimmatli ahamiyatga ega.

Alaviddin Ali Ibn Muhammad Qushchi (XV asr boshi-1474 y.y.) Mirzo Ulugbek xali habt vaqtlaridayoq yirik olim sifatida tanilgan edi. Uning tabiiy-ilmiy fanlar, xususan, matematika va astronomiya fanlari rivojlantirishga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Ali Qushchining astronomiya matematika va falsafa soxalariga oid yozib koldirgan asarlarining umumiy soni 25 dan ortiqdir. «Arifmetika ilmi haqida risola», «Kasrlar» haqida risola», «Ali Muhammadiy» risolasi», «Ulug‘bekning yangi astronomik jadvallariga sharhlar», «Astronomiya ilmi haqida sharq kitobi», «Geometrik masalalarni yechish risolasi», «Mantik risolasi», «Azuziddinning falsafiy risolasining sharhlari», «Istiorat risolasi», «Mufradiyna risolasi», «Oysimon shakllarni yechish risolasi» va nixoyat, «Astronomik risola» kabi asarlar uning kalamiga mansubdir.

Ayniqsa, Ali Qushchining «Astronomik risola»si g‘oyat kimmatlidir. Uning mazkur asari mukaddima va uch bobdan iboratdir. Asarning mukaddimasi ikki kismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida xandasa (geometriya) ilmining asosiy tushunchalari: nukta, chizik, satx. to‘g‘ri va egri chiziqlar, larallel chiziklar, doira kabi tushunchalarning ma’nolari va ta’riflari beriladi. Ikkinchi qismida esa tabiatshunoslikka oid boshlang‘ich bilimlar bayon etilib, tabiatdagi hamma narsalar sodda va murakkab, osmon jismlari va yer jismlariga bo‘linadi. Osmon jismlari - yulduzlar olami ham yer jismlari ham to‘rt unsur (suv, o‘t, xavo va tuprok)dan paydo bo‘lgan deb ta’riflanadi. Dunyo xayvonotdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bir-birlari bilan uzviy bog‘likdir, deyiladi. Har bir karsa va jism oddiy va murakkab qismlarga bo‘linadi, ular bir doirada oddiy, boshqa doirada murakkab xolda sodir bo‘ladilar. Ular doimo harakatda, o‘zaro ziddiyatdadirlar Ali Qushchining bu yuqoridagi bayonida juda chuqur falsafiy fikrlar ifodalangan. Bu o‘rinda: mavjud dunyo moddiy narsalardan tuzilgan bo‘lib, ular oddiy va murakkab xoldadir, ularning o‘zlarida qarama-qarshiliklar ziddiyatlar va o‘zaro birga bo‘lish namoyondir, deyilgan. Ali Kushchi asarining muqaddimasi shu bilan yakunlanadi.

Ushbu asarning birinchi bo‘limi olti bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda osmoni falak, osmoni falakning soni va sifati ustida fikr yuritiladi. Osmoni falakda 9 ta davra (sfera) bir kurrani tashkil qildb, uning markazi Yerning ham markazi hisoblanadi, deyiladi. Bundagi katta falak-osmon (samo) ikkinchisi-yulduzlar doirasi uchinchisi - Zuhal (Saturn) doirasi to‘rtinchisi Mushtariy (Yupiter), beshinchisi-Mirrix (Mars) oltinchisi - Quyosh (oftob), yettinchisi - Zuxro (Venera), sakkizinchisi - Atorud (Merkuriy) va to‘kkizinchisi - oy doirasi (sferasi)dir. Falak doira (sfera)larini sanash bunda Oydan boshlanadi, deyiladi.

Ikkinchi bobda bu doira (sfera)larning eng kattasi va eng kichigi haqida, har bir doiradagi chiziklar, ularning parametrlariga xos muhim chiziqlar, ularning belgilari, ufk, kutb, sharq, g‘arb, shimol, janub; satx, zenit ko‘rsatkichlari, o‘lchovlari, iqlim kabi tushunchalar ustida fikr yuritiladi.

Uchinchi bobda esa sakkizinchi va to‘qqizinchi doira (sfera)dagi «harakatsiz yulduzlar» holati, ularning o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Ayni shu bobda Ali Qushchi Kuyoshning to‘rt fasldagi bir-biri bilan almashish qonuniyati haqida fikr yuritadi. To‘rtinchi bobda Oy, Oy kurrasi, uning satxi, olam va yer markazlari haqida, Quyosh (shams)ning ikki sferasi, bu sferaga kiruvchi planetalar: Zuxal, Mushtariy, Mirrix, 3uxro; Atorudlarning Quyosh sferasidagi 4 xil aylanishda ba’zilari G‘arbdan Sharqqa tomon, ba’zilari Sharqdan Rarbga tomon yo‘nalgan xolda harakatlanishi - aylanishlari haqida fikr bildiriladi. Shu bilan birga ular o‘z markazlari atrofida va tashqi Qu'yosh markazlari - Quyosh atrofida aylanadi, deyiladi.

Oltinchi bobda Quyosh, Oy va sayyoralarga oid muhim qoidalar, mulohazalar bayon etiladi. Bunda sayyoralarning o‘z markaziy tevaragida, o‘z davrasi ichida hamda Quyosh atrofidagi harakatlari, aylanishlari, bu harakat va aylanishlarning sabablari ulardagi harakatlarning tengligi, o‘zgarish va tiklanishlarining ma’lum tartibda am-alga oshirishlari ustida bahs yuritiladi. Bu bobda olim golduzlar, sayyoralar, Quyosh va Oyning qarakatlari, doiraviy harakatlari, yuqoriga va quyiga, aylanma harakatlari fazoda har bir sayyoraning o‘rni, bir-biridan uzoq-yaqinligi shu Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan kuzatishlariga asoslanib bayon qilinayotganligini kayd qilib o‘tadi. Shu bilan birga bunda bu haqdagi o‘z davri va ungacha bo‘lgan mashxur astronomlarning qarashlari, ta’limotlari, ular o‘rtasidagi munozaralar keltirilib, ular Ulugbek rasadxonasi xisoblashlari bilan takkoslanadi, rasadxona xisoblari ularning xisoblariga to‘g‘ri, zid yoki karama-qarshi kelgan jihatlarini ham bayon qilib o‘tadi.

Bu bobda eng muhim bayon kilingan masalalardan biri-Quyosh, va oyning tutilishi sabablarini ilmiy izoxlab gushuntirib berilganidir. Kitobning ikkinchi bo‘limi Yerga, Yerning tarkibi, iqlimi, ob-havosi masalalariga bag‘ishlangan. Bunda olim Yerni kurra (shar) shaklida, uning satxining ko‘pchiligi suv ekanligi, Yerning markazi olamning markazi bilan bir ekanligini, Yerning chegarasi yo‘kligini, Yer kurra shaklida va u hamisha Quyosh doirasida ekanligini aytib, Yerdagi narsalarning aylanish markazi Quyosh markazidir, deydi. Mazkur bo‘limda olim yana Yer kurrasining shimoliy va janubiy kutblari, ekvatori (xatti istvo), meridian chiziqlari (xatti ufg‘on) to‘g‘risida, iqlim va ob-havo, to‘rt fasl, ob-xavo va iklimning insonlarga ta’siri haqida ham o‘z fikrlarini bayon qiladi.

Asarning xotimasida Ali Qushchi bu asarini Ulug‘bek rasadxonasida ishlagan 1428 yildan 1438 yilgacha bo‘lgan ish faoliyati asosida yozganini qayd qiladi.

Xullas, gabiatshunos olim shfatida Ali Qushchi ham moddiy dunyoning insonga, inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan xolda mavjudligini, kosh-yutningundagi yulduzlar, planetalar, Quyosh. Oy va Yerning o‘zaro alokada o‘z qonunlari asosida o‘z markazi va Quyosh atrofida harakat qilishi, ularning markazi Quyosh ekanligini Yevropa olimlaridan 150-200 yil oldin o‘z ilmiy kuzatishlari asosida isbotlab, yozib qoldirgan edi. Lekin bunday ilmiy shijoatlar ham o‘sha davr feodal jamiyatining qolokligi temuriyzodalar va mahalliy xukmdorlarking hokimiyat uchun olib borgan kurashlari, keng xalq ommasining ma’rifatdan, ilm-fandan yiroqligi, diniy xurofotning kuchliligi ba’zi johil ruhoniylarning ilm ahllariga nisbatan kurashlari tufayli yuzaga chiqmay qoldi.

Shunday qilib, Ulug‘bek astronomik ilmiy maktabining erishgan tabiiy-ilmiy va falsafmy qarashlari Ali Qushchidan keyin Markaziy Osiyodan tashqarida Hindiston. Eron, Turkiyada, G‘arbiy Yevropada esa XVI asrdan boshlab davom ettiriladi va rivojlantiriladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin 1994 yilda Prezidentimiz I.Karimov farmomi bilan Mirzo Ulug‘bek tavaludining 600 yilligi o‘tkazilib, mamlakatimizda va xorijda YUNESKO qarori asosida Parijda ilmiy konferensiyalar bo‘lib o‘tdi va shundan boshlab Mirzo Ulugbekning tabiiy ilmiy va falsafiy qarashlarini hakiqiy ilmiy o‘rganish boshlandi.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur va temuriylar davri Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy tafakkur taraqqiyotida o‘ziga xos falsafiy fikrlar bosqichini tashkil etadi.

Temuriylar davri falsafasida Alnsher Navopp (1441-1501)ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari aloxida o‘rin tutadi. Alisher Navoiy temuriylar davrining ziddiyatlar avj olgan davrida yashab ijod kildi. Uning falsafiy qarashlari "Hamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-kulub", "Muhokamatul-lug‘otayn", "Lisonut tayr" kabi asarlarida bayon etilgan. Uning falsafiy qarashi borliqning birligi ta’limotiga asoslanadi. Alisher Navoiy koinotdagi eng yetuk vujud inson deb xisoblaydi. Inson butun borliqning ko‘rki va sharafidir. Uning inson haqidagi qarashlari negizida farovonlik va osoyishtalik xukm surgan jamiyat va odil shoh to‘g‘risidagi g‘oyalar yotadi. Alisher Navoiy naqshbandiya tariqaini e’tirof etgan ijodkordir. U tasavvufning salbiy akida va odatlarni tanqid qiladi, zoxidlikka qarshi kurashadi. Uning qarashlarida bilish nazariyasiga oid fikrlar mavjud bo‘lib, bilishning asosiy maqsadi borliqni, tabiatni, insonning o‘zini o‘rganib yomonlikni yo‘qotish, yaxshilikni ko‘paytirishga qaratilganligi deb xisoblaydi u.

Sharq falsafasining mazkur davri Xitoy, Hindiston va Yakin Sharq mamlakatlarida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar bilan uyg‘unlikka ko‘ra o‘z ifodasini topgan. Bu

davrga kelib, Xitoy falsafasida bir qator yangi okimlar va yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu okimlar moxiyatan Konfutsiy qarashlari bilan bog‘langan bo‘lishiga qaramasdan ularning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud edi. Xuddi shunday xususiyatlarni biz Hiidiston va Yaqin Sharq xalqlari falsafasida ham kuzatamiz. Markaziy Osiyoda esa bu davr nihoyatda ziddiyatli tarzda ko‘rinadi. Bu davr boshlariga kelib Buxoro amirligi, Xiva va Ko‘qon xonliklari shakllandi. Ayni vaqtda bu xonliklar iqtisodiy hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Chunki, Markaziy Osiyo iqtisodiyeti va uning ijtimoiy hayoti shakllangan kalitalistik ishlab chiqarish munosabatlari bilan ma’lum darajada boglangan edi. Bu davrdagi falsafiy qarashlar haqida gal ketganda biz uni ikki yo‘nalishga ko‘ra qarab chikamiz.

Birinchi yo‘nalishni Movorounnahrning o‘zida ijtimoiy-falsafiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tashkil etadi. Bu davrning ko‘zga ko‘ringan faylasuflari qatoriga Mirzajon SHeroziy, Yusuf Qorabogiy, Muhammad Sharif Buxoriy va boshqalarni kiritish mumkin. Ular o‘z ijodlarida falsafaning, tarixning, tilshunoslikning hamda islomshunoslikning muhim muammolarini hal qilishga harakat qildilar. Ularning asarlarida davr ziddiyatlari muhimroq bo‘lgam islom mafkurasi bilan bog‘lik xolda tushuntirdilar. Ayniqsa ularning ijodida inson, uning bilish imkoniyatlari, xaqikat masalasi muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchi yo‘nalish falsafiy taraqqiyotini biz Hindistonda, Eronda, Afg‘onistonda ijod qilgan Markaziy Osiyolik faylasuf va mutafakkirlar ijodida ko‘ramiz. Ular orasida muhim o‘rinni Mirzo Abdul qodpr Bednl egallaydi. U 1644 yilda Hindistonning Azimobod shaxrida tug‘ildi va umrining oxiriga kadar Hindistonda fan va adabiyot bilan shug‘ullandi. Bizga uning "Chor unsur", "Nuqot", "Irfon" kabi falsafiy asarlari hamda adabiyotshunoslikka oid bir qator asarlari yetib kelgan.

Bedil o‘zining falsafiy qarashlarida Sharq ana’anasiga xos peripatetikani davom ettirib, olamning bir tomondan abadiyligi, ikkinchi tomondan esa uning muntazam o‘zgarishda mavjud ekanligini tadqiq qiladi. Uning fikriga qaraganda borliqning substansiyasi hisoblangan materiyaiing boshi ham, oxiri ham. yo‘q. Uning falsafiy qarashlari asosida "Vaxdati mavjud" (hayotning bir butunligi) yotadi, hayotning bir butunligi esa olamning bir butunligidan kelib chiqadi. Olamning bir butupligi ayni vaktda xudoning ishtiroki bilan amalga oshadi.

Bedil falsafasida insonning bilish imkoniyatlarini tadkiq qilish alohida o‘rin egallagan. Uning fikricha bilishning birinchi bosqichi, uning mohiyati va imkoniyatlari insonning hissiy sifatlari bilan uzviy bog‘langan. Insonning hissiy sifatlari individuallik harakteriga ega. Shu bois har bir inson chegaralangan xissiy imkoniyatlarga va xissiy olam dunyosiga ega. Aql, tafakkur esa Bedil fikricha tafakkurning mukammal yuqori bosqichi hisoblanadi. Bedil falsafasining muhim jihatini bilishning hissiy va aqliy bosqichlari o‘rtasidagi diadektmk bog‘lanish tashkil qiladi. Bu o‘rinda u bilimning roliga juda katta ahamiyat bergan. Shu o‘rinda bir narsani aloxnda ta’kidlash kerakki, Bedil, millat taraqqiyotini insonning olam tizimida tutgan o‘rnini ushshg egallagan bilimi bnlan o‘lchash kerakligi haqida gapiradi.

XUP-XUSH asrlar falsafasida Boborahnm Mishrab (1640-1711 )ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari alohida ahamiyatga egadir. Mashrab fakat otashzabon ijodkor sifatida emas, balki ayni zamonda adolatsizlik jaholat bilan asdo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida el orasida juda katta xurmat va e’tiborga ega bo‘lgan shaxsdir. Uning o‘z asarlarini to‘plab devon yoki biror majmua tuzganligi ma’lum emas. U ijodidagi ijtimoiy mazmundorlik va kuchli tankidiy yo‘nalish shoirning ilgor dunyoqarashi, xalqchil falsafasi, zamopasidagi salbiy vokea-xodisalarga aniq tanqidiy munosabatidan shakllangan. Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g‘oyalar ham o‘sha zamonda keng tarkalgan qalandarlik tariqatining ayrim oxalglari ham sezilarli o‘rin egallaydi. U islomning asosiy nazariy qoidalarini shubhasiz kabul etadi. Ammo ayni zamonda islom ta’limotning bir qator zoxiriy belgilarini birlamchi deb xisobyaangan qonun-qoidalarini. shariatning ayrim ko‘rsatma-talablarini, farz sunnatlarini tan odmaslik va past nazar bilan karash qam ko‘zga tashdanadi, ayrim diniy rukn-tushuncha va mukaddas deb bilingan marosim va odatlarga, talqin va akidalarga shubxa bilan qarash, xatto ochiqdan-ochik mensimaslik xolatlari ham uchraydi. Mashrabning falsafiy qarashlarida inson, uning hayoti, uning kadri-muammosi markaziy o‘rinni egallaydi. Uning bir guruh asarlari asosida tashvish va lazzatlarga to‘la insoniy sevgi

Yotganligini ko‘ramiz. Uning falsafasidagi mazkur yo‘nalish inson falsafasini bilish va tushunishda juda katta rol o‘ynaydi.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. Yangi davr Sharq ma’naviyatida fan qanday rol o‘ynadi?
2. Yangi davr Sharq ma’naviyatida fan rivojining zaminlarini ko‘rsaib bering.
3. Amir Temur davri va yangi davr Sharq ma’naviyatida fan taraqqiyoti.
4. Amir Temur davri va yangi davr Sharq ma’naviyati taraqkiyotining uzviy bog‘likligini nimada ko‘rish mumkin?
5. Alisher Navoiy gumanizmining yangi davr Sharq ma’naviyati taraqqiyotidagi o‘rnini nimada ko‘rish mumkin?
6. A.Bedil falsafiy qarashlari va yangi davr Sharq ma’naviyati tarakqiyotining o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rish mumkin?
7. A.Bedil qarashlarida inson muammosi qanday o‘rin tutgan?
8. B.Mashrab ijodida xurfikrlik qanday shaklda ifoda etilgan?
9. Mashrab ijodida din va muslim munosabati qanday o‘rin egallagan?

**Adabnyotlar ruyxati:**

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. -T.: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barkaror taraqqiyot yo‘lidan. T.6. -T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axlok- -T.: O‘qituvchi 1992.
5. Jumaboyev Y. O‘zbekistonda falsafa va ahlokiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. -T.: O‘qituvchi 1997.
6. Malik Murod. O‘zbek qadriyatlari. -T,: Cho‘lpon,1995.
7. Mustakillik; ilmiy, izohli, ommabop lug‘at. -T.:Sharq 1999.
8. Falsafa. O‘kuv qo‘llanma. -T., Sharq1999.
9. Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
10. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
11. 11.S.Yo‘ldoshev va boshq. Yangi va engyangi davr Rarbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.

## 7-mavzu: YANGI VA ENG YANGI DAVR G‘ARB MA’NAVIYATIDA INSON, JAMIYAT VA DAVLAT MUAMMOSI

REJA:

1. **Yangi va eng yangi davr g‘arb ma’naviyatida nnson muammosi.**
2. **Yangi va eng yangi davr G‘arb ma’navnyatpda jamiyat muammosi.**
3. **Yangi va eng yangi davr G‘arb ma’naviyatida davlat muammosi.**

XVII -XVIII asrlar G‘arbiy Yevropa taraqqiyotida yaigi davr hisoblanadi. Bu davr Yevropa mamlakatlarida O‘rta asrchilik feodal munosabatlari tutatilib, kalitalistik munosabatlar to‘lik qaror topadi va rivojlana boshlaydi. Kalitalistik ishlab chikaraish extiyoji tabiatni, insonning o‘zini, jamiyatni ilmiy o‘rganish. bilishni takazo qiladi va uni o‘rganishni tezlashtiradi. Dengizlarda savdo munosabatlarining o‘sishi kemasozlikning rivojlanishiga, kemalar Yer shari bo‘ylab ilmiy ekspeditsiyalarning uyushtirilishi, yangi yerlar, yangi qit’alarii ochilishiga olib keladi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshumoslik bilimlari, mexaniqa, matematika, fizika, kimyo, astronomiya sohalarida yangi-yangi tadqiqotlar olib borilib, O‘rta asr sxolastikasi va diniy akidalarni uloktirib tashlanadi. Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Bunda nemis olimi Keplerning sayyoralarning harakati, qonunlarining ochishi, ingliz odimi Isaak Nyutonning olamning tortilish qonunlarini kashf etilish, ingliz faylasufi F.Bekon tomonidan insonning dunyoni

bilishdagi muhim rol o‘ynovchi induktiv metodni ishlab chiqishi, fransuz olimi Rene Dekartning inson bilimining hosil bo‘lishiga oid detuktiv metodni asoslab berishi muhim rol o‘ynaydi. Shular asosida bu davr falsafasida metafizik va metamexanistik materializm karor topadi. Megafizik va mexanistik materializmning namoyondalari F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs fransuz faylasuflari R.Dekart, P.Kobak, Lametri va Gelvetsiy qarashlarida o‘zining yorqin ifodasini topadi.

Bu yangi davrda tabiatni bilishga intilishning kuchayishi natijasida falsafada empirik va ratsionalistik oqimlar vujudga keladi. Empirik oqimning asoschisi F.Bekon hisoblanadi. Uning qarashicha, tabiatni bilshning manbai bu - tajriba, eksperiment, kuzatishdir. Inson sezgi a’zolari orqali tabiat to‘g‘risida hosil qilingan faktlar, dalillar va ma’lumotlarni tajriba orqali tekshirishi, aniqlashi, undagi hato va kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Shu asosda insoning tabiat to‘g‘risidagi to‘g‘ri, to‘liq bilimlari hosil bo‘ladi.

F.Bekonning falsafa va fan tarixidagi eng katta hizmati - uning inson bilishining induktiv metodini ishlab chiqishidir.

Ratsionalistik oqimning asoschisi fransuz faylasufi Rene Dekartdir. Dekart ta’limoticha, insonning tabiatni bilishining birdan-bir to‘g‘ri metodi bu aqlga asoslangan deduktiv metoddir.

Dekart o‘zining bu qarashlarini «Metod to‘g‘risida mulohazalar» asarida bayon qiladi. U o‘z asarida insonning tabiatni bilishida quyidagi talablarni ilgari suradi;

Haqiqat, deb qaralgan bilim fakat aql nuqtai nazaridan aiiq, ravshan, shubhalardan xoli bo‘lgan nazariy xulosalari asosida chiqarilgan fikrlar bo‘lmog‘i lozim.

Har bir murakkab muammo yoki masalani ularning tarkibini tashkil qilgan muammo va masalalarga ajratish, bo‘lish lozim.

Bilishda isbot bo‘ladigan, ma’lum bilimlardan hali noma’lum va isbot qilinmagan bilimlarga o‘tib borish zarur.

Tadkiqot hakidagi fikrlar - bilimlarni taishkil etgan Mantiqiy xalqalardan xulosa chiqarishda birontasi ham tushirilib yoki e’tiborsiz koldirmasligi lozim. Dekartning qarashlariga ko‘ra inson bilishining birdan-bir manbai - bu tafakkur, aqliy saloxiyatidir. Uning qarashicha, insonning sezgi a’zolari, tajribalari hamma vaqt ham to‘g‘ri bilim beravermaydi, shu sababli ularga inson o‘z bilish jarayonida to‘liq ishonmasligi zarur.

O‘rta asrlarda Ovrupoda yuz bergan Uyg‘onish davri G‘arbda ijtimoiy hayotning turli soxalarida taraqkiyotni tezlashtirib yubordi. Uyg‘onish davrining asosiy g‘oyalari, garchi diniy-axloqiy cheklovlarga qarshi kurash, harbiy va siyosiy kudratni mustahkamlash, ilm-fan, ijodkorlikka keng yo‘l ochishga qaratilgan bo‘lsa-da, keyinchalik inson intilishlarining barcha tomonlarini kamrab oldi. O‘sha vaqtlarda G‘arbiy Ovrupo mamlakatlarining barchasida ham boshqaruv masalasida cherkovning ta’siri juda kuchli bo‘lib, davlat ahamiyatiga molik har qanday masala uning ishtirokida hal etilar edi. Hatgo davlat rahbarlarini tayimlash masalasini ham ba’zida cherkov xal qilardi. Bunday tartib nafaqat kuyi tabaqa, balki oliy tabaka vakillariga ham yoqmas, cherkov huquqlarining cheklanishi ular uchun katta imkoniyat ochib berar edi. Ana shu maksad sari intilish XUIII-XIX asrlarda G‘arbiy Ovrupo davlatlarida zodagon tabaqa vakillari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan inqilobiy g‘oya va harakatlarni yuzaga keltirdi. Bu harakatlar jamiyat hayotiga ta’sir qilib, asta-sekin davlat boshqaruvining cherkov ta’siridan ozod bo‘lishi, ayni vaktda din vakillari tomoni-dan belgilanadigan inson huquqlarining dunyoviy hokimiyat idoralari ixtiyoriga o‘tishiga olib keldi.

Din vakillari ishtirokidagi ilgarigi boshqaruv inson manfaatlari masalasiga shyuhiylashtirilgan qonun-koidalar asosida e’tibor qaratar, ya’ni hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar bo‘yicha ularning diniy aqidalarga kanchalik mos yoki mos emasligidan kelib. chiqkan holda xukm chiqarar edi. Shu bilan birga, ma’naviy qadriyatlar, axloq-odob, dunyoqarash borasida ham diniy qarashlar xukmronlik qilar edi. Cherkov va davlat xokimiyati o‘rtasidagi munosabatlarga darz ketishi boshqaruv masalasida uzok vaqt davom etgan kurashlarga sabab bo‘ldi. Oxir-oqibatda xalqqa yon bosgan davlat xokimiyati cherkovdan ustun keldi. Shundan e’tiboran G‘arbda feodal jamiyat barham topdi. Uning o‘rniga vujudga kelgan kalitalistik tuzum o‘z manfaatlari yo‘lida diniy akidalar takiklab kelgan juda ko‘p erkipliklarni asta-sekin qonuniylashtira boshladi. Demokratiya yo‘lidagi ommaviy kurashlar aynan ana shu davrlarda boshlandi. Davlatlarning parlamentar shaklga

o‘tishi, konstitutsiyaviy qonun-qoidalarning joriy etilishi bu kurashlarni ommaviy namoyishlar, xatto davlat kuchlari bilan to‘qnashuvlar darajasiga olib chikdi.

Hozirgi rivojlangan G‘arb tamaddunining asosi inson manfaatlari masalasi bilan bog‘liq ana shu erkinliklarni ximoya qilish zaminida karor topdi. Shaxs erkini qonunlashtirish G‘arbning madaniy jihatdan gullab-yashnashiga sabab bo‘ldi. Savdo-sotiq rivojlandi, insonning yaratuvchilik kobiliyati keng namoyon bo‘lib, ilm-fan taraqqiy topdi.

Albatta, bu taraqqiyot va uning rivojlanish tezligi sifat va saloxiyatda ilgorlikka intilayottan boshqa mintaka mamlakatlariga ham ta’sir qilmay kolmas edi. Bundan tashqari, XX asr avvalida paydo bo‘lib keyinchalik Birinchi jaxon urushiga sabab bo‘lgan dunyoni qayta taqsimlash, yerosti boyliklariga egalik qilish istagi dunyoni g‘arblashtirish g‘oyasini yangi asosda rivojlantirishni zaruratga aylantirdi.

Bu masalaga chuqurrok nazar tashlaydigan bo‘lsak, Rarbiy Oyerupo xalqlari, garchi inson hukuq va erkimliklari yo‘lida mashakkatli kurashlar olib oorgan, bu borada salmoqli yutuklarga erishgan bo‘lsa-da, aslida bu natijalar boylik va kuch-kudratga asoslanishi ayon bo‘ladi. Boylik va kuch-kudratga esa — bu hech kimga sir emas — boshqa xalqlarni talash, ularning erkinliklarini oyokosti qilish, har tomoilama o‘ziga qaram etish hisobiga erishiladi. Insonga erk berish, bu masalani "birinchi bo‘lib kashf etish" g‘oyalari borib-borib — ayollar emansipatsiyasi uchun kurash jarayoniga ulanib ketdi va bu harakat XIX asr oxirlariga kelib avj nuktasiga yetdi.

Ammo insoniyatning necha ming yillik hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkinlik, bir tomondan, inson kamoloti uchun sharoit yaratib, iste’dodlarning ro‘yobga chiqishi, ilm-fan va texnik taraqqiyotning gullab-yashnashi, goksak iqtisodiy taraqqiyotga sabab bo‘ldi, ikkinchi tomondan, necha asrlar davomida shakllangan ma’naviy qadriyatlarga bepisand qarash, milliy an’analardan voz kechish, misli ko‘rilmagan axloqiy inkirozlarga olib keldi.

Ma’lumki, inson bu yorug‘ dunyoda yakkamaxov bo‘lib umrguzaronlik kila olmaydi, aksincha, uning barcha fazilatlari jamiyat ichida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyat esa muayyan urf-odat, axlok-odob me’yorlari, xatti-harakat qoidalari, ijtimoiy tartiblarga bo‘ysunishni, burch va mas’uliyatni xis etishni, oila sha’ni, vatan, millat sharafi uchun kurashib yashashni taqozo qiladi. Bordiyu inson butunlay moddiy ehtiyojlar quliga aylanib qolsa, hayvondan farki qolmaydi.

Hamma narsani moddiy boylik, manfaat bilan o‘lchash falsafasi G‘arb xalqlari madaniyati va ma’naviyatida ko‘plab buzilishlarga sabab bo‘ldi. Bunday salbiy jarayon uch yuz yil davomida ijtimoiy, ilmiy-texnik taraqqiyotni ko‘zlab qonunlashtirilgan erkishshklar, kuch-qudrat va har qanday moddiy boylikni, hatgo tana go‘zalligini ham, odob-axloq va ma’naviy go‘zallikdan ko‘ra ustun ko‘yishni fazilat sifatida namoyish qilish oqibatida kelib chiqdi. Shu tariqa jismoniy va aqliy kuch, tashki sifat barcha muammolarni hal etish vositasiga aylanib bordi. Lekin odob-axlok, ma’naviyat kabi inson ruhoniyatiga tegishli xususiyatlar erkinliklarni qonunlashtirish jarayonida borgan sari o‘z o‘rnini yo‘qotib bordi. Oqibatda XX asrning ikkichi yarmida G‘arb dunyosida ma’naviy qadriyatlardan begona avlod vujudga keldi. Asosiy intilishlarini sivilizatsiya, taraqqiyot sohasidagi yetakchilikka, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, madaniy, texnologik ustunlikka qaratgan Ovrupo tamadduni erkinliklarning ma’naviy sifatiga yetarlicha e’tibor kilmadi va bu holat hozir ham davom etmokda. Ma’naviyatdagi bunday oksoklik uzok yillar davom etgan texnokratik dunyoqarash soyasida bilinmay keldi. Ko‘p asrlar mobaynida diniy an’analar va ular belgilab bergan koidalar asosida yashab kelgan Ovrupo sivilizatsiyasi hakiqiy taraqqiyotni boylik va kuch-kudratga b\;lgan ehtiyojni qondirishda deb bildi, insonga barcha sharoit hamda imkoniyatlarni shu tarika yaratib berishga karatilgan urinishni "ma’naviy va’zlar"dan xalos qyladigan vositaga aylantirib bordi.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlardan uzoklashish, ayollar erkinligi, ularning haq-hukuqlarini erkaqlarniki bilan tenglashtirishga urinish XX asrning 60-70-yillariga kelib G‘arbda yuksak darajaga ko‘tarildi. Boylik va kuch-kudratning birinchi o‘ringa chiqishi, chegarasiz, tiyiqsiz erkinliklar nafakat ayollar, balki erkaqlar ma’naviyatida ham buzilishlarni kuchaytirib gobordi va bugungi axloq, to‘g‘rirogi, axloksizlik ana shunday manbalardan oziqlandi, deyish mumkin.

"Ma’no axtarib" kitobini o‘kigan har qanday odam bugungi Ovrupo haqida ana shunday tashvishli manzaralarni ko‘z oldiga keltiradi. Kitob iste’fodagi polkovnik A.YE.Machexin

tomonidan tuzilgan. Unda turli davr va xalqlarning 1300 nafar mutafakkir donishmandi, shoiru olimlarining fikr-mulohazalari jamlangan. Tavrot, ynjil, Qur'on, Talmut hikmatlari, Budda nasixatlari ham keltiriladi.

Mazkur hikmatlarda inson va uning xilqati, hayot, umr ma'nosi, odamiylik haqiqatlari, tiriklik va o'lim, ma'naviy yuksalish va ahlokiy tanazzulning sabab-oqibatlari hakida mushohada yuritiladi. Quvonarlisi shundaki, kitobdan yuzdan ortik Sharq donishmandlari, jumladan, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Nodira, Oybek kabi o'zbek allomalarining fikrlari ham o'rin olgan. Unda bir-birini to'ldiradigan, bir-biriga zid fikrlar qam bor. Olam va rdam munosabati, takdiri azal hukmi va unga chal berish ilinjidagi harakatlar, ruxiy erkinlikii qo'msash, muxabbat va iafrat, fojia va baxt keltiradigai xodisalar haqida kishini chuqur o'yga toldiradigan fikrlar jamlangan. Optimistlar va pessimistlar, materialistlar va idealistlar ham, donishmald gumanistlar, hatto axlokii, ma'naviyatni rad etadigan olimlarning qarashlariga ham o'rin berilgan.

1. Kitob "Ming yilliklar xikmati" turkumida chop etilgan. Shu bois uni o'kiganda bamisoli insoniyatnimg tafakkur tarixi, dardu xasrati, o'zini anglash bosqichlari bilan tanishganday bo'lasiz. Unda jamlangan fikrlar aslida insoining Inson uchun kurash tarixidir. Abu A'lo, Umar Xayyom. Jomiy, Navoiyning goyalari, Aflotun. Lrastu, L.Tolstoy, I.Ilinniig karashlari bilan mushtarak, uyg'un bo'lib ketadi.
2. Aypiqsa, XX asrga kelib, insoniyatning ma'naviy inkirozga yuz tutishi faylasuflar, adiblar, umuman qalbi nozik insonlarni qanchalik bezovta qiyagani ham mutolaa jarayonida yaqqol seziladi. Kitobpi o'qiganingizda buni chuqur xis qilish barobarida bunday inqirozlan kutilish yo'llari haqida altilgan umidbaxsh fikrlarga ham duch kelasiz.

**O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. 1XUP-XUSH asrlarda fransuz faylasuflari tomonidan inson muammosi qanday xal qilingan?
2. Valter va Gilvetsiy faosafasida inson erkinligi qanday yo'nalishlarga ko'ra bayon etilgan?
3. G'arb manaviyatida shaxs va jamiat munosabatiga ko'ra XUShda qanday qarashlar ustuvor xisoblangan?
4. Russo kanashlarida kishilar o'rtasidagi tengsizlik masalasi qanday xal qilingan?
5. Fransuz marifatparvarlari dinni qanday darajada va qamday manoda tankid qilganlar?
6. Ijtimoiy shartnoma nazariyasining mazmunini tushuntirib bering?
7. Davlatning tabiiy paydo bo'lishi nazariyasini tushuntirib bering?
8. XVIII asrda Yevropada shakllangan qanday gumanistik tamoillarni bilasiz?
9. XVIII asr marifatparvarlari tomonidan feodalizmning qanday sarqitlari tanqid qilingan?

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Karimov I.A. O'zbekiston ningo'z istiqlol vatarakqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston 2003.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. -T.: O'zbekiston 1997.
4. Sulaymanova F. Sharq va G'arb . -T.:,1997.
5. Falsafa. Ukuv qo'llanma. -T., Sharq1999.
6. Falsafa. Ma'ruzalar matni. -T., 2000.
7. Falsafa. Ma'ruzalar matni. -T., Moliya instituti 2000.
8. Erpo'lat Baxt. Jamiyat va shaxs manfaati aks etadi. - «Fidokor», 2004 yil, 24 avgust.
9. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafatarixi. T-; 2002Y. (241-268; 267-366 betlar)
10. S.Yo'ldoshev va boshk. -Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.

## 8-mavzu: XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA SHARQ MA’NAVIY HAYOTIDA DEMOKRATIK QARASHLAR VA QADRIYATDAR

**REJA:**

1. **Markaziy Osiyoda demokratik falsafiy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi.**
2. **Jadidlar va ularning ijtnmoiy hayotdagi o‘rni va roli.**

XIX asrning ikkinchi yarmi boshlarida Turkistonpi Chor Rossiyasi bosib olib, o‘zining mustamlakasiga aylantirdi. Butun Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining ko‘p yerlari Rossiya ixtiyoriga o‘tdi. Bosib olingal yerlarda 1867 yili Turkiston general-gubernatorligi joriy kilindi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi Chor Rossiyaning vassaliga aylantirildi. Bosib olingan yerlardan rus G‘arbiy chinovniklarm Turkistonning moddiy, madaniy va ma’naviy boyliklarini, tarixiy yedgorliklar, noyob qo‘lyozma asarlarini Rossiyaga olib ketishdi. Rus zobitlari va amaldorlari xalqni shafqatsizlik bilan taladilar, otdilar, chomdilar, kirdilar. Oqibatda, o‘z mustamlakachilik siyosatini o‘rnatdilar. Chor Rossiyasi qo‘shinlarining maxalliy xalq bilan olib borgan urushlari, qirg‘inlarida, maxalliy axolining kattik karashligi, o‘z shaharlari va kishloklari uchun jon olib, jon berib kurashishlari natija bermadi - Rossiya Turkistonni bosib olishga erishdi. Buning sabablari juda ko‘p edi: Birinchi sababi - Rossiya harbiy qurollar jihatidan juda katta ustunlikka ega edi. Bosib olishning uzoq tayyorlangan taktika va strategiyasiga ega edi.

Ikkinchi sabab - Turkiston xalqlari maxalliy hukmdorlarning o‘zaro urushlari, bosqinlaridan juda charchagan, tolikkan edi. Buning ustiga, maxalliy xukmdorlar o‘rtasida birlik, hamjihatlik yo‘k edi. Ular mahalliy axolining boshini qovushtirib, o‘z dushmaniga qarshi jangovor xolda uyushgan kurashni tashkil qila olmadilar.

Uchinchi sabab - Mahalliy xukumdorlar xalqni har xil soliqlar bilan va boshqa yo‘llar bilan shafqatsiz talab, ezib, ularga e’tibor bermay, o‘zlarining tor manfaatlari bilan o‘ralib, maishatga berilib ketgan, mamlakat tashqi dunyodan deyarli ajralib qolgan edi.

To‘rtinchi sabab - Turkiston bu davrda ham siyosiy, ham iqtisodiy va ham madaniy jixdtdan qolok, feodal tartiblar va din hukmron o‘lka edi. Chor Rossiyaning Turkistonni bosib olishining asosiy sababi: bu yerning tabiiy, geografik boyliklarini ko‘lga kiritish - oltini, paxtasi, pillasi, korako‘li kabi dunyo bozori uchun eng qimmatli mollarga ega bo‘lish, o‘z mollari uchun yangi bozorga ega bo‘lishi, eng asosiysi va eng muhimi - jahon bozori va o‘z ichki zavod va fabrikalariga xomashyo yetishtirish uchun tekin ish kuchiga ega bo‘lish, nihoyat, o‘z mustamlakalarini kengaytirib, jaxonda o‘z mavkeini mustaxkamlashdan iborat edi. Uzining bu maqsadlarini amalga oshirishda Chor xukumati Turkiston xalqini ham iqtisodiy, ham siyosiy koloklikda, qaramlik va nodonlikda, huquksizliqda saqlab turushdan juda manfaatdor edi. Shu sababli Chor Rossiyasi Turkistonda uning hamma boyliklaridan, resurslaridan foydalanish siyosatini amalga oshirishga karatila mustamlakachilik ijtimoiy-iqtisodiy tizimni joriy etib, o‘z maqsadini turli xil usullar, yo‘lar va vositalar asosida amalga oshira boshladi. Ular maxalliy aholini fukaro deb emas, balki "tuzemlar" deb atashdi. Chorizm mahalliy xalqlar madaniyati va ma’naviy rivojlanishiga butun choralar bilan qarshilik ko‘rsatib, ularni bid’at, jaholat va xurofatda saqlab t)'rishga intildi. Shu sababli faqat diniy ilmlar beradigan madrasalar va maktablargagina ruxsat berib, uzok muddat dunyoviy bilimlar beradigan maktab, madrasalar ochishga ruxsat bermay keldi. Lekin Turkistonning bosib olinishi bilan rivojlanib kelayotgan rus kalitalizmi va u orqali Yevropa mamlakatlari erishgan iqtisodiy, madaniy va texnikaviy yutuqlar Turkiston xududiga ham kirib kela boshladi. Bu yerlardagi yirik shaharlarda rus madaniyati tashkilotlari, yangi savdo, bank, telefon, elektr kabilardan foydalanish, temir yo‘llar, xomashyo tayyorlaydigan zavod va fabrikalar qurila boshlandi, gazeta, jurnal va kitob bosish yo‘lga ko‘yildi. Bular asosida XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xalqlarining siyosii, iqgisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma’naviy hayotida katta tarixiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Siyosiy o‘zgarishlar shundan iborat bo‘ldiki, yangi boshqaruv siyosiy tuzilmalar - uyezdlar, bo‘linmalar, volostlar tashkil topdi. Ko‘pdan beri

mamlakatni xonavayron qilib kelgan xorijiy istilolarga, mahalliy xukmdorlarning ichki o‘zaro boskinlari, urush va janjallariga xotima berildi. Iqgisodiy-ilsgamoiy o‘zgarishlar shuidan iborat bo‘ldiki, Chor Rossiyasi o‘z mustakamlasiga aylantirilgan Turkiston xududida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi uchun ko‘lay shart-sharoitlar yarata boagladi. Natijada, o‘tmishdagi feodal xo‘jaliklari bikikligi tugatilib, moliya, kishlok xo‘'jaligi, ayniksa. paxtachilikning rivojlanishiga katta e’tibor berila boshladi.

Madaniy - ma’naviy sohadagi o‘zgarishlar esa shundan iborat bo‘ldiki, Turkistonda feodal tartiblarining o‘zgarishi madaniy yuksalishga bo‘lgan mahalliy halqning intilishi rus kalitalistik munosabatlari bilan birga, Yevropa va Sharq mamlaktlarida ro‘y berayotgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning turli yo‘llar bilan kirib kelishi asosida sodir bo‘la boshladi. Bunda jahondagi, xususan, yaqin Sharq mamlakatlaridagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlar Rossiya orqali kirib kelayotgan Yevropa madaniyati yangiliklari Turkiston xalqlari madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazish. Chor Rossiyasining yangi mustamlakasi - Turkiston xalqlariga nisbatan mustamlakachilik siyosati, maxalliy axolining o‘zok davr jaholatda, ma’rifatdan yirok ushlab turilishi, ularning xaqsiz, huquqsiz ezilib, kamsitilib, xo‘rlanib kelinishi o‘lkada xalqning ilg‘or vakillari o‘rtasida ma’rifatchilik harakatining tug‘ilishga olib keldi.

Bu harakat vakillari Turkistonda paydo bo‘layotgan yangi madaniyat xodisalariga o‘z munosabatlarini bildib, mustamlakachilik siyosatining ayrim tamonlarnni tankid kilib xalqka o‘tkazilayotgan jabr-zulmga qarshi chiqib, xalqning bu ahvolga tushishi uning bilimsizligi, ma’rifatdan yiroqligi, shu tufayli xalqni ma’rifatli qilish, ilmli qilish g‘oyasini ilgari surishib, uni madaniyatni egallashga, ma’rifatli bo‘lishga chakirdilar.

Ular o‘z qarashlarida xalq ommasining-dexkonlarning, shahar xunarmandlarining mayda savdogarlarping malfaatlarini himoya qilib maydonga chiqdilar. Xullas, XIX asrping oxiri XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar asosan shu ma’rifatchilar-ma’rifatparvarlar njodida, ular asarlarida rivojlandi.

Ma’rifatchilik yoki ma’rifatparvarlik, aslida, Sharq mutaffakkirlariga xos bo‘lib, u dastlab Sharq uyg‘onish davrida diniy akidachilikka qarshi duneviylikni diniylik bilan boglanishiii ilgari surgan goyaviy oqim sifatida paydo bo‘ladi. Keyinchalik esa yevropada feodalizmdan kalitalizmga o‘tish davrida tugilib kelayotgan burjuaziya va xalq ommasinimg feodal tartiblari va munosabatlariga qarshi kurashi zaminida kalitalistik munosabatlarning vujudga kelishi davriga xos muayyan manfaatlar bilan bog‘liq feodalizmga qarshi goyaviy-madaniy harakatga aylanadi. Bu harakat Yevropada dastlab XVII asrda Angshyada, XVIII asrda Fransiyada, XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarimida Germaniya va Rossiyada keng tarqaladi. Yevropada dastlab bu terminni F.Valter I.Gerderlar o‘z asarlarida ishlatadilar. 1784 yili I.Kalt "Ma’rifatparvarlik nima?" degan ilmiy maqola yozadi.

Ochig‘ini aytganda, ma’rifatparvarlik G‘arbiy Yevropada ham uyg‘onish davri bilan uzviy bogliq holda shakllanib, uning namoyondalari Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlaridan insopparvarlik g‘oyalarini, qadimgi davr antik madaniyatga murojaat etish an’anasi, tarixiy optimizmni, hurfikrlilikni qabul qilib olishni, jamiyat, inson hayoti vataraqqiyoti masalalari yuzasidan o‘z fikr-muloxazalarini olga surdilar. Ular o‘z qarashlarida ilm, fan va madaniyatni rivojlantirish asosida jamiyatni o‘zgartirish goyasi bilan chiqadilar. Ma’rifatparvarlar insonning tabiati haqidagi tasavvuriga asoslanish jamiyatda tabiiy hukuq nazariyasini, demokratik erkinlik talabini, feodal-obsalyutizm monarxiyasi davlatiga qarshi ijtimoiy kelishuv degan nazariyasini ishlab chiqadilar. Ular bunda davlatning hech bir iloxiy narsa emasligini, balki u kishilar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv yo‘li bilan yuzaga keladigan jamiyatning siyosiy tashkiloti, deydilar.

Ma’rifatparvarlar iqtisodiyot sohasida xususiy manfaatlarni rag‘batlantirishni, erkin savdoni joriy etishni, xususiy mulkchilikni ham hukukiy jihatdan kafolatlashni talab qilib chiqdilar. Ular jamiyat tarixini tushuntirishda teologiyaga barham berishni, tarixiy tarakqiyotning qonuniy harakterini e’tirof etadilar.

Ma’rifatparvarlar, ayniqsa, ta’lim, tarbiya masalalariga alohida e’tibor berishib, shaxsga erk berish, uni feodal ahloki va diniy aqidalardan halos qilishni aytishib, shaxsni gumanistik axloq

tamoyillari asosida tarbiyalashni, unga diniy ta’lim berish bilan cheklanmay, dunyoviy ta’lim-tarbiya berishni aytadilar.

Lekin bu o‘rinda shuni ham aytish kerakki, Yevropada bu harakatga xos bo‘lgan umumiy belgi feodal tuzumga qarshi qaratilgan bo‘lib, uning o‘zining ichida o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadigan okimlar ham mavjud bo‘lgan. Biroq ularning barchasi obyektiv ravishda jamiyatning kalitalistik yo‘nalish tomon rivojlanish ehtiyojlarini ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, Yevropada ma’rifatparvarlikning feodalizmga qarshi qaratilgan goyaviy xdrakat sifatida vujudga kelishi umumiy qonuniyat edi. Lekin bu qonuniyat turli xalqlarda, turli mamlakatlarda va turli mintakalarda turlicha va har xil tarixiy davrda namoyon bo‘ladi.

Bizning Markaziy Osiyoda, xususan, Turkistonda ma’rifatparvarlik g‘oyaviy harakat sifatida XIX asrning ikkinchi yarimida ma’lum siyesiy, ilggimoiy va iqtisodiy-madaniy sohalarda yuz bergan o‘zgarishlar zaminida yuzaga keldi. Bu ma’rifatparvarlik ham o‘z mohiyatiga ko‘ra, feodal tartiblari va munosabatlariga qarshi, mamlakatni feodal koloqligidan chikarish uchun kurashuvchi ilg‘or kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g‘oyaviy harakat sifatida maydonga chiqdi. Birok Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlarinimg faoliyati Yevropada kalitalizm to‘la galaba qilgan, Rossiyada esa kalitalizm ayni rivojlaiib borayotgan va Rossiya mustamlakalarida keskin siyosiy kurash avj olayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi.

Markaziy Osiyo ma’rifatparvarligi, xususan., Turkiston ma’rifatparvarligi feodal tartiblarini o‘zgartirish, madaniy yuksalishga bo‘lgan intilish bilan birga, ma’lum darajada Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi chorizmning mahalliy xalqlarga o‘tkazayotgan jabr-zulm ekspluatatsiyasidan norozilik kayfiyatlarini ifodalovchi g‘oya sifatida ham paydo bo‘ladi. Shu jihatdan bu ma’rifatparvarlik o‘ziga xos mafkuraviy harakterga ham ega edi. Turkiston ma’rifatparvarlari o‘z faoliyatlarida eskirgan feodal tartiblari va munosabatlariga rus kalitalistik munosabatlari orqali paydo bo‘layotgan yangi madaniy yutuklarni qarshi ko‘yish, ularning ustunliklarini targ‘ib qilishdan boshlanib, asta-sekin siyosiy tus olib, Turkistoda Rossiyadan fark qiluvchi yerli, mahalliy xalqning o‘ziga xos ma’naviyati xususiyatlarini ximoya qiluvchi tartiblar o‘rnatilishini talab kiluvchi darajaga ko‘tarila bordi.

Shu jixatlarni xisobga olganda Turkiston ma’rifatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi bosqichda feoldal tuzum tartiblarini tankid qilish, madaniy yangiliklarni, Yevropa tillarini o‘rganish va egallash, yangi ilm fan va texnikani targib qilish kabi masalalar ilgari suriladi. Bu bosqichda, ayniqsa, ma’rrfatparvarlikning yuzaga kelishida Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Satgorxon va Isoqxonlar, Muqimiy,. Furqat, Avaz Utar va Zavqiylar katta rol o‘ynadilar. Ular fakat o‘z xalqi ilm-fani va madaniyatini egallash bilan cheklanmay, boshqa xalqlar, xususan, Yevropa va rus xalqi erishgan ilm-fanni, xunarlarni, texnikani, madaniyatni ham egallashga, o‘rganishga. shu asosida jaxolat va bid’ag uyqusini tark etishga chorladilar. Buning uchun boshqalarning tilini bilishni, o‘rganishni ko‘p tillarni bilish esa duiyoviy ilmlardal. fam-texnika yutuklaridan baxramand bo‘lish imkoniyatini berishni uqtirdilar.

Xullas, birinchi bosqich ma’rifatparvarligi, bu asosan xalqni yangi madaniyat, yangi ma’rifatga chaqirish, chorlash, millatni, xalqni jaholat va bid’at uyqusidan uygonishga, yangi paydo bo‘layotgan madaniyat va ma’naviyatni zgallashga yo‘naltirilgan edi. Ma’rifatparvarlik o‘zining birinchi bosqichida asta - sekin rivojlanmb borish asosida undan jadidchilik o‘sib chiqadi. Jadidchilik bu ma’rifatparvarlikning rivojlangan, taraqqiy etgan ikkinchi bosqichi edi. Biz buni alohida quyidagi savolda ko‘rib chiqamiz.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelganda Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston xalqlari ilg‘or vakillari Rossiyaning mustamlakachilik zulmidan qutilish, o‘z milliy davlatchiligini kurish, o‘z milliy - iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo‘l ochish zarurligini tushunib yetishadi. Bu kishilar o‘sha davr tarixiy jarayonning yetakchi kuchi milyaiy va maxallii savdo va sanoat burjuaziyasi namayendalari xisoblanib, ular juda katta qiyinchiliklar bilan keng xalq ommasining siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy manfaatlarini ximoya qiladigan g‘oyaviy oqim - jadidchilar ma’rifatparvarligini shakllantirib, uni har tomonlama rivojlantirdilar. Turkistonda jadidchilik harakati ma’rifatparvarlik asosida O‘rta va Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjonda yuzaga kelgan diniy isloxotchilik va ma’rifatparvarlik goyalari hamda jadidchilik

harakati ta'sirida vujudga keladi. Bu jadidchilik Turkistonda vujudga kelgan sharqona ma'rifatparvarlikni butup xalqning demokratik va milliy uyg'onishiga io'naltirilgan umummilliy mafkurasi darajasiga ko'tardi. Jadidchilar Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda uzoq davom etayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqirozni to'xtatish, jamiyat taraqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborish maqsadida maorif, din, adliya, davlat kurilishi va boshqa qator ijtimoiy-madaniy sohalarda islohotlar o'tkazishni taqlif qilishib maydonga chiqishadi. Ular ta'lim-tarbiya, axlok-odob, o'qish-o'qitishni, sog'liqni saqlash soxalarini, xotin-kizlar axvolini yaxshilash, ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish g'oyalarini o'rtaga tashlashdi.

Jadidchilar o'z siyosiy faoliyat sohalarida Turkiston hududiy birligi, Chorizm mustamlakachiligidan kutilish, milliy mustakillik g'oyalarini ilgari surishib, shu g'oyalar uchun kurash olib borishadi. Ular iqtisodiy sohada esa sanoatni, savdoni rivojlantirish, iktisod va moliya soxalarida boshqa millatlarga karam bo'lishdan qutilish, milliy savdo va bank tashkilotlarini barpo qilish g'oyalari bilan maydonga chiqadilar.

Birok jadidchilar faoliyatida madaniy-ma'rifiy soxa ustuvor xisobanadi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi - eski tizimni islox qilishdan iborat bo'ldi. Jadidchilar milliy mustaqillik manfaatlarini himoya kila oladigan, siyosiy va iqtisodiy qaramlik va koloklikdan chiqish muammolarini yecha oladigan zamonaviy bilimlarga ega, savodli va vatanparvar kadrlar bo'lish zarurligini yaxshi anglaydilar. Shuning uchun dunyoviy bilimlarni diniy bilimlar bilan birlikda o'rganish va egallash ishlari, maorif tizimini islox qilish masalasi, jadidchilar ijtimoiy fikrining dikkat markazida bo'ladi. Jadidchilar isloxotni maktab va madrasalardam boshlash zarur. chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi, deyishadi. Ular mahalliy boylarning o'sha davr ichki va tashki bozorda sinishlarining asosiy sababi-ularning savdo ilmidan savodsizligi tufayli bo'lmokda, chunki ular savdo qilish, moliyaviy operatsiyalarni olib borish ishlarini bilmaydilar. Agar biz madaniyat va iqtisod soxalarida boshqa (mamlakatlarga), boshqa millatlarga karam bo'lishni istamasak, biz milliy sudyalar, advokatlar, o'kituvchilar, davlat arboblari, injener, savodli tijoratchilarni tayyorlashimiz zarur. «Masala shunday ekan, siz xurmatli vatandoshlar, o'z farzandlaringizni din va millatga xizmat qilmoklari uchun zamonaviy bilimlarga o'rgatishga harakat qilishingiz zarur, millat va dinga fakat bilim va mablag' bilan xizmat qilish mumkin», deb yezishadi. (M. Behbudiy, "Oyina", 1913 y., 7-son; 1914 y., 31-son; 1915 y., 10-son). Jadidchilar o'z matbuotida: "Barcha millatlar o'z farzandlarini din va millatga sodiq bo'lish ruxida tarbiyalaydilar. Shuning uchun ular maqtabga aloxida ahamiyat beradilar. Bizda mana shuni xis qilish yo'q. Biz din va millatni himoya qiluvchi ishonarli va mustaxkam vositaga ega bo'lmoqimiz shart. Bu vosita - maorifdir" (M. Bexbudiy, "Oyina", 1914 y., 41-son), -deb yozgan edilar. Ular bular bilan cheklanmasdan, o'z millatdoshlariga o'z farzandlarini xorijiy davlatlariga yuborib, o'qitish zarurligini, toki, ular o'kib kelishib, millat manfaatlarini ijtimoiy hayot soxalarida ximoya qilishsin, millatimiz taraqqiy etsin, -deya murojaat ham qilishadi. Ularning bu fikri bugungi bizshng mustaqqilik sharoitimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Jadidchilar maorifni islox qilish masalalarini o'z matbuotlari sahifalarida har tamonlama muhokama qilishadi. Ular bunda maktab ishining iqtisodiy va moliyaviy tamonlarini, o'kuvchilar ruxiyati va adobiga ijobiy ta'sir qiluvchi usullar, o'qitish dasturlari va boshqa ko'pchilik masalalar haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirishib boradi.

Jadidchilar o'z maqolalari va asarlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzining ayrim tamonlarini islox qilish zarurligini aytish bilan cheklanmasdan, yoshlar dikqatini yana xalqimizning o'tmish madaniyatiga, utmish ajdodlari ilm-fan sohasida erishgan-yutuqlariga qaratib, ularni o'rganishga ham jalb qiladilar.

Jadidchilar o'z faoliyatlarida faqat milliy doiradagiia chegaralanib qolmadilar. Ular o'z matbuoti sahifalarnda umum insoniy madaniyat yutuklari fan va ta'lim-tarbiya haqidagi xorijiy fikriy yangiliklarni ham targ'ib qilishib, bu sohalarda ham katta ishlar qmlishadi. Hatto ular o'z matbuotlarida turkiy xalqlar uchun yagona til yaratish muammosi bilan ham chiqishadi.

Jadidlar matbuoti sahifalarida diniy va falsafiy masalalarga ham katta ahamiyat berishadi. Ular o'z maqolalarida, O'rta asrlarda bo'lganidek, fan bilan dinni kelishtirish, ularning uyg'unligini ta'minlash, fan va madaniyat taraqqiyoti yutuklarini islom diniga bog'lab izoxlashga harakat

qilishadi. Mohiyat etlpibrri bilan olganda, jadidlar falsafiy qarashlari matsrialistik falsafaga va ateizmga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Masalan, M.Behbudiy o‘zining 'Samarqand" ro‘znomasida bosilgan maqolalaridan birida oxirgi 500 yil ichida musulmonlar fan va falsafa sohasida boshqa mamlakatlardan orkada qolganliklarini ta’kidlab, materializm va ateizm bilan kurashish uchun fam va falsafaling yangi yutuqlari bilan qurollanish maqsadga muvofiqligini aytadi.

Umuman olganda, jadidlar ma’rifatparvarligining falsafiy-nazariy zaminlari: milliy falsafiy meros, an’anaviy islom, tasavvuf ta’limoti, shariat, Yevropada paydo bo‘lgan pozitivizm falsafasi qarashlariga borib taqaladi. Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda shakllangan jadidchilik ma’rifatparvarlik goyalari milliy mustaqillik, milliy vatanparvarlik goyalaridan iborat bo‘lib, ular umumbashariy demokratik qadriyatlar bilan yo‘grilgan edi..Lekin mustaqillik mafkurasi nuktai nazaridan jadidlarning eng ezgu g‘oyalari umuminsoniy qadriyatlar sifatida umuminsoniy orzular, ijtimoiy adolat va tenglik haqidagi karashligiga ko‘ra, ularning hammasida bir xil fikr, bir xil karash bo‘lmagan. Bunda harakterli tomoni shundaki, jadidlarning eng izchil millii va demokratik mavkeda bo‘lgan vakillari; Bexbudiy, Fitrat, Cho‘lpon va shu kabilar kommunistik aqidalar va qarashlarni qat’iy inkor etish yo‘lida churganlar. Ularning milliy mustaqillik va umumbashariy demokratik qadriyatlar uchun kurashi juda izchil va faol yo‘nalishda borgan. Shuning uchun ular fojeaviy taqdir topishgan.

Ko‘pchilik adabiyotlarda jadidlarni XX asr boshida shakllanib kelayotgan milliy savdo va sanoat burjuaziyasi mafkurachilari, deyilib harakterlaydi. Bunday fikr bizningcha, jadidlarning faqat bir qismiga nisbatangina to‘g‘ri. Boshqa qismlari bundan mustasno. Chunki jadidlar harakati tarkibi boshlang‘ich davrda ham, keyinchalik ham ijtimoiy jihatdan bir xil bo‘lmay, ular saflarida jamiyatning har xil ijtimoiy tabakalarining vakillaridan iborat kishilar bo‘lishadi. Dastlab ular asosan madrasa talabalari, yangi usul maktab o‘qituvchilari, mayda savdogarlardan iborat bo‘lishsa, keyinchalik yirik milliy savdogarlar, sanoat burjuaziyasi vakillari ham kelib ko‘shiladilar. Turkistonda milliy-ozodlik harakatining avj olishi bilan jadidlar safiga milliy ziyolilarning aksariyati faol ko‘pchilik kismi ham kelib ko‘shiladi. Ularning orasida esa ezilgan xalqning manfaatlarini ximoya kiluvchi ko‘plab ilg‘or kishilar yetishib chiqadi.

Bizningcha, ba’zi adabiyotlarda "jadidizm mafkura, muayyan qarashlar tizimi sifatida kalitalistik taraqqiyot ehtiyojlarini ifodalar edi", deyilgan karash ham jadidchilik g‘oyaviy harakatini bir tomonlama baxolashdir. Jadidlarning tarkibi turli darajadagi ijtimoiy qatlamlardan iborat bo‘lganligi tufayli jadidchilik harakati, uning vakillarining qarashlari ham xilma-xil va turlicha bo‘lib, turlicha maqsadlarni va manfaatlarni ifodalar edi. Lekin, bari bir, bularga karamasdan, jadidchilik harakati, jadidchilik g‘oyalari va qarashlari Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikr taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. U XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllangan va yuzaga kelgan Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikrlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkistonda ta’lim-tarbiyada yangi yo‘llarni izlash, yangi usullarni joriy etish, yangi usuldagi maktablar ochib, xalqning savodliligipi, bilim darajasini ko‘tarish, ijtimoiy-falsafiy fikrda o‘z milliy davlatchiligimizni tiklash, til, din, an’anaviy tarixiy birligimizni saqlab qolish; tilimizni goksak ilm-fan, falsafa va nafis sana’at tiliga aylantirish; zamonaviy va demokratik taraqqiyot yo‘liga chiqish; keng xalq ommasining milliy ongini uyg‘onishiga ko‘maqlashishdai iborat bo‘ladi. Bu masalani navbatdagi savolda kengrok yoritib beramiz.

Hozirgi kunda mustakillikka erishganimizdan keyin Vatanimiz va xorijiy olimlarning jadidchilik masalasiga yangicha qarash va yangicha yondoshuvlar asosida olib borilayotgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatayaptiki, o‘z davrining ko‘zga kuringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidchilik harakati mahalliy xalq ommasining milliy o‘zligini anglashining o‘sishiga, milliy ozodlik harakatining keng rivojlanishiga, milliy mustakillik mafkurasining shakllanishi va taraqkiyotiga va eng muhimi, milliy ongning rivojlanishiga juda katta xizmat qiladi.

Jadidchilik ma’rifatparvarlik va demokratik yo‘nalishdan kuchli ijtimoiy-siyosiy harakatgacha bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tar ekan, u mustamlakachilik ostida ezilib yoggan xalq ommaoining og‘ir iqtisodiy ahvoli va Turkistonning jahondagi iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlardan orqada qolish sabablari va uni taraqkiy ettirish choralarini izlab topishga undadi.

Vujudga kelgan vaziyatda ilg‘or jadidchi ziyolilar Turkistonning taraqqiyot darajasi orqadaligining sabablari: mustamlakachilik zulmi, xalqning g‘aflatda, jaholatda qolganligi va ma’rifatsizligida, deb bildilar. Shuning uchun bulardan qutilishning eng to‘g‘ri va asosiy yo‘li maorif va ma’rifat yo‘li, maorifni islox qilish, deb qaradilar. Ular bu isloxotlarni amalga oshirishning zarur ekanligini nafaqat nazariy jihatdan asoslab berdilar, balki o‘zlari yangi usulda maktablar ochib, kutubxonalar, kiroatxonalar barpo etib, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yozishib o‘z g‘oyalarini amalda kuddash-yo‘lida ham ulkan ishlar kildilar.

Jadidlar Turkistonni eski koloklik xolatidan kutqarib,. uning taraqqiyotini yangi bosqichga chiqarish. xalqning milliy ongini uyg‘otyb, milliy mustakillikka erishish uchun faqat maorifni isloh qilish g‘oyaalari va ishlari bilan cheklanmagan, balki ular o‘z matbuoti - ro‘znoma va oynomalarini chikarishib, xalqning siyosiy ongini o‘stirishda jonbozlik qiddilar. Ular matbuot sahifalarida xatto xozirgi kunda ham kishilarni to‘lkinlantiradigan, ularni xayajonga soladigai qator masalalar va muammolar uz aksini topadi. Bu masalalarga biz insonning ma’navny barkamyullikka yetishida dinning. ilm-fanninp ya’ni diniy va dunyoviy ilmlarning o‘rniii to‘gri anglab yetish, xukuqiy va ikgisodiy munosabatlarda ham tub islohotlar o‘tkazib, xukukiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, tarakqiy etgan ilgor mamlakatlarga xos siyosiy va demokratik ijtimoii institutlarni joriy etish, o‘ziga xos milliy rivojlanish yo‘lini tanlash masala va muammolarni keltirishimiz mumkin.

1905 yildagi birinchi rus inqilobi jadidlar faoliyatini ancha jonlantirib, ularping olib borayotgan tadbirlari Turkistondagi islohotchilik harakatlari Toshkentda Munavvar Qori-Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulla Avloniy, Is.moil Obidov, Ubaydulla Xo‘jayev; Samarqandda M.Behbudiy, Hoji Muyon, Akobir Shomansurzoda, Iimaqdxo‘ja Siddikiy; Namanganda Nosirxon To‘ra; Qo‘konda Obidjon Mahmudov, Ashurali Zoxidiy va Po‘lat Soliyevlar rahbarligida shahar axolisi o‘rtasida keng avj oladi.

Jadidlarning faoliyatidagi muhim ko‘rsatkich - bu nafaqat ularning yangi usuladagi maktablar ochish, balki ularning nashriyot va matbaa ishlarida. oynoma va yilnomalarning ko‘plab nashr etishlarida ham namoyon bo‘ldi.

Jadidlar, ayniksa, 1915-1917 yillarda o‘z faoliyatlarida ham siyosiy, ham tashkiliy va ham mafkuraviy jihatdan ancha o‘sdilar. I jahon urushi Rossiyadagi fevral demokratik inqilob jadidlarning fikrlash tarzini ancha o‘zgartirdilar.

Bu vaqtga kelib, ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida fukarolarning davlat organlarini shakllantirishda, qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki haqida yozdilar. Fevral inkilobiga kelib, Turkiston jadidlarining bir kismi (mo‘tadil qismi) bir qator keng siyesiy talablarni ilgari surib chikdilar. Bu talablar: mahalliy tub axolining huquqlarini kengaytirish, o‘lkani idora etishni tubdan islox qilish, tub axoli uchun Davlat Dumasidan muayyan miqdorda deputatlikka o‘rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarni ta’min etish va eng muhimi, milliy matbuot erkinligiga erishish, Chor yakka hokimlik tuzumini konstitutsiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabilar edi.

Albatta, jadidchilarning bu talablari keng xalq ommasiga ta’sir qilmay, ularning milliy ongini o‘stirmay kolmas edi. Bu paytga kelib jadidlar o‘zlarining milliy siyosiy tashkilot va partiyalarini tuzdilar. Natijada, ularning "SHo‘roi Islomiya" va "Ittifok" partiyasi va tashkiloti paydo bo‘ldi. Fevral inqilobidan keyin jadidlar mahalliy axolining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarni o‘z ortlaridan ergashtirib, ularning ongida, fikrlarida va qarashlarida yaktan, yakdil bo‘lib birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati xissini tugdirdilar. Birok. oradan ko‘p o‘tmay, jadidlar Turkistonda tuzilgan vaqtli hukumatning oldingi Chor Rossiyasi davridagi mustamlakachilik siyosatidan voz kechmagailigining guvoxi bo‘ldilar; ular mustaqillik va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vakti yetib kelganini anglab yetib, mustamlakachilikni va vaqgli xukumatni qatgik tankid qilib chika boshladilar. Endi jadidlar o‘zlarining oldingi konstitutsion monarxiya tuzumi g‘oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya demokratik federativ respublikasi tarkibida milliy xududiy muxtoriyat berilishini ualab qila boshladilar. Ular davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi o‘z goyalarini hayotga tadbik qilishga, uning amalga oshishini chakirilajak ta’sis majlisi bilan bog‘ladilar.

Jadidlar ta’sis majlisidan o‘rin olish uchun juda ko‘p urindilar, xatto ular bu jarayonda konservativ qismdan tashkil topgan. "SHo‘roi Ulamo" tashkiloti bilan o‘zaro birlashish yo‘lidan borib, pirovardida "Turk olami markaziyati" partiyasini vujudga keltirdilar. Bularning hammasi xalq ommasining siyosiy ongining o‘sishiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Birok oktabr davlat to‘ntarishi - bolsheviklar partiyasiping hokimiyat tepasiga kelishi jadidlarning maqsad niyatlarini amalga oshirishiga monelik qiladi. Shunga qaramay, bolsheviklar xokimiyatining: "Har bir millatning o‘z takdirini o‘zi belgilash" haqidagi dekloratsiyasiga asoslanib, jadidlar Ko‘konda "Turkiston muxtoriyati"ni e’lon qildilar. Atigi uch oy yashagan bu muxtoriyat, nixoyat, bolsheviklar tomonidan konga botirilib, tugatildi. Jadidlar esa kuchli ta’qib ostiga olinib, uning ko‘pchilik ilg‘or vakillari 1937-1938 yillarda butunlay kirib tashlandi, qolgan-qutganlari esa 1950 yillarga borib butkul tugatildi.
Umuman olganda, jadidchilikning bizning tariximizdagi o‘rni va bugungi kun bizning mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyati shundan iboratki, jadidlar birinchi bo‘lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldilar, ular g‘aflat uykusida yotgan mazlum va ezilgan xalqni uyg‘otdi, uning ko‘zini ochdi, ozodlik, erk, mustaqillik, milliy zarur, iftixor, tuyg‘ularini paydo qildi; ular buyuk tariximiz, falsafiy merosimiz haqida, buyuk ajdodlarimiz, boy madaniyatimiz va ma’naviyatimiz haqida, mustamlaka va istibdod davrida unitila boshlagan qadriyatlarimizni tiklash hakida jar soldilar. Jadidchilarning buyuk tarixiy xizmatlaridan yana biri - ular yetilib qolgan muammolarni xal qilishda rivojlanishning evolyutsion yo‘li - isloxotlar yo‘lini ishlab chiqdilar.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar**:

1. XUP-XX asrlarda Turkiston xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayoti haqida nimalarni oilasiz?
2. Turkistonda bu davrda aholi o‘rtasidagi parokandalik, tushkunlikning sabablarini bilasizmi?
3. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati sabablari nimalardan iborat?
4. Mukimiy ijodida feodal qarashlar talqidi.
5. Furkatnimg "Sayding qo‘yaber sayyod" shs’riing talqini va unda erkin shaxs muammosining qo‘yilishi.
6. Avaz O‘tar o‘gli ijodida jamiyat va shaxs ziddiyati va uniig hal kilinishi.
7. Anbar Otin qarashlarida o‘zbek ayoliningtaqdiri masalasi.
8. Turkistonda jadidchilik harakati kachon yuzaga keldi?
9. Jadidchilik harakati oqimi vakillari qanday ilg‘or g‘oyalarni ko‘tarib chiqishdi?
10. Jadidchilik oqimi vakillarining millyy istiqlol goyasini va milliy istiqlol mafkurasini ishlab chiqishidagi o‘rni nimalardan iborat?
11. Jadidchilik oqimi vakillari halqning milliy ongini uyg‘otish uchun qanday faoliyatlar olib borishdi?

**Adabiyoglar ro‘yxati:**


1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T.2. -T:: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqmi-xalq, mmllatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan. T.6. -T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axlok. -T.; O‘qituvchi 1992.
5. Jumaboyev I. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. -T.: O‘qituvchi 1997.
6. Malik Murod. O‘zbek qadriyatlari. -T.: Cho‘lpon,1995.
7. Mustaqillik: ilmiy, izohli, ommabop lug‘at. -T.:Sharq 1999.
8. Falsafa. O‘kuv qo‘llanma. -T., Sharq1999.
9. Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.

## 9-mavzu: XX ASR BOSHLARIDA G‘ARB MA’NAVIYATIDA MADANIYAT, SHAXS VA AXLOQ

**REJA:**

1. **XX asr boshlarida G‘arb ma’naviyatida shaxs va unnng axloqi muammosinnng qo‘yilishi va yechimi.**
2. **I.Kant axloqiy kategorial imperativi.**
3. **F.Gegel falsafasida axloq va unnng mavjudlign masalasining yechimi.**
4. **L.Fsperbax antropolognk falsafasida inson va din muammosining xal qilinishi.**

Nemis mumtoz falsafasi deb o‘n sakkizinchi asrning ikkinchi yarmi va o‘n tukkizinchi asrning boshlarida Germannyada vujudga kelgan falsafaga aytamiz. Bu davr Yevropaning ilg‘or mamlakatlari: Angliya, Fransiya va Gollandiyada kalitalistik munosabatlar tobora jadal olg‘a tomon tez rivojlanayotgan hamma soxalarda feadal munosabatlarning o‘rnini egallayotgan burjua demokratik inqiloblar bo‘lib o‘tayotgan burjua demokratik harakatlar avj olayotgan davr edi.

Bu davrning markazida turli-tuman ijtimoiy xodisalarning avj oljpiga sabab bo‘lgan 1789-1792 yillarda bo‘lib o‘tgan Fransuz burjua - demokratik inkilobi turar edi. Bu inqilob Yevropaning qator mamlakatlarining shu jumladan, Germaniyaning ham rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu inqilob, dastlab Germaniyada ham shunday inqilobning zarurligini, ya’ni o‘n sakkizinchi asrda Fransiyada bo‘lganidek, o‘n to‘kkizinchi asrning boshlarida Germaniyada bo‘lishi zarurligidan darak beradi. Xuddi Fransiyadagi kabi Germaniyada ham nemis mumtoz. falsafasi - falsafiy fikr soxasidagi inkilob siyosiy hayot sohasidagi inkilobga muqaddima bo‘lib xizmat qiladi.

Nemis mumtoz falsafasi o‘zidan oldin o‘tgan Yevropa va jaxon ilg‘or falsafiy fikrlar va okimlarning vorisi davomchisi bo‘lish bilan birga o‘z davridagi Yevropaning kalitalistik taraqqiyot tarixiy tajribasiga hamda tabiatshunoslik hamda tabiatshunoslik texnikafiy ijtimoiy - gumanitar bilimlar soxalari qo‘lga kiritayotgan umumlashtirish asosida paydo bo‘ldi. Bu falsafada inson faoliyatining faolligi unda amaliyotning mavjud tartiblarni o‘zgartirishdagi rolini tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini tafakkur bilan borliqning dialektik aynanligini falsafadagi obyekt va subyekt munosabatlarini tadqiq etish yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zining shu jihatlari bilan nemis mumtoz falsafasi insoniyat falsafiy fikr taraqqiyotida alohida o‘ziga xos bosqichni tashkil qiladi. Nemis mumtoz falsafasining paydo bo‘lishida I.Kant I.G.Fixte, F.SHelling, G.Gegel va L.Feyyerbaxlarning falsafiy qarashlari muhim rol o‘ynadilar. Garchi ular falsafadagi turli oqimlarga mansub bo‘lgan bo‘lsalarda, lekin ularning falsafiy qarashlarini bir birlari bilan bog‘lovchi umumiy mushtarak tomonlari mavjud edi. Ayniqsa, mumtoz falsafiy fikr taraqqiyotida o‘z falsafiy qarashlarining orginalligi, yangiligi va boy mazmunga egaligi bilan buyuk o‘rin tutgan faylasuflar - bular: I.Kant, G.Gegel va L.Feyyerbaxlardir. Biz quyida shu faylasuflarning falsafiy qarashlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Nemis mumtoz falsafasining asoschisi XVIII asr nemis burjuaziyasining mafkurachisi - bu Immanuil Kant (1724-1804) dir. U o‘z zamonasining ko‘pchilik aktual nazariy muammolari bilan bevosita shug‘ullangan tabiatshunos, matematik, xukukshunos, etik, estetik, mantiqshunos, pedogog, faylasuf olim bo‘ladi. Kant Keynsberg universitetida professor bo‘lib ishlaydi.

Kantning falsafiy qarashlarining rivoji, asosan ikki davrga bo‘linadi: birinchi davri - tankidiy davrgacha bo‘lgan falsafiy qarashlari (1770 yilgacha); ikkinchisi - «tankidiy davr» yoki «transendental davr» falsafiy qarashlari. Tankidiy davrgacha bo‘lgan davrda Kant yozgan eng yirik asar - bu «Butun umumiy tabiiy tarix va osmon mexaniqasi nazariyasi» asari bo‘lib, u asosan tabiatshunoslik fanlarining falsafiy muammolariga bag‘ishlangan. U bu asarida «Nebulyar» kosmogonik gipotezani ilgari surib, unda Quyosh sitemasidagi planetalarning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi haqida fikr yuritadi. Uning karashicha, Quyosh sistemasi (Quyoshning o‘zi ham) dagi planetalar daslabki «tumanlnklar»ning quyuklashuvidan evolgotsion yo‘l bilan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Shu bilan birga, Kant bu asarida bizning Gallaktikamizdan tashqarida juda ko‘p galaktikalar tizimi metagalaktika - Katta koinotning mavjudligi haqida ham fikr yuritadi. U bu asarida yana Yerning o‘z o‘qi atrofida harakatnda ishqalanishning oshishi natijasida uning harakatining sekinlashuvi, harakat va osoyishtalik haqidagi ta’limotlarni ham rivojlantiradi. Xullas,

Kant falsafiy qarashlarining bu davrida tabiatshunoslik fanlarining rivoji masalalari keng yoritiladi. U oʻzining bu davrdagi tadkiqotlari bilan I.Nyutonning planetalarning harakati «iloxiy kudrat»ning birinchi turtkisi va itarilishlari oʻrtasidagi ziddiyatlar tufayli sodir boʻlganligini aytadi. Kant oʻz asarida Kuyosh sistemasi va unga kiruvchi planetalarning paydo boʻlishi tabiatning tarixiy taraqkiyotining mahsuli sifatida koʻrsatib tabiatni, uning rivojlanishini tamomila tabiiy-tarixiy jarayon sifatida izohlaydi.

Kant oʻz falsafiy qarashlarining ikkinchi davri-tankidiy falsafa davrida u tabiatshunoslik fanlari falsafasidan falsafaning bilish nazariyasiga oʻtadi. Kant oʻzining bu davrida «Sof aqlni tanqid» (1781 y) «Amaliy aqlni tankid» (1788 y) «Muxokama qobiliyatini tanqid» (1790) «Prolegamenlar» (1783Y) asarlarini yozadi. Bu asarlarida u bilishning «tanqidiy» nazariyasini yaratib, inson bilishining turli shartlarini, bilish kobiliyatining chegarlarini tadqiq etadi. Kant oʻzining bu tadqiqotlarida insonning xuddni bilishni «narsa oʻzida» deb ataydi va uni bilish mumkin emas, deb e’lon qiladi. Shu bilan birga, u oʻz tadqiqotlarida inson borliqdagi oʻz-oʻzligicha mavjud narsalarning mohiyatini prinsip jihatdan bilishi mumkii emas, imsoi fakat xodisalarnigina, ya’ni uning oʻz tajribalarida yuz berishida vositachilik kiladi usulini bilish mumkin. Uning bilish nazariyasidagi «bilish mumkin emas» degan fikri Kant agnostizmi edi. Lekin Kantning bilish nazariyasidagi xizmati shunda ediki, u metafizika hukmron boʻlgan bir sharoitda, inson bilishiga xos karama-qarshiliklar muammosini kuTG tartibiga koʻyib olam ham nihoyalidir, ham nihoyasizdir, degan karama-qarshi fikrlar bab-barobar toʻgri boʻlishini isbotlab berib, inson aqli tabiatai altipomiyali, ya’mi ziddiyatli ekanligsh-sh, bizning har qanday oqilona fikrlarimizga dialektika xosligini aytadi. Kantning fikricha, bizning biliylarimiz ongimizda fakat tajribalarimiz asosida hosil boʻlmay, balki hissiy mushoxadaning «alrior»i shakllari asosida ham mavjud boʻladi. U formal maltmqpi talkid qilib, fikr ong, taffakur dialektikasi hakida galiradm. Uning tafakkur dialektikasi haqidagi qarashlari V.Gegel tomonidan rivojlantiriladi. Umuman, Kantning falsafiy qarashlari falsafaning undan keyingi rivojlaiishiga gʻoyat katta ta’sir koʻrsatadi.

Nemis mumtoz falsafasiiing eng yirik vakili Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831 )dir. U falsafada obyektiv idealistdir. Gegelcha birlamchi iarsa - bu dunyo ruxi, insondan va olamdan tashqarida aloxida mavjud boʻlgan mutlaq gʻoyadir. Moddiy olam esa uning maxsuli, ikkilamchi, ya’ni u dunyo ruqining namoyon boʻlishidir, uning gavdalanishidir. Uningcha bu dumyo ruxi, ya’ni mutlak goya yaratuvchi bosh sabab boʻlib, tabiatdagi va jamiyatdagi har bir buyum yoki hodisa uning hosilasy, ya’ni shakllardan iborat, ulariing mazmunlari esa ana shu dunyo ruhi yoki dunyo aqlidir. Chunki bu moddiy olamdagi predmetlar va hodisalar ana shu mutlaq goyaning koʻrinishi - shakllanishidan boshqa narsa emas. Gegel bundagi oʻz falsafiy tizimida hamma vaqt rux va tabiatning yoki tafakkur va borliqning aynanligiga tayanadi. Shuning uchun unda har doim moddiy jarayonlar mantiqiy jarayonlar kabi ifoda etiladi. Gegel fikricha, dunyo ruxi mangu, u oʻtmishda bor boʻlgan, xozir ham mavjud va kelajakda ham boʻladi. Shu sababli dunyo ruxi tabiat va jamiyatdagi hamma voqealar va xodisalarning mazmuni, moxiyati, manbai va harakatlantiruvchi kuchidir. Gegel oʻzining «Ruh fepomenologiyasi» (1807) asarida inson ongining dastlabki xolatlaridan boshlab to faini va ilmiy metodologiyani egallab olishgacha davom etgan evolyutsiyasi qarab chiqiladi. U bunda begonalashuvchi kategoriyasii analiz qilib, insonning predmetlik faoliyatining koʻpgina muhim tomonlarini ochib berish orqali inson mehnatining mohiyatini koʻrsatishga harakat qiladi. Uningcha, «inson va uning tarixi», «uning mehnatining natijasi»dir. Bu asar Gegel falsafasining sarchashmasidir. Unda Gegel substansiya toʻgʻrisidagi oʻz tezisini subyekt sifatida, faol ibtido sifatida asoslaydi. Ayni shu asarida Gegel falsafasining boshlangich koidasi-tafakkur bilan borliqning ayniligi, ya’ni real olam mutlak gʻoyaning, tushunchaning, ruhning zuhuroti, deb tushunish bayon qilingan.

Gegel falsafada qadimgi yunon faylasufi Platon izidan borib, mutlaq gʻoyani birlamchi asos, deb kabul qiladi. Bu uning obyektiv idealistik tizimiga asos boʻladi. Uning mutlak gʻoya harakatida falsafiy tizimi «Falsafiy failar Ensiklopediyasi» (1817) asarida bayon qilingan. Gegelning: tabiat va jamiyatning barcha hodisalari zamirida «mutlak gʻoya», «olamiy aql» yoki «olamiy rux» asos boʻlib yotadi, degan fikrlari ayni shu asarida bayon qilingan. Uningcha, «mutlak gʻoya» dastlabki ibtido oʻz faoliyatida faoldir, u oʻzgarish va rivojlanishidadir. «Mutlak gʻoya» oʻz tarakqiyotida uch

bosqichni bosib o‘tadi: 1) «mutlak goya» ning o‘z Bagrida «sof tafakkur xolatida rivojlanishi (bunda mutlaq g‘oya o‘z mazmunini bir-biriga o‘tib turadigan mantiqiy kategoriyalar tizimida namoyon qiladi»; 2) «mutlak g‘oya»ning «o‘zga shaklga kirishi, ya’ni tabiat qiyofasida rivojlanishi bunda aslida, tabiat rivojlanmaydi, balki uning ruhiy mohiyatini tashkil etuvchi Mantiqiy kategorilar o‘z-o‘zicha rivojlanishi ifodalanadi»; 3) Nixoyat «mutlak g‘oya»ning kishilar tafakkurida va jamiyat tarixida rivojlanishi (bu bosqichda «mutlak g‘oya» insonlar va jamiyat paydo bo‘lishi, uni kishilarning anglab olishi bilan o‘zining asl holiga qaytadi. Gegelning nazaricha, mutlak g‘oyaning o‘z-o‘zicha rivojlanishi va shu bilan birga, o‘z-o‘zining bilishi bilan oldingi holatga qaytishi bu tizimda o‘z rivojini tugallaydi. Bundagi rivojlanish g‘oyasi Gegel dialektikasipi tashkil qiladi. Gegel dialektikasining to‘liq bayoni uning «Mantik fani» (1812-1836 y.) asarida o‘z ifodasini topgan. Gegel falsafasining eng kimmatli yutug‘i ayni shu dialektikasi bo‘lib, unda dialektikaning eng muhim qonunlari va kategoriyalari bayon kilingan. Lekin Gegelning xizmati bu bilan cheklanmaydi. Uning falsafadagi asosiy xizmati shundaki, u birinchi bo‘lib butun tabiiy, tarixiy va ma’naviy jarayonni bir butun g‘oyaviy jarayon shaklida tushuntirib va tasvirlab berdi, mutlak g‘oyani tinimsiz harakat, o‘zgarish, rivojlanish, bir xolatdan ikkinchi xolatga o‘tib turishda olib tekshirdi hamda bu harakat, o‘zgarish va rivojlanishlarking o‘zaro ichki bog‘lanishi va ziddiyatlarini ochishga urindi. Shu ichki karama-qarshiliklar asosida rux doim harakat, o‘zgarish va rivojlanish jarayonida, bir bosqichdan ikkinchi bochqichga o‘tib, tushunchalar shaklida, tabiat va jamiyatdagi predmet va hodisalar shaklida o‘z-o‘zini yangilab, tug‘dirib, ifodalanib turadi. Uningcha, tafakkur va aql o‘z rivojini turli bosqichi sifatida turli tamoyillarni, turli. kategoriyalarni vujudga keltiradi. Bu tamoyillar va kategoriyalar sof aqlning turli bosqichlari sifatida moddiy predmet va xodisalarga nisbatan birlamchi, ularning mazmuni bo‘lib, ularning mohiyatini tashkil etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Gegelgacha ham turli faylasuflarning asarlarida dialektika elementlari, shubhasiz, uchraydi. Biroq Gegelning xizmati shundaki, u o‘z davridagi tabiatshunoslik, ijtimoiy-gumanitar bilimlar yutuqlarini umumlashtirib, birinchi bo‘lib dialektik uslubni ishlab chikdi va dialektikaning uch asosiy qonuni va hamma kategoriyalarini ta’riflab berdi. Bunda yana shu ham diqqqatga sazovorki, Gegel karashicha, dialektika,.uning qonunlari va kategoriyalari umumiy harakterga ega bo‘lib, ular borliqning hamma soxalarida o‘z ifodalarini topadi.

Lekin bugungi kun talabidan kelib chiqib shuni aytish zarurki, Gegel dialektik metodi o‘z davri fadsafyi fikryving eig katta yutug‘i bo‘lgan bo‘lsa ham, u bir tomonlama, fakat tafakkurga, g‘oyatda xos dialektikadir. Lekin shunga qaramay, Gegel falsafasi, uning dialektik uslubi kelgusi davr insoniyat falsafiy fikri taraqqiyotiga juda katta ta’sir qiladi.

Nemis mumtoz falsafasi taraqqiyotida Lgodvig Feyyerbax (1804-1872y.) falsafiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. L.Feyyerbax nemis mumtoz falsafasining so‘ngti vakilidir. U nemis mumtoz falsafasida I.Kant va V.Gegellardan farkli boshqa falsafiy yo‘nadishda ijod kildi. Shu sababli L.Feyyerbax o‘z falsafiy qarashlarining ibtidosidanok birinchi bulib Kant va Gegel falsafiy qarashlaridagi idealizmni kattiq tankid qilib maydonga chiqqan materialist faylasufdir. U Gegelning obyektiv idealizmini tanqid qilib, Gegel oyog‘osti kilgan materializmning falsafadagi qonuniy xukukini tikladi. Feyyerbaxning bu qarashlari uning «Gegel falsafasining tanqidiga doir» va «Xristianlikning‘ mohiyati» (1841y.) asarlarida o‘z ifodasini topadi. Bupda Feyyerbax falsafiy qarashlarnga ko‘ra, tabiat inson va uning ongidan tashqarida, inson va uning ongiga bog‘liq bo‘lmagan, mustaqil mavjud bo‘lgan obyektiv reallikdir. Uning fikricha, tabiatni hech kim yaratmagan, u azaliy bor va abadiy mavjud bo‘ladi. Inson esa tabiatning maxsuli, tabiat rivojlanish bilan paydo bo‘lgan oliy mavjudot. Olam tabiatdangina iborat, tabiat esa materiya sifatida hech qanday mistik yoki iloxiy kuchga bog‘liq emas. Tabiat - bu yorug‘lik, issiklik, elektr, magnetizm, havo, suv, o‘t, o‘simlik, hayvonot dunesi va nihoyat insondan iborat. Feyyerbax bunda Gegelning mutlaq g‘oyasini keskin tankid qilib, Gegelning mutlaq g‘oyasi inson miyasidan yulib olingan va tabiatdan tashqari kuchga aylantirilgan inson aqlidan o‘zga narsa emas, deydi. Uning fikricha mutlak g‘oya, tafakkur insondan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas. Chunki, mutlak goya ham va har qanday g‘oya ham inson tafakkuri bilan bog‘liq. Inson tafakkuri esa inson miyasi faoliyatining ishi. Inson miyasi moddiy narsa, u birlamchi, tafakkur, ong

esa ikkilamchidir. Tafakkurning borliqqa munosabati falsafaning bosh masalasi bo‘lar ekan, demak falsafa inson moxiyati to‘g‘risidagi bilim bo‘lishi kerak. Chunki tabiatda insondan yuksak boshqa fikrlovchi mavjudot yo‘q. Shu sababli tafakkurning borliqka munosabati masalasi fakat inson tomonidan, inson faoliyati jarayonida hal qilinadi, deb yozadi. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki Feyyerbax falsafasi insonga va uning faoliyatiga qaratilgan. Demak, Feyyerbax falsafaning asosiga insonni ko‘yadi. Bu degani: Feyyerbax falsafasi antropologik tabiatga ega, uning materializmi antropologik materializmdir. Insoi borliq va tafakkur birligining subyekti, asosi qilib olingandagina, bu birlikni haqiqiy deyish mumkin. Yangi falsafa insonni falsafaning birdan-bir universal va oliy predmetiga aylantiradi, deb yozgan edi Feyyerbax. U xristian dinini tanqid qilar ekan din bilan faleafaning insonni o‘rganishi ustida to‘xtalib, din insonning narigi dunyosi to‘g‘risidagi ma’lumot, falsafa esa undan farq qilib, insonning bu dunyodagi mohiyatini o‘rganuvchi bilimdir, degan edi. Shuning uchun falsafa tabiat to‘g‘risidagi fanlar bmlan yakin alokada bo‘lishi lozimligini aytadi.

Feyyerbax, falsafa inson to‘g‘risidagi fan-antropologiyadan iborat bo‘lishini aytib, borliq va tafakkur munosabati masalasini xal qilishda inson tabiatning bir qismi, uning mahsuli deb qarab, u insonni ijtimoiy mavjudot, tarixiy taraqqiyotning mahsuli ekanligini, insonning ongi va tafakkuri ijtimoiy munosabatlar bilan, ijtimoiy muhit, hayot sharoitlari bilan belgilanishini to‘liq tushunib yetmaydi. Feyyerbax, kulbada ishlaydiganlar bilan saroyda yashaydiganlar bir xil fikrlamasligini aytgan bo‘lsa ham, buning asosiy sababi nimada ekanligini tushunib yetmaydi. U o‘zining jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida insoniyat tarixiy bosqichlari faqat dinlar bilan farklanishini aytish bilan cheklandi, undan nariga o‘tolmaydi. Bu Feyyerbax falsafasining birinchi cheklangan tomoni edi. Uning falsafiy kurashlarining ikkinchi cheklangan tomoni shu ediki, u Gegel falsafasining idealistik ruxini, din bilan bogliq ekanligini to‘g‘ri tanqid qilgan bo‘lsa ham, lekin u Gegel falsafasining dialektikasini, dialektik uslubini to‘g‘ri tushunib yetmadi. Lekin bunday cheklangan tomoilarga qaramay, Feyyerbax falsafiy qarashlari keyingi davr jahon falsafasi taraqqiyotiga sezilarli darajada kattata’sir ko‘rsatadi.

Xullas, nemis mumtoz falsafasi o‘zi erishgan yutuqlari, uning vakillarining falsafiy qarashlaridagi mavjud cheklangan tomonlariga karamay, insoniyat falsafiy fikr taraqqiyotida muhim o‘rin egaladi va o‘zidan keyin paydo bo‘lgan falsafiy ta’limotlarga nazariy manba’lardan biri sifatida xizmat kildi.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. "Nemis mumtoz falsafasi"da ma’naviyat masalasi qanday ko‘yilgan?
2. Nemis mumtoz falsafasiga qanday xususiyatlar xos?
3. I.Kantni nega nemis mumtoz falsafasining asoschisi deymiz?
4. I.Kantning faoliyatli, ijodiy shaxsi ma’naviyati nimalarda ifodalanadi?
5. Nima uchun I.Kant "Agar shaxs o‘zi uchun ma’lum bir xulkni tanlagan bo‘lsa, u shuni boshqalardan ham qat’iy kutishi kerak" degan g‘oyani ilgari surgan?
6. I.Kant estetikasrning o‘ziga xos jihatlari nimalar?
7. F.Gegelning vemis mumtoz falsafasidagi o‘rni qanday?
8. Kishilikning ijtimoiy-siyosiy tarixi F.Gegel yashagai davrdagi prus davlatchiligida F.Gegel fikricha "yakunlangan" hisoblanadi?
9. L.Feyyerbaxiing antropologik falsafasida din qaysi nuqtai nazardan tanqid qilingan?
10. L.Feyyerbax falsafasida insonning ijtimoiy tabTtati qanday tushuntirilgan?

**Adabiyotlar ro‘yxati**:


1. O‘zbekiston Respublikasiniig Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston 2003.
2. Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o‘z tanlagal yo‘lidam qaytara olmaydi. (I.Karimovpipg O‘zbekiston televideniyasi uchun maxsus intervyusi), Xalq so‘zi, 2004 yil 30 mart;

3. Karimov I.L. O‘zbekiston XXI asr bo‘sagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston 1997.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intshshokda. T.: O‘zbekistop 1999.
5. Mo‘minov I.M. O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. -T.: Fan 1994.
6. Sulaymonova F. SharqvaG‘arb- -T.:, 1997.
7. AzamatZiyo. Kuchli jamiyat falsafasi. "Tafakkur" jurnali, 2002, 1-son.
8. Nasriddinov A. Davr ijtimoiy-falsafiy meros. "Mulokot" jurnali, 1999, 4-son.
9. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafatarixi. T-; 2002 y.
10. S.Io‘ldoshev va boshq. Yangi va eng yamgi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi.
11. T-; 2002 y.

## 10-mavzu:.XX ASR SHARQ MA’NAVIY HAYOTIDA SOTSIALISTIK MA’NAVIY QADRIYATLAR VA UNING TAQDIRI

**REJA:**

1. **XX asr Sharq ma’navpy xayotida sotsnalnstnk ma’naviy qadriyatlarning shakllanish omillari.**
2. **XX asr Sharq ma’navny hayotida sotsialnstik ma’navny qadriyatlarning iqirozi.**
3. **XX asr sharq ma’navpp hayotida din, mafkura, falsafa, qadriyatlar mohiyatida tub o‘zgarishlarning sodir bulishi.**

Mashhur mutafakkirlardan biri insoniyat tarnxida chuqur iz koldirgan XX asr hakida suz yuritar ekan, "Vaqtni biz tanlamaymiz, balki unda yashaymiz va o‘lamiz", degan edi. Darxaqikat, o‘tgan yuz yillik odamzod boshiga ko‘p tashvish, azob-ukubat va g‘am-andux keltirgan asr bo‘ldi. Eslaylik, asr boshidagi jahon urushi, bolsheviklar inqilobi va fuqarolar jangi, o‘ttizinchi yillardagi ocharchilik, kulok qilish va katagonlar, Ikkinchi jahon urushi, Osvensim va GULAG lagerlaridagi insoniyatga qarshi daxshatli jinoyatlar, Xirosima va Chernobil fojialari kabi ofatlardan million-million begunox odamlar kurbon bo‘ldi, bir umrga mayib-majruhga aylandi. Avvalgi asrlarda xech kimning xayoliga ham kelmagan bolshevizm, fashizm, terrorizm. giyohvandlik, SPID sipgari ajal balolari aynan shu yuzyillikda paydo bo‘lib, insoniyat hamda u yaratgan sivilizatsiyaning kO‘shandasiga aylandi. Ana shunday xavf-xatarlar sababli bugungi kunda xatyu dunyoning eng badavlat mamlakatlarida bekamu ko‘st yashayotgan odamlarning ham tinchligi buzilyapti. Yer yuzidagi katta-kichik mashshkatlar va xalqlarning barchasi endi, istasa-istamasa, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarda o‘zaro kelishib. tinch-totuv yashashga, bunday ofatlarga qarshi hamjihatlikda kurashishga majbur bo‘lmokda. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda hayotning barcha jabxalarida globallashuv jarayoni goz beryapti. Bu jarayon XXI asr sivilizatsiyasida, xususan, ma’naviy madaniyatning muhim shakli hisoblangan badiiy adabiyotda qay tarzda kechadi, degan masala jamoatchilikni jiddiy o‘ylantirmokda.

Keling, avvalo XX asrda badiiy adabiyot va xalqaro adabiy jarayon qanday rivojlanganiga bir nazar tashlaylik. O‘tgan asrda adabiyot va san’atda globallashuvga xojat sezilganmidi? Sezilgan bo‘lsa, bu jarayon qanday kechgan edi? Yuqorida ta’kidlaganimizdek, utgan asr adabiyoti va san’ati fojialarga boy bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy sharoitda ish ko‘rdi. Ayniksa, hayot va ijodning kaynok nuqtalarida turib qalam tebratgan yozuvchilar turli inkiloblar, jaxon urushlari, konslager va qatag‘on dahshatlari haqida badiiy pishik asarlar yaratdi. Dunyo ikki tuzum — sotsialistik va kalitalistik lagerga ajraldi. Ta’bir joiz bo‘lsa, shu tariqa ikki ko‘rinishdagi globallashuv jarayoni kecha boshladi. Ularning o‘ziga xos manfaati va mafkurasini ifoda etadigan sotsialistik realizm, modernizm va postmodernizm okimlari bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishdagi turli ijodiy maktablarni yaratdi. Birinchi oqimga mansub ijod axli kommunistik partiya belgilab bergan mafkura, ya’ni sotsialistik realizm kolipidan chetga chikolmadi, uning talabiga bo‘ysunmaganlar ta’qib kilindi, jazolandi. Ikkinchi oqimga mansub iste’dod soxiblari esa erkin ijod qildi, o‘zlari kashf etgan, ma’qul ko‘rgan dadaizm, syurrealizm, futurizm, kubizm, ekzistensializm kabi

oqimlarda xalqchil asarlar yaratdi. Natijada modernizm adabiyotida turli ilg‘or okimlar gozaga keldi, rang-barang uslublar kashf qilindi.

Sotsialistik realizm yo‘nalishida yaratilgan asarlar sobiq Itgifoqning oliy nishonlari bilan takdirlandi. Bu mukofotlar hatto xorijdagi komfirkalar a’zosi bo‘lgan Anna Zegers, Iogannes Bexer, Lui Aragon, Andre Stil singari o‘rtamiyona kalamkashlarga ham berildi. Modernizm va postmodernizm uslubida yozilgan sara asarlar esa dunyodagi eng nufuzli sovrin — xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. Asr boshida ijod qilgan fransuz shoiri Syulli-Pryudomdan (1901) yuzyillik miyonasida yashagan amerikalik yozuvchi Ernest Xemingueygacha (1954), asrning ikkinchi yarmida adabiyotga kirib kelgan lotinamerikalik adib Garsia Markesdan (1982) asr so‘ngida tanilgan xitoy yozuvchisi Gao Sinszyangacha (2000) qariyb yuzga yaqin adabiyot darg‘alari Nobel mukofotini oldi. Sobik Ittifok yozuvchilaridan atigi ikki adib — Mixail Sholoxovga (1965) "Tinch Don" va Boris Pasternakka (1958) "Doktor Jivago" romani uchun Nobel mukofoti berilgan edi. Oqibatda dunyo tan olgan bu ijodkorlarning birinchisi Moskvadan uzokdagi Vyoshenskaya stanitsasida, ikkinchisi mukofotni rad etgan xolda poytaxt biqinidagi Peredelkino qishlog‘ida umrguzaronlik qilishga majbur bo‘ldi. Savol tug‘iladi: nega, deylik, Aleksey Tolstoyning "Pyotr Birinchi", Muxtor Avezovning "Abay", Oybekning "Navoiy" yoki keyingi bo‘g‘inga mansub adiblardan Chingiz Aytnatov, Vasiliy Shukshin, Nodar Dumbadze kabi yozuvchilarning qissa va romanlari Nobel mukofotiga sazovor bo‘lmadi? Chunki ular sobiq №tifokda yashagan, sotsrealizm metodi asosida ijod qilgan, qolaversa, komfirqa a’zolari edi. Shu bois sotsrealizmga rakobatda bo‘lgan modernizm va postmodernizm namoyandalari yonida turishi mumkin emas edi. Bunga sho‘ro tuzumi va uning metin mafkurasi aslo yo‘l bermasdi.

XX asr sotsialistik tuzumda, bolsheviklar tazyiqida yashab ijod kilgan shoirlar tarafidan "shafkatsiz asr" (A.Blok), "metin asr" (A.Axmatova), "bo‘rilar boskini asari" (O.Mandelshtam) degan salbiy baxolarni olgan edi. Shunday qilib, XX asr adabiyotida globallashuv ikki yo‘nalishda, ya’ni sotsrealizm va modernizm (postmodernizm) maydonlardda yuzaga keldi desak, xato kilmagan bo‘lamiz.

Moziyga kaytaylik. Miloddan oldingi IV asrda yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy butun Osiyoni qurol kuchi bilan zabt qylib, aslida yarim dunyoki birlashtirmokchi, qudratli davlat barpo etmoqchi bo‘lgan va shu tariqa insoniyat tarixida globallashuv jarayonini boshlab bergan. Yoki miloddan oldingi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar ham xuddi shunday yo‘l tutib, butun Ovruponi ishg‘ol kilgan va qudratli imperiya sarhadlarini keigaytirgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, insoniyat tarixida zo‘ravonlik bilan bo‘lsa-da, ikkinchi glo-ballashuvga asos solgan. Xo‘sh, bu ikki globallashuv jarayoni tarixda qanday iz koldirdi? Masalan, birinchi xukmdor o‘z yurishlari chog‘ida Sharq xalqlari madaniyatini o‘rgangan, "Avesto" kitobini taxlil va tarjima kildirgan, umdagi o‘ziga zarur jihatlarni imperiya boshqaruvida jorii etgan. Uz navbatida. Sharq madaniyati ham qadimgi yunon tili va tamaddunidan baxramand bo‘lgan. Qolaversa, yunon va turkiy adabiyot namupalari bo‘lmish "Iliada", "Odisseya" va "Alpomish", Go‘ro‘gli" dostonlaridagi o‘xshash jihatlar o‘sha davrdagi globallashuv hosilasi emasmikal? Yuliy Sezar kabila-urug‘ bo‘lib yashayotgan G‘arbiy Ovrupo xalqlariga lotin yozuvi va Rim sivilizatsiyasini olib borgan. Natijada Ovrupodagi qator mamlakatlarda yozuv paydo bo‘ldi, ularning tili romanlashdi, hayetiga Rim tamadduni kirib bordi.

Urta asrlarda (1U-X1U) insoniyat globallashuvning o‘zgacha ko‘rinishini boshdan kechirdi. Ovrupoda yuzaga kelgan xristianlik mafkurasi va uning peshvolari qadimgi yunon-rim sivilizatsiyasini tan olmadi, balki uning dushmaniga aylanib, adabiyot va san’at asarlarini, hashamatli osori-atikalarmi yer bilan yakson kildi, xalq varvarlik davrini boshdan kechira boshladi. Diniy sxolastika va inkvizitsiya insonni yakka Xudo va unimg payg‘ambari Iso Masixga tobe bo‘lishga majbur etdi. Din, davlat va cherkov sivilizatsiya ustidan xukmronlikni qo‘lga oldi. Ovrupodagi bir diniy boshqaruv shaklidagi globallashuv jarayoni xukm surdi. O‘rta asrlarda kurilgan roman va gotik uslubidagi hashamatli ibodatxonalar va feodallarning bahaybat qasrlari avom xalqni Yaratganning oldida itoatkor bo‘lishga, o‘z xo‘jasi — feodalga qaram va sodiq kul tutinishga da’vat etardi. Bu davrda bitilgan Iso Masix va uning avliyolari xdyoti hakidagi afsonayu rivoyatlar-da "u dunyodagi lazzatli hayotga erishish uchun bu bevafo dunyoda azob chekib, toat-ibodat kilmok zarur" degan shior ustuvor edi. Faqat X-XP asrlar davomida yaratilgan xalq og‘zaki

ijodiga mansub "Beovulf", "Roland haqida qo‘shiq", "Sid haqida qo‘shiq", "Nibelunglar hakida ko‘shiq" kabi dostonlarda kaxramon ritsarlarning salib yurishlarida ko‘rsatgan jasorati, vatanga va qirolga sadokati, yoriga vafodorligi yuksak pardalarda tarannum etildi, ularda shaxsning qudrati va yaratuvchanlik kobiliyati ulug‘landi.

VII-VIII asrlarda Sharq olamida vujudga kelgan islom tamadduni ham insonni Xudo va uning yerdagi payg‘ambari Muhammad alayhissalom ko‘rsatmalari bo‘yicha yashashga chaqirdi. Bu ham insoniyat hayotidagi globallashuvning o‘ziga xos ko‘rinishi edi. Ammo islom tamadduni xristian dini va uning sxolastikasidan ko‘ra ma’rifatli va insoniy edi. Chunki u ko‘xna yunon-rim sivilizatsiyasini rad etmadi, balki yunon, lotin va arab tillarida yaratilgan buyuk kashfiyotlarni, adabiyot va san’at asarlarini uzviy bogliqlikda o‘rgandi, o‘zlashtirdi. Shu bois islom tamadduni 1X-X asrlardayoq Imom Buxoriy va Imom Termiziy singari buyuk muhaddislarni; X1-X1N asrlarda Forobiy, Farg‘oniy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Rushd kabi qomusiy allomalarni; Nizomiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshgariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy singari ma’naviyat darg‘alarini yetishtirdi. Sharq renessansi deya nom olgan bu davr keyinchalik Ovrupo ilmu fani rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi, Sharq va G‘arb sivilizatsiyasida globallashuv jarayoniii boshqardi. Ta’kidlash lozimki, G‘arb va Sharq olamida xukmron bo‘lgan xristian va islom ta’limoti insonning yashash omilini Yaratganning karomatiga bog‘lab, mavjud dunyoda chekilgan azob-uqubatlar evaziga narigi dunyoda albatga huzur-halovat, jannat ne’matlari beriladi, degan qarashlarni targ‘ib etdi. Bu g‘oya o‘rta asrlarda yaratilgan badiiy asarlar mazmuniga ham singdirilgan edi.

Hech qanday syvilizatsiyani tan olmagan mo‘g‘ul boskini davrida Rim va G‘arb qirolliklaridan xristian dini peshvolari, savdogar va sayyoxlar Sharqka qarab okib kela boshladi. Ular Qora dengiz bo‘yidan to Xonbaliq — Pekinga kadar bo‘lgan xonliklar yerida xristian dinini targib qilish, cherkovlar qurish bilan shugullandi, islom tamadduni yaratgan asosiy madaniy boyliklar — arab, fors va purkiy tildagi qo‘lyozma va kitoblarni Ovrupoga tashib ketdi. Yaratganga shukrki, oradan bir asr o‘tib mo‘g‘ul bosqiniga barham berildi. Hozirgi Markaziy Osiyo hududida Soxibkiron Amir Temur kudratli davlat barpo etdi. Nafsilamrini aytganda, Amir Temur, ul zotning o‘g‘li Shoxrux va nabirasi Mirzo Ulug‘bek zamonida mo‘g‘ullar tarafidan g‘orat qilingan islom tamadduni qayta tiklandi, ilmu fan, adabiyot va san’at yanada tarakkiy etdi. Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Behzod va Xondamir kabi allomalar yetishib chikdi. Dunyo ilmida Amir Temur va uning avlodlari hukmronlik qilgan X1U-XU1 asrlar temuriylar davri sivilizatsiyasi deb nom oldi. Amir Temur davrida Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasida bevosita alokalar va elchilar almashinuvi yo‘lga ko‘yilgan, insoniyat tarixida ilk bor o‘zaro hamjihatlik, ya’ni globallashuvga intilish yuzaga kelgan edi.

X1U-XUP asrlarda qadimgi yunon-rim va islom tamaddunidan baxra olgan ilg‘or fikrli ziyolilar G‘arbiy Ovrupoda Uyg‘onish davri madaniyatiga asos soldi. Madaniy hayotdagi globallashuv Rarbiy Ovrupoga ko‘chdi. Italiya adabiyoti (Dante, Bokkachcho, Petrarka) va san’atida (Jotto, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi) paydo bo‘lgan renessans kurtaqlari Ispaniyada (Servantes, Lope de Vega), Fransiyada (Rable, Ronsar), Germaniyada (Sebastian Brant), Niderlandiyada (E.Rotterdamskiy) taraqqiy etib, Angliyada (Marlo, SHekspir) yakun topdi. Renessans adabiyoti qaxramonlari — Gargantyua (Rable), Don Kixot (Servantes), Buyuk Temur (Maolo), Yuliy Sezar, Hamlet va Otellolar hayotda bunyodkor shaxs, o‘z orzu-umidlari yo‘lida kurashishga qodir buyuk qahramonlardir. Ayni chog‘da odamzod kundalik hayotda buzg‘unchi, salbiy hislatlarga ham ega. Masalan, "Otello"dagi buzgunchi Yago ishonuvchan va o‘ta rashkchi Otelloni mag‘lubiyatga uchratadi, xalok qiladi. Otelloning maglubiyati renessans gumanizmining inkirozga yuz tutgani alomati edi.

Klassitsizm sivilizatsiyasi XVII asrda Ovrupodagi yirik feodal davlatlarning g‘oyaviy kuroli sifatida maydonga keladi. Adabiyot va san’atda globallashuv aynan klassik uslub qonuniyatlari asosida ro‘yobga chiqadi. Klassitsizmning uch birlik (vokea, joy va vakt birligi) haqidagi qonuniyati badiiy adabiyot va teatr san’atini jilovlab turadi. O‘zini Yuliy Sezarga mengzagan Fransiya kiroli Lgodovik XIV Ovrupoda globallashuv jarayonini boshqaradi. U "Davlat — mening o‘zim!" degan shior asosida yashar, ayni zamoida adabiyet va teatr xomiysi, kalam axlining otaxoni ham edi. "Kuyosh qiroli" (uni shunday deb atashardi) badiiy ijOd axli oldiga endi "Qanday istasang

shunday yozmaysan, balki kirol va uning davlatiga manzur bo‘ladigan qilib yozasan" degan vazifani ko‘yadi. O‘sha davrda ilk bor shoir Klassitsizm adabiyoti kaxramonlari oldida avvalo vatan tuyg‘usi, kirolga vassallik burchi, keyin esa or-nomus, oila va muxabbatga sadoqat masalasi turar edi. Bunday goyalar klassitsizm adabiyotining Jan Rasin, Molyer, Bualo, Tasso, Drayden kabi namoyandalari asarlarida tarannum etiladi. Bu davrda Sharq mavzui ham alohida o‘rin tutadi. Masalan, Rasinning "Boyazid", Tassoning "Ozod etilgan Quddus", M. dyu Skyuderining "Artamena yoxud Buyuk Kir", Jon Draydenning "Avrangzeb" fojialarida mualliflar kudratli Sharq xukmdorlari obrazini yaratish orqali g‘arblik kirollarni davlatni boshqarishda qattikko‘l va adolatli bo‘lishga da’vat etardi. Lekin klassitsizm adabiyotida tasvirlangan itoatkor shaxs to‘lig‘icha barkamol bo‘la olmadi, zimmasidagi burch uning orzu-umidlarini jilovlab ko‘ydi, ularga erishuvida to‘skinlik kildi. Oqibatda klassitsizm inkirozga yuz tutib, o‘z o‘rnini barokko va rokoko oqimlariga bo‘shatib berdi.

XP1 asr jahon sivilizatsiyasi tarixida ma’rifat asri va ma’rifat adabiyoti degan nom oldi. Ma’rifat asri insonning buyukligini tan olsada, unga "tabiatning bir bo‘lagi" (J.J.Russo) va shaxs sifati-da "jamiyatga karamdir" (Gegel) degan akida asosida qaradi. Bashariyatni yoppasiga savodxon qilish, odamlarga ma’rifat tarqatish, kirollarni odil bo‘lishga chaqirish (Volter) orqali jamiyatni o‘zgartirish, farovonlikka erishish ma’rifatparvarlarning asosiy g‘oyasi edi. Hazrat Alisher Navoiy Husayn Boyqaro siymosida odil podshoxni ko‘rishni istaganidek, faylasuf Volter Prussiya kiroli Fridrix Ikkinchiga, yozuvchi Didro esa Rossiya qirolichasi Yekaterina Ikkinchiga pand-nasixat qilish niyatida ular saroyida yashaydi. Ular mustabid qirollarni pand-nasixat bilan ma’rifatli va adolatli qilib bo‘lmasligiga ishonch hosil etgach, o‘z orzularini kitoblarda yozib qoldirishadi. Ma’rifatchilarning kenja vakili Jan-Jak Russo bo‘lsa insonni ma’rifatli va sofdil qilib tarbiyalashning birdan-bir yuli — uni go‘daqlik chog‘ida odamlardan ajratib, to balog‘atga yetgunga kadar osoyishta tabiat ko‘ynida o‘stirish va tarbiyalashdan iborat, degan fikrni olga suradi. Ma’rifatchilar o‘z g‘oyalarini hamkorlikda nashr ettirgan ko‘pjildli "Qomus"da, "Fors nomalari" (Monteskye), "Ramo jiyan" (Didro), "Zadig", "Kandid" (Volter), "Emil yoki tarbiya" (J.J.Russo) kabi roman va kissalarida asoslab bergan. Ma’rifat darg‘alari shaxs tarbiyasida, odil monarx davlatini yaratish xususidagi fikrlarida Sharq donishmandligiga murojaat qiladi, Qur’oni karimdan iqtiboslar oladi. Ularning g‘oyasiga suyangan ma’rifatli xalq oqibatda monarx tuzumiga qarshi chikdi, 1789 yili Fransiya burjua inkilobi g‘alaba qiladi. Shu tarika XVIII asrda globallashuv ma’rifat-parvarlar harakatida ko‘rindi va ular tomonidan amalga oshirildi.

XIX asr tafakkurining peshvolari — Gegel, Marks, Kyerkegor, Shopengauer, Nitsshe kabi faylasuflar kalitalizm davrida globallashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydigan pul va boylik xukmronligini tanqid qiladi, uning jamiyat hayotida inson omilini belgilovchi asosiy vosita bo‘lishidan, ma’naviyat va sivilizatsiya uning kuliga aylanib qolishidan cho‘chiydi- Kalitalistik tuzumni romantizm adabiyoti vakillari Gofman va Gyugo ham, tankidiy realistlar Dikkens va Balzak ham, naturalist Zolya ham, hatto Tolstoy, DostoyevskiY kabi rus adiblari ham taikid qilgan. Ular kalital xukmron bo‘lgan jamiyatda shaxs erki va inson manfaati suiiste’mol qilinishi mukarrar ekanini uqtiradi. Shu bois XIX asr o‘rtalarida jamiyatda shaxs erkinligi va inson manfaatini ximoya qiladigan turli falsafiy qarashlar va adabiy oqimlar yuzaga kela boshlaydi. Nemis faylasufi Gegel bu borada birinchilardan bo‘lib fikr yuritar ekan, masalaning yechimi tarixiy jarayon — insoniyat hamjihatligi bilan bog‘liq ekanini, aql bilan ish ko‘rmok lozimligini ta’kidlaydi. Chunki barcha oqilona fikrlar xakiqat haqidagi baxslarda tug‘iladi, hakikat esa oqil insonlar tarafidan yaratiladi, degan g‘oyani ilgari suradi u. Bu falsafiy fikrlar keyinchalik Balzak, Flober, Dostoyevskiy va Tolstoy ijodida badiiy ifoda etiladi. Masalan, Balzakning "Gorio ota", Floberning "Bovari xonim", Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo", Tolstoyning "Anma Karenina" kabi fojiaviy romanlari kaxramonlari Gorio ota, Emma Bovari, Raskolnikov va Anna Kareninalar qismatining sababchilari ularning o‘zi bo‘lib chiqadi. Ular oqibatni o‘ylamay ish tutadi va burjua jamiyatining kurboniga aylanadi. Yoki, Balzak ta’rifi bilan aytganda, bu "burjua zamoni va axloqining fojiasi edi". Gegelning vatandoshi faylasuf Artur Shopengauer ham burjua jamiyati va hayotida inson o‘ziga erk bermasligi lozim, bu tuzum erkin harakat qilish, orzularga berilib yashashni yoqtirmaydi, deya yuqoridagi xolatlarni tasdiqlaydi.

Karl Marks esa yukoridash fikrlarga qarshi chiqib, dunyoda tenglikni barkaror qiluvchi omil — jamiyatda sotsial tenglikka buysunadigan tuzumni yaratishdan iborat, deb hisoblaydi.

Xullas, XIX asr oxirida Bayron va Gyugo orzu qilgan shaxs buyukligi va unyng jamiyatdagi hukmron sinf bilan kelisha olmasligi hakidagi konsepsiyani yaratgan romantizm ham, shaxs takdiri va inson omilini belgilab beradigan kalital xukmronligini tanqid qilgan Balzak va Dikkens realizmi ham, insonning jamiyatdagi o‘rni uning irqiy va nasliy kelib chiqishiga (boyning farzandi — boy, ishchining farzaldi ishchi, amaldorning farzandi -amaldor kabi) bog‘liq, degan kdrashni yoqlaydigan Zolya naturalizmi ham inkirozga uchradi. Ulardan hech biri badiiy adabiyotda globallashuv tamoyilini saqlab kola olmadi. XX asrda Marks ta’limotiga asoslangan sotsialistik realizm va Kyerkegor hamda Nitsshe nazariyasini targ‘ib qilgan modernizm (postmodernizm) ijodiy jarayondagi globallashuvga yetakchilik qildi. Masalan, Fridrix Nitsshe dunyoning mukammal emasligi, shu bois shaxs ioqulay sharoitda yashayotgani va yashashga majburligini ta’kidlar ekan, bunday jamiyatda faqat uddaburon va kuchli shaxslargina morizo odamlar to‘dasini boshqaradi, o‘zlariga esa kulay sharoit hozirlaydi, degan tezisni ilgari surardi. Uning bu falsafiy g‘oyasini XX asr modernizm adabiyoti o‘ziga shior qilib oladi.

Daniyalik faylasuf Kyerkegorning "Jamiyatni o‘zgartirish, undan haqiqat izlash nechun? Menga osoyishtalik kerak. Din va tuzumlar odamzodni bir-biriga dushman qilib qo‘ydi. Unisining ham, bunisining ham baxridan o‘tmok lozim.

O‘tgan asrning oxiriga kelib sobiq Ittifoq hududida hukmron tuzum bilan birga sotsialistik realizm ham inkirozga yuz tutdi. Rarbda modernizm va postmodernizm ham o‘z umrini yashab bo‘ldi. Ispan faylasufi Xose Ortega Gasset ta’kidlaganidek, badiiy adabiyot ikki turga bo‘lindi: birinchisi — o‘quvchini mushohadaga chorlaydigan, unga ruhiy oziq beradigan elitar adabiyotga mansub romanlarni mutolaa qiladigan kitobxon qolmadi; ikkinchisi — oldi-kochdi mavzudagi ommabop adabiyotning (belletristika va kriminal romanlar) bozori chaqqon bo‘la boshladi. Xullas, o‘kuvchi jiddiy kitob o‘qimay ko‘ydi — hayot tezkor, vaqt esa cheklangan.

Xulosa qilib aytganda, bugun olimlar adabiyot va san’at XXI asrda kaysi yo‘ldan boradi, iktisodiyot va siyosatda kutilayotgan globallashuv adabiy jarayonga qanday ta’sir o‘tkazadi, degan masala ustida bosh kotirmokda. Ko‘pchilikning ta’kidlashicha, iktisodiyot va siyosatda bo‘lgani kabi, XXI asr sivilizatsiyasida, jumladan, adabiyotda ham globallashuv mukarrar. Bu jarayon ikki ko‘rinishda sodir bo‘lishi kutilayotir. Birinchisi amerikancha model bo‘lib, AQSH iqtisodiy ustunlik mavqeidan foydalanib, o‘zida yaratilgan adabiyot va san’at asarlarining yaxshi-yomonini birvarakayiga eksport qilishi mumkin. Bunday holatda dunyo xalqlari Xeminguey, Folkner, Steynbek, Bredberi, Moem, Aldayk kabi buyuk yozuvchilar romanlari bilan bir qatorda fikrni chalg‘itadigan, mazmuni sayoz, zo‘ravonlik va samoviy urushlar targib etiladigan yuzlab asarlarni ham o‘qishga majbur bo‘ladi. Ikkinchisi — globallashuv davrida umuminsoniy ("jahon adabiyoti" degan tushuncha eskirib boryapti), ya’ni mazmunan milliy, badiiy yuksak, g‘oyaviy jihatdan esa bashariyatga daxldor qadriyatlarni mujassam etgan adabiyot maydonga kelishi mumkin. Umuminsoniy adabiyotni tashkil etadigan milliy adabiyotlar, o‘ziga xosligini saqlagan holda, boshqa xalqlar adabiyotidagi ilg‘or jihatlarni o‘zlashtirib boradi, an’ana va uslublardan oziqlanadi. Bu esa xalqaro adabiy jarayon va adabiyot nazariyasida globallashuvni yuzaga keltiradi.

**O‘z-o‘zini tekshnrish uchun savollar:**

1. Jaxon xalqlari ma’naviy hayotida ulug‘ oktabr sotsialistik inqilobi qanday rol o‘ynadi?
2. O‘zbek milliy ma’naviy hayoti va sotsialistik inkilob.
3. Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik ma’naviyat deganda nima tushunilgan?
4. Shaxs ma’naviy inkirozi va sotsialistik ma’naviyat.
5. Millat, ma’naviyat, madaniyat va sotsialistik inqilobi birligining tabiatini tushuntiring.
6. Sotsializmda fan va din o‘rtasidagi ziddiyat nimalarda ko‘rinar edi?
7. Sotsialistik mafkura va sotsialistik davlat o‘rtasidagi munosabatni tushuntiring.
8. Jahon ma’naviyati va sotsialistik madaniyat o‘rtasidagi ziddiyat nimalarda ko‘rinadi?
9. Sotsialistik madaniyatning o‘z-o‘zidan yemirilishini qanday tushuntirasiz?

10. Mustaqil milliy davlatlar ma’naviyatining shakllanishi va sotsialistik tuzum inqirozi birligi **omillari nimalarda ko‘rinadi?**

## Adabiyotlar ro’yxati:


1. Karimov I.A..Bizdan ozod vaobod Vatan kolsin. T.2. -T.; O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barkaror taraqqiyot yo‘lidan. T.6. -T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxudaxlok. -T.: Uqshuvchi 1992.
5. Jumaboyev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqmy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. -T.: O‘kituvchi 1997.
6. Malik Murod. O‘zbek qadriyatlari. -T.: Cho‘lpon,1995.
7. Mustakillik: ilmiy, izoxli, ommabop lutat. -T.:Sharq 1999.
8. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. -T., Sharq1999.
9. Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
10. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002y.
11. S.Yo‘ldoshev va boshk. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.


## 11-mavzu: XX ASR G‘ARB MA’NAVIY HAYOTINING ZIDDIYATLARI VA UNING

**REJA:**

1. **XX asr ma’naviyatnnnng mohiyati va uning asosiy xususiyatlari.**
2. **Hayot falsafasi va ekzistensializmda inson muammosi.**

Biz yuqorida falsafiy konsepsiyalar tarixini qarab chiqdik. Aytish mumkinki, o‘tmishda yashab o‘tgak deyarli har bir yirik mumtoz faylasufning o‘z izdoshlari bo‘lgai. Platoiizim, aristotelizm, gegelchilik, nitsshechilik singari okimlarning hozirgi zamon ko‘rinishlari mavjud. Barcha falsafiy konsepsiyalar u ski bu tarzda o‘zaro bir-biri bilan bogliqdir. Falsafiy bilim o‘zidan oldin o‘tgan mutafakkir olimlarning ta’lymotlariga tayanib kelgan. Biz falsafa tarixida inson tafakkuri avloddan-avlodga, davrdan-davrga o‘z mantigi va ma’nosimi yo‘qotmasdan o‘tib kelayotganligini ko‘rdik. Faylasuf barcha zamonlarda umumbashariy madaniyat muammolarini hal etishga harakat qilib kelgan, turmushning mohiyati va unda insonning o‘rni, ipdivid va individuallik, madaniyatning xilma-xilligi va bir butunligi; inson sivilizatsiyasining istikbollari, bilish vositalari, inson va jamiyatni takomillashtirish yo‘llari va hokazolar ana shunday muammolardandir.

Falsafa fani jadal sur’atlar bilan o‘zgarib turgan dunyoni anglab yetishga yordam beradi; eng to‘g‘ri ommaviy ong shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri va aniq maqsadga karatilgan faoliyat ko‘rsatish-sivilizatsiyaning shartidir. Shu ma’noda falsafa fanini o‘rganish duiyoni to‘g‘ri anglashga yordam beradi. U to‘g‘ri, ongli hayot kechirishga o‘rgatadi.

O‘tmishdagi va hozirgi vaqtdagi falsafiy ta’limotlar ko‘p hollarda insonparvarlik yo‘nalishida bo‘ladi. Ular turlicha bo‘lishiga qaramay xech biri mutlaq haqiqatni da’vo qilmaydi. Lekin ularni jamlab bir butun holda olinsa, ulardan inson uchun g‘oyat zarur bo‘lgan qimmatli fikrlar chiqadi. Bunda har qanday bahs-munozarasiz mutlaq xakiqatga da’vogarlik mavqeida turish - bu unchalik aqlli bo‘lmagan ishdir. U hatto ijtimoiy amaliyot uchun favqulodda havfli hodisalarni keltirib chikarishi mumkin. Haqiqatni monopoliya qilib bo‘lmaydi va monopoliya kilinmasligi kerak - mana bu gal falsafiy xakiqatdir. Bashariyat madaniyatiga, uning bilimiga hurmat ko‘rsatish bugungi kundagi tinchlik va xotirjamlikni ta’minlaydi.

Bugungi kunda global, ya’ni ulkan muammolar bo‘lmish: urush va tinchlik masalasi, ekologiya, ijtimoiy taraqqiyot va shunga o‘xshash muammolarni birinchi bo‘lib ko‘tarib chiqish ham falsafaga taalluqlidir. Ushbu muammolar bilan aslida barcha faylasuflar va barcha Falsafa maktablari shug‘ullanadi. G‘oyat murakkab nazariy bilim muammolari bilan band bo‘lishiga qaramay, mashxur tabib va alloma Abu Ali Ibn Sino "Najot kitobi", "Insof kitobi", Kant ham

«Mangu tinchlik to‘g‘risida» degan g‘oyat qiziqarli traktat yozgan. Aristotel mantiq fami bilan qanchalik berilib shugullanishiga qaramasdan, u ham «Etika» degan kitob yozgan.

XX-XXI asrga kelib ulkan muammolarni falsafiy jihatdan anglash asosida bashariyat madaniyatidagi goyat muhim qadriyatlar to‘g‘risidagi masalalar o‘rtaga ko‘yildi: sinfiy, milliy diniy va umuminsoniy masalalar; urush yoki tinchlik; yaratish yoki vayron qilish; tabiat ustidan «xukmronlik qilish» yoki odam bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirish mana shunday ulkan muammolardan hisoblanadi.

Xuddi ilgari vaktlardagidek bugungi kunda ham inson muammosi, uning tabiat bilan, turmush bilan munosabati, bilish va o‘z-o‘zini bilish, hayot ma’nosini, hamda eng muhimi hayotiy qadriyatlarni anglash falsafaning asosiy muammolari bo‘lib kolmokda. Ushbu masalalarning barchasi ma’lum darajada bundan ikki ming yil muqaddam qanday bo‘lsa, shundayligicha yechilmasdan, xal qilinmasdan ochik kolmoqsa.

Falsafa maktablari va yo‘nalishlari kanchalik ko‘p bo‘lmasin, ularning aksariyati umumiy belgilarga ega bo‘ladi, bu esa muayyan turlashni o‘tkazish imkonini beradi. Yuqorida materializm bilan idealizm, empirizm bilai ratsionalizm o‘rtasidagi farqlar keltirib o‘tilgan edi. XIX asr o‘rtalaridan boshlab falsafiy tadqiqotlarda yaigi usullar paydo bo‘ldi. Bu usullar mumtoz falsafa ziddi bo‘lgan nomumtoz falsafa degan tushunchani iste’molga kiritish uchun asos berdi. Antik - qadimgi zamonlardan tortib to A.Shopengauerga qadar mumtoz falsafa «aqlli» bo‘lgan, u aql-idrok kuchiga tayangan hamda voqelikning moxiyati uning belgilovchisi hisoblangan.

Mumtoz falsafiy ta’riflar XLX asrning o‘rtalariga kelib ko‘pchilik faylasuflarni qoniqtirmay koldi. Ular ushbu ta’riflarda insonning o‘rni yo‘qolib ketgan, deb xisoblashdi. Insondan subyektiv xususiyatlarning o‘ziga xosligini, ularning xilma-xilligini yangi faylasuflar aql-idrok, fan usullari bilan «qamrab olib bo‘lmaydi.», deb xisobladilar. Ular ratsionalizmning ziddi o‘laroq mumtoz bo‘lmagan nomumtoz falsafani rivojlantira boshladilar. Unda hayot (hayot falsafasi), insonning mavjudligi (ekzistensializm) birlamchi reallik sifatida taxlil etila boshladi. XIX asrning o‘rtasida odamga uncha e’tibor qilmaslik singari falsafiy tendensiyaga aylanib qolgan holatlar, ya’ni hayot va insonning hayotiy faoliyatiga bogliq jihatlarga qiziqish nomumtoz falsafa vujudga kelishi uchun asos bo‘ldi. Shu ma’noda nomumtoz falsafaning paydo bo‘lishi batamom qonuniy bo‘lgan bir xodisa edi.

Falsafiy fikrlashning yangicha tipini yaratishga ko‘p jihatdan nemis olimi Artur Shopengauer asos solgan. Hayotda mavjud bo‘lgan hamma narsani Shopengauer iroda, hayotga nisbatan iroda deb tushunadi. Iroda xuddi kosmik fenomenday universal, tabiatdagi har bir kuch esa xuddi iroda singari tushuniladi. Tanaga ega bo‘lgan har qanday narsa - bu «irodaning obyektivligi»dir, hayvonlarniig instinktlari va xatti-harakatlari ham-irodaning ta’siri, nixoyat, inson ham irodaning namoyon. bo‘lishidir, shun-inguchun ham uning tabiati .ratsiolgsszmaye, bllki irratsionaldir. Aql-idrok irodaga.nisbatan olganda iksoshemchidir, u asossiz bo‘lib, qolgan barcha narsalarning manoai ayni mana shu irodadir. Dunyoling o‘zi ham iroda va uning butun borligi bilan "namoyyshidir. Hamma narsa shu jumladan, odam ham irodaning aylanisi turgan g‘ildiragiga abadiy bog‘lab tashlangan. Aftidan, Shopengauer olamni goyat o‘ziga xos bo‘lgan spetsifik nuktai nazar bilan ko‘rganga o‘xshaydi. Bunday karash unga xaddan tashqari ratsional bo‘lgan falsafaga qarshi, uning ziddini yaratish imkonini bergan.

Nemis olimi Frndrix Nitsshe uchun esa narsaning asosida Shopengauer singari hayotga intiluvchi iroda emas, balki hokimiyatga-hukmron bo‘lishga intilmsh irodasi yotadi. U o‘zining «Zardusht tavallosi» deb nomlangan kitobi kaxramoni singari kuchli shaxslar tarafdori bo‘lgan. Ma’lumki, Zardusht baland tog‘ cho‘kqilarida. ya’ni oddiy odamlardan yukorida o‘zining yakin do‘stlari bilan birga bamisoli donishmand ilonday va mag‘rur burgutday hayot kechirgan, Odam bilan tabiat orasi kanchalik uzoqlashsa, odamning hayotga bo‘lgan qizikishi shunchalik so‘nib boradi, odamning o‘zi esa bevosita kasallik timsoliga aylanib qoladi. Bundan qutilish yo‘li bitta-irodasi bo‘sh bo‘lgan kishilar ommasini o‘z orkasidan ergashtirib borishga qodir bo‘lgan kuchli shaxslarni tarbiyalab yetishtirish kerak. «Xavf-xatardan ko‘rkmay yasha» - Nitsshening shiori shunday bo‘lgan.

Nitsshe ajoyib filolog va musikiy improvizator bo‘lgan, har xil xastaliklar uni kiynab, unga azob bergal. Bularning barchasi uning hayotida bir-biriga aralashib o‘ziga xos bir falsafiy shaklga kirgan. Nitsshe tomonidan ko‘pincha musiqiy oxanglar yo‘lidagi goxo biri ikkinchisini rad etadigan ajoyib adabiy zsselar, pand-nasihatlar, aforizimlar, dekloratsiyalar yozilgan. U XIX asrning oxirlaridagi madaniy yo‘nalishning eng ko‘zga kuringan vakili bo‘lgan. Ushbu oqim vakillari umidsizlik, axdoqsizlik, xunuk xodisalarni estetika darajasiga ko‘tarish kabi xususiyatlar bilan ajralib turishgan. Shuningdek Nitssheni nigilist deb xisoblashgan, ya’ni u hayotda qaror topgan barcha narsalarni, hamda, yangi ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmaydigan qadriyatlarni inkor etuvchi kishi bo‘lgan. X,atto, Nitssheni fashizmday baloni yoqlashda ayblaydigan mualliflar ham oz bo‘lmagan, chunki Nitsshening «Mallarang nishoni» - fashist olchoqlarining kiyofasini eslatib turar ekan. U holda Nitssheni faqatgina nigilistgina emas, balki fashizm tarafdori bo‘lgan deyish ham mumkin. Bizning fikrinizcha, yukorida keltirib o‘tilgan ta’rif-tavsiflarning hammasida ham bitta kamchilik-aniq ko‘rinib turgan bir yoklamalik mavjud.

Nitsshe mavjud ideallarni qayta baholash bilan mashg‘ul bo‘ladi, lekin u bu ishni ko‘p jihatdan boshqalarga karaganda yorkinroq va keskinrok bajaradi. Nitsshe uchun falsafa - kirib kelayotgan yangiliklarni rad etuvchi o‘z harakteriga ko‘ra xokimiyatga intilish tarzidagi traditsion barqaror xolatlarni tankid qilish shaklidir. Hokimiyatga intilishni ilmiy yo‘l bilan o‘rganib bo‘lmaydi, uni fakat inson tomonidan tushuntirib berilishi mumkin. Nitsshening o‘zi ham fanda kuchli bo‘lmagan. U fanni sevmagan, uningcha, fan -xokimiyatga intilishdagi ayni vaktda ko‘pincha adashtiradigan yo‘llarga olib kiruvchi vosita hamdir. Ko‘pincha «Hakikatga intilish irodasi», «Ijodiyotga intilish irodasi»ning kuchsizligini ifodalaydi. Nitsshe xakiqat degan tushunchaning o‘ziga ham shubha bilan karaydi. Xo‘sh, deydi u, haqiqat borligini kayerdan bilamiz? Odam xozir ko‘rib turgan narsasini sharxlab, talkin qiladi, lekin buni haqiqatga mengzash unchalik to‘g‘ri kelmaydi.

Nitsshe xristianlikning «xasta» ideallari, axlokini fanga qarshi qo‘yyshga keskin qarshi kurashadi. Lekin u hokimiyatga intilish irodasi, instinkti, axloki va dinini qo‘llab-kuvvatlaydi. Bu yerda Nitsshening ordinar bo‘lmagan-noordinar falsafasi butun bo‘y basti bilan o‘zini ko‘rsatadi. Nitsshe bir fikrini rad etish orqali o‘z* fikrini tasdiklaydi, birok, u xozirgina o‘zi ta’kidlagan faktni o‘sha zaxoti rad etishga tayyor turadi. U mangu tartiblar, shu jumladan fashistlar tartibini o‘rnatish tarafdori ham emas. Nitsshening ta’rifi bo‘yicha olinadigan bo‘lsa, «Xudo o‘ldi: va biz isgaymizki-kuchli odam yashayversin» , biroq unda kuchli odam ideali unchalik aniq emas, Nitsshening fikriga karaganda, hamma narsa o‘ladi va hamma narsa yana qayta dunyoga kelib gullab-yashnaydi, faqat shu ma’nodagina qandaydir abadiylik to‘g‘risida galirish mumkin.

«Misli ko‘rilmagan sintez tug‘risida» orzu kilgan Nitsshe yozgan xatlardan biri guvoxlik berishicha u faylasuf bu orzuni amalga oshirishga muvaffak bo‘lmagan, umuman olganda, Nitsshe falsafasi-bu ratsionalizmga qarama - qarshi qo‘yilgan hayot falsafasining yorkin variantidir.

XX asrning 30-yillariga kelib hayot falsafasi asta-sekinlik bilan yo‘kolib, o‘z o‘rnini ekzistensializmga bo‘shatib beradi. Bu endi hayot falsafasiga karaganda ancha kuchlirok falsafa bo‘lib, unda dunyoda yashastgan inson turmushining xilma - xil tomonlari bayon etiladi. Ekzistensialistlar hayot falsafasini psixologizmlar bilan to‘lib - toshgan deb hisoblaydilar.

Ekzistensiya so‘nggi lotin tilida so‘zma-so‘z olganda, «mavjudlik» degan ma’noni anglatadi. Mana shu mavjudlikning o‘zi esa ekzistensializmda subyekt bilan obyekgning bevosita birikib, birlashib ketishi tarzida tushuniladi. Bunda subyektning boshqalar uchun ochikligi, o‘zgalarning u uchun ochiqligi, ularning bir-biriga o‘tishi bu jarayonning bir butunligi mavjudlik mohiyatini tashkil etadi. Ekzistensializmningdiniy variantida (Yaspers, Marsel) ushbu o‘zga narsa Xudodir, ozod shaxs mana shu xudoga tomon harakat qilib boraveradi. Ekzistensializmning ateistik variantida (Sartr, Kamyu) o‘zga obyekt xech narsa sifatida, talqin etiladi. Buning ma’nosi shuki, odam o‘z ozodligini amalga oshirib o‘zini-o‘zi to‘satdan yaratadi. Odam tubsiz oqibatlar silsilasiga duch keladi, endi u mazkur silsiladan o‘z yo‘lini tanlab olishi kerak bo‘ladi. Mana shu yo‘lni tanlab amalga oshirish jarayonida u o‘z erkinligini topadi. Ushbu tanlov uchun u eng avvalo o‘.z-o‘zi oldida mas’uldir. Bu juda og‘io mas’uliyat. U o‘zi o‘zligini yaratishi bilan, o‘zgalarni, bora-bora butul dunyoni kashf etadi. Inson o‘zining chinakam mavjudligi holatida u muttasil kelajak

ro‘parasida, shu jumladan, o‘lim qarshisida, o‘z qilmishlari u_chda-javobgarlik vaziyatida turadi. Ekzistensiya xuddi ko‘rkuv, ekzistensional-daxshat, tashvishli kutish singari namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda bunda xuddi chegaradagi ekzistensional vaziyatga o‘xshalsh xolat sodir bo‘ladi. Bunday xolatda, Kamyu fikri bilan aytganda, asosiy falsafiy masala - bu o‘z-o‘zini o‘ldirish masalasi hisoblanadi. Yashash qo‘rqinchli, zerikarli, ham bema’ni bo‘lgan bir sharoitda yashash kerakmi yoki yo‘qmi?

Ekzistensializm - bu ontologiya, borliq, mavjudlik hakidagi ta’limot. Ekzistensialnst uchup odamning duneda mavjudligi muhim xisoblanib, tabiatning mustaqil ravishda mavjudligi to‘g‘risidagi masala esa upi unchalik kiziktirmaydi. Tabiat insonga azal-azaldan ato etilgan. Bunda dastlabki reallik yaxlit bo‘lib, u subyekt va obyektlarga bo‘linmaydi. Fan dunyoni obyekt va subyektga ajratadi. Shu sababli fan ulariing borlig‘ini ifodalab berishga qodir emas. Bunga esa faqat ekzistensiyaning alohida akti - harakati orqali erishiladi. Ekzistensiya - bu shunchaki bir hiohayajon emas, balki olamda mavjudlik his-xayajonidir.

Ekzistensiyada insonning ozod ekanligi gokorida ta’kidlab o‘tilgan edi. Ozod-erkin bo‘lish, bu o‘zing o‘zing bilan bo‘lishliging, begona kishilarning ta’siridan halos bo‘lishdir.

Shaxs uchun jamiyatning ahamiyati shundan iboratki, u ko‘p bo‘lganda insonning iqtisodiy, siyosiy va boshqa erkinliklari uchun zamin yaratishi mumkin xolos. Lekin ko‘p xollarda jamiyat shaxs erkinligini cheklab ko‘yadi. Xaydeggerning fikricha jamiyat shaxssiz, o‘rtacha xolga keltirilgan bir olamdir. Mana shu o‘rtacha holatni yorib chiqish harakati ekzistensiya orqali amalga oshiriladi. Bunda qandaydir mazmunga ega bo‘lgan xatti-xdrakatlar ishlatilmaydi. Chin inson bo‘lishlik - ekzistensializmning asosiy da’vatidir. Umuman olganda tashqi dunyoga, boshqa kishilarga nisbatal bunday bo‘lishlik munosabatlarda ehtimoldan uzok, lekin kishi o‘z shaxsiga nisbatan ushbu chaqiriqni kanchalik ko‘prok; namoyon etaolsa, u shunchalik o‘z aslini ko‘rsatgan bo‘ladi. Bu gallarni odamning tashki dunyodan, obyektivlikdan ajralishi jarayonida sodir bo‘luvchi badiiy, diniy, falsafiy ijodga nisbatan ham aytish mumkin.

Agar Yaspers va Sartr insop mavjudligining instansiyasini eng avvalo uning ongida ko‘rishgan, inson subyektivligini hamma narsadan ustun ko‘yishgan bo‘lsa, Xaydegger subyektivlikni olamda inson mavjudligidan kelib chiqadigan narsadir deb xisoblagan. Insonning faoliyati davomida unga haqiqat eshiklari ochiladi u narsalar sirini bilayotganini ko‘radi. Natijada odam dunyopi tushunadi va bu hol unimg tilida amalga oshadi. Shu ma’noda til - bu inson mavjudligining uyi va yashaydigan makonidir. Xaydeggsr falsafasini ko‘pincha fundamental ontologiya (ipsoppipg olamdagi borligi to‘grisndigi ta’limot) deb ataydilar. Xaydegger falsafasida ekzistensializm ongga ega bo‘lgan insonning olamda mavjudligi to‘g‘risidagi ta’limot sifatida ko‘rinadi.

Ekzistensializm inson mavjudligining shunday nozik tomonlariga murojaat eta oldiki, ularning ba’zilarini fai tilida bayon etib, ifodalab bo‘lmaydi. Ekzistensializmning fan va texnikaga ko‘r-ko‘rona e’tikod etilishiga, ong realliklariga vijdonsizlarcha moslashib borishiga qarshi (ya’ni konformizmga qarshi) bo‘lgan ogoxlantirishlari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etgan. Ekzistensializm inson erkimligi muammosini, hayot yo‘llarini tanlash masalalarini yangicha tarzda o‘rtaga ko‘ydi va uni g‘oyat samarali tarzda xal qildi. Ekzistensialistlar falsafiy fikrlashning yangicha usulini ishlab chikdilar va bu usul eng yangi falsafa tomonidan o‘zlashtirib olindi.

XX asrdagi asosiy falsafiy yo‘nalishlardan biri fenomenologiya hisoblanadi. So‘zma-so‘z olganda bu fepomeplir to‘grnsidagi ta’limot degan ma’noni amglatadi. Edmund Gusserl XX asrda keng yoyilgan shakldagi fenomenologiyaning asoschisi hisoblanadi. Falsafada fenomsn deganda odatda xis-tuyg‘ular orqali bilinadigan narsa va xodisalar tushuniladi. Gusserl esa fenomen deganda predmetlarning ongda hosil bo‘ladigan ma’no-mazmunini tushunadi. Uningcha falsafiy tizimning tuzilishida u dastlabki bosqich roliii o‘ynaydi.

Gusserl ilmiy tushunchalar vositasida amalga oshiriladigan narsa va xodisalar mohiyatini tushunish to‘g‘risidagi masalaga to‘lik aniqlik kiritishga harakat qiladi. Xo‘sh, odam narsa va hodisalar mohiyatini kay yo‘sinda tushunib olishga muvaffak bshladi? Ushbu savolga uningcha o‘zigacha bo‘lgan faylasuflar, naturalizm tarafdorlari ham, subyektivizm tarafdorlari ham koniqarli biror javob bera olmaganlar. Masalan, naturalistlar bilim bilan ongni voqe’likning in’ikosi deb

tushunadilar, bunday tushuntirish esa inson faolligiga ziddir. Subyektivistlar odam ongiga nisbatan tashqarida boʻlgan dunyoni unutib koʻyadilar, ular uchun barcha bilimlar nisbiydir. "Vaho.ishki - deb xisoblaydi faylasuf, - fal hammaga ahamiyat.chi boʻlgan haqiqatlarpi ochib bermofa". Ilmiy tushunchalar muhim boʻlmagan narsa va xodisalarga e'tibor bermaydigan, ularni tashlab yuboradigan abstraksiyalar tufayli hosil boʻladi deb hisoblaydigan olimlar ham bilish jarayoniga sezilarli darajada salbiy ta'sir koʻrsatadilar, fanni bu kadar bezbetlik bilan mensimaslik qadim - qadim zamonlardan buyon odamlar tomonidan qoralab kelingan va bunga yoʻl qoʻyilmagan. Bunday qiyinchiliklarning barchasini yengib oʻtish yoʻlini Gusserl izchil falsafada - fenomenologiyada koʻradi.

Tashqi dunyo subyektga fenomenlar oqimida taqdim etilgan va faylasuf oʻzining barcha xulosalarini mana shu faktdan kelib chiqqan holda aytmogʻi kerak. Binobarin, taxlil vaqtida tashki dunyo haqida ham, naturalizm va subyektivizm tipidagi isbotlangan haqiqiy, xech qanday tanqidsiz qabul qilinadigan tushunchalar uchun ham «kavs ichida joy koldirish kerak». Fenomenolog vaqtincha tashqi dunyo toʻgʻrisidagi fikr -muloxazalardan oʻzini toʻxtatib turishi lozim. Bu bilan fenomenologiya reduksiyasi deb ataladigan tadbir amalga oshiriladi, ya'ni bunda taxlil maydoni fenomenlar oqimi tomonga suriladi. Xuddi mana shu joydagana hodisalarning chinakam ma'nolarini topish mumkin boʻladi. Biz bu yerda fenomenologik redaksiya natijasida tashki dune predmetlarini goʻyo nazardan kochirib koʻyganga oʻxshaymiz. Uning: «Orkaga, narsalarga kashallpk!» degan shiori ham shundan kelib chiqqam. Bu shiorning ma'nosi, fenomenlar taxlilini izchillik bilan oʻtkazish lozimligidadir. Ushbu tahlilni olma nimaligini idrok etish va tushunib. anglab yetish misolida qarab chiqamiz.

Aytaylik. bitta predmetga. bizning misolimizda olma daraxtiga qaratilgan ong harakatiping ikki yoki undan ham koʻprok fenomenini koʻrib chiqmokchimiz. Dastlabkn fenomenlar odam tasavvuri va fantaziyasi tufayli amalga oshiriladigan ichki xilma-xil kechin.malarni tuzish bilan toʻldiriladi. Ushbu koʻp xillik bir kishining oʻziga taalluqli buladi, binobarin, u muayyan ravishda feiomenlar orqali sintez qiladi. Sintez qilingan kechinmalarda har doim identik, aynanlik xolatlari mavjud boʻladi, chunki ongning anglanilayetgan narsa va xodisalarga karatilishi erkin qayta yaratishlar boʻlishiga yoʻl koʻymaydi, lekin dastlabki fenomenlar bilan muvofiqlashtirilgan narsa va xodisalargina bundan mustasnodir. Bizning misolimizda gal «ushbu olma» yoxud «har qanday olma» toʻgʻrisida bormokda. Bilishning hal qiluvchi holati identiklikka, aynanlikka, bir soʻz bilan aytganda, eydosga (gʻoyalarga, tushunchalarga), eydetik tafsplotga erishishdan iboratdir. Mazkur tajriba jarayonida eydos koʻzga tashlanadi. Bu yerda gal kategorial intuitsiya toʻgʻrisida borib, bunda sintetik koʻp xillikni konstruksiyalash boʻyicha faoliyat koʻrsatish nazarda tutiladi. Ushbu faoliyat oʻz-oʻzidan amalga oshirilib boriladi va u oxir-oqibatda eydoslarga - ilmiy tushunchalarga olib keladi. Kategorial intuitsiya bu qandaydir sirli bir narsa emas, uning shakllanish mexanizmini tushuntirib berish mumkin. Bunda tajriba oʻtkazayotgan kishi olim boʻladimi yeki talaba boʻladimi, baribir odamlar miyasida amalga oshiriladigan allaqanday topishmokli abstraksiya jarayonlari toʻgʻrisidagi boʻlmagur tasavvurlarni oʻylab chiqarmasligi kerak.

Fenomenologik metod jahon falsafasida va fanida gʻoyat keng tarkalgan usul. Uni hayotiy olamning buyoqlari, rang - tuslari, xidlaridan juda uzokdagi tushunchalar bilangina tajriba oʻtkazadigan fanlar tomon toyib ketmaslikka kafolat beradi deb qisoblashadi. Bunday toyib ketish hollari XX asr Yevropa fanlariga xos boʻlgan harakterli xususiyatdir. Shuning uchun ular krizis xolatida, formalizm, ssiyentizm va texnitsizm iskanjasida kolmoqdalar. Gusserl ilmiy idealizatsiyani (nukta, toʻgʻri chizikka oʻxshash tushunchalarni) ba'zi bir cheklangan subyektiv ijod namunalari sifatida qarab chiqqan. Olam mavjudligi subyektga ideallar, tushunchalarda emas, balki ong okimidan iborat boʻlgan eydoslardir. Fenomenologiya bizni olamni, hayotni unutish illatidan extiyot boʻlishga da'vat etadi. Gusserl fandagi krizisni fakat fenomenologik retseptlar asosidagina bartaraf etish mumkin, deb xisoblagan.

Fenomenologiyaning kamchiliklariga kelganda shuni aytish mumkinki, bu kamchilik asosan amaliyot muammolarini tor ma'noda tushunishda koʻrinadi. Bunda gal amaliyotni koʻp jihatdan oqg fenomenlarini bir-biri bilan takqoslashi toʻgʻrisida boradi. Haqiqatdan ham pragmatizmda, Xaydeggerning fundamental ontologiyasida amaliyot muammosi fenomenologik falsafadagiga

karaganda ancha mukammalroq darajada ishlab chiqilgan. Ko‘pincha fenomenologlarni ularning «eklektikligi» uchun tankid qilishadi. Bunda ularning hissiy bilish bilan ratsional bilish shaklini yetarli darajada bir-biridan aniq ajratib qo‘ymasliklari nazarda tutiladi.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:**

1. XX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, va madaniy-ma’naviy hayotda qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
2. Ular falsafiy tafakkurda qanday aks etdi?
3. XX asr ma’naviyatining qanday umumiy xususiyatlari mavjud?
4. XX asr ma’naviyatini qanday falsafiy oqimlar va falsafiy maktablar belgilaydi?
5. XX asr ma’naviyatida tafakkur uslublariiing o‘zgarishi nimalarda ko‘rinadi?
6. Germenevtika nima?
7. Til tahlili va til madaniyati deganda nimani tushunasiz?
8. Ommaviy madaniyat va madaniyat inkirozi.
9. Fanparvarlik va fan taraqqiyoti deganda nimani tushunasiz?
10. Fan yutuklariga qarshilik va fanning inson hayotida tutgan o‘rnini izoxlab bering.
11. Inson mavljudligiga ekzistensional qarash nimalarda ko‘rinadi?
12. Individualizm va individ takdiri falsafasining ma’naviyatdagi o‘rni.
13. Mavjudlik falsafasida inson yagonaligi va takrorlanmasligi mohiyati nimalarda ko‘rinadi?

**Adabiyotlar ro‘nxati:**


1. Qadomov-I.A. Halollik va fidoyilik-faoliyatimizning asosiy mezoni 6o‘dsda_-T-.-: O‘zbekiston , 1994.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iktisod, siyosat, mafkura. . -T.: O‘zbekiston 1996.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak asari.-T.: O‘zbekiston 1998.
4. Osnovm filosofii: Uchebnoye posobiye dlya studentov. -T.: O‘zbekiston 1998.
5. Falsafa. O‘kuv ko‘llanma. -T., Sharq1999.
6. Falsaa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
7. Falsasa. Ma’ruzalar matni. -T., Moliya instituti 2000.
8. Qur’oni Karim. -T.: Cho‘lpon, 1992.
9. Qoraboyev U. O‘zbekiston bayramlari. -T.: O‘kituvchi 1991.
10. Sharifxo‘jayev M. Chelovek opredelivshiy epoxu. M.«Trul» 2004.
11. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002Y. (569-590 betlar)
12. S.Yo‘ldoshev va boshk. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.


## 12-mavzu: XX ASR OXIRI- XXI ASR BOSHLARIDA SHARQ MA’NAVIY HAYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**REJA:**

1. **XX asr oxiri - XXI asr boshlarida Sharq ma’naviy hayoti.**
2. **XX asr oxiri - XXI asr boshdarida Sharq demokratiyasi va uning ko‘rinishlari.**
3. **Sharq demokratiyasining ma’naviy hayotni takomillashtirishdagi ahamiyati.**

Odatda demokratiya haqida gal ketsa, uni xalq xokimiyati, davlat shakli, fuqarolarga va ularpiig ixtiyoriy birlashmalariga. boshqarishga oid qonun hamda karorlarning ma’no-mazmuni, ijtimoiy manfaatlarni ro‘yobga chnkarishga ta’siri bilan bog‘lik xolda ta’riflaydilar. Demokratiyaning asosiy qoidalari esa xalq hokimiyatchiligi, parlamentarizm, xokimiyatlarning bo‘linishi, siyosiy, g‘oyaviy plyuralizm, xuquqiy, iyasgimoiy, dunyoviy davlat institutlari, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquklari kabi tushunchalar asosida sharxlanadi. Shuningdek, demokratiya markaziy va maxalliy vakillik muassasalari, saylash va saYlanish,

qonuniylik tamoyillarini, turli partiyalar, jamoat tashkilotlarining amal qilishini . taqozo etishi ta’kidlanadi. Lekin Rarb qadriyatlaridan kelib chiqadigan ushbu ta’riflarda asosiy e’tibor obyektga, ya’ni ijtimoiy-siyosiy institutlarga karatiladi. Ayni paytda demokratiyaii harakatga keltiradigan kuch, pirovard maksad bo‘lgan inson va uning manfaatlari, ichki ma’naviy olami e’tibordan soqit qilinadi. Natijada G‘arb demokratiyasi tashqi olamni, ijtimoiy-siyosiy hayotni, institutlarni takomillashtirishga ahamiyat beradi-yu, lekin asosiy masala — insonni esdan chiqaradi. Sharqona demok-ratiya esa, G‘arb demokratiyasidan farkli o‘larok, dunyoni, ijtimoiy hayotni o‘zgartirishni insondan, uning ichki, ma’naviy hayotidan boshlaydi. Insonni, uning ma’naviyatini yuksaltirish orqali adolatli jamiyat barpo etish — Sharq demokratiyasining bosh maksadi. Albatta, biz bu o‘rinda Sharq demokratiyasini G‘arb demokratiyasiga qarshi ko‘ymoqchi emasmiz. Dunyo sivilizatsiyasining ulkan yutug‘i bo‘lgan Rarb demokratiyasida o‘rganishga munosib tajribalar ko‘p. Shu bilan birga, davlatchilik borasida qadimiy an’ana va qadriyatlarga ega bo‘lgan Sharq dunyosining demokratiya masalasida o‘ziga xos karash va tajribalari, taraqqiyot modeli borligini inkor qilib bo‘lmaydi.

Sharqona demokratiya, avvalo, kuyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: tegishli subordinatsiyani saqlash va iyerarxik munosabatlarda kam tajribali, kam bilimli kishi ko‘p tajribali, keng bilimli kishiga itoat etadi; davlat va jamiyatni boshqarishda avvalo ahlokiy, ma’naviy me’yorlarga rioya qilinadi; ajdodlar tajribasiga asoslangan an’anaviy xuquqiy munosabatlar saqlanib qoladi; fiqxda tarixiy an’analarga (Kur’oni Karim va xadisga) tayangan qolda, hukukiy muammolar erkin hal etib kelingan; xukmdor saroyida davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga oid muammolar yechimida ishtirok etadigan kengashlar (a’yonlar kengashi, vazir kengashi, olimu fuzalolar kengashi singari) bo‘lgan; xukmdor nafakat o‘z hayoti, balki fuqarolarning turmushi, ma’naviyati, ishonchu e’tikodi uchun ham javob bergan; ijtimoiy-siyosiy hayotni tadrin<iy rivojlantirishga moyillik seziladi; inson va jamiyat hayoti siyosiy mafkuralar tazyiqidan xoli bo‘lgan; insonning ma’naviy hayotini boyitish, yuksaltirish, boshqarish asosiy vazifa hisoblangan; inson, davlat va jamiyat manfaatlari o‘zaro uyg‘unliqda karalgan; jamoa hayoti va uning manfaatlari ustun qo‘yilgan.

Ma’lumki, davlat va jamiyat o‘zaro dialektik bog‘liq, bir-birini taqozo etadigan, ammo turli funksional xususiyatlarga ega bo‘lgan subordinatsiya va iyerarxiya bo‘g‘ini orqali boshqariladi. Subordinatsiya. va iyerarxiya dinamik sistemalarga xos bo‘lgan bekarorlik va notekislikni, sinergetik xodisalarni taraqqiyot * manfaatlariga muvofiq tashkil etishga karatilgan faoliyat turlaridir. Jamiyat kabi dinamik sistemalar mavjud ekan, subordinatsiya va iyerarxiya munosabatlari ham saqlanib qolaveradi. Bu nafakat bugunti, balki o‘tmishdagi jamiyatlarga ham xosdir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarida davlat va jamiyatni boshqarishda subordinatsiya va iyerarxiya munosabatlari Aql (O‘gdulmish) timsolida namoyon bo‘ladi. Muallif Aqlni (O‘gdulmishni) asari markaziga qo‘yar ekan, aynan u orqali o‘ziga xos, aytish mumkinki, Sharqona davlatchilik konsepsiyasini bayon qiladi. Shox bunday fazilatlari bilan xizmatkor va fukarolaridan yukori turadi. Aynan shu fazilatlari vazirlar, lashkarboshilar, qotiblar, xizmatkor hamda fukarolarni unga xurmat-izzat, sadokat ko‘rsatishga, subordinatsiya va iyerarxiya munosabatlariga muvofiq bo‘ysunishga undaydi. Shoxni o‘zi qatori yoki o‘ziga teng bilgan a’yonlar, xizmatkorlar aksariyat hollarda unga chin dildan izzat ko‘rsatmagan, o‘zidan past ko‘rganlari esa uni taxtdan mahrum qilgan, xatto o‘ldirgan.

O‘rta Osiyo mutafakkirlari xukmdorlarni komil inson sifatida tasvirlaganida, birinchidan, ularning fazilatlari barcha amaldor va fukarolarnikidan yukori bo‘lishi, ezgu va olijanob maqsadlarni amalga oshirishda murabbiylik, otalik kila olishi lozimligini ta’kidlaganlar. Ikkinchidan, podshox davlat va jamiyat ishlarini yaxshi bilgani, fukarolarning orzu-intilishlaridan to‘lik xabardor bo‘lgani uchun boshqarishni subordinatsiya va iyerarxiya talablariga muvofiq tashkil qila olishi zarurligi nazarda tutilgan.

Uchinchidan, amldorlarni iqtidori va qobiliyatiga qarab lavozimga tayinlash podshohning vazifasi ekaniga e’tibor berilgan. Binobarin, past iqtidorli odamlar yuqori iqtidor egalariga, bilimli va tajribasi kam kishilar esa tajribasi ko‘p kishilarga bo‘ysunishi tabiiy, aks holda, davlat va jamiyat ishlarini okilona tashkil etish, olib borish mumkin emas, deb hisoblangan.

Umuman, Sharqona demokratik qarashlarda davlat va jamiyat ishlariii yuritishda adolat, ahlokiy-ma’naviy mezonlarga alohida e’tibor qilingan. Ayniksa, iymon-e’tiqod, ezgu amal, xushmuomalalik, birovning mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, murosai madora, jamoa bo‘lib yashash, o‘zaro xurmat, amaldorlar faoliyatini kadrlash, qonunlarga bo‘ysunish, xalqning arz-dodini eshitish, noxaqlik ro‘y bergudek bo‘lsa, zaif, yordamga muhtoj kishilarni yoklash, poklik, mehr-muruvvat va beg‘arazlikni uluglash kabi fazilatlar jamiyat xdyotida muhim o‘rin tutgan.

Sharq va G‘arb siyosiy qarashlarini taqqoslar ekan. rus olimi L.Panarin "G‘arb tafakkuri odamning olam ustidan ustunligini ta’minlash va tasdiklashga qaratilgan sotsioantropotsentrizmga moyml, u dunyoni mensnmaydi. Aslida, adolat odamlarning kosmos qonuniyatlariga muvofiq yashashi, nokisning komildan ibrat olishi, umga ixlos qo‘yib, e’tiqod bilan umr kechirishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, Sharqdagi barcha siyosiy, falsafiy-huquqiy qarashlarda, ma’naviy-ahlokiy yetuk inson — lodshox markaziy o‘rinda turadi. Hatto Qur’onda ham Iskandar Zulqarnayn Xudo bergan salohiyatga, ma’naviy sifatlarga ega hukmdor sifatida tilga olinadi. Bunday yondashuvni buyuk Sharq, mutafakkirlari Ganjaviy, Jomiy, Navoiy asarlarida ham kuzatamiz. Ulug‘ donishmand Nizomulmulk esa podshohlarii adolatli va adolatsiz hukmdorlarga ajratadi. Adolat podshohga Xudo tomonidan berilgan ne’mat. Uning ma’naviy-ahlokiy xususiyatlari ana shu fazilatni asrashda ko‘rinadi. Bu borada muallif Faridun, Iskandar, Ardasher, No‘shiravon, amir Umar bin Abdulaziz, Xorun ar-Rashid, Mu’tasim, Ismoil bin Axmad Somoniy, Sulton Mahmud G‘aznaviy singari xukmdorlarni ibrat qilib keltiradi. "Agar podshox barchadan ustun bo‘lishni hohlasa, — deb yozadi Nizomulmulk, — o‘z axlokini yaxshi fazilat va xislatlar bilan bezashi va yomon hislatlardan uzoqda bo‘lishi zarur. Yomon xislatlar — hukd (nafrat), hasad, g‘azab, shahvat, hirs, aml (yomon ish), lajjojlik (ezmalik), yolg‘on, buxl, badfe’llik, zulm, o‘zibo‘larmonlik, shoshilik, nosipolik kabilardir. Yaxshi fazilatlar esa xayo, halimlik, kechirimlilik, tavoze, sahovat, sabr, sidk, shukr, rahmat, ilm, akd, adldir". Pekin Nizomulmulkning qarashlari-dan yaxshi fazilatlar fakat podshoh va uning amaldorlariga xos bo‘lishi zarur ekan, degan xulosa chiqmaydi. Chunki barcha Sharq mutafakkirlari kabi Nizomul-mulk ham podshoxdagi ezgu xislatlar uning fukarolarida ham namoyon bo‘lishi zarur, deb xisoblagan. Sharq mutafakkirlari xukmdorga, uning ma’naviy-axloqiy darajasiga yuksak talab qo‘yar ekan, podshoh orqali jamiyatda ezgulikni, ma’naviy barkamollikni keng yoyishni ko‘zlagan. Shuning uchun ular adolat, ezgu amallar va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni barcha — podshoh ham, fuqarolar ham o‘zida shakllantirishi, ularga intilib va amal qilib yashashi darkor, degan fikrni ijtimoiy-axloqiy mezon darajasiga ko‘targan. Bu mezon Sharq xalqlarining tarixiy-madaniy paradigmasi, mentaliteti, turmush tarzi va e’tiqodiga aylanib ketganki, ularsiz bugungi demokratik taraqqiyotni tasavvur qilish kiyin.

Sharq xalqlaridagi o‘ziga xoslik ajdodlar tajribasiga, tarixiy-madaniy, hukukiy an’analarga sodiqlikda ko‘zga tashlanadi. Agar G‘arbda qadriyatlarga "sotkinlik" (uni A.Panarin "G‘arb sivilizatsiyasiga xos madaniy xoinlik" deb ataydi) oddiy hol bo‘lsa, Sharqda "daodan daoga kaytish", ya’ni Osmon bilan Yer, podshox bilan fuqaro, rux bilan vujud o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash barcha izlanishlarning mohiyati bo‘lib kolaveradi.

Ma’lumki, ilk taraqqiyot bosqichida barcha xalqlar uchun odat va an’ana xukuk manbai bo‘lgam. Hatto keyingi, masalan, kuldorlik va feodal munosabatlar xukmron bo‘lgan davrlarda ham odatlar yozilgan (rasmiy) xukuk shaklida mavjud bo‘lgan. Faqat odatiy xukukka amal qilib yashash an’anasi o‘lkamiz xalqlari ijtimoiy hayetida XX asr boshlarigacha hukm surgan. Ma’lumki, ibtidoiy davrlarda yuzaga kelgan odatlar keyinchalik an’analar darajasiga ko‘tarilib, jamiyatdagi sinfiy munosabatlar ta’sirida odatiy xukukning yuridik me’yorlariga aylangan. So‘ngra ularga shariat, Chingizxonning yasok usuli, chor hukumatining qonunchilik tizimi ta’sir etgan; ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar odatiy huquqni o‘zgartirgan. Hozirgi vaktda odatiy xuquk ahlokiy-tarbiyaviy qarashlar sifatidagina uchraydi, yuridik munosabatlarga ta’sir o‘tkazmaydi. Ammo odatiy hukuq belgilari oilaviy yoki shaxsiy munosabatlarda yashab keladi. Masalan, kelin o‘girlash, kelin uchun kalin tulash, ko‘pxotinlikka intilish, erkakning qo‘ydi-chikdi masalalarida tashabbuskor bo‘lishi, oila, urug‘ sha’ni, qadrini birgalashib himoya qilish, kattalardan iborat hakamlar — oksokollar sudiga murojaat etish kabi urf-odatlar O‘rta Osiyo xalqlarining etnomadaniy hayotida hamon

uchrab turadi. Hatto yurtimiz dunyoviy taraqqiyot yo‘liga utgan xalqaro me’yorlarga asoslangan milliy xukuqiy tizimlarni yaratayotgan bo‘lsada, madaniy-maishiy hayotimizda odatiy huquqning koldiqlari batamom barham topgan emas. Aslida, bunday qoldiqlarning demokratiyaga xech qanday aloqasi yo‘q, ammo ushbu urf-odatlarning kishilar t.asavvuri va turmush tarzida saqlanib kelayotgani, bir tomondan, etndmadaniy o‘ziga xoslikni, madaniy plyuralizm va raig-baranglikni asraydigan omil xisoblansa,. .ikkinchi tomondan, tarixiy-madaniy an’analarni inkor etib, mudom yangi-yangi me’yorlar sari intilib yashashga undaydigan G‘arb demokratiyasining to‘djaan-to‘g‘ri kirib kelishi va kur-ko‘rona joriy etilishi oldinch oladi^Bonja xalqlar hayotiga majburiy tarzda joriy etilgan demokratiya esa, moxiyat e’tibori bilan, baribir zo‘ravonlikdir. Zo‘ravonlik tabiiy va tadrijiy taraqqiyotga ziddir. Chunki u mavjud tartiblarni kuch bilan "uztartirish va ulardan tezda voz kechishga majbur etadi.

Sharqda davlat va jamiyatni boshqarish prinsiplari azaldam sakrallashtnrilgan (iloxiylashtirilgan). Bir karashda, diniy hayot demokratiya prinsiplariga ziddek ko‘rinadi. Ammo Xudoga e’tikod xech kachom ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy hayotdagi rang-baranglikka zid bulmagan. Masalan, islom dinida turli mazxab va oqimlarning mavjuddigi undagi o‘ziga xos xurfikrlik va demokratiya tasdig‘idir. Islom xukukshunoslari muqaddas dimimiz islomda musovot (tengxukuqlilik) nazariyasi, erkak va ayolning tengxuquqliligın, xurriyat, e’tiqod va so‘z erkinligi, sho‘ro (kengash) va taloq (ajradish) kabi qarashlar. ichkilikni taqiklash, muomala, tijoratga oid mezonlar, yondashuvlar karor topganini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, shariatning ikki manbai — Kur’on va sunna iloxiy moxiyatga ega bo‘lsa, ijmo va kiyos ratsional moxiyatga ega.

Tarixdan Ma’lumki, Rarbdagi kabi Sharqda ham monarxiya, avtokratiya bo‘lgan, ayrim xukmdorlar tiraniyaga (masalan, miloddan avvalgi III asrda Qadimgi Xitoy imperatori Shi Xuandi) moyillik bildirgai. Biroq ular g‘arbliklar tasavvuridagi singari mutlaq tiraniya emas edi. Sharq davlatchiligi tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu yerda o‘ziga xos demokratik boshqaruv usullari, konfederativ uyushmalar bo‘lgan. Masalan, taniqli akademik E.Rtveladzening ta’kidlashicha, o‘lkamiz xududidagi bir paytlar beshtadan mustaqil viloyatni o‘z ychiga olgan Qang‘i va Yuichji hamda ko‘plab mayda mulklardan iborat Baqtriya konfederativ davlat bo‘lgan. Mustakil mayda mulk va viloyatlarning har birini davlat boshlig‘i, xukmdori boshqargan. Yusuf Xos Xojibning bosh kaxramoni podshox Kuntug‘di bunday deydi; "yolG‘iz o‘zim el ishini kila olmayman. Menga ishning ko‘zini bidadigan bir dono kerak. Endi menga sara bir kishi lozim. Zakovatli, bilimli kishilar boshi bo‘lsin". Bu e’tirofni A.Yoqubov monarxiyadan chekinish va Sharqona jamoatchilikka (hozirgi istiloxda demokratiyaga) intilish deb baxolaydi.

Sharqona tafakkurga xos bo‘lgan zakovat, bilim va kishilarga bosh bo‘lish kabi uch kategoriya "Qutadg‘u bilig"da bot-bot takrorlanadi. Buning siri shundaki, boshqaruv ilmida Sharq ko‘prok intellektual kuchga tayanadi. Shu sababli Sharq ijtimoiy hayotida inkilobiy sakrashlar kuzatilmaydi. Buning natijasida hayot tadrijiy rivojlanib, an’analar saqlanib qolgan. A’yonlar, vazirlar, olimu fuqarolar bilan maslaxatlashib, kengashib turish Sharq xukmdorlariga ham xos fazilat edi. Bu kengashlarni o‘ziga xos demokratik boshqaruv usullari deyish mumkin.

Sharq davlatchiligida podshox o‘z amaldorlari va fukarolarining hayoti, iymon-e’tikodi va amallari uchun Xudo oldida javobgardir. G‘arbda xukmdor o‘z xokimiyatini saqlab qolish uchun har qanday zo‘ravonlik va fitnani uyushtirishi mumkin. Masalan, Naloleonga urush millionlab odamlar hayotiga xavf solmokda, deganlarida u, hech o‘ylab o‘tirmasdan, "men millionlar hayotiga tupurdim", degan ekan.

Xudodan qo‘rqish va uning oldida o‘zini mas’ul sezish kishini yomonlik, zo‘ravonlik, nafs va fahsh kabi illatlarga berilishdan saqlaydi. "Ollox taolo oldida, — deb yozadi Nizomulmulk, — podshoxlarning gunoxidan ko‘ra kattaroq gunox yo‘q. Ularning hak ishlari Olloh taolo ne’matlarini kadrlab, raiyatni himoya etib, adolat bilan sitam qiluvchilar ko‘lini kiskartirishdan iboratdir". Kimki Xudodan ko‘rqmasa, davlatdan, podshoxdan ham ko‘rkmaydi, kimki Xudodan ko‘rqsa, shunga yarasha takdirlanadi, deydi Nizomulmulq. Bu teokratik yondashuv aslida borliqdagi tartiblarni, uyg‘unlik, bog‘liklik va yaxlitlikni saqlashga karatilgan. Sharqona demokratiya ham bunday yaxlitlik va umumiylikni rad etmaydi, balki rang-barangliknimg ushbu uyg‘unlik qonuniyatlariga muvofiq kechishini ko‘llab-kuvvatlaydi. G‘arbda demokratiya, ayniqsa liberal demokratiya individ

manfaatini umum manfaatiga qarshi qo‘yadi, shaxs erkini, kishilar o‘rtasida raqobat va kimo‘zarlikni ulug‘laydi.

Hayotda buzgunchi kuchlarning avj olib, mavjud ahlokiy va huqukiy mezonlarni barbod kilmasligi uchun shaxs Xudodan, davlat va qonunlardan qo‘rkishi lozim. Mutlak erk va ozodlik xech qachon kishining jamiyat bilan murosada yashashiga asos bo‘lmagan, aksincha, ziddiyatlarni avj oldirgan. Shuning uchun shaxs jamiyat, davlat va qonunlar bilan munosabatga kirishganida nafaqat o‘z xukuklarini, balki imkoniyatlarini, iimaga qodiru nimalarga aqli va kuchi, irodasi yetmasligini ham bilishi darkor.

Sharqona demokratiyaning eng muhim belgisi jamiyatning tadrijiy rivojlanishini ko‘llab-kuvvatlashida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, Sharqda ham urushlar, ko‘zg‘olonlar va davlat to‘ntarishlari bo‘lgan, taxt, xokimiyat uchun kurash to‘xtamagan, lekin unda butun ijtimoiy-siyosiy tuzumni inkilobiy o‘zgartirishga intilish kuzatil-maydi. Shuning uchun ham Sharq tarixida ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan o‘zgartirishga, xokimiyatni kuch bilan bosib olishga keng ommani da’vat etadigan siyosiy-mafkuraviy oqim va ta’limotlar, partiyalar ko‘p uchramaydi. Sharq hayoti bunday nazariyalardan xoli. Faqat XX asrdagina shunday ijtimoiy-siyosiy kuchlar Sharqda (masalan, Turkiyada) ham paydo bo‘ldi. Lekin Turkiyadagi Kamol Otaturk partiyasi ham inqilobiy o‘zgarishlarga emas, balki jamiyatni, mavjud tarixiy-madaniy tajribalarga tayangan xolda modernizatsiyalashtirish, aniqroq aytganda, ovrupolashtirishga intildi.

Sharqona boshqaruv'idora va institutlar faoliyatini emas, balki insonning ma’naviy dunyosinm boyitishpi nazarda tutadi. Deyl Karnegi bundaTG institutsional yondashuvni inson omili bilan almashtirishga intilgany" uchun ham Rarbda shuhrat topdi. Deyl Karmegi metodiga qiziqish hamon so‘nmagan bo‘lsada, u G‘arb mentalitetiga aylanmadi, chunki unda ham insonning ma’naviy olamini boyitish emas, balki Ovrupoga xos paragmatizmni targib qilish maksadi ustuvor. Hatto B.Rassel ham Sharqni shu nuqtai nazardan tamqid qiladi. "Sharqda yangi kashfiyotlar uchui zarur aqliy energiya yo‘q — deydi u. — Nazarmy masalalarni hal etishda u mustaqil mushohada qilishga moyil emas". Aynan shu konsepsiya iison manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlikda olib karashni takozo etadi.

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-huquqiy merosida davlat va jamiyat, shaxs va jamiyat yoki fuqaro bilan podshox o‘zaro qarama-qarshi kuchlar sifatida kdralmagan. Ushbu tizimda uyg‘unlikning bosh subyekti podshox. (davlat) hisoblansada, u funksional xususiyatlariga ko‘ra, iyerarxiya munosabatlarida adolat prinsipini karor toptiriish shart emas. Adolatning buzilishi boshqarish ishlariii barbod etadi, fukarolarda norozilik uygotadi. Shuning uchun ham Konfutsiy bunday deydi: "Adolatpesha odamlar lavozimlarga ko‘yilsa, xalq. ham podshoxga itoat etadi. Mabodo badniyat kishilar lavozimlarga ko‘yilib, adolatparvar kishilar chetga siqib chikarilsa, xalq ham itoat etmaydi".

Adolatni karor toptirish sharqona demokratiyaga xos jamoa fikri va manfaatlari ustunligipi ta’minlaydi. Chunki Sharq tafakkuri va hayot tarzida kommunitar (jamoaviy) g‘oya va tasavvurlar ustun turadi, shaxsning o‘zini namoyon etishi, hayotiy maqsadlarga yetishmog‘i, davlat instyuutlari bilan aloqalari uning jamiyatdagi o‘rni bilan belgilanadi. G‘arbda individ jamoaga, davlat va jamiyatga qarshi chiqishi, ularni rad etadigan g‘oyalarni ilgari surishi mumkin. Lekin Sharqda bunday harakatlar takabburlik, kommunitar an’ana va manfaatlarni mensimaslik sifatida kabul qilinadi. Sharqda "Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun" tamoyili amal qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Sharqona demokratiyada insoniylik, mexr-oqibat, faqat o‘zi uchun emas, boshqalar uchun ham yashash xususiyatlari ustunlik qiladi. Sharq demokratiyasi — an’ana va qadriyatlar erkinligidir. Bu an’ana va qadriyatlar abadiy bo‘lgani kabi, Sharq demokratiyasi ham abadiydir.

### O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida Sharq ma’naviy hayotining mohiyati nimalarda ko‘rinadi?
2. Milliy qadriyatlarning tiklanishi va takomillashtirishida milliy mustaqillikning ahamiyati qanday?
3. Milliy qadriyatlarning tiklanishida tarixiy ma’naviyatning rolini siz qanday baxolaysiz?

4. Milliy mafkura va milliy ma’naviyat o‘rtasidagi bogliqlikni tushuntirib bering.
5. Siyosiy madaniyat va ma’naviy ravnak nimalarda ko‘rinadi?
6. Sharqona demokratiya, uning tamoyillari nimalar?
7. Sharqona va g‘arbona demokratiyaning farqi nimada?
8. Sharqona va g‘arbona demokratiyaning umumiyligi nimada?
9. Xukuk va hukuk madaniyati, ma’naviyati qanday izoxlanadi?
10. O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini sanab bering.
11. Uzbek tili va o‘zbek ma’naviyati birligini siz qanday tushunasiz?

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik-faoliyatimizning asosiy mezoni bo‘lsin. -T.; O‘zbekiston , 1994.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iktisod, siyosat, mafkura. . -T.: O‘zbekiston 1996.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston 1998.
4. Osnov! filosofii: Uchebnoye posobiye dlya studeitov. -T.: O‘zbekiston 1998.
5. Falsafa. O‘kuv qo‘llanma. -T., Sharq 1999.
6. Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
7. Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., Moliya instituti 2000.
8. Kur’oni Karim. -T.: Cho‘lpon, 1992.
9. Qoraboyev U. O‘zbekiston bayramlari. -T.: O‘qituvchi 1991.
10. Sharifxo‘jayev M. Chelovek opredelivshiy epoxu. M.«Trud» 2004.
11. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002Y. (569-590 betlar)
12. 2S.Io‘ldoshev va boshq. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.


## 13-mavzu: XX ASR OXIRI -XXI ASR BOSHLLRIDA G‘ARB MA’NAVIY HAYOTINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**REJA:**

1. **Fundamental ontologiya va analitik falsafada hayot va bilim muammosi.**
2. **Neopozitivizm va postpozptivizm.**
3. **Tsosofiya, antroposofpya va hozirgi zamon diniy qadriyatlari.**

XX asr falsafasida analitik falsafa muhim o‘rin tutadi.

Germenevtika - falsafiy fikrlashning shunday usulki. unda uning markazini tushupish jarayoni tashkil qiladi.

Faylasuflar kadim-kadim zamonlardan buyon mavjud narsalarni, sodir bo‘layotgan voqealarning tub shgzini chaqishni va lushunganlarni boshqalarga bayom etib berishmi o‘z burchlari deb bilganlar. Shunga ko‘ra, har bir faylasufning tushunish muammosi bilan shutullalishi tabiiy holatdir. Lekin har qanday faylasuf ham germenevt xisoblanavermaydi. Ta’rif berishlaricha, fakat aynan tushunishni falsafaning birlamchi prinsipi deb qisoblaydigan faylasuflargina germenevtiklar hisoblanadi. Ular uchun odam tushunuvchan mavjudotdir. Odamga taalluqli bo‘lgan boshqa hamma narsalar ikkilamchidir. Ular tushunishdan tashqari tushunish jarayonida ishtirok etadi, yoki ushbu jarayonning bir jihatini tashkil etadi.

XX asrda falsafiy germenevtikaning, asosan ikki shaklidan foydalanildi. Bularning birinchisi, ong germenevtikasi (Shleyyermaxer - Dnlten) bo‘lsa. ikkinchisi borliq germenevtikasidir (Xaydeggernimg shogirdi Gadamsr germenevtikasi). Mana shu ikki shakl o‘rtasida muhim fark bor. Ong germenevtikasiga muvofik, tushunish bu boshqa bir kishining psixologik olamiga kirishib ketish, uning ruxiy kechinmalariga sherik bo‘lishdir (kongeniallik, subyektlar ruhiyatining psixologik qon-kardoshligi). Borliq germensvtikasiga muvofiq esa. tushunish - faoliyat va tilda amalga oshiriladigan inson tajribasining ma’no-mazmunidir.

Endi ong germenevtikasi bilan borliq germenevtikasi oʻrtasidagi aniq farqni misolda koʻrib chiqaylik. Tasavvur kilaylik, tomoshabinlarning nazari Toshkent teleminorasiga tushgan boʻlsin. Ushbu vaziyatni tushunish uchun ong germenevtikasiga koʻra ular teleminorani yaratgan kishilarning ongini tushunishga harakat qilinadi, Ularni ixtirochilarning fikri, mulohazalari, kechinmalari qiziqtiradi. Xuddi mana shu tushunish jarayonini endi borliq germenevtikasi nuktai-nazaridan mutlaqo boshqacha tarzda amalga oshiradi. Ular e'tiborni minoraning shahar ulugvorligining ramzi ulugʻvorlik ishlarini, an'anani davom ettirishga da'vat, chakiriq ramzi boʻlib tuyulishi tortadi. Borliq germenevti oʻsha ishning tarkibida, ichida boʻlishga intiladi, odamlarning karashi uni qiziktirmaydi. Ong germenevti oʻz hamkasbidan farkli oʻlarok odamlarning ruxi - psixikasiga, u yoki bu predmetlar, narsalarni yaratgan, shu jumladan, texnik qurilmalarni yasagan, kitoblar yozgan, teatr tomoshalarini qoʻygan, musiqiy asarlar ijod qilgan kishilarning ruhiy holatiga kirib borishga harakat qiladi.

Ong germenevti ham, borliq germenevti ham germsnevtik doirani tushunishning eng muhim talabi deb xisoblaydilar. Bunga koʻra yaxlit narsani tushunmok uchuv dastlab uning ayrim qisimlarini bilish zarur, lekin ayrim kismlarini tushunish uchun esa endi yaxlit narsaning mohiyati-mazmuni toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlish zarur. Biror matnning boshlanish kismini tushunish butun matnni tushunish zarurligini taqozo etadi, oʻsha matnning oʻrtasi yoki oxirgi qismini tushunish esa oʻsha matnning bosh kismini tushunishga koʻp jihatdan bogʻliq boʻlib. oʻsha orqali belgilanadi.

Ong germenevti ham. borliq germenevti ham suxbatdoshlar oʻrtasidagi ma'noli - suhbatni tashkil qilishni gʻoyat muhim germenevtik usul deb hisoblaydilar. Bunda ong germenevti mana shu suxbat orqali oʻz suxbatdoshining ruxiyatiga kirib borishiga harakat qiladi. Borliq germenevtigi ushbu suhbatdan ishning moxiyatini tushunish yoʻli sifatida foydalanadi. Unga narsalar sirlarini ochuvchi, unda xaqikat nuri bilan yorituvchi vositani koʻradi. Bir tomondam borliq germenevti, boshqa tomondan ong germenevti ham bir narsani bir xil tushunmaydi, tushunish jarayonining oʻzini ham ular oʻzlaricha har xil talqin qiladilar.Har xil turdagi kitoblarda germenevtikani koʻpincha matnlarni tushunish falsafasi deb ta'riflaydilar. Germenevtikani bunday ta'riflash ma'lum darajada bir yoqlamalik ekani aniq koʻrinib turibdi. Koʻpchilik xozirgi zamon germenevtiklari fikricha inson bilaman degan barcha narsani tushunishi mumkin deb xisoblaydilar. Borliq germenevtikasiga muvofiq agar toshlar odamning ishlari, bayramlari, oʻyin-kulgilari ramzi boʻlsa, insonlar hayotida ma'lum bir ahamiyatga ega boʻlsa hatto Oʻsha toshlar bilan ham gallashishi mumkin. Axir, xaykallar bizga qarab oʻz savollarini berayotganday boʻlib, tuyulmaydimi? Bu oʻrinsiz savollardir, lekin biz oʻsha savollarga tilimizda, tortishuvlarda kishilar bilan muloqotga kirishganimizda javob qidiramiz.

Ancha eskirib qolgan germenevtik gʻoya shundan iboratki, germenevtika asosan tantana qiladigan soxa gumanitar fanlar, "ruh toʻgʻrisidagi fanlar" hisoblanadi. Lekin hozirgi vaktda kamdan - kam kishilar bunday deb oʻylaydi. Tushunish har qanday fanda mavjuddir. Germenevtika uchun har qanday fanni anglash insonning texnik hayotining bir shaklidir; lekin ong aynan mana shu tushunishga tobedir. Borliq germenevti uchun har qanday fan-bu faoliyat, ish, olimlarning jamiyati oʻtkazadigan germenevtik tajribasidir; lekin bularning bari yana tushunish orqali bilib olinadi. Koʻrinib t\'ribdiki, eng yangi germenevtikaning har. ikkala shoxobchasi ham har qanday^fanning germenevtik mazmuni toʻgʻrisidagi xulosaga keladilar.

Germenevtika XX asrdagi zng ta'sirli falsafiy okimlardal biri boʻlsada, leksht hali u xal kilmagan koʻp masalalar bor. Shu munosabat bilan bizni hech shubhasiz yangi - yapgi falsafiy xodisalar kutib turibdi.

Falsafaning nomumtoz rivojlanish bosqichi oʻz ichiga nafakat uning ilmiylikka koʻra yoʻnaltirilgan falsafani (masalan, hayot falsafasi va ekzistensializm) oladi. Fan erishgan gʻoyat ulkan yutuklar. ayniqsa, XX asr boshdarida matematika va fizikadagm muvaffakiyatlar faylasuflar e'tiborini oʻzigatortdi.

Nemis matematigi Gottlob Fregs mantiq fani vositalari bilan matematikani takomillashtirishga intilgan juda koʻp tadqiqotchilardan biri edi. Frege ayniksa har xil, ya'mi ziddiyatli sogʻlom aqlga zid boʻlgan fikrlarga boy matematik isbot sohasini mukammallashtirish

ustida ko‘p ishlardi, lekin o‘z yendashuvlarida bitga g‘oyat muhim o‘ziga xos xususiyat bo‘lgan: uning intuitsiyasiga muvofik, mantiq fanining o‘zini yanada rivojlantirish zarur bo‘lgan. U juda ko‘p sonli kamchiliklari bo‘lgan tabiiy tilning o‘rniga uni munosib darajada almashtiradigan bir tilni-formallashtirilgan tilii yaratish kerak, degan fikr bilan chiqqan. Fregening fikricha, o‘sha vaktdagi formal mantiq bilan tabiiy til bir xil kamchilikka ega bo‘lgan-ya’ni ulardagi barcha tuzilgan gallar subyekt-gtredikat shakliga ega bo‘lgan.

Subyekt va predikatga ajratish faqat «Ergash uxlayapti» kabi eng sodda gallargagina to‘gri keladi. Bu yerda «Ergash»-subyekt, «uxlayapti» esa-predikat. Lekin biroz murakkabrok bo‘lgan, masalan, «Ergash Lola bilan o‘ynayapti» degan galni olib ko‘radigan bo‘lsak, uni subyekt va predikat qisilarga ajratish kiyinrok kechadi. Axir bu yerda Ergash ham, Lola ham bir xil darajaga ega bo‘lib, ularning har ikkalasini ham subyekt deb atash mumkin. Bunday xolatdan chiqish yo‘lini Frege argument bilan funksiyani bir-biridan farq qila bilishda ko‘rgan. «Ergash» va «Lola» - bular argument ifodalari, «byalan o‘ynayapti» esa-funksiyani ifodalaydi. Mazkur misolda «bilan o‘ynayapti» birinchi tartibdagi funksional ifoda qisoblanadi. Frege yana o‘zgaruvchi ikkinchi tartibdagi funksional ifodani ham iste’molga kiritadi. Mantiqqa kiritishni talab qiluvchi «hamma», «hech kim», «ba’zi bir» singari so‘zlardan iborat Frege ixtirolari mantiqni ancha o‘zgartirib yuboradi. U fakat matematikaga va formallashgan tarzdagi turli tillargagina emas, balki tabiiy tillarga ham, binobarin, falsafaga ham kirib bordi.

Angliyalik mantiqshunos, matematik, faylasuf Bertran Rassel yangi mantiq ilgarigiga karaganda yakuniy falsafiy hakikatlarga kelishda, reallikning asosiy elementlari tabiatini aniqlashda eng kulay dastak ekanligiga ishonch bilan qaragan. Bu bilan u idealistlar (Leybnits., Gegel) qarashlaridan ancha ilgarilab ketdi. Rassel bunda uchta g‘oyaga amal qilgan. Birinchidan, sog‘lom falsafaning o‘zi mantik hisoblanadi, chunki u rost yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin bo‘lgan fikrni tushuntirishdan boshlanadi. Bu esa mantiqning vazifasidir. Ikknnchidan, biz eng ishonchli bilimga eng avvalo xis-tuyg‘ular orqali ega bo‘lamiz. Reallikning eng kichik elementlari reduksiyalash sohta taassurotlardan saqlaydi. Uchnnchidan, bunda fikr mazmunini uning dastlabki mohiyatidan keltirib chiqariladi. Biror termin bilan ifodalab bo‘lmaydigan atamaning predmetligi Rassel uchun falsafa faniga, ya’ni kishining boshini aylantirib tashlaydigan eski metafizikaga mutlaqo o‘xshamaydigan fan bilan muvofiq keladi.

Kembridjlik faylasuf Lyudvig Vitgenshteynning «Mantiqiy-falsafiy traktat» degan kitobi analitik falsafa rivojlanishi birinchi bosqichining kulminatsion nuqtasi bo‘ldi. Ushbu kitob 1921 yilda Germaniyada, 1922 yilda Angliyada, 1958 yilda Rossiyada bosilib chiqkan. Vitgenshteyn Rasselga karaganda ko‘proq darajada qagiyat bilan o‘z dikkat-e’tiborini tilga karatdi. Fikr tilda ifodalanadi, demak, aynan mana shu til tafakkurning chegarasi hisoblanadi.

Fakat barcha tabiiy fanlar orqali bayon etiladigan birgina olam-faktlar olami, voqealar olani mavjud. Gal - bu olam manzarasidir. U olam bilan bir xil maitiqiy shaklga ega. Basharti olam mantiqsiz bo‘lganda edi, uni gal shaklida tasavvur qilib bo‘lmas edi. Galning ma’nosini faktlar ifoda etadi. Barcha gallar elementar gallarning umumlashmasi hisoblanadi. Bu gallar modellar sifatida bevosita faktlarga muvofiqlashadi. Demak, «umuman aytish mumkin bo‘lgan galni aniq qilib aytish ham mumkin». qolgan boshqa hamma narsalar to‘g‘risida, masalan, mistik narsalar to‘g‘risida, yaxshisi-indamaslik kerak. Shuning uchun indamaslik kerakki, mistik fikrlarni, xuddi etik fikrlar singari yaqqol - mantiqan aniq ifodalab bo‘lmaydi. Bunday aytilgan fikrlarning rost yoki yolg‘onligini tekshirib ham bo‘lmaydi. Agar kimdir biror joyi ogriyotganini aytsa, o‘sha kishining o‘zidan boshqa xech kim ushbu og‘riqning haqiqiyligini isbotlab bera olmaydi.

Falsafa ilmiy ta’riflar, gallardan iborat emas, chunki u fandan farqli o‘laroq faktlar bilan ishlamaydi. Binobarin, falsafiy gallar rost ham emas va yolg‘on ham emas: ular ma’nosizdirlar. Falsafaning maksadi fikrlarning falsafiy gallar tuzishdan iborat emas, balki fikrlarning Mantiqiy manosini tushuntirib berishdan iborat. Shuning uchun ham falsafa bu ta’limot emas, balki faoliyatdir.

Shunday qilib, mantiqiy-lingvistik ahamiyatlilik analitik falsafaning birinchi bosqichi uchun harakterli xususiyat, o‘ziga xos burilish nuqtasidir. Shuningdek u qat’iy mantiqiy lingvistik sinovga duch kelgan falsafa statusini qaytadan ko‘rib chiqadigan bosqichdir. Bunga ko‘ra eski falsafiy

tizimlarning to‘g‘ri ekanligi shubha ostida qoladi. Falsafa yo fan sifatida tushuniladi (Rassel), yoki faiga kirish yo‘li, fikrlarni aniqlashtirish bo‘yicha olib boriladigan bir faoliyat deb karaldi. (Vitgepshteynning dastlabki qarashlari.)

Agar analitik yo‘nalish oyokka turgan joy Rassel va Vitgenshteynlar ish olib borgan Angliya deb xaqli ravishda qisoblash mumkin bo‘lsa, keyinchalik uning harakat markazi Vena va Berlinga ko‘chadi. «Faydasuflarning Venadagi to‘garagiga» M.Shlik. F.Frank, O.Neyrat, R.Karnal, K.Gyodel kirganlar. Berlindagi «Ilmiy falsafa jamiyatini» G.Reyxenbax va K.Gempel singari birinchi darajali faylasuflar gullatishgan. Mana shu ikkala gurux vakillari o‘zaro kelishilgan falsafny pozitsiyada turmagan bo‘lsalar - da, baribir ularning barchasini dunyoni matematika, mantik. va fizika failari yutuklari asosida ilmiy anglash maifaatlari birlashtirib turgan. Ayniqsa, Vitgenshteynning «Mantiqiy-falsafiy traktati»ga ko‘p etibor berilgan edi. Ikkinchi jaxon urushi mintaqadagi faylasuflarning mutlaq ko‘pchiligiii AQShga emigratsiya qilinishiga majbur etdi. Bu yerda ular o‘z ishlarini goyat samarali tarzda davom ettirdilar. Emigraiiya analitik falsafani anglosakson qadriyatiga aylanib ketishiga sababchi bo‘ldi. Epdi mantiqiy pozitivshmning asosiy goyalarini ko‘rib chiqamiz.

Ular metafizikani falsafaning dastlabki prinsillari to‘g‘risidagi ta’limot sifatida rad etdilar. Vena to‘garagining vakillari metafizikaning ahamiyatini inkor etadilar. Chunonchi, Karnal metafizikaning xizmatini tilni mantiqiy taxlil qilish natijasida fanlar bajara oladilar deb xisoblagan. Bir tomondan, Mantiqiy pozitivistlar Vitgenshteyn tomonidan olg‘a surilgan falsafiy gallarni ma’nosiz gallar sifatida tushunish lozim degan fikriga tayansalar, boshqa tomondan - ular XIX asr pozitivizm an’analarini, eng avvalo fransuz olimi O.Kont va avstriya olimi E.Maxlarning an’anasini davom ettiradilar. Pozitivizm o‘zini ijobiy ta’limot, ya’ni fan sifatida tan olinishini talab qiladi. Voqelikning har bir sohasi muayyan bir fan orqali o‘rganiladi. o‘z kuchini ishga solish uchun metafizika maydonning o‘zi qolmaydi.

Gallarni analitik va sintetik gallarga bo‘lish fanni neopozitiv tarzda tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Analitik gal-bu shunday galki, uning haqqoniyligi uning o‘z mazmunidan kelib chiqkan holda belgilanadi, sintetik galda esa biz uni ko‘rmaymiz. Analitik gallarga misollar keltiramiz: «Kvadratning barcha burchaqlari to‘g‘ri burchaqlidir», «To‘g‘ri burchak qarshisida teng tomonlar yotadi, burchak va tomonlar mos keladi». Ta’rif buyicha kvadratdagi barcha burchaqlar to‘g‘ri burchak, jismlar esa allaqanday cho‘zilgan xolatni eslatadi. Sintetik mazmundagi galga misollar keltiramiz: «Stol ustida kitob yotibdi», «Talabalar kulishni yaxshi ko‘rishadi». Ta’rifga ko‘ra stol, unda kitob yotishi albatta shart bo‘lgan allaqanday bir narsa xisoblanmaydi. Sintetik gallarning xakikiyligi empirik yo‘llar bilan aniqlanadi.

Neopozitivistlar fandagi barcha gallar yo analitik gallar yoxud sintetik gallar bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Analitik gallar alrior - ya’ni azaldan ma’lum gallar bo‘lib, ular mantiqan zarur bo‘ladi, sintetik gallar esa - empirik gallar bo‘lib, ular mantiqan olganda zarur bo‘lmaydi. Shunga muvofiq barcha fanlarni eksperimental (fizika, kimyo, psixologiya, tarix, sotsiologiya) hamda noeksperimental (mantik va matematika) fanlarga ajratish mumkin. Falsafaning gallari analitik gallar ham emas, va sintetik gallar ham emas, ular ularning fikricha ma’nosizdir. Aytaylik, men kuyidagi falsafiy bir galni qarab chikayotgan bo‘lay: «Materiya birlamchi, ong ikkilamchidir». Materiya tushunchasidan ongni chiqarib tashlab bo‘lmaydi, shuning uchun bizning galimiz analitik gal hisoblanmaydi. Ayni bir vaqtda men eksperimental tarzda materiya bilan ishlay olmayman, binobarin bizning galimizni empirik tarzda tekshirib bo‘lmaydi, ya’ni u sintetik gal hisoblanadi. Shunday qilib, qarab chikilayotgan falsafiy gal ma’nosiz gal bo‘lib chiqadi.

Neopozitivistlarning tankidchilari, ayniqsa, amerikalik faylasuf Kuayn, ularning analitik va sintetik gallarni bir-birodan ajratilishini absolyutlashtiryshda ayblaydi. Hakikatda esa ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘lik ekanligini xisobga olish lozim. Buning ma’nosi shuki, eksperiment vaqtida umuman, nazariya, shu jumladan. analitik gallarning xaqqoniyligi tekshirib chiqiladi, ularni ham xuddi falsafiy gallarni tekshirganday tekshirib chiqiladi: Agar falsafiy gallar haqiqatdan ham foydali bo‘lsa, u holda ular xaqikiy, ya’ni haqiqatni ifodalagan gallar hisoblanadi. Kuaynning tanqidini ko‘pchilik neopozitivistlar tan olib, uni qo‘llab-kuvvatlaydilar. Birok faylasuf Karnal unga qarshi e’tiroz bildirib, ko‘p xollarda gallarning analitik va sintetik gallarga bo‘linishi saqlanib

qoladi, deb tasdiqlaydi. Masalan, sun'iy tillarni konstruksiya qilish vaktida fakat analitik gallar bilan ishlash asosiy vazifa xisoblaiadi.

Verifpkatsiyalash (Haqiqatni isbotlamok). Verifikatsiya prinsipiga binoan, sintetik gallarning ilmiy jihatdan to'gri, xakiqiy gal ekanligi eksperiment orqali tasdiklanadi. Vitgenshteyidan k.yeyin neopozitivistlar uning elementar gallar to'g'risidagi tasavvurlaridan foydalanadilar (ular bu gallarni kuzatish gallari, protokol gallari deb atashgan), ularni bevosita faktlar orqali tekshirib ko'rishadi. Murakkab sintetik gal (ko'pincha bu matndir) soddalashtirilib elementar gallarga aylantirilishi lozim, keyin esa ular faktlar bilan takkoslanib ko'riladi. Aytaylik, men kuyidagi galning xakkoniy, to'g'ri gal ekanligiga ishonch hosil qilmoqchiman: «Ushbu gruppadagi barcha talabalarning bo'ylari 160 sm dan yuqori». Endi ushbu gal; «Talaba A ning bo'yi 160 sm dan ortiq», - degan tipdagi elementar sodda gallarga aylantiriladi.

Bir karashda verifikatsiya prinsipiga rioya etish sintetik gallar bilan ishlanilayotganda haqiqiy bilimga erishish uchun kafolat berilayotganday bo'lib tuyuladi. Lekin neopozitivistlarning o'zlari tekshirib aniqlashlaricha, verifikatsiyalashtirish tadbirlari. orqali ishlanganda , har doim ham maqsadga erishilavermaydi. Gal shundaki verifikatsiyalashtarish prinsipining o'zini tekshirishning iloji yo'k. Sintetik gallarning haqiqiyligini har qanday shu tipdagi gallar xaqiqat deb topilishi va shundayligi tekshirib chiqilganligini isbot qilib bo'lmaydi. VerdfikatsiYEDaj-irinsipi fakat analitik gallargagina tegishlidir deb ham bo'lmaydi, chunki ulardal farqli o'larok ushbu prinsip eksperiment bilan bog'liq, unga taalluqli bo'ladi. Undan chikdi-verifikatsiyalashtirish talabi shu'kadar aniq bo'yaadiki, uni oddiy ko'z bilan ko'rish mumkinday tuyuladi. Holbuki, neopozitivistlar fanni xuddi shunga o'xshagan gallardan tozalashni istagan edilar. Verifikatsiyalashtirish prinsipi neopozitivistlarni murakkab axvolga solib qo'ydi. Agar hamma narsani ochiq ko'z bilan va bir xil usulda tekshirishning iloji bo'lganda edi, fan goyat kat'iy bir tadbirga aylanib qolgan bo'lur edi. Biroq , bunda barcha qoidalar maksimal darajada umumiy harakterga ega bo'ladi, pazariy qonunlar shundayki, ularni verifikatsiyalashtirish mumkin emas. Bumday qaraganda o'lim go'yo barchaga barobardek bo'lib tuyuladi, lekin bupi qanday qilib tekshirib bo'ladi? Xuddi shuningdek, gipotezalar ya'ni taxminiy bilimlarni ham verifikatsiyalash yo'li bilam tskshirish - ya'ni haqiqatni isbotlash mumkin emas. Bundan shunday xulosa chiqadiki, neolozitivistlar verifikatsiyalashtirish prinsipiga haddan tashqari katta ahamiyat berib yuborishgan ekan.

Verifikatsiyalashtirish prinsiplarining tahlili shuni ko'rsatadiki. moxiyati bo'yicha u falsafiy prinsip bo'lib, uni aslo bema'ni usul deb bo'lmaydi. Buning ma'nosi shundaki, neopozitivistlar falsafaga tanqidiy munosabatda bo'lganlarida haddan tashqari qattiqlik qilgan ekanlar.

Etnkadagi emotivpzm. Neopozitivistlar verifikatsiyaga tushmaydigan axloqqa oid gallar, demakki, na xaqikiy, na soxta bo'lgan gallardan iborat bo'ladi deb hisoblaganlar. Ularning ma'nosi axloqiy emotsiyalarni ifodalashdan iborat bo'lgan. («emotivizm» atamasi ham shuidan kelib chiqqan). Britaniyalik neopozitivist A.Ayyerning ta'kidlashicha axlok - bu bilish emas, balki xis - tuyg'udir; uni ilmiy yo'l bilan asoslash mumkin emas. Ayni bir vaqtda neopozitivistlar ahlokiy, siyosiy, estetik ko'rsatmalarni, aniq kishilar, ijtimoiy guruxlarning istaqlari, xis - tuyg'ularini o'rganish mumkimligiii inkor etmaydilar. Bu ish bilan yana boshqalar qatorida sotsiologlar ham, psixologlar ham, tarixchilar ham shug'ullanadilar, chinakam, haqiqiy bilim ideallari gumanitar fanlardan begonadir, deb hisoblaydilar. Oradan yillar o'tgach, emotivistlar o'z pozitsiyalarini sezilarli darajada o'zgartiradilar, endi ularni axloqiy fikr - mulohazalar tabiiy fanlardagi gallardan ko'ra ko'prok qiziqtira boshlaydi. Angliyalik olim R.Xear etika buyrug' (farmoyish) berishidan boshlanishini ko'rsatib beradi(«bunday qil», «buni kilma», «bu yaxshi, bu esa yomon»). Buyrug', farmoyishlar berib bo'lingach, mantik qonunlari kuchga kiradi: qoidalarga amal qilgan xolda, bir galdan boshqa gallarni keltirib chikaraverish mumkin.

Shunday qilib, neopozitivizm yoki mantiqiy - mantiqiy pozitivizm ilmiy bilim ma'nosini sezilarli darajada aniqlab, tushuntirib berdi; ko'pgina yangi muammolarni, shu jumladan, falsafiy ma'nodagi muammolarni ham hayotga olib kirdi. Falsafiy bilimga kelganda shuni aytish kerakki, bu bilim postpozitivistlarning asarlarida ancha yuksak darajaga ko'tarildi.

Postpozitivizm degani - bu neopozitivizm o'rniga kelgan juda ko'p konsepsiyalarning umumiy nomidir. Turli xil postpozitivizm konsepsiyalarining tarafdorlari ko'p soxalar bo'yicha bir-

birlari bilan kelisha olmaydilar. Neopozitivizmning eskirib qolgan ta’riflarini tanqid qiladilar, lekin ularga nisbatan o‘zlarining izchil munosabatlarini saqlab koldilar. Xuddi neopozitivistlarga o‘xshab, postpozitivistlar ham bilishning rotsional usullariga asosiy e’tiborni karatadilar. Ingliz faylasufi Karl Popper eng mashhur postpozitivistlardan biri hisoblanadi.

Popper uchun verifikatsiya (tekshirish mumkinligi) konsepsiyasining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ilmiy gallarga nisbatan noto‘gri fikrlarning bo‘lgani tasodifiy emas. Verifikatsiyaning metodologiyasi ishonch - e’tiqodga asoslanadi. Unga ko‘ra, bilim mutlaqo xaqikatdan yirok bo‘lishi mumkin. Bunday deb o‘ylash xayoliy bir tasavvur. Ertami - kechmi eski nazariya o‘rniga yangi nazariya keladi, shu vaktgacha haqiqiy, to‘g‘ri deb kelinayetgan fikrlar endi noto‘g‘ri, adashish bo‘lgan deb tan olinadi. Shuning uchun epistemologiya, ya’ni ilmiy bilish falsafasining vazifasi nazariyalar izlashda emas, balki bilimni rivojlantirish muammosini xal qilishdan iboratdir. Bilimni rivol<lantirishga ratsional bahs - munozara yo‘li bilan erishiladi. Bunda xech shubhasiz mavjud bo‘lgan bilimlar tankid ostiga olinadi. Shuning uchun Popper o‘z falsafasini tankidiy ratsionalizm deb atagan.

Xo‘sh, unda ilmiy ixtirolar mantig‘i qanday bo‘ladi? Induktivistlar fikriga qarama - qarshi o‘larok , Popper, olimlar faktlardan nazariyalar tomon ko‘tarila borib emas, balki gepotezalardan alohida aytilgan fikrlarga o‘tish yo‘li bilan ixtiro qiladilar, deb xisoblaydi. Bunda olimlar gipotetik-deduktiv usuldan foydalanadilar. Umumiy harakterdagi gepotezalardan gal tuzadilar. Bu gallar bevosita bayoniy gallar bilan kiyeslab, taqqoslab chiqiladi. Agar nazariya bilan bayoniy gallar nisbatan bir-biriga muvofiq kelsa olimlar qam kelishadilar, u xolda nazariya vaktincha tasdiklangan deb xisoblangan. Hech bir nazariyami mutlaqo to‘g‘ri deb topish mumkin emasligi tufayli unga gipotetik harakterdagi ta’rif beriladi, ya’nn ushbu nazariyani qonunlar emas, balki haqiqatga o‘xshab ketadigan tasdiklar hosil qiladi. Har qanday nazariya ham ishonchli emas, *unda xatolar mavjud bo‘lishi mumkin (follibilizm prinsipiga ko‘ra). Nazariyani mutlaqo to‘tri deb tasdiqlash mumkin emas, lekin uni rad etish mumkin. Nazariyani soxtalashtirish tadbiri nazariya tajriba ma’lumotlariga zid kelib qolgan takdirda o‘tkaziladi, goxida birgina tajriba bo‘yicha olingan faktga qarab nazariya soxtalashtiriladi. Sohtalashtirilgan nazariya yangisi bilan almashtiriladi, keyinchalik bu nazariyaga ham ratsional tanqidning yangi - yangi zarbalari yog‘ila boshlaydi.

Har xil gilotetik-deduktiv strukturalar o‘zlarining kay darajada yashovchan ekanliklari bilan bir-biridan fark qiladi. Organizmlar olamida muhitga ko‘prok darajada moslashgan organizmlar tirik qoladi, fan olamida esa bir-biriga iisbatan eng ko‘p darajada kara.ma - qarshi bo‘lmagan-ya’ni ziddiyatsiz konsepsiyalar yashab qoladi.

Faqat shunday bir konsepsiya shshiy nazariya deb tan olinadiki. u albatga tajriba qilib olingan ma’lumotlarni bir-biri bilan solishtirib, kiyoslab ko‘rish imkoniyatini bersip va, binobarin, uni istagan bir paytda falsmfikatsiya qilish-ya’ni sohtalashtirysh mumkin bo‘lsin. Fandan farkli o‘laroq . falsafami soxtalashtirish mumkin emas, ya’ni falsafa ilmiy harakterga ega emas. Birok , ilmiy kuchga ega bo‘lmagan falsafa shunday ma’noga egaki, usiz xech bir fan rivojlana olmaydp. Popper fan bilan falsafa demarkatsiyasi (ya’ni ularning chegarasini belgilab berish) muammosini shu tarzda xal etadi. Uning fikricha, bu yerda falsafa ilmiy bilimlarni anglab yetish vositasi sifatida maydonga chiqadi hamda, jumladan. raiional -tankidiy bahs-munozaralar, follibilizm, falsifikatsionizm prinsiplari - tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

Popper ilmiy bilimlar o‘sib rivojpanib borishining ko‘pgina nozik tomonlarini ifodalab berishga muvaffak bo‘lgan. Lekin u yaratgan konsepsiya ham tanqidga uchraydi. Asosan. Popper mlmiy bilimlar o‘sishini gipotezalar bilan kuzatish faktlari o‘rtasidagi duelga o‘xshatganligi uchun uni tankid qiladilar. To‘g‘ri~da, axir gipoteza va kuzatish faktlaridan tashqari ijtimoiy va texnik olamlar, boshqa ko‘pgina omillarning yig‘indisi ham.mavjud-ku! Ular ham ilmiy bilimlarning o‘sishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, xuddi o‘sha falsifikatsiya-soxtalashtirish prinsipini olib ko‘raylik. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, olimlar ilmiy tanqid natijasida muayyan nazariyada bayon etilmagan kuzatish faktlarini aniqlagan vaktlarida ham uning xizmatidan foydalanishni tUxtatishga-uni batamom rad etishga aslo shoshilmay turadilar. Masalan, Nyuton mexaniqasi buning misolidir. Bunda uning o‘ziga qarshi chiqarilgan juda ko‘p faktlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, xozirgi zamon olimlari undan keng miqyosda foydalanib kelmokdalar. Xuddi shunga

o‘xshash, Popper tomonidan olg‘a surilgan talablar ham normativ harakterga egadir, bu esa o‘sha talablarga har doim ham amal qilinavermaslik kerak, degan ma’noni anglatadi.

Endi o‘z xususiy konsepsiyalarini ishlab chiqqan boshqa bir qator postpozitivistlarning qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Ingliz olimi Imre Lakatos o‘zining ilmiy - tekshirish programmasi metodologiyasini olg‘a surgan. Popper fikriga ko‘ra, bir nazariya o‘rniga boshqa nazariya keladi, eski nazariya batamom rad etiladi. Lakatos nazariyalarni bir-biri bilan kiyoslab ko‘rish muhim ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Bunda u shunchaki nazariyalarning o‘zini bir-biriga solishtirish bilan cheklanmay, hatto-tadqiqot programmalarini ham takkoslab ko‘rish muhim ekanligini aytib o‘tdi. Har bir ilmiy-tadkiqot programmasi bir kancha nazariyadan tarkib topadi. Programmaning «mag‘zi» mazkur programmaning bir nazariyasidan boshqa nazariyaga ko‘chib o‘taveradi, yordamchi gipotezalardai iborat bo‘lgan himoya maydoni esa kisman buzilishi mumkin. Ngotonning ilmiy-tadqiqot programmasidagi «mag‘zi» mexaniqaning uch qonuni va tortilish qonuni hisoblanadi. Mana shu asosda turli sohalarga, masalan, astronomiyaga, nur to‘g‘risidagi ta’limotga va boshqa sohalarga taalluqli bo‘lgan ko‘plab nazariyalar rivojlantirilgan. Fakat mana shu «mag‘zi» programmaning mag‘zi parchalab tashlangandan keyingina eski ilmiy tekshirish programmasidan yangi dasturga o‘tish zarur bo‘lib qoladi. Yangi progressiv ilmiy tadqiqot programmasi o‘zidan oldingi dasturga karaganda ko‘proq darajada empirik mazmunga ega bo‘lmog‘i kerak.

Lakatos nazariya bilan ilmiy tadqiqot programmasini solishtirib ko‘rish zarurligini ta’kidlab o‘tar ekan, bilimning rivojlanish jarayenidagi muhim jihatlari. ajratib ko‘rsata oladi. Bu yerda muhimi-nazariya bilan ilmiy tadkiqot dasturlarini bir-biridan fark qilishidadir. Ta’limotlar xilma - xilligini o‘zlashtirayotgan har bir kishi uchun u qanday ilmiy tadqiqot dasturi va uning nazariyasi doirasida ish olib borayotganligini anglab olish muhimdir. Bunday anglab olish nazariya bilan programmalarni bir-biriga solishtirib, takkoslab chiqishni takazo etadi. Agar tadqiqotchi yoki talaba faqat birgina ilmiy tadqikot programmasiga ega bo‘lsa yohud, yana ham yomoni. fakat birgina nazariyani bilsa, bunda ushbu dastur yoki nazariyani beixtiyor mutlaq xakiqat deb qabul qiladi (axir uni boshqacha kiyoslaydigan hech narsa yo‘q-da!). Buning ma’nosi, o‘sha subyekt o‘zining ilmiy stathsi, ya’ni xaqikiy vazifasini anglab yetmaganligida. U olib borayotgai birgina ilmiy tadqiqot programmasi atrofida kattik o‘ralashib qoladi hamda boshqa programmalarning afzalligini anglab yetmaydi va tushunolmaydi.

Postpozitivistlar e’tiborni haqli ravishda ilmiy bilimni rivojlantirish tarixini puxta o‘rganish zarurligiga karatganlar. Fan tarixini o‘rganmay turib uning o‘zini o‘rgana boshlashi - bu bir yoqlama bilimga olib keladi, dogmatizim uchun sharoit yaratib ko‘yadi.

Shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, bizning o‘kuv qo‘llanmamizda ana shunday vaziyatlarni xisobga olish zarurligiga harakat qilinadi. Siz, bizning aziz o‘quvchimiz, falsafiy programmalarning asosiy muammolari bilan tanishib chikasiz. Bizning fikrimizcha, mana shu asosiy falsafiy dasturlarning birortasini ham mutlak mukammal dastur darajasiga ko‘tarib bo‘lmaydi. Keling, yaxshisi yana postpozivitistlarning qarashlariga qaytaylik.

Feyrabend nazariyalarning xech qanday o‘lchovga tushmasligi to‘g‘risidagi tezisni kattiq himoya qilgan olim. Nazariyalar deduktiv tarzda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmaydi, ular uchun turli tezislar va tushunchalar harakterli xususiyat bo‘ladi. Feyyerabend fikriga qaraganda plyuralizm nafaqat siyosatda, hatto fanda ham hukmron bo‘lishi zarur. Juda ko‘p bir-biriga teng bo‘lgan bilim tiplari mavjud. Universal bilimni olish usulining imkoiiyatlari Feyyerabend tomonidan rad etiladi. Ba’zan, hatto shunday bir ma’nodagi - ya’ni usullar ma’kul, xdmshsidan ham foydalansa bo‘ladi, degan ma’nodagi so‘zlarni ham aytgan, ya’ni basharti olimlar jamoasi tomonidan qabul qilingan har qanday nazariyanm kabul qilish va umdan foydalanish mumkin, deydi u. Ratsionalliqning mezonlari absolyut - mutlaq emas, balki ular nisbiydir. Hamma yerda va har doim maqbul kelaveradigan ratsionallik mezonlari yo‘k. Anarxizm xaddan tashqari jozibador siyosiy doktrina bo‘la olmaydi deb hisoblaydi Feyyerabend. Lekin u bilish falsafasi va fan uchun, o‘zini bitta universal usul bilan cheklab ko‘yishga moyil bo‘lgan kishilar uchun ajoyib vosita bo‘lib xizmat qiladi. Basharti ilmiylikning kat’iy mezonlari yo‘q ekan, u holda ilmiy faktlarni ilmiy bo‘lmagan faktlar bilan aloqasi mavjud deb o‘ylash tabiiy bo‘ladi, chunki ular fanga o‘z ta’sirini o‘tkazadi

hamda mustaqil qadriyat xususiyatiga ega boʻladi. Fan, falsafa, din va hatto magiya ham - hammasi oʻz joyida kerak, qammasi ham mustaqil qadriyat xususiyatiga egadir.

Feyyerabyondning xizmati shundaki, u mumtoz fan ideallar boʻlgan barqaror xususiyatlarni bartaraf qilish, ularni rad etishni qat'iyan talab qilib chiqqan. Fan-bu nazariyalarning koʻpayish jarayonlaridan iborat boʻlib, bu yerda yagona bir yoʻl yoʻq. Birok shunday bir tasavvur paydo boʻladiki, goʻyo Feyyerabend fanni rivojlantirishning barqaror tendensiyalariga yetarli darajada e'tibor bermagan. Axir bunday tendensiyalar ham mavjud-ku!

Amerika faylasufi Tomas Kunn ham xuddi Feyyerabend singari fan taraqqiyotini popperial sxemasida olib borilishiga tanqidiy nazar bilan karagan. Uning asosiy fikri shundan iboratki, ilmiy bilimlarni rivojlantirishda ilmiy hamjamiyatlar faoliyati aloxida rol oʻynaydi. Bu yerda mantik, metodologiya emas, balki paradigma normalari belgilovchi ahamiyatga ega boʻladi, ya'ni ilmiy uyushmalar qabul qilgan, hamda ilmiy an'analarni davom ettirgan e'tikodlar, qadriyatlar, texnika vositalari katta ahamiyat kasb etadi, oʻz mazmuniga koʻra paradigma nazariyadan hamda ilmiy - tekshirish dasturlaridan ham kengroqdir. Basharti u yoki paradigma xech soʻzsiz asosiy oʻrinni egallab turgan boʻlsa, u xolda normal fan davri muqarrardir. Paradigmaning buzilib ketishi fanda revolyutsiyaga - ilmiy inqilobga olib keladi. Har bir paradigma ratsionallik masalasida oʻz mezonlariga ega boʻladi, bu mezonlar universal hisoblanmaydi. Paradigmalar bir-biri bilan qiyoslanmaydi, ular oʻrtasida biroz boʻlsa ham bevosita izchillik mavjud emas. Yangi paradigma eskisini inkor etadi. Koʻpchilik olimlar Kun paradigmalarni oʻlchab boʻlmasligi toʻgʻrisidagi oʻz konsepsiyasida ilmiy bilimlarning izchilligiga yetarli baxo bermaydi deb xisoblaydilar. Kun fanning ilmiy jamoalar faoliyati natijasi ekanligini ta'kidlar ekan, fanda sotsial va psixologik xolatlarning alohida ahamiyat kasb etishiga haqli ravishda e'tiborni qaratadi.

Lyudeig Vitgenshteyn - Avstriyalik faylasuf, u Kembridj universitetida koʻp yillar mobaynida oʻqituvchilik qilgan. Uni koʻpincha Gʻarb davlatlarida XX asrning eng mashxur faylasufi deb ataydilar. Garchi bu gallarda mubolagʻa elementlari boʻlsa ham, lekin shunday deyish uchun asos borligi xech shubhasizdir.

Til asosiy taxlil predmeti boʻlib qolgan vaqtlarda Vitgenshteyn olib borgan tadqiqotlar xech shubhasiz falsafiy izlanishlarning markazida boʻlgan. XX asr falsafasi uchun harakterli boʻlgan lingvistik burilish koʻp jihatdan tilning analitik falsafasi tufayli amalga oshirilgan, ushbu falsafa esa Vitgenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Oʻz ijodining dastlabki davrlarida Vitgenshteyn yukorida qarab chiqilgan «Mantiqiy-falsafiy traktat» nomli kitobini yozgan edi. Ushbu kitobni mantiqiy pozitivizm, ya'ni neopozitivizm boʻyicha qoʻllanma sifatida foydalanish ham mumkin boʻlgan. oʻz ijodining soʻnggi davrida Vitgenshteyn oʻz qarashlariga sezilarli darajada muhim oʻzgarishlar kiritadi. Faylasuf vafotidan keyin, 1953 yilda birinchi marta bosilib chiqqan «Falsafiy tadqiqotlar» nomli kitobida tilning analiziga yangicha yondashuvlarning bayon etilganini koʻramiz. Aynan mana shu yondashuv xozirgi zamon faylasuflarining koʻpchiligi uchun yangilik boʻlib oʻz tarafdorlarimi topdi. Hozir ham u koʻpchilik ingliz universitetlarida oʻqitiladigan falsafa kursining markazida turadi hamda bundan keyingi olib borilayotgan ilmiy ishlarning predmeti xisoblanmoqsa.

Vitgenshteynning «Falsafiy tadqikotlar» nomli asarida tilni «an'anaviy» tushunilishi gʻoyat kattik tanqid qilinadi, uning «Mantiqiy-falsafiy traktati»da ham shu haqida mufassal toʻxtab oʻtiladi. Tilning eng sodda konsepsiyasi nom (soʻz)ning ahamiyatini muayyan ma'noda tushunish asosiga qurilgandir. Soʻz qaysi obyektga qaratilgan boʻlsa, oʻsha obyekt soʻzga muvofiq keladi, deb hisoblanadi. Soʻzlardan gal tuziladi, ularning yigʻindisi esa tilni hosil qiladi, deb xdsoblaydilar. Soʻzlar va gallar nimanidir anglatadi. Biz «ushbu stol», «mening koʻlim», «Yer planetasi oʻz oʻqi atrofida aylanadi», «Elektron mavjud» degan vaktimizda har safar soʻz yoki galning ma'nosi orqali ba'zi bir obyektlar yoki ularda sodir boʻlayotgan jarayonlar haqida ma'lumot beramiz. Tasavvurning boyib borishi toʻla ravishda qat'iy boʻlib tuyuladi-bu yerda nimani ham «talashish» mumkin? Lekin keyinchalik Vitgetsshteyn bunday qarashlarni keskin tankid qiladi.

Gal shundaki, nom bilan uning ma'nosi oʻrtasida muvofiqlikning mavjudligi aniq xisoblanmaydi. Vitgshsh-te-yn fikriga koʻra, soʻzlarning ma'nosi ularning qoʻllanishi. orkal11^b£dgʻnlanadn. Soʻzning ahamiyati-uning koʻllanshshshidadir. biroq. aslo uning ma'no

anglatishida emas. Aytaylik, so‘z xaqikatdan ham ma’no ifodalaydi, deb o‘ylab ko‘raylik, bunday vaktda biz tezda ziddiyatlarga duch kelamiz. So‘zni bolalar va kattalar tomonidan ko‘llanilishi, uning olim bo‘lmagan kishi va olimlar tomonidan qanday qo‘llanishinn bir-biriga solishtirgan zaxotingiz, darxol muayyan nomuvofyqpik aniqlanadi. Odamning ko‘lp nima? Elektron mima? Bu xildagi savollarga har xil javoblar olasiz. Hamon shunday bo‘lgach, qandaydpr barkaror, hammaga ma’lum birorta ma’noni anglatadigan so‘znimg o‘zi bo‘lmas ekan-da? degai xulosa chiqib qoladi. Sizga so‘z obyektni anglatadi deb isbotlay boshlasalar, o‘sha zaxoti obyekt so‘z bo‘lmasa ham ma’lumku, - deb isbotlashga o‘tadilar, lekin aslida shunday emas-ku o‘sha obyekt bo‘lmasa, uni ifodalagan so‘z ham bo‘lmaydi-ku.

Odamlar so‘zdan foydalanishadi, bunda ular so‘z orqali o‘zlari xak ekalliklariga bir-birini ishontirishadi, bir-biriga ishonadilar. So‘zdan foydalanganda ba’zi bir qoidalarga amal qiladilar. Bu qoidalar grammatika koidalariga yoki hatto mantiq qoidalariga ham to‘g‘ri kelmaydi. Bu yerda boshqa qoida-hayot qoidalari to‘g‘risida gal boradi. Til - bu turmush shaklidir. Hayot tilda o‘z mohiyatini ko‘radi. Til yana o‘yin faoliyatining bir shaklidir. Aniq til o‘yini oqibatini oldindan aytib bo‘lmaydi. Muayyan bir hodisaii bayon etish uchun. foydalaniladigan til o‘yinlaridagi so‘zlar hammaga taalluqli emas - ular to‘la umumiylikka ham ega bo‘lmaydi. Ularda fakat «oilaviy» o‘xshashlikkina mavjud bo‘lib, ular bir oiladagi aka - ukalar va opa-singillar singari bir-biriga o‘xshab ketadi, bundan ortiq bo‘lmaydn. Buning ma’nosi shuki, Vitgenshteyn umumiy tushunchalar realligini rad etadi. Shunday qilib, til-bu faoliyatdir, hayotiy o‘yin shaklidir, o‘yin qoidalari avval boshdan berib qo‘yilmagan bo‘lib, ular odamlar jamoasida shakllanadi. So‘zlarning ahamiyati hayot jarayonida, til o‘yini davomida tuziladi. Til o‘yini jarayenida e’tikod, ishonch, sadokat singari qadriyatlar aloxida ahamiyat kasb etadi. Biz bunda aloxida olingan gallar emas, balki gallar tizimiga ishonamiz. Faqat asta - sekin, izchillik bilan hayot - turmush deb ataladigan yaxlit bir tushuncha ifoda etiladi, bu ifoda so‘z o‘yinlari orqali amalga oshiriladi.

Hayot, til, e’tikod-bular bari insonga xos asosiy qadriyatlar bo‘lib, ular azal-azaldan beri mavjud, ularni xech bir boshqa narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Odamlar fan qonuni deb ataydigan gallar ham boya aytilgan til o‘yini, tafakkur maxsulidan o‘zga narsa emas. Agar matematika matematik hisoblashlar qoidasi bilan ish olib borsa, falsafa til o‘yinlariga amal qiladi, o‘yin koidasini bilmaydigan kishi xato qiladi. Hayotda muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi. Falsafiy faoliyat go‘yo til shaklida bayonni taxlil etuvchi sifatida maydonga chiqadi. Falsafa so‘zni ishlatish usullarini aniqlab berishi, ya’ni unga aniqlik, tiniklikni qaytarishi, tildan turli xil bema’ni keraksiz so‘zlarni olib tashlashi lozim. Tabiiy til falsafiy analizning xaqikiy predmeti hisoblanadi. Bunday tabiiy til o‘z mazmuniga ko‘ra mantiq va matematika tili singari «takomillashgan» tillardan ancha ustun turadi. Bu yerda «takomillashgan» degan so‘zning qo‘shtirnok ichiga olib ko‘yilishining sababi Vitgenshteyn mantik va matematika fanlarini mensimasligida emas. Aslo unday emas. Vitgenshteyn mantiq - matematika va texnika fanlarining nozik jihatlarini juda yaxshi tushungan olim bo‘lgan. Lekin baribir, mantiq va matematika tillarining takomillashib ketganiga ortikcha baho bermaslik kerak. Mantiq va matematika tili-bu asosan olimlar tomonidan tuzib chiqilgan ba’zi bir o‘yin koidalaridan iboratdir. Mantiq va matematika koidalari o‘zgartirilishi mumkin, bunday xodisa vaqti-vakti bilan sodir bo‘lib turadi.

Vitgenshteyn falsafiy fikrlashning yangicha usulini taqlif etadi. Bu usul ko‘p yillar mobaynida g‘arb falsafasi harakterini belgilab kelgan. Til amaliyetini (bu orqali esa qator falsafiy muammolarni ham) puxta tahlil etilishi,'ilmiy gallar bilan kundalik turmushdagi gallarning bir-biriga yaqinligini aniqlash, til o‘yinlarining konstruktiv ijodiy harakterda bo‘lishini ta’kidlab o‘tish, til bilan reallik, subyekt va obyekt nisbatlari to‘g‘risidagi qotib qolgan-dogmatik tasavvurlarni tanqid qilish-bularning hammasi Vitgenshteyn til falsafasida bayon etib berilgan.

Shu bilan birga Vitgenshteynni tankid qilishgan va xozir ham tanqid qilishadi. Uni til praktikasiga nisbatan butun inson hayotiy sferasi soxasidagi ma’lumotlari noto‘g‘riligida, obyektiv reallik to‘g‘risidagi biz bilgan bilimlarni iikor-etishda va binobarin, agnostitsizm pozitsiyasiga toyib ketishda, subyekt bilan obyekt o‘rtasidagi alokalarni mensimaslikda ayblaydilar.

YE.P.Blavetskaya (! 831-1891) Tibet va Hindiston bo‘ylab ko‘p sayru - sayoxatlarga chiqqan rus yozuvchisi va mutafakkiridir. U xind falsafasining ta’siri ostida 1875 yilda Nyu-Yorkda teosofiya jamiyatiga asos soladi.

1875-1891 yillarda yozilgan ko‘pgina kitob va makolalar Blavatskaya ma’naviyatga, fikrni har qanday tashqi ta’sirlar zulmidan ozod qilishga, keng ma’noda sabr-tokatli bo‘lishga, kishilar va xalqlar o‘rtasida birodarlikni karor toptirishga da’vat etgan. U inson tabiatidagi iloxiylikni va osmondagi ulug Zot bilan muloqotga kirishish imkoniyatlari mavjudligini g‘oyat zo‘r ko‘tarinkilik bilan ta’kidlagan.

YE.Blavatskayaning asosiy asari «Sirli doktrina» (t. 1-2, 1888) deb ataladi. Unda barcha zamonlar va xalqlarning ilmiy falsafiy va diniy tafakkurini taxlil etishga harakat kilingan. Kitob 1937 yilda Riga shaxrida birinchi marta rus tilida bosilib chiqdi. Blavatskayaning o‘zi o‘z teosofiyasi ma’nosini quyidagicha ifoda etgan: birlqkka yetaqlovchi barcha narsalar-yaxshilikdir; ajralishiga olib boradigan hamma narsa-yomonliqdir.

YE.Blateatskaya yaratgan ushbu asosiy asarning eng muhim mazmuni kuyidagilardan iborat:

1. Haqikatan-xalq yoki qandaydir biror ta’limot, birorta din erishgan, ko‘lga kisdagan-narsa emas. «Sirli Doktrina» bu o‘sha saiab o‘tilgan narsalar barchasining moxiyatidan iborat bo‘lib, u barcha dinlarning tashki tomonidagi "qobiqyni olib tashlab, ularning barchasini bir-biri bilan yarashtiradi, har qalday buyuk o‘zga din negizi boshqa dinlar asosi bilan bir xil, bir-biriga o‘xshash ekanligini ko‘rsatib beradi.

Blavatskaya barcha diniy ramzlardagi tub (ezoterik) mohiyat - mazmun bir xil ekanligini ochib berishi orqali turli diplarni bir-biri bilan birlashtirishga harakat qilgan.

2. Blavatskaya o‘z ta’limotini teosofiya deb atagan. Bu bilan u o‘z asarini ma’lum dinlardan ajratib ko‘rsatgan. «Bizdan bu teosofiya yapgi bir din emasmi?-deb so‘rashadi, deya yezadi u. Io‘k, xech qachon, mutlako unday emas, bu-din emas, xuddi shupipgdek, uning falsafasi ham yangi emas... fikr yurituvchi odamning o‘zi singari ushbu ta’limot ham ko‘xnadir». Buning ustiga Blavatskaya insoniyat tarixida umumai «Yangi ta’limot, biror xalqning din asoschmlari bo‘lmagan, yangi din yoxud yangi haqiqat ixtirochisi ham bo‘lamagan, deb xisoblaydi. Ixtirochi deb tasavvur qilingan barcha kishilar ilgari ma’lum bo‘lgan gallarni bizga yetkazib beruvchilar (Adeptlar), vositachilar bo‘lishgan. Ular haqiqiy ustozlar emas, balki yangi shakl va ta’riflarning mualliflari bo‘lishgan, xolos. Ular yaratgan ta’limotlar asosida yotgal haqiqatlar esa bashariyatning o‘zi singari ko‘xna bo‘lgan».

3.«Sirli Doktrina» Dzian Stansalarga, ya’pi Blavatskaya tomonidan birinchi marta chop etilgan Vedalardan oldingi, qadimgi kitoblarga asoslangan. Blavatskayaning fikriga muvofiq, Stansalar-«bu kosmik evolyutsiyaning mavhum, algebraik formulasidir», undagi yetti Stansiya esa-«ushbu mavxum formulaning yetti termini-atamasidir, ular evolyutsion jarayonning yetti buyuk bosqichini bayon etib beradi» (ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni «Puranalar»da xdm, Bibliyadagi «Yaratilish kunlari» to‘g‘risidagi saxifalarda ham uchratish mumkin).

4. Blavatskayaning dunyoqarashi Kosmogenez va antropogenezning ko‘xna, qadimgi g‘oyalarini tahlil etish asosiga kurilgan. Ularda Sharq monastirlari va butxona-ibodatxonalarining ko‘xna - kadimgi matnlardan foydalanilgan. Ushbu matn (stansa)larning ko‘pchiligi allaqachon iste’moldan chiqib ketgam va faqat «maxsus» mashhur kishilargina o‘qiy oladigan hamda ular orqali bizlarga yetkazilgan, allakachon yo‘qolib ketgan qadimgi tilda yozilgan. Stansalarning Veda, Puran, Upanishad, Vaviloniyaning «Rakamlar kitobi», Bibliya va boshqa kitoblardagi kadimgi xind matnlari bilan ko‘pgina umumiy, mushtarak jihatlari mavjud. YE.P. Blavatskayaning fikri bo‘yicha, qadimgi kitoblardagi ko‘pchilik matnlarda hamma bilishi shart bo‘lmagan sirli gallar-tabiat sirlari yashiringan. Aks xolda ushbu sir - sinoatlarni bilib olib, ulardan oqilona foydalana bilmaslik natijasida butun bashariyatuchun xavfli bo‘lgan goyat katga falokatlar yuz berishi mumkin. Shuning uchun ushbu kadimgi matnlar ramz timsollar orqali yashirib - shifrlab qo‘yilgan, ularni ochadigan kalitlar nihoyatda ehtiyot qilib saqlangan. Blavatskaya, qadimgi ramziy timsollarning ko‘pchiligi to xozirgi kunlargacha ham bizlarga tushunarli emas deb xisoblaydi.

Qadimgi kitoblar metafizikasiga ko‘ra, borliqning asosi Buyuk Uchlik: ya’ni uch katta omil hisoblanadi: absolyut, ya’ni mutlaq omil (Parabraman) ayni bir vaqtda Materiya va ong ma’nosini ham anglatadi. «Triada, ya’ni uchlik ildiz bo‘lib, undan boshqa barcha narsalar kelib chiqadi, Buyuk Nafas endi Kosmik-fazoviy harakter kasb etadi va u fikrga asos-negiz bo‘ladi». Kosmik omil-Ildiz-Substansiya (Mulalrakripi) ayni bir vaqtda Tabiat obyektiv rejalarining asosida yotgan Absolyut, ya’ni Mutlak aspekt hisoblanadi. «Kosmik Fikr-negiz-bu har qanday individual Ongning ildizidir. Kosmik, ya’ni fazoviy Substansiya-bu Materiya differensiatsiyasining turli bosqichlaridagi substrat hisoblanadi». Ushbu Absolyutning har ikkala aspekti ham zarur. Ong materiyaning faqat shu o‘tkazgichi (upadxi) orqaligina namoyon bo‘ladi; ya’ni unga jismoniy asos-negiz zarur bo‘ladi. Ikkinchi tomondan olganda Kosmik Fikr-asos bo‘lmasa, Kosmik Substansiya hech bir ma’nosiz bir omil bo‘lib kolib ketgan bo‘lur edi.

Olamning-Koinotning paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lib ketishi Blavatskaya tomonidan qadimgi matnlar asosida ifodalanib, ular «Buyuk kuf - suf» yoki «Iloxiy nafas» orqali «Nafas chikarish» hamda «Nafas olish» tarzida ifoda etiladi. «Xudo nafasidan chiqqan fikr Kosmosga aylamadi». Dzian Kitobida bunday deyilgan: «Dunyolarning paydo bo‘lishi va yo‘kolib ketishi bamisoli suvning ko‘tarilishi va pasayishn (kaytishi)ga o‘xshaydi». Qadimgi - ko‘xna matnlarda obrazli, ramziy shaklda buni Olamlar paydo bo‘lishi va yo‘qolib ketishi mumkin, deb berilgan. Hozirgi vaqtda olimlar ushbu muammo bilan shugullanmokdalar. Lekin, ma’lum bo‘lishicha qadimgi zamonlarda ham odamlar ushbu masalalar - Kosmos muammolari bilan shug‘ullanib, bu xususda erkin fikr yuritganlar, birok o‘sha bilimlarning ko‘p qismi yo‘qolib ketgan.

Moddalarning atomistik tuzilishi to‘g‘risidagi kadimgi dunyo kishilarining qarashlari diqqatga sazovor. Moddalar mayda zarralardan iborat bo‘lishi ularga allaqachon ma’lum bo‘lgan. Masalan, biz hozir qo‘llaydigan Parabraman tushunchasi qadimgi xindlarda-mayda zarrachalar va ayni bir vaktda butun Koinot degan ma’noni anglatgan. Ko‘xna matnga ko‘ra, Brama tarqalib borib, oxiri Koinotga aylanadi; - qadimgi hindalar shunday deb hisoblashgan. Bu tushuncha kadimgi xaldeylarda ham mavjud. Buni Blavatskaya kuyidagicha sharxlaydi: ularning xudosi-Anu. «Anu» degani-bu sanskrit tilida-«atom» degani. Annyamsam-eng kichik narsalarning mayda zarralari. Vedantlarning falsafasida Prabraman xuddi eng kichik atomlarning eng mayda zarralari hamda katta sferalarning hammasidan ham ulkani yoxud Koinot tarzida bayon etilgan.

5. Blavatskayaning fikricha, qadimgi matnlarni o‘rganish bizni bashorat qilishga o‘rgatadi. Chunonchi, Blavatskaya shunday ma’lumotlarni misol qilib keltiradiki, ularda quyosh tizimidagi planetalarning vujudga kelishi va ularning harakati ramziy shaklda bayon etiladi... Ulaoda yetti sayyora ko‘rsatilgan bo‘lib, bu ularning - kadimgi kishilarniig yettinchi sayyorani (garchi uni Uran deb atagan bo‘lsalar ham) bilganliklaridan guvshdik-beradi. Ular sayyoralarni harakatga keltirib turadigan va.ularn^dsdo‘-nalishini belgilab beradigan kuch - energiya to‘g‘risida ham bilganlar. Ushbu energiyani ular Foxat deb atashgan.

Dastlabki materiyaning spmralsimon harakat qilish qonunini, Blavatskayaning yozishicha, faqat qadimgi xindlargina emas, balki yunonlar ham bilishgan. Olimning fikricha, yunon faylasuflari Misternyada eng doio olimlar bo‘lgan. Ular bu bilimni misrliklardan o‘rganishgan, misrliklar esa xaldeylardan o‘rganishgan.

Xaldeylar ezoteriya maktabi braminlarining shogirdalari bo‘lishgan. Levkipp va Demokrit, atomlar bilan sferalarning aylanma harakati Olam yaralganidan beri mavjud, deb ta’lim berganlar. Yer o‘z o‘ki atrofida aylanishi to‘g‘risidagi doktrina Pifagorning barcha shogirdlari (shu jumladan, - Geraqlit) tomonidan miloddan ilgari besh asrdan ko‘prok vakt mobaynida o‘qitib kelingan.

Blavatskayaning ta’kidlashicha, Arximed (bizning eramizdan uch asr ilgari) yerning aylanish vaqtini xuddi xozirgi zamon astronomlari singari aniqlik bilan xisoblab chiqqan. Dastlabki aylanish xalqalari nazariyasi Anaksagorga eramizdan 500 yil ilgari ma’lum bo‘lgan. .

Blavatskaya qadimgi matnlar asosida kelajakda ochilishi mumkin bo‘lgan ko‘pgina ixtirolar to‘g‘risida yozib, hammani xayron koldirdi (atom energiyasiga o‘xshab ketadigan fazoviy kuch ta’siriga asoslangan dahshatli qurol to‘g‘risida; yomg‘ir yog‘diradigan, bo‘ron boshlaydigan, dushmanni parokanda qiladigan hamda uni chuqur uykuga cho‘mdiradigan kurol va boshqalar

to‘g‘risidagi fikrlari shular jumlasidandir). Olima o‘zining ushbu «nokulay fikrlari» o‘z asrida (XIX asrda) kabul qilinmasligini, faqat XX asr olimlarigina «Sirli Doktrina» to‘qib chiqarilgan gallar emasligini tushunadilar, deb yezgan edi. Bu gallar taxmin emas, deb ta’kidlab o‘tgan edi u, balki bilimga asoslangan faktlarni ta’kidlab o‘tilgan edi, xolos.

YE.P.Blavatskaya va amerikalik polkovnik G.Olkotg tomonidan 1875 yilda Nyu-Yorkda tashkil etilgan teosofiya jamiyatining faoliyati keyinchalik Yevropa va Amerikaning ko‘pgina mamlakatlariga tarqalib ketdi. 1879 yilda jamiyatning markazi Hindistonga ko‘chirilgan. Olkott vafoti (1907)dan keyin A.Bezant jamiyatning prezidenti bo‘ladi. Keyinchalik teosofiya jamiyati parchalanib ketadi va undan R. Shtayner boshliq antroposofiya ajralib chiqadi.

Antroposofiya (yunoncha antropos-odam va sofiya-donolik, degan so‘zlardan olingan) bu «maxfiy» ruhiy-ma’naviy kuchlar egasi bo‘lgan inson to‘g‘risidagi madaniy ilohiy ta’limotdir. Ushbu ta’limot okkultizm, ya’ni duoxonlik, azayimxonlik, issiq-sovuk, afsun kabi xurofotlarga ishontiruvchi mistik ta’limot bo‘lib, u nemis mistik olimi Rudolf Shtayner nomi bilan bevosita bog‘liqdir; chunki u XX asr boshlarida ushbu ta’limotni rivojlantirgan. Mazkur ta’limot teosofiyadan ajralib chiqkan bo‘lib, Shtayner uni «eksperimental» fanga aylantirishni hoxlagan edi. Ushbu fanning maksadi aloxida mashklar (musiqa mashg‘ulotlari, meditatsiya tadbirlari va xokazolar) yordamida odamning yashirinib yotgan qobiliyatlarini ochib berishdan iborat bo‘lgan.

Shtayner antroposofiyasi bir nechta bo‘limlardan iborat bo‘lgan. Platon g‘oyalariga asoslangan ijtimoiy - siyosiy ta’limot, xo‘jalik yuritishning aloxida tizimi to‘g‘risidagi ta’limot shular jumlasidandir. Ushbu ta’limotga ko‘ra ruhsiz mexanizatsiya davri barham topib, uning o‘rniga o‘simliklarning bioritmlarini tadbiq etish asosida «yangicha dexkonchilik» barpo etiladi va xakozo.

Antroposofik jamiyatga Shtayner tomonidan 1913 yilda Shveytsariyada asos solingan edi. XX asrning dastlabki choragida Shtayner ta’limoti Yevropaning bir qator mamlakatlarida keng miqyosda tarkdldi.

Shtayner (1861-1925) Gyotening tabiat falsafasi to‘g‘risida ta’limotining izdoshlaridan bo‘lgan (uning tabiiy-ilmiy asarlariga muharrirlik qilgan va ularni sharxlab maqolalar yozgan), shuningdek, Ch.Darvin va nixoyat, F.Nitsshening hayot falsafasi ta’sirida bo‘lgan. R.ShtaYnerning asosiy asarlari-«Teosofiya: Dunyoni tuyg‘udan tashqari bilishga kirish va bunda insonning o‘rni», «Sirli bilimga kirish ocherki», «Qadimiylik va xristianlik misteriyasi» va boshqalardan iborat. Ushbu asarlar XX asrning boshlarida yozilgan bo‘lib, ularda kosmologiya va bashariyat tarixi antroposofik nuktai nazardan talkin etiladi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, Shtayner intensiv ravishda leksiyalar o‘kish-ma’ruza qilish faoliyati bilan shutullangan hamda XX asrning boshlarida nafakat Germaniyada, xatto Rossiyada ham xur fikrlilikning yetakchi daxolaridan biri bo‘lgan. Uning leksiya-ma’ruzalarini juda katta auditoriyalarda tinglashgan. Kitoblari esa ko‘p tillarga tarjima kshshngan. Shtayner Xristologiya bo‘yicha leksiyalar siklini o‘kiydi. Insoniyat evolyutsiyasida Xristosning ahamiyatini tushunishdagi fikrlar 1913 yilda u bilan Teosofiya jamiyatining raxbariyati o‘rtasida ziddiyat chiqishga olib keladi va natijada R.Shtayner o‘z tarafdorlari bilan birga Teosofiya jamiyati a’zoligidan chiqadi.

Shtaynerning falsafiy ta’limoti taqdiri totalitar davlatlarda ko‘dgina gumanistik nazariyalar takdiri singari ayanchli bo‘ldi. Bugungi kunda uning kitoblarini ko‘pgina mamlakatlarning hatto ilmiy kutubxonalari katalogidan topish mushkul. 1933 yilda Shtayner asarlari irqchi natsistlar tomonidan Germaniyada ham taqiqlab ko‘yiladi.

Shtayner fakat nazariyotchi emas, shu bilan birga amaliyot bilan shug‘ullanuvchi olim edi. U yangi pedagogikaling asosiy qoidalariki ta’riflab bergan va birinchi Val’dorf maktabiga asos solgan edi. 1921 yilda uning izdoshlari tomonidan Arlesxaymda Klinik Teralevtik institut ochilgan edi. Ularning faoliyati negizida inson mochiyatini tushunish yotar edi.

Hozirgi vaqtda R. Shtayner merosidal 350 tomdan ko‘prok ilmiy asarlar chop etilgam. Ko‘pgina mamlakatlarda kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanishni inkor etadigan hamda tuprokning tabiiy unumdorligini tiklashga yordam berishga qaratilgan xo‘jalik yuritish tadbirlari keng mnqyosda amalga oshirilmokda. Ushbu mamlakatlarda antroposofik klinikadar xdmda farmatsevtik

fikrlar, davolash-pedagogika muassasalarm, evritmiya maktablari ochilmokda va boshqa ko‘pgina tadbirlar amalga oshirilmokda.

Endi Shtaynerning asosiy goyalariga murojaat qilamiz.

1- Faylasuf o‘zini «tuygudan tashqari kuzatuvchi» deb atagan. U his-tuyg‘ulardan tashqari bo‘lgan olamni bilmay turib kishining bilimi to‘liq bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblagan. Mana shu bilim tufayli individda ruxiy-iloxiy javhar topiladi hamda kishida «oliy tuyg‘u» paydo bo‘ladi. «Xdr bir kishining kalb ko‘zi ochilishi mumkin va u qachon ochilishi faqat vaktgagina bog‘likdir, xolos» deb yozadi olim.

Shtayner bilish chegaralaripi kengaytirish tarafdori bo‘lgan. Buning uchun .har bir kishida to‘la imkoniyatlar mavjuddir, birok bundan avval u kishida «bilish-ya’ni bilim olish kuchlari rivojlanmogi kerak».

2. Shtaynerning fikricha «oliy bilim olishga kishi «oliy ko‘rish» yordamida, ya’ni insondagi ma’naviylikning muayyan darajasi orqali erishadi. Kishida «Ma’naviy iste’dod» bo‘lishi lozim. Shtayner uni «iloxiy» bilim va tuygu «iloxiy donishmandlik», ya’ni teosofiya deb ataydi.

Xo‘sh, bu qanday bilim? Birinchidan, bu inson mohiyatini bilishdir. Odam xuddi badan, yurak va rux simgari dunyo bilan uch yo‘l orqali bog‘langandyr. Badani tufayli odam o‘z atrofidagi narsalarni (masalan, O‘tlokdagi gullarni) idrok etadi. Yurak odamga narsalarni (O‘tlokdagi gullarni) o‘zining shaxsiy turmushi bilan boglashga va undan baxra olishga yoki konikish hosil kilmaslikka, kuvonishga yoxud tashvish tortishga xizmat qiladi. Qalb insonni «xudoga yaqinlashtiradi», unga narsalariing ma’no-mag‘zini ochadi. Badan odamni buyumlarga esh qiladi; qalb imsonga o‘z shaxsiy olamini topish imkonini beradi; rux esa odamga tashqi dunyoni ochadi hamda uning sirli ma’nosini tushunishga yordam beradi. Bunda ushbu tashqi dunyo odamga go‘yo o‘z sirlarini aytib, uni bu sirlardan vokif kila boshlaydi, «inson o‘z nigohini yulduzli osmonga qaratadi: uning kalbi uzra kechayotgan his - qayajon uning o‘ziga tegishlidir; lekin ko‘kka qarab u ma’nosini anglab olgan, o‘z fikri, ruhiga singdirib olgan yulduzlarning mangu amal qiladigan qonunlari unga emas, balki yulduzlarning o‘zigagina taalluqli bo‘ladi» deb yozadi olim.

Binobarin Shtayner ta’kidlab o‘tgan birinchi fikr shuki, odam uch olam fukarosidir: u o‘z gavdasi-badani bilan his - tuygu organlari orqali idrok etiladigan olamga tegishli bo‘ladi; o‘z qalbi orqali u o‘zining shaxsiy dunesini yaratadi; uning ruxi orqali unga shunday bir olam ochiladiki, bu olam yukoridagi har ikkala olamdan ham yuqori turadi.

Ikkinchidan, Shtaynerning fikriga ko‘rd, ushbu bilim ^<ruh bilan taqdirning bir-biriga qo‘shilib, qorishib ketishi» bo‘ladi. Buni u shunday izoxlaydi. Tashqi dunyodan olinadigan taassurot o‘tkinchidir. Men gulni ko‘rib turibman, u mening ro‘paramda turibdi, men uni xis etayapman. Idrok etish holati vujudga kelishi uchun tashqi dunyodagi predmetning mavjudligi zarur. Lekin men qalbimda gul to‘g‘risidagi haqiqatni bilib olganim hozirgi vaziyat bilan birga yo‘qolib ketmaydi. Bunday haqikatning mavjud bo‘lishi menga bog‘lik bo‘lmaydi. Bu xaqiqat men o‘sha gulni ko‘rmasimdan oldin ham mavjud bo‘lgan. Hozirgi xolat bilan xaqiqat orasida kalb yurak turadi, u go‘yo bir daqiqalik xolat bilan abadiylik urtasidagi vositachiga o‘xshaydi."

Shu fikrni davom ettiradigan bo‘lsak, tana - badan o‘z o‘tmishdoshining, undagi qiyofaning takrorlanishidir. Xo‘sh, odamning ruhi-chi? U ham, Shtaynerning fikriga ko‘ra, muayyan qiyofadir. Hatto bir xil muxitda tarbiya olgan va shakllangan ikki kishining ruhiy qiyofasi bir xil bo‘lmaydi. Binobarin, kishilar hayotga turli xil kiyofada keladilar. Ruhiy jihatdan olganda, har bir inson o‘zicha, o‘ziga xos bo‘lgan aloxida kiyofada tug‘idadi.

1. Ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan irsiylik odamga xos bo‘lgan xususiyatdir. Men ruhiy odam sifatida o‘zim tug‘ilishimga kadar mavjud bo‘lgan bo‘lishim kerak. Men o‘zimdan oldin o‘tib ketgan avlodlarim ichida mavjud emas edim, chunki ular ruhiy jihatdan mutlaqo boshqa odamlar bo‘lishgan. Shundan xulosa chiqarib Shtayner aytadiki, hayotda insoniy rux o‘z-o‘zining takrori, o‘zining ilgarigi o‘tmish hayotlaridagi ko‘rgan kechirganlari mevasi bo‘lishi o‘z - o‘zining takrori hisoblanadi, u «o‘zlik ruhi» degan tushunchani iste’molga kiritadi. Hayot - bu boshqalar hayotining takrorlanishidir va u o‘zlik ruhi o‘zining utmishi hayotida o‘zi uchun ishlab chiqqan narsalarning hammasini o‘zi bilan birga olib keladi. «Hayotiy ruh»odam ruhini bir

shaxs turmushidan boshqasining turmushiga o‘tkazadi. Ruxning hayoti mana shu insoniy ruhning o‘zi tomonidan yaratilgan takdirning oqibati bo‘lib, u qadimgi ta’limotlarda karma deb atalgan. Rux boshqa shaklga kirish qonuniga bo‘ysunadi.

2. Yuqorida keltirib o‘tilgan asarlardan tashqari Shtaynerning boshqa ilmiy ishlari ham g‘oyat kshiqarlidir.. Uning «Sirshunoslik ocherki»deb atalgan okkult fani va uning mazmuni to‘g‘risidagi «Qadimgi. misteriyalar va xristianlik» deb atalgan Sharq va antik dunyo mistshsasi hamda xristianlikni ommaning ongiga'singdirgan va dindan o‘z kuroli sifatida foydalangan xristianlikn-ing sirli mohiyati to‘g‘risidagi asarlari iguddr-j-umlasidandir.
3. Shtayner, xristianlik haqiqatni ayrim kishilar emas, balki hamma tushunishi uchun ko‘maqlashgan, deb xisoblagan. Xristianlmkda din-e’tiqod bilan yonma-yon turgan.
4. Shtaynerning mashhur bo‘lib ketishiga u yaratgan yangicha fan-nostandart Falsafa sabab bo‘ldi. Shtayner o‘zi olib borgai tadqiqotlariing ilmiy harakterini o‘zining barcha asarlarida ta’kidlab o‘tgan. O‘z tili bilan aytganda, u «Yangi universal fan» ixtiro kilgan. O‘ziga o‘xshagai shu xildagi tadqiqot olib borayotgan olimlarni u «ruh sinovchilari» deb atagan.
5. Shtayner antroposofiyasidagi o‘z mazmuniga ko‘ra mistik-irratsionalistik konsepsiya mana shulardan iborat. Ko‘rinib turibdiki, YE.P.Blavatskaya bilan Shtayper ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshab ketadigan konsepsiyalar ishlab chiqishgan. Ushbu konsepsiyalar ayrim jihatlari bilangina bir-biridai fark qiladi. YE.Blavatskaya o‘zining «Sirli doktrina» degan asarida g‘oyat katta diniy - falsafiy ma’lumotni sintez qilib, g‘oyat kiziqarli nazariy konsepsiya yaratdi. Shtayner ushbu goyalarni davom eggirib, odam hayotida, uning faoliyatidagi turli sohalarda mistik tajribalar o‘tkazib kjoridagi g‘oyalarni amaliy hayotga tadbik etishga harakat qildi.

## O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Fundamental ontologiya G‘arb ma’naviyatida qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?
2. Analitik falsafa va G‘arb ma’naviyatining asosiy yo‘nalishlari qaysilar?
3. F.Nitsshening "Xudo o‘ldi" degan iborasini qanday tushunasiz?
4. "Amalga intilgan iroda" deganda F.Nitsshe nimani tasavvur etgan?
5. "Amalga intilgan iroda"ning G‘arb ma’naviyatidagi roli nimalarda ko‘rinadi?
6. F.Nitsshe falsafasi bilan nemis fashizmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib bering.
7. G.Frege, B.Rassel, L.Vitgenshteyn qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
8. B.Rasselning tinchlik uchun kurashi nimalarda ifoda etilgan?
9. Mantiqiy pozitivizmning mohiyati nimada?
10. K.Popperning tarixiy xizmati nimalarda ko‘rinadi?
11. N.Kunnning paradigmalari va uning moxiyati nimada?
12. Teosofiya nima?

## Adabiyotlar ro‘yxati:


1. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik-faoliyatimizning asosiy mezoni bo‘lsin. -T.: O‘zbekiston , 1994.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. . -T.: O‘zbekiston 1996.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O‘zbekiston 1998.
4. Osnovm filosofii: Uchebnoye posobiye dlya studentov. -T.: O‘zbekistbn 1998.
5. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. -T., Sharq1999.
6. Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., 2000.
7. Falsafa. Ma’ruzalar matni. -T., Moliya instituti 2000.
8. Qur’oni Karim. -T.: Cho‘lpon, 1992.

9. Sharifxo‘jayev M. Chelovek opredelivshiy epoxu. M.«Trud» 2004.
10. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi. T-; 2002Y. (569-590 betlar)
11. S.Yo‘ldoshev va boshk. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. T-; 2002y.

## 14-mavzu: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON MA’NAVIY RAVNAQIDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK BIRLIGI

**REJA:**

1. N.A.Karmmov - milliy istiqlol ma’navnyatining asoschisi.
2. Milliy istiqlol ma’naviyatnning takomil bosqichlari.
3. Milliy istqlol ma’naviyati taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari.

Milliy istiqlol falsafasi - mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarorlarning falsafasi, u har bir vataidoshimizning oilasi, jamiyat, el yurt oldidagi o‘z burch va mas’uliyatini qay darajada ado etayotganligiii ifodalaydigan ma’naviy dunyodir. Fuqaro falsafasining kuchi ularda yashash manfaatining nechoglik kuchliligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham u to‘g‘ridan to‘gri ijtimoiy adolat, erkinlik, iison xukuklari bilan chambarchas bog‘lanadi va ular bilan uyg‘unlik kasb etadi. Fukaro kanchalik ongli, mustakil fikrlovchi, o‘z taqdirini yurt, xalq takdiri bilan bog‘lovchi, o‘z o‘rni va qadriga ega bo‘lsa milliy falsafa shuncha ma’noli, jozibali, ta’sirchan va kuchli, yaratuvchan bo‘ladi.

Milliy istiqlol falsafasiningtamal toshini qo‘ygan tarixiy shaxs I.Karimovdir. Ma’lumki, u kishi mamlakatimizning birinchi raxbari sifatida 1989 yil iyunidan ish boshladilar va mustakillik takdirini xal qilishni o‘z kullariga oldilar. Milliy mustakillik goyasinikg asosiy tamoyillari o‘sha yillari ishlandi. U kishining raxbarligida 1989 yil 21 oktabrda millat ko‘zgusi - o‘zbek tiliga davlat maqomi berildi. Oradan roppa-rosa besh oyu uch kun o‘tgach Respublika Prezidenti (1990 yil 24 mart) lavozimi joriy kilindi. I. Karimov O‘zbekiston Oliy kengashi sessiyasida Prezident bulib saylandi. Oradan ko‘p o‘tmay shu yil 20 iyunda u kishi Mustaqillik Dekloratsiyasini kabul qilishning tashabbuskori bo‘lib chiqsilar. 1991 yil 31 avgustda mamlakat mustaqilligi e’lon qilindi. Bularning bari milliy mustakillik g‘oyasining dastlabki tantanalaridan edi. Eidi hamma gal mustaqillikni himoya etish, uni mustahkamlashda edi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson falsafasi chuqur va keng ifodalangan muhim xujjatdir. Unda inson, uning hayoti va erki, sha’ni, qadr qimmati va boshqa xukuk, erkinliklari muqadsas hisoblanib, davlat ximoyasidadir, deyilgan. Unda inson hukuqi davlat huquqidan ustun turadi. Yurtboshi aytganlaridek davlat, uning barcha organlari, mansabdor shaxslar inson manfaatlari va xukuqlari, uning tinch-totuv hayoti va kelajagini tashkil etish va himoyalash kabi ulug‘vor maqsadlarga xizmat qilmog‘i lozim.

Asosiy qonunda belgilab qo‘yilganidek Respublikamizning barcha fuqarolari bir xil xukuk va erkinliklarga ega. Ayni vaqtda unda yagona fuqarolik o‘rnatilgan. Haqiqatda ham Prezidentimiz aytganlaridek, har bir shaxs faqat bir davlatning fuqarosi bo‘la oladi... Ikki davlat fuqaroligiga mansublik achinarli holdir. Bu bevatanlik bilan barobardir.

Konstitutsiyada fukarolarimizning shaxsiy xukuq va erkinliklari dialektikasi, ularning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etishi, 28-modda bilan esa «har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi xuqukiga ega» ekanligi belgilab ko‘yilgan. Bularning barchasi bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakkahokimligidan kat’iyan voz kechish amaliyotining tantanasi edi. Shu bilan birga bu siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi munosabatining ijtimoiylashib borayotganligining namunasi edi.

Milliy istiqlol falsafasidagi nazariya va amaliyot uygunligi uning kudratli mantig‘ini yana bir pog‘onaga ko‘tardi. Yurtboshimiz o‘zlarining «Yangi uyni kurmay turib eskisini buzmang» deb nomlangan «Komsomolskaya pravda» muxbiri savollariga bergan javoblarida bugungi kunda butun jahon yaxshi bilgan mashxur besh tamoyilni bayon qildilar. Bu besh tamoyil milliy istiqlol falsafasining bosh nazariy zaminlaridan biri hisoblanadi.

Agar biz axil bo‘lib, millat el-yurt, vatan manfaati yo‘lida bir tan, bir jon bo‘lib harakat kilsak, bu konu foyda keltiradi. Biz mustaqillikka erishdik, agar uni iqtisodiy jihatdan ta’minlamasak, bakuvvat kilmasak yana qaytadan o‘zgalar asoratiga tushib qolishimiz mumkin. Rivojlangan iqtisod yo‘q joyda siyosiy mustaqillik ham zaif bo‘ladi. Zamonaviy iqtisodga ega bo‘lish xalqaro miqyosda obro‘-e’tiborga loyiq bo‘lish demakdir. Agar AQSH, Yaponiya va Rossiya iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo‘lishmaganda xalqaro miqyosda xozirgidek yuksak martabaga ega bo‘la olmas edilar, bu turgan gal. Shu haqiqatni unutib bo‘lmaydi. Iqtisodning o‘z qonun-qoidalari. sir-asrorlari borki, ular bilan hysoblashmaslikning xech bir iloji yo‘k. Ular bizning erkimiz, xoxishimizdan kati nazar o‘z kuchini namoyish etaveradi. Iqtisodiy o‘sishni investitsiyaga, narxni talab va taqlifga, mexnat unumdorligini texnika-texnologiya va ishlovchi malakasiga bog‘liq ekanligi kabi qonun-qoidalarni xech kim, hech kachon bekor kila olmaydi. Har doim iqtisod o‘z yo‘lida boraveradi, uni to‘xtatish mumkin emas. Odamlar aytilgan qonun qoidalarni bajo keltirganlaridagina farovon yashashi mumkin. Kimki iqtisod qonunlarini nazar-pisand qilmasa, uning kosasi oqarmaydi.

Bizga sovetlardan o‘ta mafkuralashgan iqtisodiy tizim meros qoldi. Bu merosdan kutulish, el boyligini oshirish uchun iqtisod qonunlariga amal qilish, mamlakatda tadbirkorlikka keng yo‘l ochish, fuqarolar o‘z xatti-harakatlarini iqtisodiy qonunlar talabiga moslashtirishi, qisqasi iqtisodiy zaruriyatga qarab ish tutishi zarur bo‘ldi.

I.A.Karimov o‘zlarining «Yangi uy kurmay turib eskisini buzmang» risolalarida o‘z dasturining uchinchi bandi sifatida hammaning qonunga itoatkor bo‘lishi, qonunniig hamma narsadan ustun turishini sharhlab o‘tadilar. Albatta bu xuquqiy masalya. lekin uning iqtisodga bevosita aloqasi bor. Gal shundaki, Oliy Majlis qabul qilgan ko‘pgina iktisodga tegishli qonunlar borki, ular iqtisodiy o‘sishga qaratilgan. Rivojlangan iqtisod demokratik d.avlat xitsxst-fukarolar jamiyatining poydevoridir. Biz demokratik jamiyat sari borar ekanmiz, u yerda qonun ustuvorligi mavjudligini unutmay, hukuqiy xulqni turmush tarzimizga aylantirishimiz kerak.

Qon)'n oldida hamma teng. Uni buzishga ,xech kim xaqli e^mas. Ammo amaliyotda eskichasiga qonunlarni nazar-pisand kilmay, ularni aylanib o‘tishga intilishlar bor. Ayniqsa, buni soliq to‘g‘risidagi qonunlar ijrosida ko‘rish mumkin. Qokun yo‘li bilan xususiy mulkka ruxsat berildi, ammo ayrim mulkdorlar o‘z xuqukini ro‘kach qilib o‘z majburiyatlarini esdai chiqaradilar. Qonuplar barcha mulk shakllari tengligiii taqozo etadi. Prezident dasturidagi kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish komsemsiyasi bu kishining oldimni nixoyatda yaxshi ko‘ra bilishdan dalolat beradi. U kishi Sobiq Ittifok vaqtidayok O‘zbekiston axolisining deyarli yarimi kambagal katlamga mansub ekanligini ochik-oydin ko‘rqmasdan ayta oldi va ularni ijtimoiy himoya qilish zarurligini qayd qildi. O‘sha vaqtdayok u kishi tashabusi bilan axolini ijtimoiy himoyalash yuzasidan komissiyalar tuzilganligi yodimizda turibdi. Prizydentimizni ijtimoiy adolat jonbozi kambag‘alparvar zot desak xato bo‘lmaydi. U kishi dasturida nochor kishilarni davlat va jamoatchilik ximoyasiga olish insonparvarlik davlat siyosatining negizida turishidan dalolat beradi. Bu masalani faqat bozor iqtisodiga o‘tish bilan bog‘lash yetarli emas, chunki bozor haqida gal bo‘lmagan vaqtda ham unga Yurtboshi asosiy e’tiborini jalb etgan edi. Ko‘p sonli kishilarning kambag‘al bo‘lishi totalitar iqtisodiy tuzumdan qolgan meros edi. Ijtimoiy masalaning jiddiylashuvini oldindan idrok etib, uni bartaraf etish chora-tadbirlarini kullash Prezident siyosatining istiqbolga karatilganligidan darak beradi. O‘zbekistonning o‘z xususiyatlarini nazarda tutib, «Karaxt qilib davolash» deb atalgan usul-ommaviy kashshoqlashish orqali bozor iqtisodiga o‘tish ya’ni, iqtisodni jonlashtirishning Polshada sinab ko‘rilgan islohot usuli inkor etildi. Bu usulning ko‘llanilishi o‘zi kambag‘al bo‘lgan kishilarni o‘ta kashshoklantirishi mumkin edi. Prezident bu usul bizga qo‘l kelmasligini ochiq va dadil aytdi. Biz tanlagan yo‘lning o‘ziga xosligi ham shundaki, fakat axoli nochor katlamlarini ijtimoiy himoya qilish orqaligina bozor munosabatlariga o‘tiladi. Gal shundaki bozor iktisodi turmushimizni farovon qilishda muhim vosita bo‘lishi kerak. Agar u ommaviy qashshoqlanishga olib kelsa, bunday iqtisodiyot hech kimga keragi yo‘k. Tajriba ko‘rsatganidek, iktisodi xali bakuvvat bo‘lmagai mamlakatlarda ijtimoiy kafolatni jamoalar ta’minlay olmaydi, ayniqsa ular ishlamaydigan kishilarni ximoya kila olmaydilar. Shu sababli bizning davlat mazkur axoli toifasini o‘z ximoyasiga oladi.

Endilikda O‘zbekiston iqtisodiy tarakqiyotida yangi bosqich-tub o‘zgarishlar davri boshlandi. Birinchi galda mehnat taqsimotini axolining mehnatga bo‘lgan qiziqishidan va manfaatdorligidan

kelib chiqqan holda amalga oshirish talab qilinadi. Ishlab chikarish samaradorligini ko‘tarish hisobiga mehnatchilar imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni amalga oshirish oqibatida axolining ishga yaroqli bo‘lgan barcha qismini ijtimoiy mehnatga jalb qilish, ish bilan ta’minlangan ishsizlarni faollik dunyosiga olib kirish, ko‘pchilikni bokimandalik psixologiyasidan kutkarish kerak bo‘ladi.

O‘sha yillarda davlat budjeti daromad qismining 40 foizi axoliga dotatsiya sifatida qaytarilgan edi. Bu axolining ehtiyojmand qismini ijtimoiy jihatdan muxofaza qilishda katta rol o‘ynadi. O‘shanda «Kelgusida biz sekin-sekin erkin narx belgilanishiga o‘tamsh,-degandi I.Karimov, bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida axolini ijtimoiy himoyalash masalalariga bagishlangan kengashda.- Bunda har bir ehtiyojmand oilalarga kommunal xizmat haqkini to‘lash, tovarlar sotib olish uchun dotatsiya berildi. Axolini ijtimoiy himoyalash bundan so‘ng ham muntazam davom ettirildi.

Erkin narx-navo, mehnat qilish uchun kulay ijtimoiy xukukiy sharoitning yaratilishi axoliga turmush darajasini ko‘tarish uchun talay imkoniyatlarni ochib berdi. Fukaroning yashash manbai fakat korxonadagi ishigina bo‘lib kolmasdan, yana kamida ikki-uch xil faoliyat unga qo‘shimcha daromad keltirishi kerak. Iqtisodiy ehtiyojmand axoliga ham ma’kul bo‘lgan ish o‘rinlarini uyushtirish, ularning hayotini qizikarli va barakali qilishga imkon bergan bo‘lar edi. Hali bizda xizmat ko‘rsatish soxdsi ochilmagan qo‘riq. Mexnatga layokatlilar orasida nisbat 80:20 bo‘lmog‘i ya’ni har bir moddiy ne’matlarni yaratuvchiga 4 ta xizmat ko‘rsatuvchi to‘g‘ri kelmog‘i lozim. Bu nisbatga axolining yoshlar, ijtimoiy himoyaga muxtoj qismlari kirmaydi:

Axolini ijtimoiy himoya qilish har qanday sharoitda Prezidentimiz ichki siyosatining markaziy yo‘nalishidir. Bu yo‘nalish Respublikaning har bir taraqqiyot bosqichida yangi mazmun, mohiyat bilan boyib boraveradi. Bunday iqtisodiy taraqqiyot, mavjudlik qonunlari ustuvorlik rolini o‘ynaydi va bu savobli ishga nafakat mehnatga yarokli, balki nafakaxo‘rlarning ham katta qismi tortiladi. Yurtboshimizning el bilan bamaslaxat kabul qilgan qarorlari va fikrlari xalqimizning ko‘pchilik qismida ro‘yxushlik va minnatdorchilik kayfiyatini barqaror kayfiyatga aylantirmokda.

I.A.Karimov bir necha bor islohot o‘tkazishda qashshoqlikka yo‘l ko‘yib bo‘lmaydi, uni ehtiyotlik bilan sekin asta o‘tkazish zarurligini ta’kidladi. Mazkur ko‘rsatma ham chuqur mulohazalar natijasidir. Darhaqikat, o‘ylamay netmay turib hech bir iqtisodiy muammoni yechib bo‘lmaydi.

Shuni aytish kifoyaki, isloxot biz uchun mutlaqo yangi iqtisodiy tizimni, bozor tizimini yaratishi kerak. Yangilik xech qachon birdan paydo bo‘lmaydi. Har doim yangi iqtisodga bosqichma-bosqich borilgan. Bozor iqtisodi ham shu qoidadan xoli emas.

Islohot negizida yaratuvchanlik, ijodkorlik yotadi. Agar shoshmashosharlikka yo‘l ko‘yilsa, bunyodkorlikka erishilmaydi. Yana shuni unutmaslik kerakki, totalitar planli iktisod bilan erkin bozor iqtisodi o‘rtasida hech bir umumiylik yo‘q, ular zid iqtisodiy tizimdir. Ular bir-bir&shing bag‘rida hosil! bo‘lmaydi.

Totalitar iqtisodning bozor iqtisodiga aylanishi bosqichma-bosqich boradi deb ko‘rsatdilar yurtboshi. Albatta. mamlakatning bozor iqtisodiga kirib borishi o‘z-o‘zidan, osonlikcha kechmaydi, Chunki, bizda bozor munosabatlariga o‘tishga xalakit beruvchi bir necha omillar bor edi.

Shulardan eng muhimi - «Buyuk sotsializm sharofati» bilan hammaning ko‘r-ko‘rona tengligi to‘g‘risidagi afsonaviy bir fikrdir. Bunga ko‘ra, mulk xilma-xilligi bozor munosabatlari xalqni albatta kalitalizmga olib keladi, natijada boy-boyga kambag‘al-kambag‘alga ajraladi. Shuning uchun yomon bo‘lsa ham kambagal yashasak ham shu eski tartiblar bizni koniqtiradi, hech qanday bozor munosabatlari bizlarga kerak :jas degan konservativ fikrdir. Ikkinchisi :)sa yana shu sotsializmdam meros bo‘lib qolgani markazdan buyruklar asosida boshqarishdir. Bularmi bartaraf qilish uzok davrni o‘z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiga o‘tish uchun zamin hozirlab borish zarur. Buning uchun avval iqtisodga oid bozor iqtisodipi yaratishni ko‘zlagan yuridik qonunyaar kabul etidishi, bozorga xizmat qiluvchi tashkilot va idoralar (komersiya banklari, birjalar, savdo uylari, konsalting, innovatsiya, investitsiya, marketing, auditor firmalari, auksionerlar, yaxshi ishlaydigan transport va aloka kommunikatsiyasi)

yuzaga kelishi shart. Eng muhimi bozor iqtisodiga xos milliy tizim shakllanishi shart. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, uni xususiylashtirish zarur bo‘ladi. Xilma xil mulkchilik va turli xo‘jalik yuritish usullari joriy etilmasa, bozor iqtisodiga xos raqobatchilik tizimi paydo bo‘lmaydi.

Ha, bozor munosabatlarining o‘z mantig‘i bor. Kim kuchli, aqlli, tadbirkor, savodli, xunarmand, cho‘rt kesar, mexnatsevar, tavakkalchi, to‘g‘ri bo‘lsa u yaxshi yashaydi, boyiidi. Kim tanbal, xunarsiz va ilmsiz bo‘lsa u albatga kdshshok yashashga majbur. Bozor har bir insonning o‘z takdirini o‘zi belgilashi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bu o‘kuv-tarbiya ishlarimizning ko‘p jihatlarini qayta ko‘rib chiqishimizni talab qiladi. Bolalarning yoshlikdan tadbirkorlikka, ishbilarmonlikga, erkinlikka o‘rgatmog‘imiz kerak, xalqni uzoq vakt kiynab kelgan «o‘zbeklarning ko‘lidan hech narsa kelmaydi», degan «tafakkur» sirtmog‘idan olib chiqmog‘imiz, respublikamiz fuqarolarini Yaponiya, AQSH, Germaniya fukarolari singari bilimdon va ishchan fuqarolar darajasiga olib chiqmog‘imiz kerak.

Bozor munosabatlariga o‘tish kompleks tayyorgarlikni talab qiladi. Shulardan eng muhimi, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zarur ekanligini anglash, unga o‘tishning murakkab ekanligiga bu jarayon bir qator iqtisodiy ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishga bizlarni majbur etishligini tushunishdir.

Erkin narx-navoga o‘tish bozor iktisodiyotiga o‘tishning muhim elementi ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Odatda narx-navo erkinligi, mulkchilik xilma-xilligi erkin ishlab chiqarish rakobatining maxsuli bo‘lmog‘i kerak. Bugungi erkin narx-navo moddiy ne’matlarni erkin ishlab chikarish bilan boglanmagan xolda amalga oshadi.

Bu xolat nazarimizda hammamizni xushyorlikka, javobgarlikka, xis qilishga, iqtisodiy, siyosiy hayotni aktiv va sinchkovlik bilan tahlil qilishga, ertangi kunni-to‘grirog‘i, oqibatni xisobga olgan x,olda qadam ko‘yishga o‘rgatmog‘i kerak. Bozor munosabatlari faqat tavakalchilikni emas, balki jiddiy hisob-kitobni, vokealarni oldindan ko‘ra bilishni, taxlilni, halollik, mardlik, qonunga qatgaq amal qilishni ham taqozo qiladi.

Obyektiv, subyektiv faktorlar xisobiga vujudga kelayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar respublikadagi barcha imkoniyatlarni inventarizatsiya qilishni, ulardan foydalanishning barcha vositalarini keng ko‘lamda ishga solishni talab qiladi. Shulardan biri respublikadagi ishchi kuchidan effektiv foydalanishdir.

Iqtisodchilarimiz xisob-kitobiga karaganda, respublikamizda ishsizlar soni mo‘ljaldagidan ko‘proqni tashkil etadi. Bunga yo‘l bermaslik uchun, mulkni davlat tasarrufidan chikarish va korxonalardan xususiylashtirish, turli-tuman mulk shakllarini karor toptirishni tezlashtirish va kengaytirish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda katta-kichik korxonalarni vujudga keltirishni yanada ko‘paytirish, chet el kalitalining katta mikdorda kirib kelishini ta’minlash lozim. Bundan tashqari respublika iqtisodiy taraqkiyoti yo‘nalishlarini vaqtida oldindan to‘g‘ri aniqlab olish va shunga mos holda ishchi kuchlarini tayyorlab berish va ularning erkin taqsimlanishiga sharoit yaratish ham bu masalani oqilona hal qilishga ko‘maqlashadi. Bugungi kunda ishchi kuchlariga talab va taqlifni uyushtiruvchi tashkilotlar alohida-aloxida mavjuddir. Endi tezlik bilan ishchi kuchlariga aloqador bo‘lgan tashkilotlar, korxomalarni zamonaviy kompyuterlar yordamida bir-biri bilan boglashimiz kerak.

Respublikamiz boy zaminga ega. Uning yeri oltin bilan barobar. Nazarimda masala shu oltin yerni avaylab, asrab, ishlatishdadir. Biz turg‘unlik yillarida ko‘riq-bo‘z yerlarni ayovsiz o‘zlashtirganimiz bilan maktanib yurdik. Shular hisobiga mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirib, hosildorlik yildan-Yilga oshib bormokda, deb gerdaydik. Tadkiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qatto bugun ham kechagi singari ko‘pchilik xo‘jalik raxbarlari iqtisodiy masalalarga eskichasiga-ekstensiv tafakkur bilan yondashmokdalar. Biz yerdan intensiv foydalanishga, har bir qarich yerning hosildorligini oshirishga ko‘chmas ekanmiz, har bir qarich yerni o‘z egasiga bermas ekanmiz, unda ishlayotgan mehnatkashning qo‘l-oyog‘ini erkin qo‘ymas ekanmiz, xalqimizning kornini ham to‘ydira olmaymiz, badavlat ham qila olmaymiz.

Umuman, respublika qishloq xo‘jaligi endi-endi bozor munosabatlariga kirayotgan paytlar edi. U paytda qishloq xo‘jaligining istikbollari ko‘pchilikni tashvishga solganligi tabiiy hol edi, albatta masalani hal qilish bo‘yicha ayrimlar zudlik bilan kolxoz va sovxozlarni tugatib, ularning

yerlarini va boshqa moddiy boyliklarini dexkrnlarga berishni va hatto sotib yuborishni taqlif kilsa, ayrimlar, buning radikal aksi bo‘lgan variantlarni taqlif qilishdi. Masalaga davlatimiz raxbari dialektik yondoshish keraqligini ko‘rsatdi. Biz hoxlaymizmi-yo‘qmi, xo‘jadigimi^ndir-bundan keyingi istikbolini belgilash bozor munosabatlari mexanizmlarini xisobga olgan holda hal qilish mumkin, xalos. Chuiki shoshmashosharlik bilan kolxoz-kooperativ va davlat mulkini birdan tugatish o‘rinsiz bo‘lib, katta zarar keltirishi mumkin edi.

O‘tish davrida kolxoz koperativ, davlat mulki iqtisodiy mustaqillik uchun o‘ziga xos tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Uning fermerlarga va boshqa shu turdagi xo‘jaliklarga har jihatdan yordami katta edi. Kelajakda esa uning asosida dehqonlar, fermerlarning, mulkdor dexkomlarning yangi tipdagi umumiy xo‘jaliklarining paydo bo‘lishiga shart-sharoitlar yetilib kelmokda edi.

Shu o‘rinda qishlok axolisini ish bilan ta’minlash, ularning turmush darajasini ko‘tarish masalasi ham dolzarb masalalardan bir edi. Buni hal etishda kishlok xo‘jalik maxsulotlarini hatto respublikadagi yirik shaharlarga tashib o‘tirmasdan u ishlab chikarilgan xududning o‘zida qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish, buning uchun xususiy kichik korxonalarni, chet el firmalari bilan ko‘shma korxonalarni kurishga zudlik bilan kirishishning, qishlok xo‘jalik ishining mavsumiyliginn xisobga olib, ekin tikinlar yig‘ishtirib olingandan keyin uni joylarda qayta ishlash bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlarni vujudga keltirishning, azaldan qishloq ahlimiz o‘z xunarlari bilan-do‘ppisi, choyshabi, etik-maxsisi, pichog‘i, duradgorligi, kulolchiligi bilan mashhur bo‘lgan halqning bu amaliy faoliyatiga bozor ruhini berishning, tezroq shaharlarimizdagi turar joyga ko‘ra ro‘yxatga olish masalasini soddalashtirish kabilarning roli benixoya edi.

O‘sha kunlarda ichki bozorni himoya qilish, xalqni oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlash bo‘yicha jiddiy choralar ko‘rildi. Bu chora-tadbirlarning hammasi axolining, birinchidan bozor munosabatlariga o‘tishlarida o‘zlarini o‘nglab olishlari uchun, ikkinchidan esa, eng muhimi, bozor munosabatlariga ularning aktiv kirib borishlari uchun yaratilgan shart-sharoit edi. «Yotib yeganga tog‘ ham chidamas» deydi dono xalqimiz. Axoli qanday shart-sharoitda yashamasin, agar u qaysi bir darajada ishlab chiqarishda ishtirok etmasa, uni uzok vaqt hech kim ochlik va muhtojlikdan kutqara olmaydi. Chet el sadaqasiga, yordamiga umidvor bo‘lib, unga ko‘z tikib yotish, tayyor narsa va xodisalarnigina pullab kun kechirishga moslashish halokatning alomatidir.

Bozor iqgisodi ko‘pchilik o‘ylaganicha oddiy bir narsa emas. U murakkab va ko‘p qirrali iktisod, uning belgilarini birin-ketin shakllantirish mumkin. Bozor iqtisodiga o‘tishni sun’iy ravishda sharoitni xisobga olmay jadallashtirish ham unga o‘tishni paysalga solib, orqaga surish ham o‘rinsizdir. Bizning buyuk kelajagimiz bozor iktisodiga o‘tish bilan bog‘liq kechdi va kechmokda. Bas shunday ekan, sharoit yetilishiga qarab bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich va izchillik bilan o‘tib borishimiz turgan gal edi.

Iktisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyot mafkuradan xoli bo‘lishi keraqligi, davlatning bosh islohotchiligi, qonunga itoatkorlik, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish tom mazmuni bilan milliy istiqlol falsafamizning shunday o‘q tomiriki uning yordamida, oxir oqibatda xilma xil murakkab unsurlardan iborat bo‘lgan, jamiyat bir butun organizmga aylanadi. U XX-XX1 asrning noyob intelektual fenomeni sifatida jahon hamjamiyatining iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy auditoriyalarda o‘z o‘rni, o‘z ovozi, o‘z qadri va mavqeiga ega bo‘ldi.

Ammo I.A. Karimov aytganlari singari millat bor ekan, milliy davlat bor ekan uning mustaqilligi va erkinligiga ma’naviyat va urf odatlariga taxdid soladigan, uni o‘z ta’siriga olish, uning ustidan xukmronlik qilish, uning boyligidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishiga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar. Shu ma’noda, xavf-xatarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yangi avlodning o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko‘tarishning ahamiyati beqiyosdir.

Shu bois Prezidentimiz 1993 yili alrel oyida bir guruh yozuvchilar bilan uchrashib, odamlarga shuni anglatish kerakki, bizga berilgan imkoniyat 100 yilda bir marta kelishi mumkin. Asosiy masala shundan iboratki, mustaqillikni saqlab qolishimiz, uni kelajak avlodlarga eson-omon yetkazishimiz, uning kadrini to‘g‘ri tushuntirishimiz lozim. Endi qaddimizni ko‘tarishimiz kerak. Bizning yerimiz, el yurtimiz endi-endi erkin nafas olyapdi. Lekin odamning tabiati shundayki, qiyinchilik, ogirchilik

bilan kelgan narsaiing kadriga yetadi, agar biron narsa yengil yo‘l bilan ko‘lga kiritalsa, uning ahamiyatini tushunmaydi, qadriga yetmaydi. Qiyinchilik bilan, qayta-qayta talofatlar evaziga mana shunday istikbolga erishsa, uni qo‘lda qurol bilan saqlaydi, kerak bo‘lsa jonini fido qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, istiqlolimiz osonlikcha qo‘lga kiritilgani yo‘k. O‘zbekistonning bugun faqat bitta yo‘li bor, u ham bo‘lsa - o‘zining mustaqilligini mustaxkamlab, faqat olga yurishdir. Boshqa yo‘l yo‘q degan edilar. Bu yo‘lda sobit kadam bo‘lishligimiz uchun xalqimiz mustaqillik sharofati bilan qo‘lga kiritilgan bebaho qadriyatlarni chuqur anglashlari uni bilishlari, e’zozlashlari kerak bo‘ladi. Ona tilimizning, azaliy xaq-xukuqlarimizning tiklanganligi, hakiqiy o‘zbekona urf-odatlarimizning hayotdan o‘z o‘rnini olayotganligi, qadriyatlarimizning o‘z o‘rnini topayotganligi, dinning yuksak madaniyat, ma’naviyat shaklida tiklanishi, rivojlanishimizda madad berayotganligi - bebaxo kuchdir.
Biz mamlakatimizda yashyotgan 120 dan ortiq millat vakillarining bir-biri bilan jipslashib, bir-biriga mehrli, oqibatli bo‘lib borayotganligi, kelajakka ishonch bilan qarab, tinch totuv yashayotganligi, mehnat qilayotganligi, vatan, vatandoshlik tuyg‘usi eski mafkuraviy qobiqlaridan xalos bo‘lib, o‘zning asl qiyofasini topayotganligi, tabiiy boyliklarimiz biz uchun ishlayotganligi, endi u. boyliklardan tejab-tergab, omilkorlik bilan kelajak uchun foydalanish kerak ekanligini anglab tu.rmu!i tarzimizga aylantirishmiz kerak, degan falsafa tobora chuqurlashib bordi. Mafkuraviy ishlarimizning bosh vazifalaridan biri mustaqillik qadrini, o‘zligimizni anglash turmush tarzimizga aylanishini ta’minlashdan iborat bo‘lib bordi.

Milliy istiqlol falsafasi evolyutsiyasida I. A. Karimovning "O‘zbekistoning o‘z istiqlol va taraqqnyot yo‘li" risolasida ko‘rsatilgan, xuquqiy-demokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyat qurish g‘oyasining yaratilganligi muhim o‘rin egallaydi.

Mustaqil turmushiniz mohiyatidan kelib chiqadigan qonuniy, demokratik davlatchilikka asoslalgan adolatli jamiyat ham ijtimoiy-siyosiy, ham falsafiy-badiiy ideal-istiqbol bo‘lmog‘i kerak. Mazkur idealning mazmuni, uni tamoyillar, tizimlarining takomili qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan adolatli jamiyatni karor toptirish jarayonini ifodalamog‘i va unga xizmat qilmog‘i lozim. Mustaqildikni mustahkamlash jarayonida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy ideali bo‘lgan jamiyatda, davlatchilik shu darajada rivojlanadiki qonunchilik shu qadar mustahkamlanadiki, natijada davlat har bir fuqaroda, har bir fuqaro esa davlatda mavjud bo‘ladi.

Qonunga itoat qilish, uni bajarish, unga bo‘lgan xurmat respublika har bir fuqarosining kundalik hayot tarziga, refleksiga aylanib qoladi. Shuning uchun istiqlol falsafasining birinchi jihatini ijtimoiy hayotda qonunning ustuvorligini ta’minlash tashkil qilmog‘i kerak, degan fikr tashkil etadi.

Boy, hajm va mazmunga ega bo‘lgan rivojlanish va taraqqiyot falsafasi o‘z-o‘zidan qaror topmaydi. Bunda qonunchilikni yanada kuchaytirish, ijtimoiy intizomni keng ko‘lamda tezroq qaror toptirish va uni kundalik hayot intizomiga aylantirish muhim ahamiyatga egadir. El yaxshiligi, tinchligi, erkinligi uchun talab qilinadigan har qanday intizom choralari (ba’zan tartibbuzarlarga nisbatan zo‘rlik ishlatish ham o‘zini oqlagan va idealga yetishish uchun xizmat qilgan.

Rivojlanish va taraqqiyot falsafasining muhim jihati va asosini iqtisodiyot falsafasi tashkil etadi. Adbatta, bu - ko‘pchilik mutaxassislar hamkorligida, respublikamizning milliy, geografik, iqtisodiy xususiyatlarini, iqtisodiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchlarning iqtisodiy istiqbollarini hisobga olgan holda, batafsil ko‘rib chiqiladigan katta masaladir. Ayii vaqtda ishlashi kerak bo‘lgan rivojlanish va taraqkiyot falsafasining muhim jihatini, real harakterini belgilashda iqtisodiy nazariyaning roli benihoya kattadir. Unda aholining iqtisodiy turmush darajasi, hayot tarzining sifat ko‘rsatkichlari muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda mustaqillikka erishgunga qadar mulkning barcha ko‘rinishi davlat ixtiyorida bo‘lib, to‘g‘rirog‘i, davlat yagona mulk egasi edi. Mafkura ham shu mulk munosabatlaridan kelib chiqqan xolda unga xizmat qilar edi. Bugun mamlakatimiz o‘z boshidan o‘tish davrini kechirmokda. Mulkning asosiy qismi hozir ham davlat ixtiyoridadir. Lekin mulkchilikning xilma-xil shakllari asta-sekinlik bilan iqtisodiy munosabatlarga kirib kelmokda.

Endi ijtimoiy-siyosiy idealga erishish uchun biz qanday iqgisodiy nazariga asoslanmog‘imiz kerak? Albatta, demokratik davlatda fukaro qaysi bir shakl va hajmda bo‘lmasin u mulkka egalikka

aloqador bo'lmog'i, uning faoliyati va mavjudligi qonun bilan muhofaza qilinmog'i lozim. Nazariya shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda AQSH yoki Yevropa mamlakatlariga xos bozor munosabatlarining qaror topishiga ancha bor. Uzok yillar davomida yoppasiga ijtimoiylashgan mulk hukmron bo'dgan davlatda yoppasiga xususiylikka aloqadar bo'lgan mulkchilikni karor toptirish ancha-muncha kiyin. Shu boisdan falsafamizning iqtisodiy asosini bizningcha, birinchidan, davlat va xususiylikka aloqador mulk shakllarining bab-baravar rivojlanishini ta'minlash, ikkinchidan esa, xususiylikka alokador bo'lgan shakllarning ixtisoslashuvi. integratsiya va kooperatsiyasiga keng yo'l ochib berish, axolining mulkka nisbatan begonalashuviga to'liq barhan berishga erishish, tadbirkorlarga keng imkoniyat yaratib beruvchi iqtisodiy munosabatlar dinamikasini qaror toptirish qonunlari tashkil kilmog'i kerak.

Iqtisodiy nazariyani ishlab chiqishda, albatta mustaqil Respublikamizning muammolari, shart-sharoitlaridan kelib chiqildi. Ayni vaqtda mamalakatimiz har bir iqtisodiy taraqqiyot bosqichining muammolari va talablarining yechimini umumiy ijtimoiy-siyosiy maksadga bo'ysindirgan holda amalga oshirishga harakat kilindi. Chunki, qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan jamiyatda xal qiluvchi vazifani davlat va mo'tadil kooperatsiya harakteriga ega bo'lgan xususiy mulkchilikning ustunligi tashkil qiladi. Mulkchilikning bu ikki sohasida mehnat qilayotganlar ongiga vatan boyligi, kudratini ko'tarish, uning yeri, suvi va xavosi musaffoligini ta'minlash bobidagi javobgarlik xissiyoti, katta harf bilan yozilgan - Vatanparvarlik ona suti bilan kirmog'i lozim.

Mazkur talablar milliy istiqlol falsafasining yadrosi bo'lgan milliy istiqlol g'oyasining o'zagini -ozod va obod Vatan farovon hayotni barpo etishning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Ma'lumki, mafkura - iljimoiy-tarixiy hodisa. U ma'lum bir ijtimoiy guruh, sinf, millat, davlat, jamiyat manfaatini ifodalovchi va ximoya qiduvchi siyosiy, huquqiy, falsafiy, ahlokiy, badiiy va diniy g'oyalar qarashlar tizimidir. O'zbekistonning milliy istiqlol falsafasi vatanimiz o'z taraqqiyot yo'lining besh qoidasiga, vatanparvarlik va insonparvarlik dunyoqarashiga asoslangan, qonuniy-demokratik davlatchilik negizida adolat jamiyatning qaror toptirishda elni jipslantiruvchi, uyushtiruvchi nazariy vosita va ma'naviy omillar.

Mustakil O'zbekistonda birorta sinf, ijtimoiy guruh emas, balki xalq davlat xokimiyatining birdan-bir manbai va egasidir. Unda davlat xokimiyati xalq manfaatini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul kilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Jamiyatning biron bir siyosiy partiya, jamoat byrlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas, xamda yukorida aytilgani singari hech kaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

Respublika Konstitutsiyasining bu kaydlari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Demak, Uzbekmstonda sotsializmdagidek yagona bir ishchilar sinfi, uning siyosiy aqli bo'lgan bolsheviklar partiyasi mafkurasi emas, balki millatidan. ijtimoiy guruxga bo'lgan muiosabatidan kati nazar, jami fukarolarni o'zida mujassamlashtirgan O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini ifodalaydigan mafkura umummillat mafkurasi bo'lmog'i lozim.

Albatta, ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratiyalashuvi jarayonida turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiyalar, tashkilotlar mavjud bo'ladi va yana yangilari vujudga kelaveradi. Ular o'z siyosiy dasturlarini ishlab chiqadilar. Masala ana shu xilma-xillikka ega bo'lgan siyosiy partiyalarning mafkuraviy platformalarini yagona milliy falsafa konsensusiga olib kelinishida va O'zbekistonda qonuniy-demokratik davlatchilikka asoslangan adolat jamiyatini barpo qilishda, undan keng foydalanishdadir.

Yagona davlat mafkurasining asosini Vatan tuyg'usi tashkil qiladi. Vatan uy, ko'cha, shaxar, qishloq, daryo, tog' kabilarning jamidan iborat bo'lgan geografik yoki matematik tushuncha emas. Balki u ana shu uyni uy qilgan ota-ona, opa-singil, ko'chani ko'cha, mahallani mahalla kilgan qadrdon insonlar, ularning shu uyga, ko'chaga, mahallaga bo'lgan mehr-oqibati, ularning bir-birlarini qadrlashlaridan boshlanadigan tabiiy-ijtimoiy tushunchadir. Uning mazmuni, mohiyati, kadri, Vatanni bilish jarayonida kengayib, chuqurlashib, ortib boraverdi.

Mafkurada muhim o'rinni milliy iftixor egallaydi. Milliy iftixor va Vatanparvarlik bir-birini to'ldiruvchi qadriyatlardir. Vatanparvarlikda o'zi tug'ilib o'sgan va ajdodlar kindik koni to'kilgan

o‘lkaga bo‘lgan mehr-oqibat ifodalansa, milliy iftixorda shu o‘lkani o‘lka qilgan, uning kadriyatlarini bunyod etgan xalqqa ta’zim, o‘zini shu elning bir qismi, deb g‘urur bilan his etish ifodalanadi.

Bizning milliy istiqlol mafkuramiz milliy iftixor, vatanparvarlikni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Chunki u davlatimizning barcha fuqarolarini ulug maqsad yo‘lida yurakdan birlashtirish vazifasini ado etadi.

Milliy istiqlol falsafasi takomilida, milliy istiqlol g‘oyasining yaratilishida Prezidentimizning 1993 yilning bahorida yozuvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvi katga ahamiyatga ega bo‘ldi: "Biz maxalliychilikka, guruxbozlikka chek qo‘yishimiz zarur. Bunday narsa va hodisalarni oramizdan ko‘tarib tashlash kerak. Bu ishimizga halaqit beradi. Dunyoda o‘zbek millati bitta. U xorazmlikmi, fargonalikmi, surxondaryolikmi farqi yo‘q - o‘zbekdir", - deb kuyunib galirgan edilar.

Milliy istiqlolni mustaxkamlashning muhim to‘siqlardan biri ana shu mahalliychilikdir. Bu feodal yer egaligi, hokimligi, qaramligi, manfaatidan meros qolgan psixologiya. Buni harakatga keltiruvchi narsa, albatta, iktisodiy-siyosiy manfaatlardir. Bundan maqsad biron amalni egallab olish, uni saqlab qolish, mol-dunyo orttirishdir. Bu ijtimoiy g‘ovni tafakkurni o‘zgartirish bilan, iktisodiy yo‘l bilan, fuqarolarning iqtisodiy manfaatdorligini xilma-xil vositalar orqali kengaytirish, bozor munosabatlarining keng imkoniyatlaridan foydalanish va ijtimoiy, siyosiy yo‘llar bilan olib tashlash mumkin. Millatda umumiy iqtisodiy manfaatdorlik psixologiyasi shakllangandagina, butun mamlakatda yashayotgan barcha millat, elat vakillari bir tuyg‘u bilan yashaydi. Albatga bir millat tuyg‘usi bilan yashash, respublikada yashayotgan barcha rus, qozok, tatar, koreyslar va boshqa yuzdan ortiq xalq va etnografik gruppa vakillarining o‘zbek bo‘lib qolishi degani emas. Mazkur jarayonda xar bir xalq uzoq asrlar davomida o‘zligini saqlab qoladi. Ularning til xilma-xilligi, urf-odat rang-barangligi saqlanib qoladi. Lekin ulardagi siyosiy tabiatga ega bo‘lgan millatchilik tarixiy sahnadan ketadi. Umum iqtisodiy manfaat, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, uni yaratishga intilish, farovonlik umummilliy iftixor tuyg‘usini kasb etadi. Ayni vaqtda turli millatlarga xos bo‘lgan etnografik xilma-xillik turmushimizni rang-barang qiladi, hayot go‘zalligining taftini oshiradi.

Biz milliy iftixor haqida galirganimizda xalqimizning ko‘hna tarixsh-ga mukammal o‘rganishimiz va undan bugungi kun uchun zarur bo‘lgan barcha saboqlarni olmog‘imiz zarur ekanligini alohida qayd qilmog‘imiz zarur. Xalqimoning-azaliy an’analari, urf odatlarini tiklamog‘imiz, uni xozirgi, zamon-mazmuni bilan boyitmog‘imiz zarur. Lekin bugun bizning oldimizda turgan bosh masala mustaqillikni mustaxkamlash, taraqqistning eng qulay yo‘liga tayanib, qisqa vakt ichida jahonning eng ilg‘or mamlakatlari qatoriga o‘tib olishdir. Til ham, yozuv ham, imlo ham, atamalar ham, qadriyatlar, din ham shu maqsad uchun ishlamog‘i kerak. Qaysi bir tildan kirib kelgan, qaysi bir davrda axoqning juda tor qismi uchungina tushunarli bo‘lgan atamalar bilan hozirgi zamon o‘zbek tilini to‘latish, uning belim sindirish, o‘zligimizni bilish uchun qilinayotgan harakat emas. Aksincha, bu bizni taraqqiyotdan chetlatish, o‘rta asrlar qorong‘uligi tomon yetaqlashdan boshqa hech narsa emas.

Vatanparvarlik tushunchasi, birinchi galda bizni o‘zaro birlashtirib turgan O‘zbekistonlik deb atalmish umumiy bitkga ijtimoiy-siyosiy birlikdan kelib chiqmog‘i kerak. O‘zbekiston ruslar, kozoqlar, koreyslar uchun ham "o‘lsam ayrilmayman quchoqlaringdan", deb ataluvchi ma’naviy qadriyat bo‘lishi kerak. Uning sha’ni, obro‘si, qadri-qimmati unda yashayotgan qar bir millat vakilining sha’ni, obro‘si, kadri-qimmati bo‘lishi kerak.

Inson kadr-qimmati bilan tirik. U qorni uchun yig‘lamaydi, balki qadri uchun yig‘laydi, dard chekadi. Respublikada yashayotgan har bir fuqaro shu mamlakat kadrining bir misqoli. Shu misqollarni ulug‘lash orqali Vatanimiz qadri ulug‘lanadi. Nazarimda, ana shu qarashlarni biz ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha bo‘ladimi, aniq, mutaxasislikka oid fanlar bo‘yicha bo‘ladimi, o‘tiladigan darslar uchrashuv, suxbatlarda, turli ma’rifiy-madaniy tadbirlar orqali yoshlarimiz ongiga singdirmog‘imiz zarur. Bu mustaqillik falsafasining yetakchi jihatlari hisoblanadi deb o‘ylayman.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari:**

1. Mustaqillik borlig‘i nima?

34. **Madaniyat** - inson ma’naviy faoliyatining hosilasi, ma’naviyatning moddiy voqelikdagi izlari. Boshqacha qilib aytganda, ma’naviyat botiniy imkon bo‘lsa, madaniyat - ushbu imkondan tug‘ilgan voqe’ mavjudlik. Shaxs va millat ma’naviyatining nazariy masalalarini o‘rganish uchun ilojsiz ravishda ayni shu voqe’ mavjudlik dalillaridan kelib chiqishga to‘g‘ri keladi Ma’naviyat sohasiga aloqador barcha fanlarning mavzulari ham aslida ana shu mavjud voqe’lik dalillariga tayangan holda ishlab chiqilishi tabiiy holdir.

35. **Madaniyatshunoslik** (Kulturologiya) - Ma’naviyat sohasiga aloqador yo‘nalishdagi asosiy fanlardan bo‘lib, jahon va mintaqa madaniyatlarini inson ma’naviy faoliyatining hosilasi bo‘lmish mavjud voqe’lik sifatida olib o‘rganish ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil etadi.
36. **Ruhiyat** – bir tomondan, insonning moddiy tabiati bilan (shahvat, nafs, jahl-g‘azab, qo‘rquv), ikkinchi tomondan, ma’naviyat olami bilan (imon-e’tiqod, mehr, mas’uliyat, iroda, ilm) tutashgan murakkab voqelik bo‘lib, “Ruhshunoslik” fani inson ruhiy olamini ayni shu ziddiyatli murakkablik holatida olib o‘rganadi.
37. **Ruhshunoslik** (Psixologiya) - Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo‘lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) **i**nson va jamiyatning turli ruhiy holatlari va ulardagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir. Bu fan, bir tomondan, juda qadim, ikkinchi tarafdan, nisbatan yosh fan. Uzoq vaqtgacha falsafiy fanlar sohasiga oid hisoblangan psixologiya fanida hozirgi zamonga kelib ruhiyatni insonning moddiy borlig‘i, undagi fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq ravishda (ya’ni eksperimental - zohiriy tajribalar asosida) o‘rganish yetakchi o‘ringa ko‘tarildi. Yevropa psixologik maktablari o‘z tadqiq mavzularini inson jismi, moddiy mohiyat bilan bog‘liq holda o‘rganishadi. Uning tibbiyot fanlari bilan bevosita bog‘liqligi ham shu sabablidir. Ammo inson ruhiyatini faqat uning sezish a’zolari va miya faoliyati bilangina bog‘lab tushuntirishga urinish, ya’ni sof materialistik yondoshuv, bizning nazarimizda, bugungi kun ilmi uchun yetarli emas. Bu sohada milliy ma’naviy merosimiz an’analariga ham murojaat etish maqsadga muvofiq..
38. **Nafs** – milliy ma’naviyatimiz an’analariga binoan inson ruhiyatida moddiy olam ne’matlariga moyillikni ifodalovchi timsol-tushuncha. Tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan va uning turli darajalari belgilangan.
39. **Jon** – biologik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun xos bo‘lgan tiriklik va erkin harakatga qobillikni anglatuvchi timsol-tushuncha.
40. **Ruh** – ilohiy kitob (Qur’oni karim) oyatlari mazmuniga binoan Alloh tomonidan faqat insonga in’om etilgan alohida g‘aybiy quvvat bo‘lib, bani odamning ma’naviy kamolot kasb etish imkoniyatining asosidir[1][1].
41. **Nafsi ammora** – insonni tamomila o‘z jiloviga olgan, harqanday og‘ir gunohlarga boshlovchi tarbiyaga bo‘ysunmagan, o‘jar nafs. Qur’oni karimning “Yusuf” surasida eslanadi.
42. **Nafsi lavvoma –** gunoh ishlarga yo‘l qo‘yganda vijdoni qiynala boshlagan, o‘z xatolaridan afsuslanish hissi paydo bo‘lgan inson nafsining holati. Qur’oni karimning “Qiyomat” surasida eslanadi.
43. **Nafsi mutma’inna –** Sokin muvozanatga erishgan, xotirjam, gunohlardan tiyilgan nafs. Qur’oni karimning “al-Fajr” surasida eslanadi.
44. **Nafsi mulhama –** ilhomlangan nafs, nafs tarbiyasining bu darajasiga erishgan insonlar o‘zgalarga beminnat yordam ko‘rsatishga moyil bo‘ladilar, savob uchun vaqtini, molini, mehnatini ayamaydilar.
45. **Nafsi marziya –** rozi bo‘lgan nafs, Alloh taqdir etgan yaxshi-yomon ishlarga sabr qiluvchi,turmush og‘irliklariga bardoshli, odamlarning noo‘rin munosabatlaridan xafa bo‘lib, gina qilmaydigan insonlar nafsi.
46. **Nafsi sofiya –** dunyo orzu-havaslaridan, obro‘-e’tiborga intilish tamoyillaridan butkul forig‘lik darajasiga erishgan nafs, oriflik maqomiga yetishgan piri murshidlar, valiylar nafsi.
47. **Nafsi komila –** payg‘ambarlar nafsi, oddiy kishilar nafs tarbiyasi bilan bu darajaga yetishi qiyin, ammo komil nafs egasi bo‘lishga intilish ma’naviyat nishonasidir[2][2].

48. **“O‘simlik ruhi”** – milliy ma’naviyatimiz an’analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha biologik mavjudotlar (nabotot, ya’ni o‘simliklar, hayvonot va insonlar) uchun umumiy bo‘lgan oziqlanish va o‘sish xususiyati, “quyi olamdan” (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasi asosida).
49. **“Hayvon ruhi”** – milliy ma’naviyatimiz an’analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, tirik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun umumiy bo‘lgan erkin harakatlanish va nafs (ya’ni, moddiy mayllar)ga ega bo‘lish xususiyati, “quyi olamdan” (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasi asosida).
50. **“Inson ruhi”** - milliy ma’naviyatimiz an’analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha inson zoti uchun umumiy bo‘lgan tafakkur (fikrlash, aql ishlata bilish) va nutq (fikrini erkin bayon eta bilish) xususiyati, (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasi asosida).
51. **“Muqaddas ruh”** – milliy ma’naviyatimiz an’analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, haqiqiy imon egalari, payg‘ambarlar va valiylar (orif insonlar) ruhiyatiga aloqador g‘ayb olami bilan tutashlikni anglatuvchi atama, “yuqori olamdan” (Azizuddin Nasafiyning “Zubdatul haqoyiq” risolasida “osmoniy farishtalar jinsidan” deb ta’riflanadi).
52. **Axloq** - har bir shaxs ma’naviyatining uning xulqida, o‘zga insonlarga munosabatida aks etishi, yuzaga chiqishi. Ma’naviyat va siyosat sohalarining kesishuvida namoyon bo‘ladi.
53. **Axloqiy fazilatlar** – shaxs ma’naviyati turli qirralarining inson amaliy faoliyatida doimiy asosda namoyon bo‘lishi, inson qalbidagi ma’naviyat nurining jilolari.
54. **Axloqiy qusurlar** - insonning ko‘ngil ko‘zgusidagi zang va chirklarning o‘zgalar nigohiga namoyon bo‘lishi.
55. **Axloqshunoslik** (Etika) - Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo‘lib, inson xulqi, uning axloqiy fazilatlari va qusurlarining xolis tahlili bu fanning asosiy mavzusi (predmetini) tashkil etadi.
56. **Adolat tarozusi** – ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan timsol-tushuncha bo‘lib, har bir zamon va makonda o‘ziga xos ko‘rsatkichlarni namoyon etadi va har bir insonning barcha fazilat va nuqsonlarini, iste’dod va kamchiliklarini aniq "vaznini" belgilab, o‘shanga yarasha har bir shaxsning ijtimoiy qiymatini o‘lchash va baholashga xizmat qiladi.
57. **Milliy adolat** – o‘z millatiga mehr tuyg‘usi o‘zga millat namoyandasiga nisbatan noxolis yondoshuvga sabab (bahona) bo‘lmasligi.
58. **Diniy adolat** – o‘z e’tiqodiga sodiqlik tufayli o‘zga e’tiqod egasiga noxolis munosabat izhor etmaslik.
59. **Siyosiy adolat** – siyosiy hokimiyatning yagona manbai xalq irodasi deb tan olinishi va Qonun ustivorligi tamoyiliga qat’iy rioya qilinishi.
60. **Ijtimoiy adolat** –barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.
61. **Dehqon -** xususiy yer-mulk egasi bo‘lgan mehnatkash toifa (fermer chorvador, bog‘bon). Ijtimoiy vazifasi: millatning boquvchisi, birlamchi moddiy ne’matlar yetishtiruvchi. Bosh ma’naviy fazilati: tabiatga mehr.
62. **Ziyoli -** ma’naviyat sohasida yetakchi ijtimoiy toifa (san’atkor, olim, muallim), muayyan sohaning oliy toifali mutaxassisi (vrach, muhandis, agronom) Ijtimoiy vazifasi Millat tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, turli sohalarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Bosh ma’naviy fazilati: Borliq haqiqatini anglash va anglatishga intilish. O‘tmishda ahli ilm, darveshlar, ahli hunar shoir va voizlar shu toifaga mansub bo‘lganlar.
63. **Hunarmand-kosib** – xususiy mulk egasi bo‘lgan mehnatkash toifa vakili, qo‘li gul usta. Ijtimoiy vazifasi: sanoat sohasida mustaqil ishlab chiqaruvchi. Bosh ma’naviy fazilati: mahorat. O‘tmishda“ahli futuvva” ayni shulardan bo‘lgan.

64. **Ishchi -** Yollanma mehnat asosida ish bajaruvchi ijtimoiy toifa. Ijtimoiy vazifasi: mijozlarga xizmat ko‘rsatish va mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish. Bosh ma’naviy fazilati: Mehnatkashlik.
65. **Xizmatchi -** yollanma mehnat asosida turli xizmatlar bajaruvchi ijtimoiy toifa Ijtimoiy vazifasi: turli tashkilot va muassasalarda tashkiliy ishlarni amalga oshirish. Bosh ma’naviy fazilati: Hozirjavoblik.
66. **Siyosiy arbob** - davlat va boshqa siyosiy tashkilotlarning mas’ul rahbarlik lavozimidagi asosan, ziyolilar toifasiga mansub guruh vakili. Ijtimoiy vazifasi: siyosiy boshqaruv.orqali mamlakatning siyosiy mustaqilligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash. Bosh ma’naviy fazilati: millat taqdiri oldidagi mas’uliyatni his etish.
67. **Harbiy** mamlakat qurolli kuchlari, ichki ishlar va havfsizlik sohasida xizmat qiluvchilar. Ijtimoiy vazifasi: Millat himoyachisi, tinchlik paytida ham favqulodda holatlarga doimiy jangovar hozirlik saqlash, insonlar hayotiga xavf tug‘diruvchi jinoyatlarning oldini olish. Bosh ma’naviy fazilati: fidoiylik.
68. **Beklar va xonlar** - O‘tmishda hukmron ijtimoiy toifa, zodagonlar. Harbiy ishlar va siyosiy boshqaruv shu toifa vakillari qo‘lida bo‘lgan.
69. **Kanizlar va g‘ulomlar** – O‘tmishda zodagonlar xonadonida barcha qora ishlarni bajaruvchi qaram ijtimoiy toifa. Qadimgi davr qullaridan farqli o‘laroq, islom dunyosida ular muayyan chekli huquqlarga ega bo‘lishgan.
70. **Fuqarolik mas’uliyati** – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish. Ushbu fuqarolik mas’uliyatini to‘liq anglab yetmas ekanmiz, bizning Shaxs sifatidagi ma’naviy kamolotimiz ham tugallik kasb etmaydi.
71. **“Fozil shahar” –** Abu Nasr Forobiy talqinida "Insonlari haqiqiy saodatga erishish yo‘lida bir-biriga yordam berish uchun birlashgan shahar”. Har bir inson Haq oldidagi mas’uliyatini to‘g‘ri anglab, kamolot sari o‘zi intilar ekan, o‘zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko‘makdosh bo‘lishga astoydil urinsa, natijada "fozil shahar" (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi. Ulug‘ allomaning bu qarashlari bugungi kundagi “fuqarolik jamiyati” tushunchasini mukammal ifodalaydi.
72. **Qadr** – Xoliqi olam irodasi va qudrati bilan yaratilgan har bir mavjudotning olamdagi o‘ziga yarasha o‘rni va salmog‘i, har bir insonga yaratilishdan ato etilgan ilohiy ne’mat. Haqiqiy Shaxs darajasiga yetishgan inson o‘z qadrini, shu bilan birga yorug‘ olamdagi barcha ashyo va mavjudotlar qadrini muayyan darajada anglab yetgan, shu asosda jamiyatning faol a’zosiga aylangan inson bo‘ladi. "Men Alloh tomonidan yer yuzida xalifa etib yaratilganman", deb o‘zlikni anglab yetish - o‘z qadrini to‘g‘ri baholashning poydevoridir. O‘z qadrini anglab yetish barobarida har bir inson o‘zga insonlar ham yer yuzida xalifa ekanligiga imon keltirib, ularning ham qadrini o‘zidan kam bilmaydi. **Qadr** timsol-tushunchasi ma’naviyatga oid bo‘lib, uni iqtisod sohasiga tatbiq etilsa, qiymat va bahoga, siyosatda mavqe’ va maqomga aylanadi.
73. **Mavqe** – har bir insonning jamiyatda ishg‘ol etib turgan muayyan o‘rni, qadri va qudrati. Siyosatdagi huquq, burch, imtiyoz hodisalarining tagzaminida ayni shu insonlarning bir-biriga nisbatan mavqe va maqomi masalasi joy olgandir.
74. **Maqom** – har bir insonning jamiyat hayotida rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan muayyan o‘rni, holati. Har bir insonning mavqe’ va maqomi orasidagi farq qancha kuchayib borsa, uning ruhiyatida ham ziddiyat kuchayadi, natijada bu holat jamiyat hayotiga hamsalbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi.
75. **Tadbirkor** – mamlakatda ishlab chiqarish, tijorat va moliya ishlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchi ijtimoiy toifa (sanoatchi, tijoratchi, bankir). Ijtimoiy vazifasi: mamlakatning iqtisodiy rivojini ta’minlash. Bosh ma’naviy fazilati: **Farosat**. O‘tmishda asosan **tijorat ahli** sifatida namoyon bo‘lgan.

76. **Farosat** - voqelikni asliga muvofiq idrok etish, unga to‘g‘ri munosabat hosil qila bilmoqlik, shu bilan birga voqelik talabiga muvofiq tadbir ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta bilishdir. Buning uchun inson, avvalo, o‘z holini to‘g‘ri idrok etishi, ikkinchidan, o‘zgani tushunish, o‘zgalarning ehtiyoji, xohishi, imkoni haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qila bilishi kerak.
77. **Iqtisodiy adolat** – bozor iqtisodi qonuniyatlariga (mulk shakllarini erkin tanlash huquqi, talab va taklif erkinligi, erkin raqobat tamoyillariga) rioya qilish.
78. **Iqtisodiy munosabatlar** - har bir insonning o‘z moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘zga insonlar bilan turli munosabatlarga kirishuvi.
79. **Shaxsning iqtisodiy mustaqillik mas’uliyati** – har bir balog‘at yoshidagi inson o‘zi va o‘z qo‘l ostidagilar moddiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda va halol yo‘l bilan ta’minlash zaruratini to‘g‘ri anglab yetib shunga yarasha harakatda bo‘lishi.Inson - hayvon emas, ammo farishta ham emas. Unga faqat biologik mavjudot deb qarash yetarli bo‘lmasa-da, ammo moddiy mavjudligini ta’minlash ehtiyoji va o‘zidan so‘ng zurriyot qoldirish vazifasi har bir insonda mavjud ekanligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Inson o‘z moddiy mavjudligini umr bo‘yi, uzluksiz ta’minlab borishga majbur, busiz u o‘zga hech qanday vazifani bajara olish imkonini topmaydi.
80. **Qiymat** – har bir narsa-hodisaning iqtisodiy o‘lchovlarda ifodalangan salmog‘i.
81. **Baho** – har bir narsa, hodisaning muayyan zamon va makon o‘zgarishi bilan o‘zgarib turuvchi qiymati.
82. **Ibtidoiy (natural) xo‘jalik** - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir insonning o‘z moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiat bilan bevosita amaliy munosabatlarga kirishib, o‘z aqli, malakasi, mehnati yordamida o‘zi va oilasi uchun rizq topishi.
83. **Bozor iqtisodi** – mulk turlarining xilma-xilligi, erkin talab va taklif asosida o‘zaro mahsulot almashuviga tayanuvchi iqtisod tizim.
84. **Total (yalpi) davlat iqtisodi** - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning tarixiy shakllaridan biri, barcha mulk davlatga qarashli bo‘lib, barcha ishlab chiqarish va taqsimot davlat ixtiyorida bo‘lishi. Bunday tuzumda ilojsiz ravishda total siyosiy va mafkuraviy istibdod (diktatura) mavjud bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanish asta-sekin susayib boradi.
85. **Ibtidoiy bozor iqtisodi** - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir mustaqil xo‘jalikning ibtidoiy ishlab chiqarish vositalariga tayangan holda biror tur yoki yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarib, bozorda uni boshqa mahsulotlarga almashishi.
86. **“Yovvoyi bozor”** - (shartli atama) - ibtidoiy bozor iqtisodi yoki yalpi davlat iqtisodidan rivojlangan bozor iqtisodiga o‘tish davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, hanuz siyosat va ma’naviyatda yetarli yangilanishlar ro‘y bermagan holatda hukmron guruhlarning xudbinlik mayllari avj olishi natijasida shakllanuvchi va ommaviy norozilik va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘luvchi iqtisodiy vaziyat bo‘lib, asosan Yangi davrning boshlarida Yevropada vujudga kelib, bora-bora butun dunyoda mustamlakachilik sistemasining shakllanishiga olib kelgan. Bugungi kunda ham dunyoning ba’zi nuqtalarida ushbu tizimning birqator unsurlari muayyan holatlarda yuzaga chiqishi mumkin.
87. **Rivojlangan bozor iqtisodi** - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, yuqori darajada takomillashgan ishlab chiqarish vositalariga, yuqori texnologiya va ilmiy taraqqiyotga tayangan, siyosatda demokratiya va ongli fuqarolik jamiyati bilan hamqadam taraqqiy etayotgan murakkab ko‘rinishli iqtisodiy tizim.
88. **Bozor iqtisodining asosiy ko‘rsatkichlari** - 1) mulk turlarini erkin tanlash imkoniyati, 2) talab va taklif erkinligi, 3) erkin raqobat imkoniyati, 4) bozorning har uch yo‘nalishi: mahsulot, ishchi kuchi va qimmatli qog‘ozlar bozorining mukammal shakllanganligi

89. **Ilohiy bilim** - faqat Allohga tegishli bo‘lgan cheksiz-chegarasiz, azaliy va abadiy bilim, insonlarga u vahiy sifatida payg‘ambarlar orqali nozil etiladi. Uni inson imon bilan qabul qiladi, rad qilish ham, isbot qilish ham inson qudratida emas.
90. **Insoniy bilimlar** - insonga yaratilishdan berilgan tafakkur va tahlil qobiliyati tufayli hosil qilingan, nisbiy, ya’ni nomukammal va adashuvlardan xoli bo‘lmagan bilim.
91. **Irfoniy bilim** - tasavvufda oriflik darajasiga erishgan sufiylarga ilohiy ilhom orqali beriladigan bilim, ilmi laduniy. Insonlar tilida boshdan-oyoq faqat ramz va ishoralar orqali ifodalanadi.
92. **Naqliy bilimlar** – ilohiy kitoblar orqali yoki turli yo‘llar bilan (asosan, yozma manbalarda) o‘tmish ajdodlardan yetib kelgan bilimlar.
93. **Aqliy bilimlar** - inson o‘z tafakkuri bilan yetishgan bilimlari.
94. **Mantiqiy bilim** - inson o‘zi bilgan narsalarini fikriy qiyoslash va tahlil qilish orqali hosil qilgan bilimlari.
95. **Nazariy bilim** - mantiqiy tafakkur natijasida erishilgan bilim.
96. **Modellashtirish** – Borliq haqiqatini anglab yetish va o‘zgalarga anglatishga urinishning o‘ziga xos yo‘nalishi, muayyan tushunchalar yoki timsollar tizimi vositasida murakkab voqelikni soddalashtirib, yaxlit shaklda ifodalash.
97. **Tafakkur turlari** - Borliq mohiyatini anglab yetishga urinishning turli usullari, asosan tushuncha, tasavvur va timsollarga tayanib olib boriladigan aqliy faoliyat turlari.
98. **Asotir tafakkur** - Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo‘lib, ibtidoiy jamoa, qisman qadimgi dunyo va o‘rta asrlar odamining fikrlash tarziga xosdir. Bu davrlarda aksariyat insonlar g‘ayb olamiga oid narsa-hodisalar va mavhum tushunchalarni moddiy voqelik ashyolaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar, mushriklikning kelib chiqish sababi ham shunda.
99. **Amaliy tafakkur** - muayyan hayotiy tajriba asosida amaliy hulosa qilish.
100. **Mantiqiy tafakkur** - asosiy tafakkur turlaridan, sabab-oqibat bog‘lanishlari asosida fikr yuritish.
101. **Timsoliy tafakkur** - asosiy tafakkur turlaridan, **badiiy tafakkur**ning asosi, o‘z fikrini ramz va timsollar vositasida ifodalash.
102. **Tarixiy tafakkur** - asosiy tafakkur turlaridan, turli manbalar orqali aniqlangan ma’lumotlarga tayanib xulosalar qilish.
103. **Evristik tafakkur** - asosiy tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, ilmiy va badiiy ijod jarayonida tamomila yangicha g‘oyalar, yechimlar, timsol va tasavvurlarning yaxlit shakllanishi.
104. **Irfoniy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, riyozat va ilohiy jazba natijasida hosil qilingan laduniy bilimlarni timsol va ishoralar vositasida ifodalash.
105. **Falsafiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkur asosida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish.
106. **Ilmiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkurga hamda maxsus amaliy tajribalarga tayangan holda muayyan nazariy muammoni hal qilishga urinish.
107. **Riyoziy (matematik) tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, aniq formulalar, chizmalar, tenglamalar, raqamlar nisbati vositasida o‘z fikr va g‘oyalarini ifoda etish.
108. **Estetik tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, muayyan hayotiy hodisalarga go‘zallik va ichki uyg‘unlik talablaridan kelib chiqib munosabatda bo‘lish.
109. **Badiiy tafakkur** – Ko‘proq **timsoliy va evristik tafakkur** asosiga qurilgan murakkab tarkibli tafakkur turlaridan bo‘lib, ijodkorning Borliq haqiqati haqidagi o‘z tasavvurlarini.

hayotiy yoki xayoliy timsollar tizimi vositasida modellashtirishi. Badiiy timsol haqiqatni o'zida to'liq ifodalashga da'vo qilmaydi, faqat unga ishora qiladi.

110. **Nafosatshunoslik –** (Estetika) Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, badiiy tafakkur qonuniyatlari, go'zallikning mohiyati, moddiy borliq va san'atning turli sohalarida shakl va ma'no uyg'unligi masalalari ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti) ni tashkil qiladi.

111. **Axloqiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning amaliy faoliyatini muayyan ma'naviy-axloqiy tartib-qoidalar nuqtai nazaridan baholash.

112. **Siyosiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ijtimoiy hodisalarga muayyan siyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan yondoshish.

113. **Huquqiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning xatti harakatlariga muayyan qonunlar bilan belgilangan huquqiy normalar nuqtai nazaridan yondoshish.

114. **Tavhidiy tafakkur** - Insoniyatga xos barcha tafakkur turlari yagona Borliq haqiqatining turlicha jilolari ekanini anglab yetib, e'tirof etish, o'zgacha fikrlovchi insonni tushunishga intilish, XXI asr odamining fikrlash tarzi.

115. **Jahon madaniyati** - turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat bo'lib, mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat hayotda asli mavjud emas. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida avval muayyan kichik jamoalar doirasida shakllangan madaniyat unsurlari bora-bora kengroq miqyos kasb etib, turli elat va millatlar, mintaqalar madaniyati darajasiga ko'tarilib bordi va nihoyat Yangi davrga kelib yaxlit bir voqelik sifatida idrok etila boshladi.

116. **Umuminsoniy (ma'naviy) qadriyatlar -** ularni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, aslida dastlab har bir millat ma'naviy qadriyatlari o'ziga xos tizim shaklida namoyon bo'ladi, keyinroq har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi davomida asta-sekin shakllantirib borgan bunday tizimlar turli elat va millatlarning o'zaro munosabatlari tufayli bir-birini tushunish, barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarni tadrijiy anglab borish jarayonida asta-sekin umuminsoniy mohiyat kasb etib boradi. Zotan, milliy ma'naviyatimiz zamirini bizni o'zgalardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar tashkil etadi.

117. **Din** –muayyan insonlar guruhining Borliq Haqiqati haqidagi (odatda ilohiy vahiyga asoslangan) tasavvurlari, ularga qat'iy ishonchi, shu ishonchga muvofiq amal qilishga intilishi. Dinning botiniy va zohiriy jihatlari mavjud bo'lib, botiniy jihati imon, zohiriy jihati ibodatlardir. Imon masalasi din va ma'naviyatning umumiy jihati bo'lib, diniy imon ma'naviyatning muayyan jihatiga nisbatan xususiy holdir.

**118.** **Islom dini –** Muhammad(sav) ga vahiy orqali nozil bo'lgan Allohning oxirgi kitobi Qur'oni karimda va Payg'ambarimizdan yetib kelgan sahih hadislarda o'z ifodasini topgan e'tiqod tizimi.

119. **Musulmonchilik –** Allohning borligi va birligi hamda Muhammad(sav) uning oxirgi haq payg'ambari ekanligiga imon keltirgan barcha insonlarning islom dini haqidagi tasavvurlari. Islom madaniyati tarixida islom aqidalarini tushunishdagi turlicha qarashlarning mavjud ekanligi islom va musulmonchilik o'zaro bog'liq bo'lgan turli voqeliklarni anglatishini ko'rsatadi.

120. **Islom ma'naviyati –** Oxirgi va mukammal ilohiy kitob bo'lmish Qur'oni karim mazmunida ifodalangan ma'naviyat tizimi bo'lib, Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuv sari intilishida g'aybiy hidoyat yo'li hisoblanadi. Islom dini va ma'naviyati mohiyatan boshqa-boshqa narsalar emas, ammo insonlar tasavvurida ular farq qilishi mumkin. Masalan, islom dinida qabul qilingan farz ibodatlar va aqidaviy qoidalar boshqa tavhidiy dinlardan farq qiladi, ammo islom ma'naviyatiga ko'ra har bir inson o'z aqidasi va Borliq haqiqati to'g'risidagi tasavvurlaridan qat'i nazar "yer yuzidagi xalifa" sifatida ehtiromga sazovordir.

121. **Dinshunoslik** - Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo‘lib, dunyoda mavjud diniy tizimlar, ularning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish bosqichlari, turli dinlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyatdagi o‘rni bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.

122. **Siyosat va din munosabatlari** - jamiyatda har bir shaxs ma’naviyati orqali dinning s**iyosatga** ta’siri o‘z-o‘zidan mavjud, ammo diniy e’tiqoddan bevosita siyosiy qurol sifatida foydalanishga urinish bugungi kunda nihoyatda xavfli siyosiy avantyurizm bo‘lib, mohiyatan ma’naviyat sohasiga aloqador bo‘lgan imon-e’tiqod masalasiga mutlaqo aloqasi yo‘qdir.

123. **Ilm-fan** – shaklan madaniyat sohasining tarkibiy qismi, naqliy va aqliy bilimlar majmui, mazmunan turli iqtidor egalari ma’naviyatining samarasi sifatida tashkil topgan bo‘lib, aniq va tabiiy fanlar, iqtisod fanlari, ijtimoiy-siyosiy fanlar, texnika fanlari, ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar kabi turli yo‘nalishlar va tizimlardan iborat.

124. **Aniq va tabiiy fanlar -**. insonning moddiy ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan bilimlar majmui, ularni aniq bilish mumkin va kerak, taxminiylik bu yerda taxmin (gipoteza) darajasida qoladi. Ammo bu bilimlar doimo xususiy hodisalarga oid bo‘lib,ular yordamida Borliq haqiqatini yaxlit anglab yetishga urinish befoyda, ularga tayanib moddiy voqelikdan tashqari chiqmoqchi bo‘linsa, tajovuz bo‘ladi, adashuvga olib keladi, g‘ayri ilmga aylanadi.

125. **Ijtimoiy-siyosiy bilimlar** - insonlar aro munosabatlarga oid bilimlar. Bu sohada qoniqarli xulosalarga erishish uchun ham ilohiy, ham irfoniy, ham aqliy, ham naqliy bilimlarga tayanib ish yuritish kerak bo‘ladi. Birortasi hisobga olinmasa, xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli ko‘payadi. Chunki aslida bu sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab yetish uchun mintaqa va millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o‘rganish zarur.

126. **San’at** - Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo‘li, taxayyul o‘yinlari vositasida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish. San’at ma’lum ma’noda insoniyatning bolalik odatidan rivojlanib chiqqan. Bola o‘ynaydi, o‘yin orqali hayotiy ko‘nikmalar hosil qilib boradi. San’at turlari ham o‘ynab turib o‘rgatadi, uning timsollari hayot ibratlaridir. Bolaning o‘yini - beg‘araz. Kattalarning o‘yiniga esa doimo g‘araz xavf solib turadi. Ammo haqiqiy san’atkor o‘z ishiga beg‘araz yondoshsagina, u hayot haqiqatini uyg‘un aks ettira oladi.

127. **Taxayyul** – (qadim Yunon terminologiyasida “imaginatsiya”, ruscha “voobrajeniye”), Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishda asotir tafakkur, falsafiy va badiiy tafakkurning asosiy vositasi bo‘lib, ijodkor shaxsning Borliq haqidagi o‘z tasavvurlarini xayoliy timsollarda modellashtirishini bildiradi. Uning mohiyati taniqli rus olimi Y. Golosovkerning “Logika mifa” kitobida batafsil izohlab berilgan.

128. **O‘yin** – jonli mavjudotlar, (inson va hayvonlar) tabiatiga xos ixtiyoriy harakat tizimi bo‘lib, faol dam olish va hayotiy ehtiyojlarga moslashish usuli. Bola o‘ynaydi, o‘yin orqali bola hayotni o‘rganadi. Sport, adabiyot va san’atning barcha turlariga ham ma’lum darajada ana shu tamoyil xos bo‘lib, inson zoti ular orqali “o‘ynab turib” jismoniy va ma’naviy kamol topib boradi.

129. **San’atshunoslik** – San’atning turli yo‘nalishlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, bugungi kunda musiqashunoslik, teatrshunoslik, kinoshunoslik, kabi turli yo‘nalishlarga tarmoqlanib ketgan. Borliq haqiqatini turli badiiy tasvir vositalari asosida modellashtirishning o‘ziga xos yo‘llarini o‘rganishi jihatidan ma’naviyat sohasiga aloqador fanlardan hisoblanadi.

130. **Badiiy adabiyot** – san’atning bir turi, inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashtirishga intiluvchi asosiy vositalardan bo‘lib, milliy ma’naviyatmiz an’analarida ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra Borliq haqiqatining botiniy sirlarini zohiriy timsollar vositasida majoziy ifodalash qudratiga ega.

131. **Adabiyotshunoslik** - Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo‘lib, badiiy adabiyotni Borliq haqiqatini badiiy timsollar asosida modellashtiruvchi so‘z san’ati

sifatida o‘rganadi., Jahon va milliy adabiyotlar tarixi, adabiy tanqid va adabiyotning nazariy masalalari bu fanning asosiy mavzulari (predmeti)ni tashkil etadi.

132. **Jamiyatshunoslik** (Sotsiologiya) - Insonlar jamiyatini sinxronik kesimda o‘rganadi Turli ijtimoiy toifalar va tuzilmalar holatidagi o‘zgarishlar va ularning sabab-oqibatlarini xolis tahlil qilish bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) bo‘lib, ma’lum darajada ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub deyish mumkin

133. **Tarix(shunoslik)** - Insonlar jamiyatini diaxronik kesimda o‘rganadi - Jahon va turli o‘lkalar tarixi, umumbashariy, turli mintaqalar va elatlarga xos siyosiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot qonuniyatlari bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi. Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi

134. **Sinxroniya** – muayyan bir zamonga xos masalalarni yaxlit tizimda olib qarash.

135. **Diaxroniya** - muayyan bir masalalar tizimini tarixiy izchillikda olib qarash.

136. **Xalq ijodi –** Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo‘li bo‘lib, ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi 1) **xalq badiiy ijodi,** mumtoz san’at namunalaridan muayyan jihatlariga ko‘ra farq qiladi, masalan, xalq ijodi namunalarida an’anaviylik, ijod va ijro yaxlitligi, so‘z, harakat va musiqa uyg‘unligi yorqin namoyon bo‘ladi, bir asar ustozdan shogirdga o‘tgan sari sayqal topib boradi, ya’ni ijodiy jarayon davomiylik kasb etib, mualliflik yakka bir shaxs doirasidan tashqari chiqadi;.2) **xalq amaliy san’ati**, xalq ijodining bu turida yaratilgan ashyolar bir paytning o‘zida ikki yo‘nalishda – ham amaliy (utilitar), ham estetik vazifa bajarishi bilan sof san’at asarlaridan farqlanadi.

137. **Marosimlar** – Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo‘li, ular ikki turli bo‘ladi: 1)**asotir marosimlar** (mifologik rituallar), ular insoniyatning ibtidoiy tafakkuriga xos bo‘lib, muayyan narsa-hodisalar va xatti-harakatlarning inson va tabiat hayotiga sirli ta’siri bor, degan aqidaga tayanadi. 2) **an’anaviy urf-odatlar**, el orasida joriy bo‘lgan rasm-rusumlar, ularning aksariyati muayyan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, shu jihatdan bolalar o‘yini va xalq ijodi namunalariga yondosh turadi.

138. **Elshunoslik** (Etnografiya) - Ma’naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo‘lib, turli xalqlarning urf-odatlari va marosimlari xalq ongidagi asotir tafakkur unsurlari, an’anaviylik va etiket, xalq ijodi turlari va shakllari, urf-odatlar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati kabi masalalar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) hisoblanadi.

139. **Millatlararo totuvlik** – muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi

140. **Diniy bag‘rikenglik** – xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi

141. **Ichki taxdidlar** – o‘z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, xatti-harakatlardir.

142. **Tashqi taxdidlar** – tashqi tahdidlar asosan g‘oyaviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘ladi.

143. **Ekstremizm** – O‘z maqsadi yo‘lida har qanday keskin tadbir-choralar ko‘rishga tarafdorlik.

144. **Hizbut-taxrir** – reaksion ruxdagi diniy-siyosiy tashkilot bo‘lib, arab tilidan “Ozodlik partiyasi” degan ma’noni bildiradi

145. **Mulk** – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarish va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda ifodalanadi. Mulkning ijtimoiy va xususiy shakllari mavjud.

146. **Bozor iqtisodiyoti** – iqtisodiy aloqalarning yig‘indisi bo‘lib o‘z qonunlariga ega, ya’ni: erkin raqobat, ehtiyoj va ishlab chiqarish, talab va takliflarning miqdori va tarkibini bir-biriga muvofiqlashtirish, xususiy mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, mulkka egalik, xo‘jalik yuritish ishlariga faqat iqtisodiy usullar bilan ta’sir ko‘rsatish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish kabi iqtisodiy qonunlarga bo‘ysunadi. Bozor iqtisodi xalqning ijodi

va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlik uchun keng yo‘l ochadi.

147. **Mentalitet** – (lotincha «mens» - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

148. **Demokratiya** – xalq hokimiyati.

149. **Yangi jamiyat** – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat.

150. **An’ana** – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma’naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

151. **Urf-odat** – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar.

152. **Mustaqillik** – 1) Tazyiqdan, nazoratdan xoli bo‘lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy tobe bo‘lmaslik. O‘zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqlol so‘zi bilan yaqin ma’noda qo‘llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi.

153. **Fenomen** – (yun. Phainomenon – yuz beruvchi) – 1) ko‘zga ko‘rinib turgan hol; 2) noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona bo‘lgan inson; 3) hissiy bilish, tajribada berilgan ma’lum bir holni anglatuvchi falsafiy atama; hissiy tajriba yordamida payqaladigan va anglanadigan hodisa, jonli mushohada obyektini bildiradigan tushuncha.

154. **Milliy g‘urur** – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma’naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

155. **Muholifat** – (arabcha «muholafat» - kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo‘lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo‘l, demokratiyaning muhim belgisi. Muholifat uch xil bo‘lishi mumkin: a) parlament doirasida; b) undan tashqarida; yohud v) siyosiy partiyalar ichida.

156. **Ma’rifat** – Ma’rifatning lug‘aviy ma’nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma’rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonidir. Ma’rifat so‘zining ko‘pchilikdagi ma’nosi maorifdir. Ma’rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma’lumotlar majmuasini bildiradi.

157. **E’tiqod** – Dunyoqarash. Biror dinga e’tiqod qilish – uni haq deb bilib, uni ta’limotini tan olish.

158. **Tasavvuf** – islomdagi diniy-falsafiy oqim. 8 asrda arab mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Bu ta’limot o‘sha davrda savdogarlar va kosiblarning manfaatini ko‘zlagan. Tasavvufning asosiy mohiyati inson va uning Xudoga munosabatidir, ya’ni solihning Xudo vasliga yetishishidir.

159. **Komillik** – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Komillikning har bir davrga xos mezonlari mavjud. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg‘ayrat, qo‘rqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o‘ziga xos o‘lchov vositasini o‘taydi.

160. **Qadriyat** – umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy, diniy turlarga bo‘linadi.

161. **Aksiologiya** – (yun. «axio» - qadriyat va «logos» - fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan.
162. **Milliylik** – muayyan xalqqa xos bo‘lgan, uni boshqalardan farqini ko‘rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an’analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo‘ladi.
163. **Ma’naviyat** – (arab. – ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.
164. **Umuminsoniy qadriyat** – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va ma’naviy manfaat, mezonlar majmui.
165. **Milliy qadriyat** – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyat shakli.
166. **Umumbashariy** – butun dune, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo‘lmagan muammolarga aytiladi.
167. **Ozodlik** – barcha demokratik erkinliklarga erishishning, haq-huquqlari kafolatlangan va ta’minlangan jamiyatning bosh sharti.
168. **Obod Vatan** – fuqarolari erkin, ozod, yaratuvchilik faoliyati bilan band bo‘lgan, xavfsizligi ta’minlangan farovon hayot qurish makoni.
169. **Fuqarolik jamiyati** – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohasiga to‘g‘ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko‘lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.
170. **Ehtiyoj** – inson talablari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog‘liq ekanligini ifoda etuvchi holat.
171. **Integratsiya** – milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo‘lishi va, mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-birlariga o‘zaro ta’sir etishi jarayoni.
172. **Vatanparvarlik** – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy fazilat.
173. **Demokratik institutlar** – jamiyatning demokratik tuzumini barpo etishga xizmat qiluvchi omil bo‘lib, unga quyidagilar kiradi. 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar. 2) Yuridik maqomga ega bo‘lgan muxolifat. 3) Mulkchilik instituti.
174. **Sharqona demokratiya** - urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o‘ziga xos demokratiya.
175. **Siyosiy demokratiya** - jamiyat siyosiy tizimini xalqqa yaqinlashtirish, siyosiy adolatsizliklarning oldini olish.
176. **Ijtimoiy demokratiya** - bugungi davr demokratiyani islohotlar jarayoniga aylantirish.
177. **Irqchilik** – odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo‘ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqlariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g‘ayrimilliy ta’limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko‘zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog‘lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko‘st va noraso irqlarga ajratadilar.
178. **Aqidaparastlik** – muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat’iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma’noda qo‘llanib, muayyan olim yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta’sir doirasini sun’iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

179. **Fanatizm** – Biron g‘oyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqur anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

180. **Manqurt** – «Manqurt» o‘z eli, tarixi, qon-qarindoshini, hatto o‘zi tuqqan onasini ham unutgan, o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydigan kishilar va xalqlarning majoziy obrazi. U xalqlarning manqurtlarga aylanishida bosh aybdor davlat va mafkuraga to‘la bo‘ysundirilgan jamiyatdir degan xulosaga keladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida «Manqurt» afsonasidagi shaxs obrazi.

181. **Tafakkur** – (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.

182. **Vatan tuyg‘usi** – Vatan tuyg‘usi bo‘lgan kishidagina vatanparvarlik jo‘sh uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. YA’ni, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi».

183. **Targ‘ibot-tashviqot** – insonni biror xarakatga rag‘batlantirish va kishida biror narsaga shavq uyg‘otishga yo‘naltirish.

184. **Pragmativ** – o‘z amaliy faoliyatida ko‘proq foyda olishni o‘ylaydigan va shunga ko‘proq foyda olishni o‘ylaydigan va shunga ko‘proq ahamiyat berish zarur deb bilguvchi shaxs.

# INFORMATSION-USLUBIY TA’MINOT

### Foydalaniladigan darslik va o’quv qo’llanmalar ro’yhati

### VI. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar:

1. Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izoxli lugati. - T.: Gafur Gulom nashriyoti, 2009 yil.
2. Jumaniyozov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. Monografiya. - T.: Navro'z, 2015.
3. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. 1-2-kitob. T.:Ma’naviyat, 2018.
4. Sobirova M., Xoliqov YE. Etnomadaniyat. -T .: “ Innovatsiya-Ziyo”, 2019.

### Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O’zbekiston, 2018 yil. (tegishli modsalar)
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1 jild. T.:O’zbekiston, 2018 yil. 137-151; 461 -496; 504-538 betlar.
4. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: 2018 y. 136-146; 176-221 betlar.
5. Fromm E. Insonning xozirgi xolati. //Jahon adabiyoti, 2000, mart.
6. Ismailova 3.I. Ta’limiy ish metodikasi. - T.: 2003.
7. Aristotel Poetika, Axloki kabir.M.Maxmudov tarjimasi. - T.:Yangi asr avlodi, 2004
8. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. -T .: Turon-ikbol nashriyoti, 2006.
9. E. Fromm. Zdorovoye obshestvo. - M.: Akt, 2006.
10. Zamonaviy dare. / Mas’ul muxarrir Sh. Shomansurov - T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini kayta tayyorlash va mapakasini oshirish markaziy instituta, 2007.
11. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovasion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-ukituvchilari uchun amapiy tavsiyalar). -T .: “Iste’dod” jamgarmasi, 2009. - 160 b.
12. Alisher Navoiy. Tula asarlar tuplami. 6-jild. Xamsa. “Xayrat ul- abror”. “Farxod va Shirin". - T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011.
13. Kosimov B. Uyg’ongan millat ma’rifati. -T .: “Ma’naviyat”, 2011.
14. Xolikov I., Sobirova M., Masharipova G. "Ma’naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida o’qitish. - T.: TDPU, 2013.
15. Voxidov E. So’z latofati. - T.: “O’zbekiston” , 2014.
16. Starr F. Markaziy Osiyoning yangidan kashf etilishi. “Jaxon adabiyoti” 2014, may.
17. Rtveladze E.Ustozlarning ustozi. “Ma’naviy haot” , 2014 №2
18. Eynshteyn. A.Din va fan. Fan va din. “Tafakkur” 2014-15

### Internet saytlari:

1.http://www.tsil.uz
2 .http://www.norma.uz
3.http://www.gov.uz
4.http://www.lex.uz
5.http://www.lawbook.ru
6.http://www.lawlibrarv.